

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
O'zDJTU QOSHIDAGI UCHTEPA AKADEMIK LITSEYI**

A.ANORBEKOVA, SH.MIRZAYEVA

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

Akademik litseylar uchun ma'ruzalar matni

**«NOSHIR»
Toshkent-2012**

UDK: 811.512.133

KBK 81.2Ўзб

Anorbekova, A.

**N79 Hozirgi O'zbek adabiy tili: Akademik litseylar uchun ma'ruzalar matni/ A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva. – T.: Noshir, 2011. – 316 b.
I. Mirzayeva, Sh.**

UDK: 811.512.133

KBK 81.2Ўзб

T a q r i z c h i l a r:

**A.Hojiyev *f.f.d. akademik*
M.Otajonova *f.f.n.***

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” o'quv qo'llanmasi o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha ta'lif olayotgan abiturient va talabalarga mo'ljallangan. Qo'llanma “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kursining “Fonetika”, “Leksikologiya”, “Morfologiya”, “Sintaksis”, “Punktuatsiya”, “Uslubiyat” kabi bo'limlarni o'z ichiga olgan. Har bir bo'limga oid mavzular atroficha yoritilgan.

ISBN 978-9943-353-43-5

© «NOSHIR» nashriyoti, 2012-y.

TIL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Dunyo tillari

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Respublikamiz fuqarolari turli mamlakatlarda bo'lib, o'rganib-o'rgatib qaytmoqdalar. Agar siz Toshkentdan poyezdga o'tirib, Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo'lingizda qozoq, tatar, boshqird, rus, belorus, fransuz singari tillardagi gaplarni eshitasiz.

Bu jarayonda ularning ayrimlari ona tilingizga qaysi bir jihat bilan yaqin, shu bilan birga nimasi bilandir farqli ekanligi, ayrimlarning esa tamomila boshqa, ona tilimizga o'xshamasligining guvohi bo'lasiz. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh; bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lмаган tillar qarindosh bo'lмаган tillar hisoblanadi.

Taxminiy hisoblarga qaraganda, dunyoda uch mingdan ortiq til bor. Bu tillarning ayrimlarida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishilar gaplashsa, ba'zilaridan bir necha ming kishigina foydalanadi, xolos. Masalan, xitoy tilida hozir bir milliardga yaqin kishi so'zlashsa, chukot (bu til Chukotka yarim orolida) va Vele (bu til Kareliya hududida) tilida atigi bir necha ming kishi muloqotda bo'ladi. Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq aholisi o'z tiliga ega.

Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadilar. Angliya, AQSh, Kanada kabi mamlakatlar fuqarolari, asosan, ingлиз tilida, Ispaniya, Kuba, Chili, Meksika fuqarolari, asosan, ispan tilida so'zlashadilar. Respublikada 22 mln xalq o'zbek tilida so'zlashadi. O'zbek tiliga mansub kishilar Afg'onistonda (1200 ming), Qashqarda (15.000), Saudiya Arabistonida, Turkiya va AQSHda, Germaniya va boshqa yerlarda ham yashashadi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarida o'zbek maktablari bor.

Dunyodagi tillar qanchalik rang-barang bo‘lmasin, ular sanoqli tillar oilasiga birlashadi. Zamonaviy tilshunoslik ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Til oilasi bir bobo til-dan kelib chiqqan hamma tillarni o‘z ichiga olgani uchun, u juda yirik tillar yig‘indisini tashkil etadi. Har bir oila, o‘z navbatida, qarindoshlikning yaqinlik darajasiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajralishi mumkin. Bir oilaga mansub bo‘lgan tillarning so‘zлари, qo‘sishimchalari, gap qurilishi bir-biriga o‘xhash bo‘лади, chunki ular tarixan bir manbadan kelib chiqqandir. Masalan, o‘zbekcha **tur fe’lini** turkmancha **dur fe’liga**, tojikcha **isto so‘zini** ruscha **stoy so‘ziga** qiyoslasak, o‘zbek va turkman tillarining, tojik va rus tillarining o‘zarо yaqin tillar ekanini anglash qiyin emas. Buning sababi shundaki, o‘zbek va turkman tillari Oltoy tillari oilasining turkiy tillar shoxobchasiga (turkiy tillar oilasi nomi bilan ham yuritiladi), tojik va rus tillari esa hind-yevropa tillari oilasiga kiradi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgани kabi, qarindosh tillar ham bir ajdod tilidan kelib chiqqandir.

Jahonda keng tarqalgan til oilalari quyidagilar:

1. **Hind-yevropa tillari oilasi.** Bu oilaga **slavyan guruhi** (belorus, rus, ukrain, chech, slovak, polyak, makedon, serb, xorvat, sloven tillari), **german guruhi** (ingliz, nemis, shved, norveg, dat, island, golland tillari), **roman guruhi** (fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin, moldavan tillari), boltiq guruhi (litva, latish, latgal tillari), **eron guruhi** (fors, afg'on, osetin, kurd, tojik va boshqa tillar), **hind guruhi** (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat kabi tillar) kiradi.

2. **Oltoy tillar oilasi.** Bu oilaga turk, mo‘g‘ul, manchjur, yapon, koreys va boshqa til tarmoqlari kiradi.

Turkiy tillar tarmog‘i esa o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo‘linadi: **o‘g‘uz guruhi** (turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, qrimtatar va bolqon turklari tillari), **qipchoq guruhi** (qo‘miq, qarayim, balkar, tatar, boshqird, no‘g‘ay, qoraqalpoq, qozoq tillari, o‘zbeklarning qipchoq lahjasи), **qarluq-uyg‘ur guruhi** (o‘zbek va yangi uyg‘ur tillari), **uyg‘ur-o‘g‘uz guruhi** (tuva, tofalar, yoqut, xakas, shor, sariq uyg‘ur va boshqa tillar), **qirg‘iz-qipchoq guruhi** (qirg‘iz va oltoy tillari) kiradi.

3. **Fin-ugor tillar oilasi.** Bu oilaga **fin guruhi** (fin, eston, karel, komn ziryan, komi-permyak, udmurd, mariy, mordva va boshqa tillar), **ugor guruhi** (venger, mansiy, xantiy tillari) kiradi.

4. Som-xom tillari oilasi. Bu til oilasiga semit (yoki som) **tillari guruhi** (arab, axnrar, xarari, oysor, ivrit), **qushit tillari guruhi** (galla, somali, saho, seja), **berber tillari guruhi** (kobil, shilx, rif, tamazist), **chad-xom tillari guruhi** (xause, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi va boshqa tillar), **arab guruhi** (qadimgi arab) tillari kiradi.

5. Kavkaz tillari oilasi. Bu til oilasiga **g'arbiy guruh** (abxaz, abazin, adigey, kabardin, ubix tillari), **nax guruhi** (chechen, ingush, batsbiy tillari), **dog'iston guruhi** (avar, dargin, lezgin, lak, karatin, gunzib va boshqa tillar), **janubiy guruh** (megrel, chan, gruzin, karatali, svan, guriy va boshqa tillar) kiradi.

6. Xitoy-tibet tillari oilasi. Bu oilaga tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vyetnam tillari), **tibet - birma guruhi** (tibet, birma tillari) kiradi.

Mazkur til oilalaridan tashqari, dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika kabi til oilalari ham mavjud.

Tillarni oilalarga birlashtirish, har bir oilaning tarmoq, guruh va guruhchalarini aniqlash **tillarning kelib chiqish tasnifi** deb ataladi. Bunday tasnif, ko'pincha, shajara daraxti chizmasi asosida ko'rsatiladi.

Turkiy tillar tarmog'i va o'zbek tili

Hozirgi turkiy tillar tarkibiga O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sharqiy Turkistondagi o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman va uyg'ur tillari; Kavkazdagagi ozarbayjon, qumiq, qorachay-balkar, turuxman, gagauz va no'g'ay kabi tillar; Volgabo'yvi va Uraldagi tatar, boshqird va chuvash tillari; Sibirdagi yoqut (saxa), tuva, to'falar, xakas, kangmaji, shor, chulim tillari; Ukraina, Moldova va Gruziyadagi urum, qrim va qarayim tillari; Turkiya va Bolqondagi turk tili kiradi. Shunday qilib, turkiy tillar oilasi yuzga yaqin jonli tillarni o'z ichiga oladi. Butun dunyoda turkiy tillarda bir necha yuz million kishi gaplashadi. Turkiy tilli aholi Uzoq Sharqdan Markaziy Yevropagacha, Taymir yarimorolidan Bolqon yarimoroligacha tarqalgan.

Turkiy tillar uzoq tarixga ega bo'lган yozuv madaniyatiga ega. Bu tillarga mansub bizgacha yetib kelgan dastlabki yozma yodgorliklar

O'rxun-Enasoy obidalaridir. Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'at it-turk" asarida ham eng qadimgi davrlarga oid juda ko'p adabiy parchalar bor.

Turkiy tillar oilasi qipchoq tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi, qorluq tillari guruhiga bo'linadi. *O'zbek va uyg'ur tillari qorluq guruhiga; qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash* kabi tillar **qipchoq guruhiga; ozarbayjon, turkman, usmonli turk** tillari **o'g'uz guruhiga** kiradi.

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Bu tilda so'zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstraliya mintaqalari-da istiqomat qilishadi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachoy-bolqar, qo'miq, no'g'ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash va boshqalar. Bu tillar hammasi qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan. Demak, hozirgi barcha turkiy tillar uchun qadimgi turkiy til umumiy til(bobo til) sanaladi.

Turkiy tillar agglutinativ tillar sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar ,asosan, o'zakdan keyin qo'shiladi. Masalan: *litsey + dosh + lar + im + ga*.

Hozirgi turkiy tillar so'z boyligi va grammatik qurilishi jihatidan bir-biriga juda yaqin, shuning uchun o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, turk, ozarbayjon, tatar, boshqird, bolkar, qo'miq, no'g'oy millatlariga mansub kishilar so'zlashganda bir-birlarini bemalol tushunadilar.

Turkiy tillar ichida faqat o'zbek tili "o" lovchi til sanaladi, chunki boshqa turkiy tillardagi *at, ana, almaq, bash, bala, qazan* kabi a tovushli so'zlar o'zbek tilida o tovushi bilan (*ot, ona, olmoq, bosh, bola, gozon* shaklida) talaffuz etiladi.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida erkin rivojlanib, o'sib bormoqda.

O‘zbek tilining taraqqiyoti haqida

Har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Bundan o‘zbek xalqi ham mustasno emas.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko‘pchilik olimlar bir necha davrlarga bo‘ladilar. 1. Oltoy davri. 2. Eng qadimgi turk davri. 3. Qadimgi turk davri. 4. O‘rtta turk davri (hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanishi hamda rivojlanishi davri) va boshqalar.

Mutaxassislarning fikricha, turkiy tillar qadimda mo‘g‘ul va tungus-manjur tillari bilan birqalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til oltoy tili deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan.

ESKI TURKIY TIL. Eramizning XI asrlaridan boshlab qorluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va Qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi o‘zlarining davlatlarini tashkil etdi. Qoraxoniylar Sirdaryo havzalari hamda Somoniylarga qarashli bo‘lgan Buxoro va Samarqandlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Qoraxoniylar davlati mayda uyg‘ur qabilalarini hamda Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi turkeron aholisi yashaydigan madaniy yerlarni o‘ziga bo‘ysundirgan holda X asr oxirlarida islom dinini qabul qilib, Markaziy Osiyoning eng madaniy turk davlatiga aylandi.

Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o‘sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatiskasi, dialektal xususiyatlari haqida to‘la ma’lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asardir.

Mahmud Qoshg‘ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o‘rtasidagi umumiyy va farqli jihatlarini aniqlagan holda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik deb nomlanuvchi tilshunoslik yo‘nalishiga asos soldi.

Qorahoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi – bu Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” (“Baxt keltiruvchi bilim”), Ho‘ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” asarlari shu davrning eng buyuk adabiy durdonalaridir.

Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi bar-cha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lgan til sanaladi va shuning uchun bu davr tili ko‘pchilik turkiyshunoslar tomonidan eski turkiy til deb yuritiladi.

Mahmud Koshg‘ariy Chindan tortib to Rumga qadar yashagan turkiy qabilalar haqida shunday deb yozadi:

- Turklar aslida yigirma qabiladir. Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug‘lari bor. Men bulardan asosiylarini – ona urug‘larini yozdim, shaxobchalarini tashladim.

“Devonu lug‘atit-turk”dagi ma‘lumotlarga qaraganda, o‘sha davrda bajanak, qipchoq, o‘g‘uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg‘iz, chigil, tuxsi, yag‘mo, ig‘raq, uyg‘ur kabi turkiy qabilalar umumturkiy abadiy tilni tashkil qilgan. Ulardan “eng yengili - o‘g‘iz, eng to‘g‘risi, yaxshisi – yag‘mo, tuxsi, eng ochiq, ravon til – haqoniy o‘lkasida yashovchilarining tili” ekanligi ta‘kidlangan.

Eski turkiy til eski o‘zbek tilining shakllanishi va rivojida muhim o‘rin tutgan.

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILI. Qoraxoniylar davri adabiy tili o‘zbek tilining shakllanishi uchun ham asos bo‘ldi. Bu davrdagi ikki adabiy til an’anasini sharqiy (qorluq - uyg‘ur) adabiy tili va g‘arbiy (qipchoq – o‘g‘uz) adabiy tili o‘zbek tilining shakllanishida xizmat qildi.

Xususan, g‘arbiy til an’anasida yozilgan Qul Alining “Qissai Yusuf” dostoni (1239 – yil) hamda sharqiy til an’anasida yozilgan Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy (1309 – 1310) asarlari o‘zbek adabiy tili shakllangan davrini ifoda etuvchi badiiy asarlardir. A.Borovkovning e’tirof etishicha, “Tafsir” (XIII asr) tili eski o‘zbek tilining yorqin namunasidir.

“O‘g‘uznama”, “Tafsir” (Qur‘onning so‘zma – so‘z tarjimasi, izohlar, sharhlar, tushuntirishlar), Qutbning “Xusrav va Shirin”, Sayfi Saroyining “Guliston”, Xorazmiyning “Muhabbatnama” asarlari eski o‘zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir.

Arab, fors-tojik tillariga xos bo‘lgan fonetik, leksik va grammatic xususiyatlari eski o‘zbek tiliga ko‘plab o‘zlashadi. Bu davrda o‘zbek qabilalari boshqa qabilalarga nisbatan siyosiy hayotda yetakchilikni o‘z qo‘llariga ola boshladilar.

O‘zbek atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashididdinning

“Mo‘g‘ullar tarixi” asarida atoqli ot ma’nosida tilga olinadi. Jaloliddin Manguberdining qo‘sish bosqliqlaridan biri O‘zbektoy deb atalgan.

O‘zbek degan so‘zning “o‘ziga bek”, “otliq qo‘sish”, “sodda”, “to‘g‘ri”, “insoftli”, “saxiy”, “odamoxun”, “diltortar”, “suyukli” kabi ma’nolari ham mavjud. O‘zbek atamasining unga qadar ishlatalgan turk, sart, chig‘atoy singari atamatlarga nisbatan tilimizda barqaror bo‘lib qolishi Shayboniyxon bosqinchiligidagi o‘zbek urug‘larining Markaziy Osiyoda o‘troqlashuvi, hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishi bilan bog‘liq.

O‘zbek tilining takomillashuvida Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari o‘nlab, yuzlab so‘z ustalari xizmat qilgan bo‘lsalar, Mavlono Alisher Navoiy uning obro‘yini dunyoga tanitdi. Navoiy davri va ungacha bo‘lgan davrda o‘zbek tili, turk lafzi, turkiy til nomi bilan yuritilgan. XVI asrdan o‘zbek urug‘larining nomi butun xalqning nomiga aylanib ketdi. Shuningdek, o‘zbek tili mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng shu yerga egalik qilgan Chig‘atoy nomi bilan, rus bosqini davrida esa ruslar tomonidan sart tili nomi bilan ham yuritilgan.

Eski turkiy tildan ajralib va hozirgi o‘zbek tilining shakllanishi-gacha (XX asr boshlarigacha) bo‘lgan o‘zbek tili eski o‘zbek tili deb nomlanadi.

Demak, eski o‘zbek tili XII-XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha bo‘lgan o‘zbek tili tarixini o‘z ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni o‘zida mujassam etadi.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog‘iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiylarning eski o‘zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta. Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi. U o‘zbek tilini xazina deb bildi. Bu xazinani ilonlar va tikonlar o‘rab turganligini ta’kidladi. Navoiy eski o‘zbek adabiy tilini ana shu “ilon”lardan va “tikon”lardan tozalab berdi.

Eski o‘zbek adabiy tili hozirgi o‘zbek adabiy tilining vujudga kelishida muhim bosqich sanaladi.

Til, boshqa ijtimoiy hodisalar singari, jamiyat bilan birgalikda o‘zgarib, taraqqiy etib boradi. Lekin tildagi o‘zgarishlar o‘ziga xos ayrimliklarga ega. Tildagi o‘zgarish birini yo‘qotish, ikkinchisini yuzaga keltirish yo‘li bilan bo‘lmaydi, balki mavjud qoida-qonunlarni

takomillashtirish yo‘li bilan yuz beradi. Tildagi o‘zgarish tilning ichki taraqqiyot qonunlari asosida to‘xtovsiz o‘zgarib, boyib borishi bilan xarakterlanadi:

1. Eski o‘zbek tilida tushum kelishigi – *g*', – *ig*', – *g*, – *ig* qo‘srimchalari vositasida ham berilgan: *Kun to ‘nug’ quritti.* (*Kun to ‘nni quritdi.*) *Biliklik keraklik so ‘zug so ‘zlayur.* (*Bilimli kerakli so ‘zni so ‘zlaydi.*)
2. Jo‘nalish kelishigi *-ru*, *-karu*, *-qaru*, *-g’aru* qo‘srimchalari orqali ham berilgan: *abru* – uyga, *tabaru* – tomonga, *artqaru* – orqaga, *o‘g’uzg’aru* – o‘g‘uz tomonga, *subungaru* – suving tomonga.
3. Hozirgi tilimizda *meniki*, *Ahmadniki* kabi egalik qo‘srimchalari mavjud. Eski tilda esa *maning turur*, *Ahmadning turur* kabi usul bilan egalik ma’nosi ifodalangan.
4. XV asrgacha eski o‘zbek tilida *-duk*, *-duq* shaklidagi sifatdosh yasovchilar bo‘lgan: *Ochilduk kun. Ishladuki ish* (*Ochilgan kun. Ishlanadigan ish.*)
5. Shart fe’lining *-sa* shakli eski o‘zbek tilida *-sar* shaklida qo‘llangan: *Borsar, kelsar* kabi.
6. *-(i)n* qo‘srimchali vosita kelishigi bo‘lgan (eligin tutdi – qo‘li bilan ushladi).
7. So‘zlarda zamon o‘tishi bilan ba’zi fonetik o‘zgarishlar ham yuz berdi: *uy* so‘zi eski o‘zbek tilida *ev* bo‘lgan. Eski o‘zbek tilidagi *adaq*, *adgu* so‘zлari bugungi tilda *oyoq*, *ezgu* deb aytildi. Eski o‘zbek tilida *o‘g* (ona; fikr, aql ma’nolarida) keng qo‘llangan va undan juda ko‘p yangi so‘zlar yasalgan. Endilikda ba’zi so‘zlarni (o‘git) nazarda tutmasak, *o‘g-o‘grat-o‘rnida-o‘rgatmoq* bo‘lib qoldi va uni o‘zak deb olamiz.

Lekin tildagi so‘zlarning hamda shakllarning ko‘pligiga qiyos etsak, bunday o‘zgarishlar juda sezilarsiz hodisadir. Hatto davrlar o‘tishi bilan, tildan tushib qolgan *ochun*, *osig’* kabi so‘zlar ham ba’zan qo‘llanib, boshqa bir so‘zga nisbatan sinonim bo‘lib turadi: *Shoirning ikki vatani: Biri o‘lka, biri ochun (dunyo).* (E.Vohidov)

Tilning lug‘at tarkibi juda tez o‘zgaradi, tilga ko‘plab so‘zlar kirib keladi. Bunda o‘sha xalq hayotida yuz bergan o‘zgarishlar, fan, texnika, san’at va adabiyotda sodir bo‘ladigan yangiliklar muhim o‘rin tutadi.

O'zbek tilining grammatic qurilishi juda sekinlik bilan, hatto sezilarsiz darajada o'zgaradi, uzoq davrlar o'tishi bilan ayrim shakllar (*-din*, *-on*) ishlatilmay qoladi, ayrimlari silliqlashadi (*shul-shu*, *topg'ay-topgay* kabi). Shu bilan birga, grammatic qurilish yangi qoidalar bilan boyib ham boradi Masalan, ajratilgan bo'laklar, atov gaplar, ko'chirma gap va o'zlashtirma gapning ba'zi ko'rinishlari o'zbek tili gap qurilishida faol qo'llana boshladi.

O'zbek adabiy tili – o'zbek xalqining milliy davlat tilidir. Uning shakllanishida, boyishida va hozirgi taraqqiyot darajasiga ko'tarilishida Alisher Navoiy va Hamza, S.Ayniy, A.Qodiriy, Cho'pon, A.Qahhor, A. Oripov, E. Vohidov kabi ulug' so'z ustalarining xizmati katta bo'ldi. O'zbek tili qoidalarini belgilashda, ayniqsa, yozuv va til ifoda uslubini belgilashda hozir ham yuzlab tilshunoslar ish olib bormoqdalar. O'rta maktablar, litsey, kollejlar va oliy o'quv yurtlari uchun ona tili darsliklari yaratilmoqda.

O'zbek tili eng teran fikrlarni, ilmiy-siyosiy tushunchalarni, eng chuqur his-tuyg'ularni, xilma-xil ma'nolarni bekam-u ko'st ifodalash imkoniyatiga ega.

Umumxalq tili va adabiy til. Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. **Adabiy til** esa ma'lum bir til qoidalari asosida tuzilgan, qayta ishlangan tildir.

Umumxalq tili kengroq hajmda bo'lib, u sheva va lahjalar, kasbhunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, ma'lum toifa (biror ijtimoiy guruh)ga oid so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin bo'lib, til qoidasiga asoslanmaydi. Adabiy til barchaga tushunarli bo'lgan so'zlar, qo'shimcha ibora va gaplardan iborat bo'ladi. Adabiy til qoidalari – me'yorlarini belgilash uchun tilshunos olimlar sheva va lahjalarni o'rganadilar, umumga tushunarli til xususiyatlarni belgilab, an'anaviy adabiy til qonun-qoidalalarini ham hisobga olib, zamonaviy adabiy tilni va uning me'yorlarini belgilaydilar. Adabiy tilda adabiy, ilmiy asarlar yoziladi, bu til matbuot, adabiyot va ilmiy asarlar tili, ma'ruzalar, so'zlashuv tili bo'lib qoladi.

Sheva bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik (ya'ni tovush), leksik (ya'ni so'z) va grammatic (ya'ni qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi.

Shevalarning bir-biriga yaqin bo‘g‘in guruhlari **lahja** deb ataladi.

O‘zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor.

1. **Qarluq lahjası** (janubiy-sharqiy guruh).

2. **Qipchoq lahjası** (shimoliy-g‘arbiy guruh).

3. **O‘g‘uz lahjası** (janubiy-g‘arbiy guruh).

Qarluq lahjası, asosan, shahar shevalarini o‘z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1) so‘z oxiridagi *k* tovushi *y* tarzida aytildi: *elak – elay, terak – teray*;

2) “o” lashish yuz beradi: *aka – oka, nahor – nohor*;

3) bu lahjada qaratqich kelishigining qo‘srimchasi yo‘q bo‘lib, uning o‘rniga ham tushum kelishigi qo‘srimchasi *-ni* ishlataladi: *ukamni(ng) daftari*.

Qipchoq lahjası shevalari O‘zbekistonning hamma viloyatlari-da mayjud, ular, asosan, qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar.

1) “y” o‘rnida “j” ishlataladi: *yo l – jo l, yo q – jo q*.

2) “g” o‘rnida “v” ishlataladi: *tog‘ – tov, sog‘ – Sov* va b.

3) “k”, “q” tushiriladi: *quru(q), sari(q), tiri(k)*.

O‘g‘uz lahjası Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Xazorasp, Qo‘siko‘pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va cho‘ziq aytildi; *at* (hayvon), *aad* (ism)

2) “t” tovushi “d”, “k” esa “g” tarzida aytildi: *tor – dor, ketdi – galdi*;

3) *-ning* qo‘srimchasi *-ing* tarzida, *-ga* qo‘srimchasi esa *-a*, *-na* tarzida aytildi: *akamning – akaming, yorimga – yorima, alina (qo‘liga)*.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun *qarluq lahjasiga* kiradigan *Farg‘ona-Toshkent shevalari* asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg‘ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta’siri bilan asta-sekin zaiflashadi va yo‘qola boradi.

So‘zlashuv tilidagi so‘z va grammatic shakllar barcha shevalarda qo‘llanadigan, lekin adabiy tildan boshqacha tarzda shakllangan birliklardir: *kelسا – kesa*, *bo ‘lsa – bo ‘sa*, *olib kel – opkel*.

Vulgarizmlar tilda mavjud bo‘lgan so‘kish va qarg‘ish so‘zlardir: *haromi*, *qiztalоq*, *yer yutkur*, *oqpadar* va b.

Varvarizmlar tilda o‘rinsiz ishlataladigan chet so‘zlar: *uspet qilolmadim*, *papasha*, *mamasha*, *nastroyeniyem yaxshi*, *znachit*, *tak vau*, *yess* va b.

Tirik va o‘lik tillar. Hozirgi davrda ma’lum bir xalq vakillari uchun muloqot vositasi bo‘lib xizmat qilayotgan tillar *tirik tillar* hisoblanadi: ukrain, ozarbayjon, qirg‘iz tili va b. Hozirgi davrda hech bir xalq uchun muomala vositasi bo‘lib xizmat qilmayotgan, lekin qoldiqlari bizgacha yetib kelgan tillar *o‘lik tillar* deb yuritiladi: lotin, qadimgi hind yoki sanskrit tili, qadimgi slavyan tili, qadimgi xorazmiy tili, qadimgi arab tili, qadimgi fors tili, so‘g‘d tili hozirgi paytda o‘lik tillar hisoblanadi.

Lotin tili qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili sifatida mavjud bo‘lgan. Mazkur imperiya yemirilgandan keyin bu til ham asta-sekin o‘lik tilga aylana borib, hozirgi davrda bu tilning qoldiqlarini ilmiy atamalarda uchratishimiz mumkin. Lotin tili o‘rtta va oliy tibbiyot o‘quv yurtlarida o‘qitiladi.

Qadimgi xorazmiy tili va yozuvi esa eroniylarning sharqiy turkumiga kirgan bo‘lib, qadimgi Xorazm vohasining aholisi shu tilda gaplashgan. Bu til XI asrlargacha muomalada bo‘lgan va keyinchalik iste’moldan chiqqan hamda o‘lik tilga aylangan.

Til va nutq. Til ham, fikr ham hayotning ongimizdagи ko‘rinishi va nutq yordamida boshqalarga ma’lum qilinish vositasidir. Tilni xalq yaratadi, buning uchun u umumxalq dahosi va xususiyatiga ega bo‘ladi; nutq esa ayrim shaxsga oid bo‘ladi. Har kim o‘z qobiliyati, so‘z boyligi, savodi hamda nutq a‘zolariga qarab gap tuzadi. Til – aloqa quroli, u vosita. Nutq esa ana shu aloqa jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning o‘zidek uzoq bo‘ladi. Nutqning umri esa qisqa bo‘ladi. Og‘izdan so‘z yo gap chiqdimi – uchadi-ketadi. Shuning uchun nutq oldiga nihoyatda ulug‘

bir talab qo‘yiladi: o‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir. Navoiy aytganidek: “So‘zingni buyuk etsang, o‘zingga buyuklik keltirasan”.

Tilning xizmat doirasi juda keng, hajmi o‘lchovsiz bo‘ladi. Nutq esa aniq hajmli, shaklli bo‘ladi. Nutq yakka shaxs (monolog) yoki juft shaxslar orasida (dialog) yuz beradi. Nutq she’r, hikoya, roman, qissa kabi ko‘rinishlarda turli janrlarga bo‘linadi.

Tilning qonun-qoidalari uzoq yillar davomida saqlanib qoladi, silliqlashadi va boyib boradi. Nutq esa doim o‘zgarishda bo‘ladi; vaziyatga yo nutq a’zolari faoliyatiga qarab so‘zning tovush tomoni o‘zgaradi. Nutq so‘zlovchining saviyasiga, uslubiga, o‘rin va mav-qeyiga qarab har xil bo‘ladi.

Nutqimiz ikki shaklda bo‘ladi: **og‘zaki va yozma**. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq **og‘zaki nutq**, harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq **esa yozma nutq** sanaladi.

Og‘zaki nutq o‘zaro muomala tilidir, undan o‘zaro suhbatlarda, ma’ruzalarda, radio hamda televideniyeda, uy-oila muomallasida foy-dalaniladi.

Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so‘zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz. So‘zlash va yozish orqali ma’lum fikr bayon qilishimiz **nutq** hisoblanadi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining mundarijasi

Bo‘limlar	O‘rganish obyekti
Fonetika	Nutq tovushlari, ularning akustik va talaffuz xususiyatlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiya kabi masalalarni o‘rganadi.
Fonologiya	Nutq tovushlarining funksional tomoni – ma’no farqlash vazifasi: fonema, ularning tasnifi, fonemalar o‘rtasidagi munosabat o‘rganiladi.
Orfoepiya	Nutq birliklarining talaffuz me’yori va qoidalari o‘rganiladi.
Grafika	Harf, alifbo, harf va fonema o‘rtasidagi munosabat, harflarning yozilish shakllari, turlari,
	so‘zlardagi o‘rni va ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari kabi masalalar o‘rganiladi.

Bo'limlar	O'rganish obyekti
Orfografiya	So'z va uning ma'noli qismlarini to'g'ri yozish qoidalari o'rganiladi.
Leksikologiya	Leksema, leksik ma'no, lug'aviy birliliklarning semantik tuzilishi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tiplari o'rganiladi.
Frazeologiya	Frazeologizm, frazeologik ma'no, frazeologik birliliklarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari o'rganiladi.
Leksikografiya	Lug'at va uning tiplari, lug'at tuzish asoslari bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'rganiladi.
Morfemika	Morfema, uning turlari, so'zning morfemik tuzilishi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.
So'z yasalishi	So'z yasalish strukturasi, so'z yashash usullari haqida ma'lumot beriladi.
Grammatika (morphologiya va sintaksis)	So'z turkumlari, grammatic shakl va grammatic kategoriyalar, so'z birikmasi, gap va undan yirik bo'lgan birliklar o'rganiladi.
Punktuatsiya	Punktuatsiya asoslari va tamoyillari, tinish belgilari va ularning ishlatalish qoidalari haqida fikr yuritiladi.
Semasiologiya	So'z va gaplar ma'nosi, tamg'a, mohiyat, belgi
Etimologiya	So'zlarning kelib chiqish tarixi o'rganiladi.
Uslubiyat	Nutq uslublari o'rganiladi.
Onomastika (nomshunoslik)	Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi bo'lim.

FONETIKA

Unilarning ifodalanishi. Ularning talaffuzi va imlosi

Og'zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi **nutq tovushi** deyiladi. Tovushning yozuv-dagi ifodasiga **harf** deyiladi. Og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi **fonetika**, yozma nutqning harflar tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi esa **grafika** deyiladi.

Tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrashi yoki uchramasligiga ko'ra ikki turli bo'ladi: **unli tovushlar va undosh tovushlar**.

Nº	Unli tovushlar	Undosh tovushlar
1.	Sof ovozdan iborat	Ovoz va shovqindan iborat
2.	Havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi	O'pkadan kelayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi
3.	Yakka o'zi ham, undoshlar bilan ham bo'g'in hosil qila oladi	Yakka o'zi bo'g'in hosil qilmaydi. Faqat unli bilan bo'g'in hosil qiladi
4.	Yakka o'zi so'z bo'la oladi.	Yakka o'zi so'z bo'la olmaydi.
5.	Urg'u oladi.	Urg'u olmaydi.

O'zbek tilida 6 ta unli tovush bor: *a, o, i, e, u, o'*

O'zbek tilida unlilar yomna-yon kelmaydi (Asl o'zbekcha so'larda) Qo'sh unlilar olinma so'zlarda uchraydi: *matbuot, inshoot, taassurot*.

O'zbek tilida unli tovushlar 3 xil guruhanlari:

1. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra:

- a) old qator: *a, e, i*
- b) orqa qator: *o, u, o'*

Ushbu bo'linishning asosi shundaki, til oldi unlilari talaffuz qilinganda, tilning oldingi qismi ko'proq harakatga keladi: *a, e, i*. Til orqa unlilari talaffuz qilinganda esa tilning orqa qismi harakatga kelib, ko'pincha yumshoq tanglay tomon yo'naladi: *o, o', u*.

2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra:

- a) yuqori tor: *i, u*
- b) o'rta keng: *e, o'*
- c) quyi keng: *a, o*.

Unlilarning tor, o'rta yoki keng deb bo'linishiga sabab shuki, ularni talaffuz qilish vaqtida quyi jag'ning pastga tushishi, tilning qattiq tanglaydan uzoqligi har xil darajada bo'ladi. *i, u* unlilarini talaffuz qilishda til bilan qattiq tanglayning orasi minimum darajada yaqinlashadi, og'iz bo'shlig'idagi havo yo'li qisqarib torayadi. Shuning uchun ham *i* va *u* unlilari yuqori tor **unlilar** deyiladi.

a va *o* unlilarni talaffuz qilishda yuqoridagi holat keskin o'zgaradi, pastki jag'ning quyiga tushishi ham, tilning qattiq tanglaydan uzoqlashishi ham maksimum darajada bo'ladi. Shuning uchun ham bu unlilar **quyi keng unlilar** hisoblanadi.

e va *o* ‘unlilarini talaffuz qilganda til bilan tanglayning oralig‘idagi masofa *i* va *u* tovushini yoki *a* va *o* tovushini talaffuz qilgandagi holatga nisbatan o‘rtacha holatda bo‘ladi.

3. Lablarning ishtirokiga ko‘ra:

a) lablangan unlilar: *o*, *o'*, *u*

b) lablanmagan unlilar: *a*, *e*, *i*

Lablangan unlilarni talaffuz qilgan vaqtida lablar faol ishtirok etadi. Shuning uchun talaffuz qilinganda lablar cho‘chchayib oldinga chiqadi.

Lablanmagan unlilarni talaffuz qilgan vaqtida lablar ishtirok etsa ham, ularning ishtiroki passiv bo‘ladi.

Bu guruhlanishni o‘zlashtirish oson bo‘lishi uchun quyidagi jadvalni tavsiya qilish yetarli bo‘ladi:

Lablanmagan Old qator	<i>i</i> / <i>yugori tor</i>	<i>u</i>	Lablangan Orqa qator
	<i>e</i> / <i>o‘rta keng</i>	<i>o'</i>	
	<i>a</i> / <i>quyi keng</i>	<i>o</i>	

O‘zbek tilida unli tovushlarning takrorlanishi, ya’ni bir xildagi va turli tipdagи ikki unlining, bir joyda kelishi yaqin vaqtlargacha bo‘lmagan. Chunki turkiy tillar taraqqiyoti uchun bu ancha keyingi hodisa hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu ancha ko‘p uchraydi. Masalan: *oila*, *qoida*, *marfaat*, *saodat* va hokazo.

Undoshlarning ifodalanishi. Ularning talaffuzi va imlosi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson a’zolariga **nutq a’zolari** deyiladi. Nutq a’zolari o‘pka, bo‘g‘iz, tovush paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i, til, lablar, tishlar va burun bo‘shlig‘i kiradi. Undosh tovushlarning hosil bo‘lishida bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, og‘iz bo‘shlig‘i va til muhim ahamiyatga ega. Qaysi nutq a’zosi ishtirok etishiga ko‘ra nutq tovushlari *lab tovushlari* (*b*, *p*, *m*, *v*, *f*), *til oldi* (*t*, *l*, *s*, *z*, *d*, *sh*, *ch*, *j*, *dj*, *r*) *til o‘rta* (*y*) *til orqa* (*g*, *k*, *ng*), *chuqur til orqa* tovushlari (*q*, *g‘*, *x*) va bo‘g‘iz (*h*) tovushi singari guruhlarga bo‘linadi. **Nutq a’zolari:** 1. O‘pka. 2. Tog‘aylar. 3. Un paychalari. 4. Bo‘g‘iz bo‘shlig‘i. 5. Og‘iz bo‘shlig‘i. 6. Burun bo‘shlig‘i. 7. Til. 8. Lablar. 9. Tishlar.

O‘zbek tilida 23 ta undosh tovush, 23 ta harf belgisi bor, 1 ta fonema alohida harf bilan ifodalanmaydi. **Jo‘ja, jiyda** so‘zlarida uchraydigan til oldi **dj** tovushi ham **jurnal, ajdar** so‘zlarida uchraydigan til oldi **j** ham bitta **j** bilan beriladi.

Undosh tovushlar tovush psychalarining harakati, holati va og‘iz bo‘shlig‘ining qayerida to‘sinqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat bo‘lishi yoki ovoz shovqindan ustunligiga, shuningdek, talaffuz etilish usuliga qarab bir-birlaridan farqlanadi.

I. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra:

- 1) *jarangli*: b, v, g, d, j (dj), j, z, g‘, y, l, m, n, ng, r;
- 2) *jarangsiz*: p, f, k, t, ch, sh, s, q, x, h.

Jarangli undoshlar talaffuz qilinganda tovush psychalarl ishtirok etib, taranglashadi va ular orasidagi tor oraliqdan o‘tayotgan havo oqimi tovush psychalarini titratib o‘tadi. Ular ovoz va shovqindan iborat.

Jarangsiz undoshlarni talaffuz qilganda esa (ularda ovozdorlik se-zilmaydi, chunki ular faqat shovqindan iborat) tovush psychalari taranglashmaydi va ular orasidagi keng oraliqdan o‘tayotgan havo oqimi tovush psychalarini titratmay o‘tadi. Ular faqat shovqindan iborat.

Shuningdek, ular tarkibiga ko‘ra sof va qorishiq, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra sonorlar va shovqinlilar deb ham tasniflandi. Sonorlar beshta: **m,n,ng,l,r**. Bularning ichidan **m,n,ng** burun tovushi, l yon tovush, r titroq tovush sanaladi.

II. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra:

- 1) *portlovchilar*: b, p, d, t, g, k, j (jo‘ja), q, m, n, ng;
- 2) *sirg‘aluvchilar*: v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h, j (jirafa);
- 3) *qorishiq*: ch

Ba‘zi undoshlar talaffuz qilinganda havo yo‘li birdaniga to‘silib, birdaniga ochilishi natijasida “portlash” yuz beradi. Bu undoshlarning talaffuzida tilning uchi yuqori tishning milkiga borib tegishi yoki ikki labning bir-biriga yopishuvni natijasida havo yo‘li berkilib qoladi, to‘siq hosil bo‘ladi. O‘pkadan kelayotgan havoning kuchi to‘sinqni birdaniga ochishi natijasida “portlash” yuz beradi va portlovchi tovushlar hosil bo‘ladi.

Sirg‘aluvchi tovushlarni talaffuz qilganda nutq a’zolari havo yo‘lini to‘sadi-yu, lekin orada qolgan kichik tirqishdan havo siqilib, sirg‘alib chiqadi.

Bu undoshlarning qorishiq deb atalishiga sabab shuki, ular tarixan ikki tovushning birikuvidan iborat bo'lib, bir portlovchi va bir sirg'aluvchi tovushni o'z ichiga oladi. Demak, u nutq organlarining asosan bir yerida paydo bo'lgan, ajratilmay aytildagan tovushni bildiradi. Keyingi paytda ular bir qo'shaloq tovushga aylanib ketgan. Shuning uchun ham sinchiklab qaralganda, qorishiq undoshlar tarkibida qanday tovushlarning elementlari bor ekanligini bilib olish mumkin. Masalan: *ch* undoshi *t* va *sh* undoshlarining qorishuvidan tashkil topgan.

III. Hosil bo'lish o'rniiga ko'ra:

1) lab undoshlari:

- a) lab-lab undoshlari: b, p, m, v (qovun, sovun)
- b) lab-tish undoshlari: f, v (vagon)

2) til undoshlari:

- a) til oldi undoshlari: d, t, j, ch, z, s, sh, n, l, r
- b) til o'rtta undoshi: y
- c) til orqa undoshlari: g, k, ng
- d) chuqur til orqa undoshlari: g', q, x

3) bo'g'iz undoshi: h

Lab undoshlari hosil bo'lishida lablar bir-biriga jipslashadi. Labtish undoshi pastki labning yuqori tishga yaqinlashuvidan hosil bo'ladi.

Til oldi undoshlari tilning old qismi yuqori til yoki milkka tomon harakat qilishi natijasida paydo bo'ladi: *t*, *d*, *z*, *s*...

y undoshida tilning o'rtta qismi tanglayga yaqinlashadi. Til orqa undoshlari tilning orqa qismining tanglayga jipslashishi yoki yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladi.

h undoshi bo'g'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladi.

To'siqqa uchragan havoning burun orqali o'tishidan hosil bo'lgan tovushlar *burun tovushlari* deyiladi.

Talaffuzida lab ishtirok etgan tovushlar *lab tovushlari* deyiladi.

Tilning tish va tanglayga tegishidan hosil bo'lgan tovushlarga *til tovushlari* deyiladi.

Bir bo'g'inida yonma-yon ikki xil undosh kelgan so'zlar **qator undoshli so'zlardir: barg, ko'rk.**

So'z boshidagi qator undoshlar o'rtasiga yoki oldiga qisqa unli qo'shib talaffuz qilinsa ham, bu qisqa unli yozilmaydi. Masalan: *shkaf-ishkop*.

Go'sht, do'st, barg kabi so'z oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda ifodalanadi. *Paxta, nimcha, o'simlik* so'zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bu undoshlar bir bo'g'inda bo'lmanligi uchun qator kelgan undoshlar hisoblanmaydi.

Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farqlashdir.

Ozbek tilining tovush tizimi(fonetikasi)

Nutqimizni bo'laklarga ajratadigan bo'lsak, uning oxirgi bo'linish nuqtasi tovushlar bo'ladi. Masalan, *O'zbekiston jannatmakon o'lka* jumlesi *O'zbekiston, jannatmako n, o'lka* so'zlariga, bu so'zlar o'z navbatida, *O'z-be-kis-ton, jan-nat-ma-kon, o'l-ka* bo'g'inlariga, bo'g'inlar esa *O'-z-b-e-k-i-s-t-o-n-j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n-o'-l-k-a* singari tovushlarga bo'linadi. Bo'linishning oxirgi nuqtasi bo'lgan, bo'shma bo'laklarga bo'lish mumkin bo'lmanutq bo'lagi(akustik-artikulyatsion birlilik) tovush hisoblanadi va u bilan bo'g'liq hodisalar tilshunoslikning fonetika bo'limida o'rganiladi.

Fonetika so'zi grekcha *pone* "tovush" so'zidan olingan.

Nutqiy faoliyat

Inson doimo o'zini qurshab turgan olamni bilishga intiladi. Kishilarning barcha faoliyati markaziy asab sistemasiga turli sezgi a'zolarimiz(tana, tam-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari) yordamida uzatilgan axborot orqali amalga oshiriladi.

Tana, tam-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari orqali olamni bilish vositasi sifatida barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliy shakli sifatida ularga nisbatan yana bir qo'shimcha bilish vositasiga-nutq orqali bilish qobiliyatiga ega. Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos Pavlov birinchi signal sistemasi, ikkinchisini esa ikkinchi signal sistemasi deb nomlaydi.

Inson ikkinchi signal sistemaga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini ta'kidlaydi.

Har bir shaxs ma'lum bir jamiyat vakili sanaladi. Jamiyat a'zolari o'zaro doimo aloqada bo'ladilar. Biri obyektiv olamda o'z sezgi a'zolari orqali his etgan ma'lum narsa va hodisa haqida boshqalariga tovush to'lqinlari(yozma nutqda esa harflar ketma-ketligi) yordamida axborotni yetkazadi. Axborot uzatuvchi so'zlovchi, eshituvchi esa tinglovchi sanaladi. Tinglovchi olamdag'i narsa va hodisaning umumlashgan obrazini so'zlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi a'zosi yordamida markaziy asab sistemasida ta'kidlaydi. **So'zlovchi va tinglovchi o'rtaсидаги ана шундай ахборот узатиш ва ахборотни қабул қилиш фаoliyatni nutqiy faoliyat sanaladi.** Nutqiyt faoliyat yozma ravishda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ham nutqiy jarayon qatnashchilari ikki guruhga bo'linadi. Xat yo'llovchi shartli ravishda so'zlovchi, uni qabul qiluvchi(o'quvchi) esa tinglovchi hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e'tiborga olgan holda mashhur Shvetsariya olimi Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutqning zidlanishi asosida amalga oshishini ta'kidlaydi va til-shunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi. **Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi - til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi - nutqdir.**

Til va nutq umumiylilik-xususiylik, imkoniyat-voqelik, mohiyat-hodisa zidlanishini o'zida namoyon etib, bir-biriga zidlanadi va bunday zidlanish har bir til sathlariga xos birliklarning nomlanishida ham o'z ifodasini topadi. **Tilning fonologik(fonetik) sathining birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, qulq bilan eshitilgan ko'rinishi fon(allofon) yoki tovush hisoblanadi.**

Nutq tovushlarining uch tomoni

Kundalik hayotingizda har xil tovushlarni eshitasiz: mashinalar signali, hayvonlarning qichqirig'i, parrandalarning sayrashi, suvning shildirashi va boshqalar. Havo to'lqinlari orqali qulog'imiz bilan eshitiladigan barcha hodisalarga tovush deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar qatoriga kiradi.

Har qanday tovush ma'lum tashqi ta'sir yordamida havo oqimi-ning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan: ip yoki simni tarang tortib, uni qo'lingiz bilan chertsangiz havoni tebratadi va tovush chiqADI.

Tovushlar tabiiy va inson tovushlariga bo'linadi. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo'lgan barcha tovushlar tabiiy tovushlar sanaladi.

Tabiiy tovushlardan inson tovushlarining farqi shundaki, u inson nutq a'zolari harakati yordamida, ma'lum maqsadda, ketma-ket talaffuz qilinadi. Bu esa har qanday nutq tovushining uch tomoni mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Birinchidan, nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzbek bog'liqlikda o'rganiladi. Nutq apparati o'pka, bo'g'iz, tovush paychali, og'iz bo'shlig'i, tanglay, til, lab, burun, tish kabi a'zolarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma'lum sifat belgisi-ga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega bo'ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o'rganiladi.

Uchinchidan, nutq tovushlari ma'lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishidan ma'lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomonдан shakllantirish va ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, *soli* bilan *sholi* so'zlari birinchi tovushlari bilan, *sot* bilan *soch* so'zlari oxirgi tovushlari bilan, *sot* bilan *sut* so'zlari o'rtaсидagi tovushlari bilan farqlanadi.

Tovushlarning bunday belgilari vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi.

Demak, yuqorida sanalgan belgilardan birinchisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi bo'lsa, ikkinchi va uchinchi belgilar faqat inson tovushlarigagina xosdir. Shunday qilib, nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: a) akustik; b) talaffuz (fiziologiya); d) vazifaviy tomonlari. Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu

uch tomon e'tiborga olinadi Masalan, *k* tovushi til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi va o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan port-lab chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Bu tovushning nutq a'zolarining qayerida va qanday yo'l bilan hosil bo'lishi talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi. Uning sof shovqindan iborat ekanligi, jarangsizligi akustik belgisi, *k* ning *g* dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi. Tilshunoslik fani uchun vazifaviy belgi lingvistik (tilshunoslik) belgi deb ham yuritiladi.

Tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilari

Nutq tovushlari bir qancha akustik va artikulatsion (talaffuz) belgilariga ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to'la hisobga olgandagina u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin fonologiya uchun yuqoridagi belgilarning ko'pchiligi muhim sanalmaydi.

Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslanganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilari gina ahamiyatli bo'ladi.

Bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonimizda yangi bilayotgan narsamizni oldin bilgan narsaga qiyoslaymiz, zidlaymiz va ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni topishga harakat qilamiz. Shuning uchun bilish faoliyatida zidlashlarning ahamiyati katta.

Faraz qilingki, oldingizda ikkita egizak bola. Ular bir-biriga ni-hoyatda o'xshash. Faqat bittasining chap yuzida kichkina xoli bor, ana shu xol ikkisini bir-biridan farqlovchi belgi sanaladi. Qolgan belgilari esa har ikkisida bir xil. Bu ikki boladan birining ismi Hasan, ikkinchisiniki esa Husan. Qarangki, ismlarning tovush tarkibi ham bir-biriga naqadar o'xshash. Faqat birinchi bo'g'in unlisi bittasida *a*, ikkinchisida *u* ekanligi bilan farqlanadi. Demak, yuqoridagi ikki so'z birinchi bo'g'indagi unlilar bilan bir-biridan farq qiladi. Qolgan tovushlar esa har ikkisida bir xil. Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar *farqlovchi belgilar*, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan *belgilar birlashtiruvchi belgilar* sanaladi.

Masalan, *t* va *d* tovushlarini olaylik. Birinchi tovush til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilariga, ikkinchisi esa til oldilik, portlovchilik, jaranglilik belgilariga ega. Bu ikki tovushning yuqoridagi belgilarini bir-biriga qiyoslasak, dastlabki ikki belgi, (til oldilik, portlovchilik belgilari) har ikkisida takrorlanadi. Uchinchi belgi (jarangli-jarangsizlik belgisi) bilan esa ular bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, birinchi va ikkinchi belgilar ular o'rtasidagi birlashtiruvchi belgilar, uchinchi belgi esa farqlovchi belgi hisoblanadi.

Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xhash tovushlarni bir-biriga zidlash va ular o'rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tovush va fonema

Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalarini bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo'lgan xususiylik va umumiylit munosabatini aks ettiradi. Biz bevosita kuzatishda xususiyliklarni sezgi a'zolarimiz bilan his etamiz. Bir xususiylikni boshqa xususiylikka solishtiramiz. Solishtirilayotgan xususiyliklar o'rtasida qanday o'xhash va farqli tomonlar mavjud ekanligini aniqlaymiz. O'xhash jihatlari asosida har qaysi xususiylikni ma'lum umumiylitka – sinfga birlashtiramiz. Masalan, sumkani olaylik. Sinfingizda nechta o'quvchi bo'lsa, o'shancha sumka bor. Bu sumkalar rangi, hajmi yoki materiali yoxud shakli jihatidan bir-biridan farq qiladi. Sinfingizda nechta sumkani ko'rsangiz, shuncha xususiyliklarni ko'rgan bo'lasiz. Lekin shu xususiyliklarning hammasida takrorlanadigan umumiylit belgi bor. Bu belgi sumkalik belgisidir. Ya'ni o'quv qurollari solish uchun mo'ljallangan, ko'tarib yuriladigan, charm va boshqa har xil materiallardan tikilgan anjom. Ana shu belgilar xilma-xil sumkalarni bir sinfga, bir umumiylitka birlashtirishga asos bo'ladi. Xuddi shuningdek, biz nutqiy jarayonda bevosita tovushlarni eshitamiz. Masalan, *i* tovushini olaylik. U, avvalo, har bir shaxsning o'ziga xos talaffuzini o'zida namoyon qiladi. Shu bilan birga, so'zlarning tarkibida yondosh tovushlar ta'siriga beriladi. Masalan, *tushib* so'zining ikkinchi bo'g'inidagi birinchi bo'g'indagi **u** ning ta'sirida **u** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. *Bilan, tilim, sira* so'zлari tarkibida bilinar-bilinmas aytildi. *Qiliq, qiziq*

kabi so'zlar tarkibida til orqa tovush ta'sirida *u* ga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari unga so'zlovchining qaysi shevaga mansublik belgisi qo'shiladi. Xullas, nutq jarayonida xilma-xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasida takrorlanadigan umumiy jihatlar bor. U ham bo'lsa, torlik belgisi va lablanmaganlik belgisi. Shu belgilari bilan *a* ga, *o* ga, *i* ga, *u* ga zidlanadi. Ana shu birlashtiruvchi belgilar ma'lum xususiylikni umumiyliklarga birlashtirishga yordam beradi. Umumiylik so'zlovchi va tinglovchilar xotirasida mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham bu umumiylik turlicha talaffuz qilinishiga qaramasdan, so'zlovchi va tinglovchilar o'rtasida bir xil tushunishga olib keladi.

Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi tovush sanaladi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi fonemadir.

Masalan, *tosh-tom* so'zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalardir. Yoki *tosh-tesh* zidligida *o* va *e* *tosh-qosh* zidligida *t* va *q* ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi, shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi.

Ko'rindiki, bir fonema bir necha tovushlar orqali ro'yobga chiqadi. Fonemalarni sanash mumkin. Ular cheksiz ko'rinishlarga ega bo'ladi. Bu esa tovushlar miqdorining cheksiz ekanligini ko'rsatadi. Fonemalar ikki va undan ortiq ma'noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali aniqlanadi.

Fonemalar so'zlarning tarkibida muayyan tartibda kelib, ularni moddiy tomonidan shakllantiradi. Bunda so'z tarkibidagi fone-malarning joylashish tartibi katta rol o'ynaydi. Loto o'yinini ko'z oldingizga keltiring. Unda sanoqli donalar bor. Lekin shu donalarни turli tartibda joylashtirish orqali xilma-xil shakllar yasaysiz. Xuddi shunga o'xhash, fonemalar ham sanoqli, lekin uni xilma-xil tartibda joylashtirish orqali cheksiz so'zlar hosil qilinadi. *Sut, tus, ust* so'zlarining tovush tomoniga e'tibor bering. Ularning hammasi uchta bir xil tovushlarning turlicha ketma-ket joylashuvidan tashkil

topgan. Garchi yuqoridagi so‘zlarning tovush tarkibi bir xil bo‘lsa ham, lekin ular turli tartibda joylashib uchta so‘zning ifoda tomonini hosil qiladi.

Ko‘rinadiki, so‘zlarning moddiy tomoni uchun uning nechta fonemadan tashkil topganigina emas, balki ularning qanday tartibda joylashuvi ham katta ahamiyatga ega.

FONETIK HODISALAR

So‘z boshida, o‘rtasida, oxirida kelgan qo‘sh undoshlar imlosi

Nutq jarayonida tovushlarni ketma-ket keltirish yo‘li bilan turli xil ma’noli birliklarni hosil qilamiz. Masalan, *t-o-sh*, *b-o-sh*, *q-o-sh*.

Yuqoridagi so‘zlar tarkibidagi tovushlar alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi, so‘zlar uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to‘liq talaffuz qilinmay turib, nutq a’zolari ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovushlar zanjiri vujudga keladi.

Talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjirida turli fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ba’zilari qisqa aytildi, ayrimlari esa biri ikkinchisi tomonidan moslashtiriladi, ba’zan ayrim tovushlar boshqacha shakl olishi, tushib qolishi, ba’zan tovush paydo bo‘lishi mumkin. Nutq jarayonida bo‘ladigan bunday o‘zgarishlar kombinator-pozitsion o‘zgarishlar deyiladi.

O‘zgarish turi	Tovush turi	Tovushlar	Misollar
Tovush almashishi	Unlilar	o-a, a-o, i-u	Son-sana, sayla-saylov, sovi-sovuq
	Undoshlar	k-g, q-g‘	Bilak-bilagi, yutuq-yutug‘i
Tovush tushishi	Unlilar	a, i, u	Shahar-shahri, qorin-qorni, burun-burni
	Undoshlar	n, t	Men-mening, past-pasay
Tovush orttirilishi	Undoshlar	n, y	U+ga-unga, obro‘+im-obro‘yim

Assimilatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta’sir qilib o‘ziga moslashtirishidir. Assimilatsiya ikki xil bo‘ladi:

1) progressiv assimilatsiya oldingi tovushning keyingi tovushni o‘ziga o‘xshatishidir: *aytdi-aytti*;

2) regressiv assimilatsiya keyingi tovushning oldingi tovushni o‘ziga o‘xshatishidir: *yigit+cha - yigichcha, tuz+siz - tussiz*

Dissimilatsiya – ikkita o‘xshash tovushning noo‘xshash bo‘lib qolishidir. Dissimilatsiya ikki xil bo‘ladi:

1) progressiv dissimilatsiya keyingi tovush noo‘xshash tovushga aylanadi: *birorta-bironta*;

2) regressiv dissimilatsiya oldingi tovush o‘zgaradi: *ittifoq-intifoq*.

Metateza – yonma-yon kelgan undoshlarning o‘rin almashishi; *tuproq-turpoq, aylanmoq-aynaldoq*:

Singarmonizm – unlilarning ohangdoshligi, moslashishi. Birinchi bo‘g‘inda qaysi unli kelsa keyingi bo‘g‘inda ham shu unli keladi: *burun, uzun, quruq*. Bu hodisa eski o‘zbek tilida bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlanmagan: *bola, avlod*;

Eliziya- unli bilan tugagan so‘zga unli bilan boshlanuvchi so‘z qo‘silishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolishi: 1) *Bora oldi – boroldi*; 2) *Borar ekan – borarkan*; 3) *Abdusalom – absalom*;

Tovush orttirilishi – so‘z, boshida, o‘rtasida va so‘z oxirida: *ro ‘za-o ‘raza, fikr-fikir, tank-tanka*

Qo‘s sh undoshlarning ishlatalishi. O‘zbek (umumturkiy) so‘z-larning fonetik tuzilishidagi o‘ziga xoslik shundaki, so‘zning boshida ketma-ket ikki undosh bir joyda kelmaydi. Shuningdek, so‘zning oxirida ham *st* (*ost, ust*), *lt* (*yilt, milt*), *rt* (*qurt, to ‘rt, turt*) kabi qo‘s sh undoshlardan tashqari, boshqa undoshlar yonma-yon kelolmaydi.

Traktor, stakan, stol so‘z boshida qo‘s sh undosh kelgan so‘zlar ovro‘pa tillaridan kirib kelgan so‘zlardir. So‘zlarning bunday tovush tuzilishi tilimizga xos bo‘lmaganligi uchun ham qo‘s sh undoshlar orasida, ba’zan oldida bir unli qo‘silib ikki bo‘g‘inga ajratilgan holda talaffuz qilinadi (*tiraktir, istakan* kabi), lekin ular asl holatida yoziladi (*traktor, stakan* kabi).

So‘z oxirida kelgan *sht* (*go ‘sht, musht*), *xt* (*daraxt, baxt*), *rg* (*barg*) kabi so‘zlar esa, asosan, fors-tojik tilidan o‘tgan. Bunday so‘zlarda

qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldiriladi, lekin yozuvda ifodalanadi: *go 'sht-go 'sh, daraxt-darax*.

So'z o'rtasida qo'sh undoshlarning kelishi ancha faol. U deyarli barcha undoshlarda uchraydi: *katta, sodda, alla, hissa, lazzat, himmat, jajji, musaffo, do 'ppi, minnat, arra, quvvat, labbay, to 'qqiz*.

BO‘G‘IN VA UNING TURLARI

Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari

Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birikmasiga bo‘g‘in deyiladi.

Bo‘g‘in bir yoki bir necha tovushlardan tarkib topib, bir nafas chiqarish bilan talaffuz etiladigan so‘zning bir bo‘lagidir. Bo‘g‘in bir tovushdan iborat bo‘lganda unli tovushga teng keladi. O‘zbek tilida bo‘g‘in unlilar yordamida hosil bo‘ladi. Har bir bo‘g‘inda bir unli bo‘lishi shart. Undosh bilan tugasa **yopiq bo‘g‘in**, unli bilan tugasa **ochiq bo‘g‘in** bo‘ladi. Masalan, *o-na, bo-la* so‘zlaridagi har ikki bo‘g‘in ochiq, *tosh-lar* so‘zidagi har ikki bo‘g‘in yopiq bo‘g‘indir. Undosh bilan boshlangan bo‘g‘in **berkitilgan bo‘g‘in**, unli bilan boshlangan bo‘g‘in **berkitilmagan bo‘g‘in** sanaladi. Masalan: *maktab* so‘zining har ikki bo‘g‘ini berkitilgan bo‘g‘in, ol-ma so‘zining birinchi bo‘g‘ini berkitilmagan bo‘g‘in sanaladi.

Bo‘g‘in unli tovushlar asosida hosil bo‘ladi. Har bir bo‘g‘inda bitta unli qatnashadi, shuning uchun so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi.

So‘zning o‘zak va qo‘sishchalariga ajralishi bilan bo‘g‘inlarga ajralishi teng emas: *go 'sht-ni, barg-ga* so‘zlarida; o‘zak qo‘sishchalar bilan bo‘g‘inlar teng kelayotgan bo‘lsa, *go 'sh-ti, bar-gi* so‘zlarida teng emas.

O‘zbek tilida so‘zlar bir bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. So‘z bir zarb bilan aytilsa, bir bo‘g‘inli (*ol, o 't, bu*), bir necha zarb bilan aytilsa, ko‘p bo‘g‘inli (*bola, paxtakor*) bo‘ladi.

O‘zbek tilida bo‘g‘inlarning quyidagicha tiplari bor:

I. Faqat bir unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘in: *o-ta, u-ka, o '-ti* so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini. **Sxemasi:** V (vokalis (unli) so‘zidan);

2. Bir unli va undoshdan iborat bo‘lgan bo‘g‘in. Bunday bo‘g‘in unli + undoshdan iborat (yopiq) yoki undosh + unlidan iborat (ochiq) bo‘lishi mumkin. Unli + undosh. *ish, osh, o‘n*. **Sxemasi:** VC (konsonant (undosh) so‘zidan); Undosh + unli: *bo-la, ko -cha, be-da-na*. **Sxemasi:** CV;

3. Bir unli va ikki undoshdan iborat bo‘lgan bo‘g‘in. Bunday bo‘g‘in quyidagicha bo‘lishi mumkin:

a) unli + undosh + undosh (yopiq): *ayt, ilm, ost, erk*. **Sxemasi:** VCC b) undosh + unli + undosh (yopiq): *bor, ber, bur-gut mak-tab*. **Sxemasi:** CVC c) undosh + undosh + unli(ochiq): *sta-kan, pro-yekt* so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini. **Sxemasi:** CCV

4. Bir unli va uch undoshdan iborat bo‘g‘in:

a) undosh+unli+undosh+undosh(yopiq): *dard, shart, mart*. **Sxemasi:** CVCC;

b) undosh+undosh + unli +undosh (yopiq): *plan, trak-tor*. **Sxemasi:** CCVC;

5. Bir unli va to‘rt undoshdan iborat bo‘g‘in:

a) unli + undosh + undosh + undosh + undosh (yopiq): *ernst*.

Sxemasi: VCC CC

b) undosh + unli+ undosh+undosh+undosh (yopiq): *punkt, tekst*.

Sxemasi: CVCCC

c) undosh + undosh + unli + undosh + undosh (yopiq): *front*.

Sxemasi: CCVCC

d) undosh + undosh + undosh +unli + undosh (yopiq): *strel-ka, struk-tura*. **Sxemasi:** CCCVC

Esda tuting. So‘z bo‘g‘inlarga ajratilganda **ng** ikki unli orasida kelgan bo‘lsa, **ng** ikkinchi unli bilan keladi:*si-ngil, ko -ngil*. Agar **ng** dan keyin undosh kelsa, **ng** oldingi bo‘g‘inda qoladi: *mang-lay, tang-lay* kabi. *Kongress, ingliz* kabi so‘zlar rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lgani uchun bo‘g‘inga quyidagicha ajratiladi: *Kon-gress, in-gliz*. Chunki bunday so‘zlarda **ng** mavjud emas.

Bo‘g‘in ko‘chirish bilan bo‘g‘inga ajratish o‘rtasida farq bor. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Bo‘g‘inga ajratish	Bo‘g‘in ko‘chirish
Ko‘-ngil	Ko‘-ngil
Pal-to	Pal-to
O-ta	Ota
Mu-do-fa-a	Mu-do-faa
BMT	BMT
XXI	XXI
ToshDJTU	ToshDJTU
I-sinf	I-sinf
I-do-ra	Ido-ra

Bo‘g‘inning amaliy ahamiyati:

1. I-sinflarni o‘qish va yozishga o‘rgatish uchun;
2. Bir satrga sig‘magan so‘zni ikkinchi satrga ko‘chirish uchun;
3. She‘r vaznlarini aniqlashda misralardagi bo‘g‘inlar soni va si-fati muhim.

URG‘U VA UNING NUTQAGI AHAMIYATI

So‘z tarkibidagi biror bo‘g‘in yoki gapdagisi biror so‘z talaffuzda ajratilib, urg‘u berib, zarb bilan aytildi. Bu hol odatda ovozning ko‘tarilishi, cho‘ziqlikning ortishi yoki intonatsiyon taktning kuchayishi kabi fonetik vositalar bilan ifodalananadi. Bo‘g‘in yoki so‘zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi **urg‘u** deyiladi. Urg‘u ikkiga bo‘linadi:

1. Gapda biror so‘zning ta‘kidlab aytilishi **ma’no** (logik, leksik, mantiqiy, gap) urg‘usi. 2. So‘zda biror bo‘g‘inning ta‘kidlab aytilishi **so‘z urg‘usi** deyiladi.

So‘z urg‘usi, odatda, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. So‘z ma’lum bir yasovchi, turlovchi, tuslovchi affikslarni qabul qilsa, urg‘u ham odatda so‘zning oxiriga – qo‘sishchaga ko‘chadi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilidagi urg‘u ko‘chib yuruvchi urg‘u sanaladi. Masalan: *qish-loq-qishloqlar-qishloqlarimiz*.

Yozuvda urg‘u tushgan bo‘g‘in yoki so‘z tepasiga (‘) belgisini qo‘yish bilan ifodalash mumkin.

Quyidagi hollarda urg‘uning o‘rnini o‘zgaradi:

1. Arab va tojik tilidan o‘tgan so‘zlarda: *hózir, áslo, dóim, yángi, hamisha*;
2. Modal so‘zlarda: *zéro, afsúski, albátta*;
3. Ba’zi yordamchi so‘zlarda: *bá’zan, lékin*;
4. Olmoshlarda: *qáysi, qáncha, hámma, bárcha, állakim, kímdir, hár kim, héch nima*;
5. Fe’Ining buyruq shaklida *kélsin, kétir, térgma* kabi so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi.

O‘zbek tilida ayrim qo‘sishimchalar urg‘u olmaydi. Ular quyidagilar:

1. Birinchi guruh shaxs-son qo‘sishimchalari *-man, -san, -miz, -siz: biz o‘quvchímiz*;
2. Dona va chama son yasovchi qo‘sishimchalar: *-ta, -tacha: ó‘ntacha, yigirmáta*;
3. Ravish yasovchi qo‘sishimcha: *-cha:yigitchá (ot) – yigitcha (ravish), -dek, -day: oltínday*;
4. Fe’Ining bo‘lishsiz shakli: *-ma: olmá (ot) – ólma (fe'l), qaynatmá (sifat – qaynátma (fe'l)*;
5. Yuklamalar: *-mi, -chi, -ku, -da, -a, -ya, -u, -yu, -gina, -oq, -yoq: qizginá (ot)- qızgina (yuklama)*.
6. Ko‘makchilar: *bolalár uchun, vatanimíz haqida*

So‘z urg‘usining ahamiyati:

1. So‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi: *qishloqchá (ot) – qishlóqcha (ravish)*. 2. So‘z ma’nolarini farqlashga yordam beradi: *atlás (mato) – átlas (xarita)*.

Ma’no urg‘usi – gapdagи biror bo‘lakning boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishi **ma’no urg‘usi** deyiladi. Ma’no urg‘usi ba’zan logik, mantiqiy, gap, intonatsion urg‘u degan nom bilan ham yuritiladi. Masalan: *Samarqandda* (boshqa biron joyda emas) afsonaviy obidalar ko‘p.

ALIFBO. O‘zbek yozuvlari tarixiga qisqacha ekskursiya

Biz nutqimizni yozma ravishda bayon qilamiz. Bu vaqtda yozma nutq harflar ketma-ketligidan tashkil topadi. Harflarni muayyan tartib-

da joylashtirish **alifbo** deyiladi. Alifbo so‘zi arab yozuvidagi harflar tartibining birinchi va ikkinchi harflari – **alif** va **bo(be)** nomlarining qo‘siluvidan hosil bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek alifbosi lotin yozuviga asoslanganligi tufayli lotin yozuvi asosidagi **yangi o‘zbek alifbosi** deyiladi. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida 6 ta unli va 23 ta undosh bor. Alifboni bilish kutubxona ishida, lug‘atlar tuzish va undan foydalanishda qulaylik tug‘diradi.

O‘zbek yozuvi hozirgi holga kelgunga qadar uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan, juda ko‘p o‘zgarishlarga uchragan. Yozuv ijtimoiy talablar asosida jamiyatning muayyan taraqqiyoti davrida paydo bo‘lgan va uning rivojlanishi bilan bog‘liq holda mukammallasha borgan. Yozuv tildan keyingi jamiyat tomonidan qo‘lga kiritilgan eng katta yutuqdir. Yozuv bilan til o‘zaro bog‘liq, ular o‘rtasida umumiy tomonlar ko‘p. Yozuv orqali odamlar uzoq masofadan, hatto keyingi avlod bilan aloqa bog‘lash imkoniyatiga ega. Amma yozuvning imkoniyatlari chegaralanishi ham yo‘q emas:

- 1) vaqtidan yutqaziladi;
- 2) yozuv tilning to‘liq aksi emas, balki shartli belgisi;
- 3) yozuv maxsus asboblarsiz amalga oshmaydi;
- 4) yozuv qorong‘ida ahamiyatini yo‘qotadi.

Til jamiyatning barcha a’zolariga baravar xizmat qiladi, jamiyat taraqqiyoti davomida mukammalasha boradi. Yozuv kam o‘zgaradi. Til jamiyat bilan bir vaqtida, yozuv esa keyin paydo bo‘lgan.

Yozuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo‘lolmaydi, u asosiy aloqa vositasi til uchun yordamchi vosita hisoblanadi.

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uning madaniyatining yuqori saviyaga ko‘tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrlarga qoldirishga ehtiyojning o‘sishi bilan bog‘liq. Agar yozuv bo‘lmaganida, ajodolarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha yetib kelmagan bo‘lar edi.

O‘zbek xalqi qadimdan turli yozuv sistemasidan foydalanim kelgan. O‘zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatis kelgan asosiy yozuv sistemasini fonografik, ya’ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O‘zbek xalqi O‘rta Osiyonning boshqa xalqlari kabi oromiy, yunon, so‘g‘d, mixxat, xorazm, o‘rxun, uyg‘ur, arab va hoka-

zo yozuvlardan foydalangan. Har biri o‘ziga xos bu yozuvs muayyan darajada oromiy yozuvi bilan bog‘liq. Eramizdan avvalgi VI–IV asrlarda *mixxat yozuvida*, ayrim joylarda diplomatik muomalalarda *oromiy yozuvi* qo‘llanilar edi. Hozirgi eramizdan boshlab VI asrgacha so ‘g ‘d yozuvi qo‘llanildi.

II–III asrlarda *xorazm yozuvi* ham uchrab turgan.

V–X asrlarda O‘rxun–Enasoy (bosbqa nomlari – *turkiy runik yozuv, dulbarchin*) yozuvi amal qilgan. Bu yodgorliklarni 1893-yil V.V.Radlov va daniyalik olim Vilgelm Tomson o‘qiydilar. Bu yozuv, jumladan, o‘zbek xalqi XX asrgacha qo‘llab kelgan yozuvs ichida eng qulayi bo‘lgan. XI asrdan keyin O‘rxun yozuvi tamoman iste’moldan chiqqan.

VI–VII asrlardan XIV–XV asrlargacha *uyg ‘ur yozuvi* ham keng qo‘llanilgan. Bu yozuv so ‘g ‘d yozuvi asosida shakllangan.

VIII asrdan O‘rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinadi va boshqa xalqlar kabi o‘zbeklar ham arab alifbosiga asoslangan *eski o‘zbek yozuvi* bilan ish ko‘ra boshlaydi. Bu yozuv 1929-yilgacha amalda bo‘ldi. 800 yil davomida *uyg ‘ur yozuvi* bilan yonma-yon ishlatildi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari, M.Qoshg‘ariyning “Devoni lug ‘ot it-turk” asari, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq” asarlari arab va uyg‘ur yozuvlarida yetib kelishi ham bejiz emas, chunki arab yozuvi bilan birga uyg‘ur yozuvi ham bir necha yillar yonma-yon qo‘llanildi. XVI asrdan, ya’ni shayboniyalar hukmronligi davridan uyg‘ur yozuvi iste’moldan chiqdi.

Arab yozuvida eng nodir yozma yodgorliklarimiz, ming yillik tariximiz bitilgan bo‘lsa-da, bu yozuv o‘zbek tili fonetikasi va tabiatiga mos kelmaganligi uchun jadidlar XX asr boshlaridayoq eski o‘zbek yozuvini isloh qilishga kirishdilar. 1921-yildan boshlab lotin yozuvi asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tish harakati boshlandi. Bu masala 1929-yil Bokuda bo‘lgan turkologlar yig‘ilishida hal etildi. Lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi. Rus tuzumi o‘z ta’sir kuchini yozuvga ham o‘tkazdi. 1940-yil may oyida kirill (rus) grafikasi asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tildi.

Jahonda 220 dan ortiq yozuv bor. Dunyo xalqlarining 30 % dan ortig‘i lotin alifbosidan foydalanishadi. Shuning uchun mustaqillik sharofati bilan ikkinchi marta 1993-yil 2–3-sentabrarda yana lotin-lashtirilgan alifboga o‘tishga qaror qilindi.

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929 – 1940-yillardagi ijobjiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

1-m o d d a. O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi joriy etilsin.

2-m o d d a. Lotin yozuvi asosidagi o'zbek yozuvini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'l mish beba ho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolindan.

1995-yil 6-mayda alifboga o'zgartirishlar kiritildi. 26 ta harf, 3 ta harfiy birikma belgilandi:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA”GI QONUNIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilingan “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'rissida”gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 331-modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi “31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan” so'zlar “26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan” so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Cc, Jj harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifboden chiqarilsin.

3. Õõ, harfi O'o' shaklida, Gg harfi G'g' shaklida, Şş harfi Sh sh shaklida, Çç harfi Ch ch shaklida, Ññ harfi Ng ng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalansin.

4. A a, I i, G g, G‘ g‘, Q q, O‘ o‘, Z z harflari va Ch ch harflar birikmasining yozma shakli tegishlicha Aa, Ii, Gg, G‘g‘, Qq, O‘o‘, Zz, Ch ch tarzida ifodalansin.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini:

1	Aa	7	Hh	13	Nn	19	Tt	25	O‘o‘
2	Bb	8	Ii	14	Oo	20	Uu	26	G‘g‘
3	Dd	9	Jj	15	Pp	21	Vv	27	Shsh
4	Ee	10	Kk	16	Qq	22	Xx	28	Chch
5	Ff	11	Ll	17	Rr	23	Yy	29	Ngng
6	Gg	12	Mm	18	Ss	24	Zz		

1995-yil 24-avgustda yangi o‘zbek alifbosini asosida “O‘zbek tilining yangi imlo qoida”lari Oliy Majlis tomonidan tasdiqlandi.

ORFOGRAFIYA (IMLO) VA UNING QOIDALARI

Tilda so‘zlar va qo‘sishimchalar ma’lum qoidalar asosida yoziladi. Bu qoidalar yig‘indisi **imlo (orfografiya)** deb yuritiladi. Yozma nutqda bir necha xil yoziluvchi tovush, qo‘sishimcha va sozlardan ababiy tilga qabul qilingan bittasi imlo me’yori sanaladi. To‘g‘ri yozish me’yorlarini o‘rgatuvchi tilshunoslik bo‘limiga **orfografiya** (yunoncha: orfo – “to‘g‘ri”, grafo – “chizmoq”) deyiladi.

Imlo quyidagi qoidalarga asoslanadi:

1. Fonetik yozuv. Bu qoidaga muvofiq ba’zi so‘z va qo‘sishimchalarni eshitganimiz bo‘yicha yozish mumkin:

- a) *og‘iz+im – og‘zim, burun+im – burnim*
- b) *yash+a – yasha, ong+la – angla*
- d) *ikki+ov – ikkov, yetti + ovi – yettovi*
- e) *so‘ra + q – so‘roq, bo‘ya + q – bo‘yoq*
- f) *kes+dir – kestir, kel+dir – keltir*
- g) *ishlay ber (ishlayver), kela oldi (keloldi)*

2. Morfologik yozuv. Bu qoidagako‘ra so‘z o‘zagiga va qo‘sishimchalar aynan, asliga muvofiq yoziladi:

- a) *ketti emas ketdi, aytigli emas aytibdi*
- b) *Toshkenttan emas Toshkentdan*
- d) *Ishka emas ishga*

e) *kulub, uchunchi, tug 'uldi emas kulib, uchinchi, tug 'ildi* yoziladi.

3. **Shakliy yozuv.** Bu qoidaga ko'ra boshqa tillardan kirgan so'zlar o'sha tillarda qanday yozilsa, shunday yoziladi: *stol* (sto'l emas), *zoologiya* (zo'o'logiya emas), *tonna* (to'nna emas).

4. **Tarixiy-an'anaviy yozuv.** Bunda so'z va qo'shimchalar tarixan, an'anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo'lsa, hozir ham shunday yozilishi mumkin: *sarizm-chorizm*, *podryadchik-pudratchi*, *borgilborgin, borur-borar, bo 'lubdur*.

5. **Differensiatsiyalash (farqlash)yozuvi.** So'zlarni urg'u yoki boshqa fonetik vositalar (masalan, tutuq belgisi) yordamida farqlab yozishdir: *olmá (ot) – ólma (fe'l), she'r-sher*.

O'ZBEK TILINING YANGI IMLO QOIDALARI

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalari ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida" qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. *Harflar imlosi:*

- a) unlilar imlosi (1–7-bandlar);
- b) undoshlar imlosi (8–32-bandlar);

2. *Asos va qo'shimchalar imlosi (33–37-bandlar);*

3. *Qo'shib yozish (38–50-bandlar);*

4. *Chiziqcha bilan yozish (51–56-bandtar);*

5. *Ajratib yozish (57–65-bandlar);*

6. *Bosh harflar imlosi (66–74-bandlar);*

7. *Ko'chirish qoidalari (75–82-bandlar);*

HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

I. A a harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda **a** aytiladi va yoziladi.

2. O o harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, temos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. I i harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida **o'** unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. U u harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; majkura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *govun,sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. O' o' harfi: *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. E e harfi: *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lom, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan **y** undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** material, milliard, radiator; labial, shariat kabi;

- b) **io**: biologiya, million, stadion, radio kabi;
- c) **ai**: mozaika, ukrain, said, maishat kabi;
- d) **oi**: alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi;
- e) **ea**: teatr, okean, laureat kabi;

2) **ae, oe** unlilari so‘z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuar, inshoot, sanoat vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, riyva* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. **B b** harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so‘zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so‘zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so‘zlarda ba’zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. **P p** harfi: *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so‘zlarda ja-rangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **Vv** harfi:

1) *ov, sviv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so‘zlarda ovozdor sirg‘aluvchi **lab** undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o‘zlashma so‘zlarda ba’zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. **F f** harfi:

1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi **lab** undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so‘zlarda **f** tovushi ba’zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **M m** harfi: *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so‘zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. **D d** harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi sozlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so‘zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **T t** harfi: *tong, tun; butun, o'tin, o't, kut* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Z z** harfi:

1) *zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilda ham, z yoziladi.

16. **S s** harfi: *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi. **S, h** harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasi ga' tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

18. **J j** harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor, gjida, ajdar, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch** harflar birikmasi *chay, chevar, chiroqli, chaman; ach-chiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **R r** harfi: *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **L l** harfi: *tola, loyiq, la'l, iloj, mahal* kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **N n** harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko'rinnmaslik* kabi so'zlarda n tovushi ba'zan m aytilda ham, n yoziladi.

23. **G g** harfi: *gul, go'zal; ega, gugurt; teg, eg* kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **K k** harfi: *ko'l, ko'ylak; uka, moki; tok, bilak* kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Y y** harfi: *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng** harflar birikmasi: *yangi, ko 'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so‘zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Q q** harfi: *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **G‘ g‘** harfi: *g‘oz, bag‘ir, tog‘* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **X x** harfi: *xabar, xo‘roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **H h** harfi: *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samargand, poyezd; do‘st, artist, g‘ish* kabi so‘zlarda **d, t** tovushi ba’zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘silsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall + lar-metallar, kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

32. ‘ tutuq belgisi:

1) *a‘lo, ba‘zan, ma‘yus, ta‘zim; ra‘y, ta‘b; e‘lon, e‘tibor, e‘tiqod, me‘mor, ne‘mat, she‘r, fe‘l; Nu‘mon, shu‘la* kabi o‘zlashma so‘zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho‘ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi; *mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar* kabi so‘zlarda **o‘** unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo‘yilmaydi;

2) *in‘om, san‘at, qat‘iy, mas‘ul* kabi o‘zlashma so‘zlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi.

ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI

33. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe‘llarga **-v,-q,-qi** qo‘shimchasi qo‘shilganda **a** unlisi **o** aytildi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so‘ra-so‘roq, bo‘ya- bo‘yoq; o‘yna-o‘ynoqi, sayra-sayroqi* kabi; 2) **i** unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe‘llarga

-v,-q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytildi va shunday yoziladi: *o'qi-o'quvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq* kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytildi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi- qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **uv** qo'shiladi: *ol - oluv, yoz - yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz-uzuq, yut- yutuq* kabi. Lekin *yushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytildi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi g undoshiga, **q** undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi, tayoq-tayog'i, qoshiq-qoshig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yo'q-yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytildi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rín, qorín, burún, o'g'il, bo'yín, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayír, ayír* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rín-o'rním, qorín-qorni, burun-burning, o'g'il-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) **o, o', u, e** unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m**, **-ng**, **-si**; **-miz**, **-ngiz**, **-si (yoki-lari)** shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I,II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying, parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying, obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik go'shimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* so'zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa **si** shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi y undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **-si** qo'shiladi: *dohiysi* kabi);

4) **men, sen** olmoshlariga **-ni**, **-ning**, **-niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarining birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchalari ba'zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon; masxaraboz* kabi. Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytildi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamон yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-di** qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarining bosh tovushi ikki yoki uch xil aytildi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-illa** (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo'lganda **-ulla** aytildi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kutdir, yondir, o'ikazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytildi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining II shaxs ko‘rsatkichi -gin, shuningdek, -gina qo‘shimchasi uch xil aytildi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so‘zlarga, qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** aytildi va shunday yoziladi: *tokka, yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechikkudek, bukkan; ekkin, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **q** aytildi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rqqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat‘i nazar, **g** yoziadi: *bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha* kabi.

QO‘SHIB YOZISH

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug‘doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a)**r** (inkori -**mas**) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, otboqar, cho‘lquvar, ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.

40. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe‘llar qo‘shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gjigjila (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish yo‘li bilan bildiruvchi qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, qo‘ziqorin, otqulog, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘yko‘z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o‘zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *olaqarg‘a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiyimataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochילדasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchisi qismi turdosh ot bilan yoki *obod* so'zi bilan ifoda-langan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUNing* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi* kabi.

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, ufff* kabi.

CHIZIQCHA BILAN YOZISH

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldar-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopacha, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so‘zdan qo‘sishimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo ‘shlashmoq* kabi;

2) juft so‘z qismlari orasida -u (-yu)bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: *do ‘st-u dushman (do ‘st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko‘makchi fe’l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi- oldi, borasan-qo ‘yanan, uxbabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloy, kuppera-kunduzi, to ‘ppa-to ‘g‘ri, bab-barobar* kabi so‘z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin **oppoq** so‘zi qo‘sib yoziladi).

53. So‘zning **-ma, ba-** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko ‘chama-ko ‘cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘sib yoziladi: *ro ‘baro’, darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e,-ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo ‘y-e, yashang-e, o ‘g‘lim-ey, keldi-yey* kabi. *Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina(-kina,-qina)* yuklamalari o‘zidan oldin kelgan so‘zga qo‘sib yoziladi: *keliboq, o ‘ziyoq, ko ‘rganov, ko ‘rdiyov, mengina, qo ‘shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo‘sishimchasi o‘rniga chiziqcha (-) qo‘yiladi: *7-sinf, 5-“A” sinf, 3-, 7-, 8- sinf o ‘quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

AJRATIB YOZISH

57. Qo‘shma fe’lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta’sir et, tamom bo ‘l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko‘makchi fe’l va to‘liqsiz fe’l mustaqil fe’ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko ‘r, so ‘rab qo ‘y, ko ‘ra qol, bera boshla, yiqila*

yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sain, borgan sari, bu qadar, kun bo'y'i* kabi. Lekin bilan ko'makchisining -la shakli, **uchun** ko'makchisining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha** so'zlar o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kun, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlar qo'shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so'zi **yoq, yer** so'zlar bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayyoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming* olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchchi kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekin-dan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O'ranova, Muhabbat*

Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammad-sharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi)* kabi. Yer, quyosh, oy tur-dosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san’at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: “*Tong*” (mehmonxona), “*Saodat*” (firma), “*Navro‘z*” (“xayriya jamg‘armasi”), “*Kamalak*” (matbaa birlashmasi), “*G‘uncha*” (bog‘cha), “*Botanika*” (sanatoriyl), “*Paxtakor*” (stadion), “*Qutlug‘ qon*” (roman), “*Dilorom*” (opera), “*Tanovar*” (kuy), “*Ozodlik*” (haykal), “*Jasorat*” (yodgorlik), “*Sino*” (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Juhon Tinchlik Kengashi* kabi. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibida-gi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog‘liqni saqlash vazirligi*, *Fan va texnika davlat qo‘mitasi*, *Fanlar akademiyasi*, *Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: “*O‘zbekiston Qahramoni*” (*unvon*), “*Oltin Yulduz*” (*medal*). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishon-lar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: “*Sog‘lom avlod uchun*” (*orden*), “*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*” (*faxriy unvon*), “*Matbaa a‘lochisi*” (*nishon*) kabi.

73. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagi-dan Muqaddasga bir qarab oldim*. (*O. Yoqubov*)

Eslatma:

1) ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmasa) kichik harf bilan yoziladi: “*Bu men*”, – *– qo‘rqibgina javob berdi ko‘laga*. (*O. Yoqubov*)

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdar shaxs) quyidagi masalalarni:

– *mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kir-masligini*;

– *ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi*;

3) gapning qismlari qavslari raqam yoki qavslari harf qo‘yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi, asosan, besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so‘zlar, 2) o‘zbekcha so‘zlar, 3) tojik tilidan kirgan so‘zlar, 4) arab tilidan kirgan so‘zlar, 5) rus tilidan kirgan so‘zlar. (“*O‘zbek tili*” darsligidan)

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lмаган ба’зи birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (*Amerika Qo‘shma Shtatlari*), *BMT* (*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*), *AES* (*atom elektr stansiyasi*) kabi. Qisqartma tarkibi bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (*Toshkent davlat texnika universiteti*) kabi.

KO‘CHIRISH QOIDALARI

75. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *to‘q-son, si-fatli, sifat-li, paxta-kor, paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: *va-da, ma‘-rifat, mash‘-al, in‘-om* kabi.

76. So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O‘zlashma so‘zlarining bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma, mono-grafya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 5-“A” *sinf*, V “B” *guruhi*, 110 *gr*, 15 *ga*, 105 *m*, 25 *sm*, 90 *mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: “Navro‘z-92” (festival), “O‘qituvchi-91” (ko‘rik tanlov), “Andijon-9”, “Termiz-16” (g‘o‘za navlari), “Boing-767” (samolyot), “Foton-774” (televizor) kabi.

82. *A.J.Jabborov, A.D.Abdulyaliev* kabilarda ismnинг va ota ismining birinchi harfiga tenq qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, *v.b.* (va boshqalar), *sh.k.* (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI DAVLAT TILI HAQIDA

O'zbekiston Oliy Kengashining 1989-yil 21-oktabrda bo'lib o'tgan o'n birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasi "O'zbekistonning Davlat tili haqida" Qonun qabul qildi. Bu qonun Oliy Kengashning 1995-yil 21-dekabridagi IV sessiyasida yangi tahrirda qabul qilindi. Ona tilimizga davlat maqomi berilishi O'zbekiston tarixida, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta voqeа bo'ldi. U o'zbek tilining bundan keyingi taraqqiyotida ham muhim omil bo'ladi.

Yangi tahrirdagi Qonunning muhim jihatи shundaki, unda o'zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi mavqeyi hisobga olindi. Bu Qonunda O'zbekiston Respublikasining demokratik, tinchliksevar siyosati o'zining aniq ifodasini topdi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida tan olinar ekan, bu narsa respublika hududidagi boshqa tillarning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi. Qonunning 2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi. Bu esa yangi Qonunning naqadar xolis ekanligini ko'rsatadi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tildir.

2-modda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’milnadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zinch yashaydigan joylarda esa – ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta’milnadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tilarda ham umumiyligi, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’milaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioxati etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’milaydi, shu jumladan unga hamma e’tibor qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’milaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruvinin organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tilarda ham e’lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruvinin organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruvinin organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvinin organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’milnadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili,

shuningdek, qatnashchilarning o‘zлari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish , sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’milanganadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi biian boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo‘lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligi va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanshi mumkin.

14-modda. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’milanganadi.

15-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’iy nazar, o‘z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobiga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning, shuningdek, milliy mada-niy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e‘lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta‘minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma‘muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahslashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiplanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjalari ga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

TALAFFUZ VA OHANG

Og‘zaki nutqda bir necha xil talaffuz qilinuvchi tovush, qo‘shimcha va so‘zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi to‘g‘ri talaffuz me’yori sanaladi. To‘g‘ri talaffuz me’yorlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga *orfoepiya* (yunoncha orfo – “to‘g‘ri”, epos – “so‘zlamoq”, “nutq”) deyiladi.

Talaffuzda ohang muhim o‘rin tutadi. Ohang vositasida so‘z birikmlari va gap, uning bo‘laklari farq qilinadi. *Yangiyo l (ot, atoqli ot)* – yangi yo‘l (*so‘z birikmasi*). Gap bo‘laklari talaffuz qilinganda,

ular orasida to'xtam (pauza) qilinadi. Ikkita to'xtam orasidagi nutqiy bo'lak sintagma deb yuritiladi. To'xtamning o'zgarishi gap mazmuni-ga ta'sir qiladi: 1. *Mashinadan / ikki bolali ayol tushdi*. 2. *Mashinadan ikki bolali ayol tushdi*. 1-gapda ayol bitta, bola ikkita, 2-gapda esa ayol ikkita. Sintagmalar orasiga yozuvda ba'zan vergul qo'yiladi, ba'zan qo'yilmasligi ham mumkin.

Ohang va uning nutqdagi ahamiyati

Og'zaki nutq oqimi bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. Bunday bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi. Lekin og'zaki nutqimiz faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari ketma-ket joylashgan va bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori ustiga qo'yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo'ladi va bu birliklar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Ustsegment birliklar urg'u, to'xtam (pauza), nutqning emotsiyal bo'yog'i (darak, so'roq, buyruq, his-hayajon va boshqalar) kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ko'rsatilgan ustsegment birliklarning jami nutq ohangini tashkil etadi.

Og'zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o'zaro munosabatidan iborat bo'ladi. Ko'pincha bunga imoshoralar, mimikalar qo'shilib, nutqimizni yana ham ta'sirli, bo'yoq dor qilishga xizmat qiladi.

LEKSIKOLOGIYA

Har qanday tilni o'rganayotgan paytingizda, eng avvalo, sizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog'liq bo'lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma'lum bir tildagi ana shunday so'zlar yig'indisi shu tilning lug'at tarkibini tashkil qiladi.

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi:
a) tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi;

b) lug‘at tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi. Leksika atamasining ikkinchi ma’nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo‘llaniladi.

Leksikologiya grekcha *lexikos* – “so‘z, so‘zga doir” va *logos* – ta’limot” so‘zlarining birikuvidan olingan bo‘lib, leksika (so‘z) haqidagi ta’limot demakdir. Demak, so‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga leksikologiya (ba’zan leksika) deyiladi.

So‘z va leksema. Nutqimiz so‘zlarning qo‘shiluvidan hosil bo‘ladi. So‘zni talaffuz qilganimizda va qulog‘imiz bilan eshitganimizda go‘yo u faqat tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlikdek tuyuladi. So‘zni bunday tasavvur qilish bir yoqlamadir, chunki har qanday tovushlar birikmasi so‘zni hosil qilavermaydi. Masalan, so‘z, g‘os singari tovush birikmalarini so‘z deb bo‘ladimi? Yo‘q. So‘z bo‘lish uchun tovushlar birikmasining o‘zигина kifoya qilmaydi. Ma’lum tovush va tovushlar birikmasi ma’no bilan bog‘langandagina so‘zga aylanadi. Yuqoridagi tovush birikmalarining tarkibini o‘zgartirsak, ular ma’lum ma’no bilan bog‘lanadi. Masalan, o‘s, sog‘kabi.

Demak, so‘zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma’no tomoni mavjud.

Ma’lum ma’no bilan bog‘langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi **so‘z** sanaladi.

So‘z ikki xil ma’no bildiradi:

1. Atash (leksik) ma’nosi. 2. Grammatik ma’nosi.

So‘zlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirishi uning atash (leksik) ma’nosi sanaladi. Faqat mustaqil so‘zlarga atash ma’nosiga ega bo‘ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlarga ishora qiladi.

Lug‘aviy ma’no ustiga qo‘shilib, so‘zning shakliy qismi orqali ifodalangan va uning ma’lum turkumga mansubligini, gapda qanday vazifa bajarishini ko‘rsatuvchi ma’no so‘zning grammatik ma’nosi hisoblanadi.

Grammatik ma’nosiz, faqat leksik ma’no bildiruvchi so‘zning qismi uchun **leksema** atamasi qo‘llaniladi. Grammatik shakllangan so‘z

morfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi. Gap tarkibida so‘zlarni leksema va grammatic qo‘sishchalarga ajratamiz. So‘zning grammatic ma’no bildiruvchi qo‘sishchalarsiz qismi **leksema** sanaladi. Lug‘atlarda bosh so‘z sifatida leksemalar beriladi.

So‘zlarning lug‘aviy (atash, leksik) va grammatic ma’nolari

Nº	Misollar	Lug‘aviy ma’no	Grammatik ma’no
1.	<u>Gullar</u> ochildi.	Narsa	Ot, bosh kelishikda, ko‘plikda, ega
2.	<u>Ozil</u> ko‘ylak kiydi.	Belgi, rang	Sifat, oddiy daraja, asliy sifat, aniqlovchi
3.	<u>Maktabga bordim.</u>	Harakat	Fe'l, o‘tgan zamon, aniq nisbat, xabar mayli, l-shaxs, birlik, bo‘lishli, kesim
4.	<u>O‘nlab o‘quvchilar</u> keldilar.	Miqdor, raqam	Son, chama son, sodda son
5.	Onam <u>tez</u> keldilar.	Holat	Ravish, holat ravishi

Tilimizdagи barcha so‘zlarda **atash** ma’no yo‘q, **grammatik** ma’no bor.

Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar

So‘zlar bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarga bo‘linadi. *O‘n, Toshkent, Mirzacho* l singari aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilgan so‘zlar bir ma’noli so‘zlar yoki *monosemiya* sanaladi.

Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlarga *ko‘p ma’noli so‘zlar* yoki *polisemiya* deyiladi. Polisemiya grekcha *poli* – “*ko‘p*”, *xemiya* – “*ma’no*” so‘zlaridan olingan bo‘lib, *ko‘p ma’noli* demakdir.

Ko‘p ma’noli so‘zlarda ma’no qanchalik ko‘p bo‘lsa ham, lekin u bir so‘z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko‘p ma’noli so‘zlarda ma’nolardan biri to‘g‘ri ma’no (yoki o‘z ma’no), qolganlari esa ko‘chma ma’no bo‘ladi. Ko‘chma ma’nolar nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda namoyon bo‘ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to‘g‘ri ma’nosini asosiy ma’no bo‘lib qoladi. Masalan:

tosh so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, “qattiq jism” ma’nosini anglatadi.

So‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘lImagen atash (leksik) ma’nosi o‘z ma’no sanaladi.

So‘zning nutqda boshqa so‘zlarga bog‘lanib hosil qiladigan yondosh ma’nosi ko‘chma ma’no hisoblanadi. Masalan: *Odamning qulog‘i* – o‘z ma’noda, *qozonning qulog‘i* – ko‘chma ma’noda.

O‘z va ko‘chma ma’no birikib *ko‘p ma’noli* so‘zni hosil qiladi.

Bir ma’noli so‘zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Yangi so‘zlar (neologizmlar) ham davrlar o‘tishi bilan qo‘sishimcha ma’nolarni anglatadi.

Ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nosini bilish va undan nutq jarayonida o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchan, ifodalari bo‘lishiga yordam beradi.

Ko‘chma ma’nolar va ularning turlari. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma’lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari sifatida ham qo‘llanadi. Shunday vaqtida bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari sifatida xizmat qiladi. Masalan, *burun* so‘zi “tirik organizmning yuz qismidan bo‘rtib chiqqan nafas olish organi” ma’nosini ifodalash bilan birgalikda “yerning suvlikka tomon bo‘rtib chiqqan qismi” ma’nosini ham ifodelaydi.

Predmetlar o‘rtasidagi tashqi o‘xhashlik (yuz qismdan bo‘rtib chiqqan burun bilan yer qirg‘og‘ining dengiz yoki okeanga qarab bo‘rtib chiqishi o‘rtasidagi o‘xhashlik) birining nomini ikkinchisi o‘rnida qo‘llashga asos bo‘lgan.

Ma’no ko‘chishining nima asosda ro‘yobga chiqishiga ko‘ra *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa*, *vazifadoshlik* singari turlari mavjud.

Metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi. Biror narsa, belgi yoki harakatning nomini o‘zaro o‘xhashligi bo‘lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko‘chirish metafora usuli bilan ma’no ko‘chish deyiladi.

Metafora usuli bilan ma’no ko‘chishi quyidagicha:

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o‘rtasidagi shakliy o‘xhashlik asosida: *burun* (“*odamning burni*”) *burun* (“*choynakning burni*”);

b) ikkita belgi-xususiyat o‘rtasidagi nisbiy o‘xhashlik asosida: *cho‘qqi* (“*tik narsalarning eng yuqori nuqtasi*”) – *cho‘qqi* (“*erishilgan yoki erishilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori pog‘ona, daraja; ilm-fan cho‘qqisi*”);

c) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o‘rin nuqtai nazaridan o‘xshatish asosida: *bosh* (“*tananing bo‘yindan yuqori qismi: odamning boshi*”) – *bosh* (“*tik narsalarning tepe qismi: shamol bo‘lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi*”);

d) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o‘rtasidagi nisbiy o‘xhashlik asosida: *urmoq* (“*qo‘l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq: Bektemir miltiq qo‘ndog‘i bilan uning peshonasiga bir urdi*”) – *urmoq* (“*tanqid qilmoq: ota-buvamni kavlab, gazejaga urib chiqishdi*”).

Metonimiya yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi. Yunoncha “qayta nomlash” demakdir. Bunday ko‘chirilish predmetlar yoki hodisalarning o‘zaro aloqadorligiga asoslanadi.

Buning quyidagi ko‘rinishlari bor:

a) o‘simlikning nomi shu o‘simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsulotga ko‘chiriladi: *qahva (qahva daraxti)* – *qahva (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik, kofe)*;

b) narsa (idish) ichidagi narsaning ma’nosini o‘sha narsaga (idishga) o‘tkaziladi: *bir tovoqni tushirdim* (*bir tovoq oshni yedim ma’nosida*);

c) muallifning nomi asarining nomi bilan qo‘llaniladi: *Hamzani o‘qidim, Navoiyni oldim qo‘limga kabi*. Bu o‘rinda Hamza asarlari, Navoiy asarlarini o‘qidim, qo‘lga oldim degan ma’no tushuniladi.

d) harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajarishdagi vosita, quroq bilan almashtiriladi: *Uning perosi qasos o‘ti bilan yonardi. Mazar kur gaplarning hammasi ustoz S.Ayniy qalamiga tegishli*.

e) biror narsani u yasalgan material bilan almashtirish: *qo‘lda po‘lat shirqillar (qilich demoqchi)*;

f) ma’lum mamlakatda, davlatda yoki ma’lum o‘rinda yashab turgan kishilar ma’nosini shu yerga, davlat yoki mamlakatga ko‘chiriladi: *majlisga butun qishloq keldi*;

g) alohida olingen aniqlovchi to‘liq narsani almashtiradi: *Yalqov Mamajon samovarda yotib tush ko‘radi*. Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet-voqelikka ko‘chiriladi: *auditoriya* (*o‘quv xonasi*) – *auditoriya* (*o‘quvchilar guruhi*: *auditoriya sukutda*).

Sinekdoxa va uning uslubiy xususiyatlari

– *Farzandi bormi?*

– *Tirnoqqa zor.*

Yuqoridagi dialogda tinglovchi so‘zlovchining savoliga “Yo‘q” deb javob berishi ham mumkin edi, lekin u “tirnoqqa zor” iborasini ishlatishni ma’qul ko‘rdi. Bu bilan suhbat mavzusiga aylangan shaxsning farzandi yo‘qligini bayon qilish bilan cheklanib qolmay, uning farzand ko‘rishga tashnaligini ham alohida ta’kidlab ko‘rsatdi.

Nima uchun farzand yoki bola o‘rniga tirnoq so‘zi ishlatilyapti? Tirnoq bolaning bir kichkinagina a‘zosi. Shu a‘zoga ham zorligi, tashna ekanligini bilish bilan bolaga zor ekanligi bo‘rttirib ko‘rsatilyapti.

Bu o‘rinda butun bir narsa, ya’ni bola uning qismi – tirkog‘i orqali ifodalanyapti. Ana shunday ma’no ko‘chish usuli sinekdoxa hisoblanadi.

Sinekdoxa grekcha *synekdoche* “*birgalikda anglash*” so‘zidan olingen bo‘lib bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakni ifodalashni bildiradi.

Sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko‘chiriladi: *qo‘l (butun)* – *qo‘l (qism – “barmoq ma‘nosida”). Besh qo‘l barobar emas; bosh (butun) – bosh (qism – “miya”, “aql-hush” ma‘nolarida). Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan.*

b) qismning nomi butunga ko‘chiriladi: *olma (qism – “meva”) olma (butun – daraxt) olma gulladi, eshik (qism – “uyning eshigi”, “hovlining eshigi”) – eshik (butun – “uy”, “hovli”) Eshigimda juda ko‘p odamlar ishlagan; tuyaq (qism) – tuyaq (butun – “uy hayvoni”, “mol”) Nikolay zamonida ostonam tuyaq ko‘rmagan.*

Kinoya va uning uslubiyati. Kinoya – so‘zlarning aks ma’noda qo‘llanishi. Bunday ko‘chishlarni tushuntirish uchun so‘zlar yozuvda qo‘shtirnoqqa olinadi: *Qo‘shining oldingi qismi “dushman” lagerini egallahsha ulgurgan edi.*

Vazifadoshlik va uning uslubiyati. Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi. Bu ikki gapda qo'llanilgan chiroq so'zining ma'nosiga e'tibor bersangiz, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga o'xshamaydigan narsalarni ifodelayotganining guvohi bo'lasiz. Birinchisida "elektr toki orqali yorituvchi noksimon (lampochka) yoki tayoqsimon asbob"ni, ikkinchisida esa "kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob"ni bildiradi.

Bu asboblar shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo'q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bajaradi.

SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, bir xillari esa talaffuzi jihatdan o'xhash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra so'zlar guruhlarga bo'linadi. So'zlarning bunday shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari quyidagilar:

1. Omonimlar (shakldosh so'zlar)
2. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar)
3. Antonimlar (zid ma'noli so'zlar)
4. Paronimlar

Omonimlar – talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo turli atash ma'nolarini bildiradigan so'zlardir. Masalan, *olma (meva)* – *olma (harakat)* – *tut (daraxt)* – *tut (harakat)*.

Omonimlar bir xil so'z turkumiga ham, har xil so'z turkumiga ham oid bo'lishi mumkin. Masalan, *chang (musiqa asbobi)* – *chang (to'zon)*, *zang (temirning zangi)* – *zang (uzumning zangi)* – *zang (ovoz)*; *chopmoq (yugurmoq)* – *chopmoq (kesmoq)*; *yozmoq (galanda)* – *yozmoq (dasturxon)*. Bunday omonimlar har bir turkum doirasi-da grammatic formalar bilan shakllanganda ham o'zaro omonim bo'lib qolaveradi. Masalan: *ot (ism)* va *ot (ish hayvoni)* omonimlarini olib ko'raylik:

		+im	+ning
		+ing	+ni
		+i	+ga
Ot	+lar	+imiz	+da
Ot		+ingiz	+dan
		+i	

Bu omonim so‘zlar har xil leksik ma’no ifodalasa ham ot turkumiga oidligi uchun otlarga xos har qanday grammatik formada o‘zaro omonimlik munosabatida bo‘ladi.

Ot (ism) ot turkumi – *ot* (harakat) fe’l so‘z turkumiga oid. Bu so‘zlarda omonimlik turli so‘z turkumlari doirasida yuzaga kelyapti. Shuning uchun bu so‘zlarga grammatik formalar qo‘shilganda omonimlik munosabat saqlanmaydi.

Shakldosh so‘zlar bir qarashda ko‘p ma’noli so‘zlarga o‘xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko‘p ma’noli so‘zlar bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llashdan hosil bo‘ladi. Shakldosh so‘zlar esa shakli o‘xhash ikki va undan ortiq so‘zlardir.

Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanish yo‘qolish natijasida omonimlar paydo bo‘lishi mumkin: *dam* – *nafas* (*o‘z ma’nosи*) *dam* – *bosqon* (*ko‘chma ma’nosи*), *dam* – *hordiq* (*ko‘chma ma’no*).

Omonimlar leksik omonimlar va qo‘srimcha omonimlarga bo‘linadi. Yuqorida leksik omonimlar haqida gapirildi. Qo‘srimcha omonimlar: *tepki* (*ot*) – *kechki* (*sifat*), *tortma* (*ot*) – *burama* (*sifat*) kabi.

Sinonimlar – shakli har xil bo‘lsa ham, ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Sinonim so‘zlar bir umumiy ma’noni: predmetlarni (*ovqat, taom, osh*) predmetning bir xil belgisini (*ishchan, harakatchan, tirishqoq*), bir xildagi harakatni (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi.

Bunday so‘zlar ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma’nosи betaraf, uslubiy bo‘yoq dorlikdan xoli bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan so‘z asosiy so‘z (dominanta) deb ataladi: *chiroyli, go‘zal, ko‘hlik*.

Ko‘p ma’noli so‘zlar ko‘chma ma’nosida boshqa so‘zlar bilan sinonim bo‘lishi mumkin: *bitirmoq* – *tugatmoq*; *bitirmoq* – *bajarmoq*, *bitirmoq* – *yo‘qotmoq*.

Sinonim so‘zi grekcha sinonimos (bir nomli) so‘zidan olingan. Sinonim so‘zlar nutqning ta’sirli bo‘lishiga yordam beradi. Sinonim so‘zlar bir xil so‘z turkumiga oid bo‘ladi: *hayoli, andishali, iboli* (sifat); *yuz, aft, bashara, chehra, turq* (ot); *gapirdi, so‘zladi* (fe'l).

Tildagi o‘zlashma (boshqa tildan kirgan) so‘zlar o‘zbekcha so‘zlar bilangina emas, balki o‘zaro ham sinonim bo‘lishi mumkin: *respublika – jumhuriyat*. Tub so‘zlar yasama so‘zlar bilan sinonim bo‘lishi mumkin: *his (tub) – sezgi (yasama), savol (tub) – so‘roq (yasama)*. Sinonim qatordagi so‘zlar eskirishi mumkin: *odat, rasm, urf, fan (rasm, odat)*.

Agar sinonim so‘zlar har jihatdan teng kelsa, ular o‘zaro farq qilmasa **leksik dubletlar** deb ataladi: *kosmos – fazo*.

Ma’lum gap yoki matn ichidagina o‘zaro sinonim bo‘lgan so‘zlar shartli sinonimlar deyiladi: *Nega kerak edi shu chiroy, shu o‘t? Shu yoniq yulduzni ko‘zga yashirmoq?* Bu misoldagi *chiroy, o‘t va yoniq yulduz* so‘zları shartli **sinonimlar** hisoblanadi.

Sinonimlar leksik sinonimlar va qo‘srimcha sinonimlar bo‘ladi.

Leksik sinonimlar: *el, yurt, vatan, diyor.* **Qo‘srimcha sinonimlar:** *-li, -ser, no-, -siz: g‘ayratli–serg‘ayrat, noo ‘rin-o ‘rinsiz.*

Ma’nodosh so‘zlar bir ma’noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma’no qirralari bilan ifodalashda, so‘z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta’sirchanligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Ma’nodosh so‘zlar bir umumiyligi ma’noni ifodalasa ham, shu umumiyligi ma’noni qanday ifodalash nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Masalan: *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo‘kirmoq* so‘zları so‘zlash umumiyligi ma’nosini bilan bir xil bo‘lsa ham, ular ovozning baland-pastligiga ko‘ra farq qiladi. Shuningdek, *to‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq, vaysamoq, javramoq* so‘zları ham so‘zlash umumiyligi ma’nosini bilan yuqoridagi so‘zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi. *Irod etmoq, bayon etmoq* singari so‘zlar kitobiy uslubga xoslanishi bilan farqlanadi.

Ko‘ryapsizki, bir ma’noni o‘zingizning maqsadingizga muvofiq bir necha so‘zlardan bittasini tanlash orqali ifodalash mumkin. Bu bilan nutqning ta’sirchanligini oshirish orqali so‘z sehrini namoyon qilishga erishiladi.

Antonimlar – qarama-qarshi ma’noli so‘zlardir. Antonim so‘zi grekcha *anti* (zid, qarama-qarshi) va *onuma* (nom) so‘zlaridan tuzil-

gan. Antonimik juftlikdagi so‘zlar faqat bir xil so‘z turkumlariga oid bo‘ladi: *yaxshilik – yomonlik (ot), uzun – qisqa (sifat), ko ‘p – oz (ravish), keldi – ketdi (fe’l)*.

Zid ma’noli so‘zlar doimo ikki qarama-qarshi a’zodan iborat bo‘ladi. Birini aystsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. Masalan: *ach-chiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. Zid ma’noli so‘zlar birgalikda qo‘llanib, yangi so‘z hosil qilishi mumkin. Masalan: *yosh-u qari -bari, achchiq-chuchuk -ovqat turi, uzoq-yaqindan -hamma yoq-dan* kabi.

Antonimik juftlik hosil bo‘lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Fe’llardagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.

Ko‘p ma’noli so‘zlar har bir ma’nosи bilan ayrim-ayrim so‘zlarga antonim bo‘lishi mumkin: *qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxyi odam*. Antonimik juftlar ko‘chma ma’no ifodalashi mumkin: *tun-u kun (ravishga ko ‘chgan), achchiq-chuchuk (otga ko ‘chgan)*.

Bir sinonimik qatordagi antonim so‘z sinonimik qatordagi baracha so‘zlarga antonim bo‘ladi: *chiroqli – go ‘zal – xushro ‘y – ko ‘hlik – xunuk – badbashara – badburush*.

Antonimlikda uchta belgi bor: 1) shakliy jihatdan har xillik; 2) ma’no jihatdan har xillik; 3) ma’nodagi o‘zaro zidlik.

Qo‘shimchalar antonim ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: *aqli – aql-siz, bema ‘ni – bama ‘ni*. Antonimlar badiiy adabiyotda tazod (badiiy san‘at usuli) yaratish uchun xizmat qiladi.

Paronimlar – aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma’nosи har xil so‘zlardir. Paronimlar ko‘pincha bir tovush bilan bir-biridan farq qiladi: *asr – asir, shoh – shox, amr – amir* va boshqalar.

Paronim so‘zi *para* (juft) va *onuma* (nom) so‘zlaridan tuzilgan. Paronimlar ba’zan og‘zaki nutqda, badiiy asarlarda uchraydi. Ular bir so‘z turkumiga ham, turli so‘z turkumlariga ham oid bo‘lishi mumkin; *oriq (sifat) – ariq (ot); zirak (ot) – ziyrak (sifat); asr (ot) – asir (ot)*.

Paronimiya adabiy me’yor bo‘yicha talaffuz etmaslikdan yuzaga keladi. Masalan, *shahrimiz nufuzi* ikki milliondan oshdi. Bu gapda tagiga chizilgan so‘z aslida *nufusi* tarzida bo‘lishi kerak (*nifuz – obro’, nufus – aholi*). Yana misollar keltirish mumkin: *adl* (adolat, odillik) – *adil* (tik, egilmagan). *Asl* (tub, haqiqiy)

– *asil* (eng yaxshi, toza). *Ahl* (bir soha odamlari) – *ahil* (inoq, totuv). Talaffuzi yaqin bo‘lganligi uchun bunday so‘zlarni bir-biri bilan almashtirib qo‘yish ehtimoli bor. Nutqingizni aniq, ravon bo‘lishini istasangiz, ana shunday xatoga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiling.

Uyadosh so‘zlar. Bir mazmuniy uyaga (guruhgaga) mansub bo‘lgan so‘zlar uyadosh so‘zlar deyiladi. Masalan: kiyim turlari: *ko ‘ylak, shim, kostum, do ‘ppi* va h.k.

Tilimizdagi barcha so‘zlar ongimizda ma’lum mazmuniy uya-larga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so‘zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi.

Uyadosh so‘zlarni ma’nodosh so‘zlardan farqlash kerak. Ma’nodoshlar bir tushunchaning turli qirralarini ifodalaydi, uyadosh so‘zlar esa bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaydi.

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI (LUG‘ATSHUNOSLIK)

Leksikografiya lotincha *leksikos* “so‘z”, *grapho* “chizmoq”, “yozmox” so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazarriyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limidir. Tilimizdagi so‘zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug‘at, lug‘at tuzish qoidalarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasiga esa lug‘atshunoslik (leksikografiya) deyiladi.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug‘at tuzish tamoyillari va uslubiyotlaridir. Leksikografiya amaliyoti esa lug‘at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so‘zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o‘z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug‘at turlari, so‘zlik tarkibi va so‘z maqolasining tuzilishi asosiy o‘rinni egallaydi.

Avvalo, lug‘atlar ikki turli bo‘ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar; 2) filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Bu ikki turdagiligi lug‘atlar lug‘at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug‘atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o‘z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug‘at, ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, filologik lug‘at hisoblanadi.

O‘zbek leksikografiyasining tarixi M.Qoshg‘ariyning XI asrda yuzaga kelgan “Devonu lug‘atit turk” nomli lug‘atiga borib taqaladi. Bu

davr ichida o‘zbek tili bilan bog‘liq holda ko‘pgina lug‘atlar yaratilgan bo‘lib, ulardan faqat Alisher Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan Tole Imoniyning “Badoyi ul-lug‘at” nomli chig‘atoycha-forscha lug‘atini (XV), “Abushqa” nomi bilan mashhur bo‘lgan chig‘atoycha-turkcha lug‘atni (XVI), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” nomli o‘zbekcha-forscha lug‘atini (XVII asr) ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o‘z ifodasini topadi. Ummumani, ensiklopedik lug‘atlar ma’lum bir xalqning madaniy-ma’naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o‘z izohini topadi.

Qomusiy lug‘atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kattalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun 14 jiddlik O‘zSEning 1-jildini tayyorlash ishida 14 ta akademik, 13 ta akademiyaning muxbir a‘zosi, 88 ta fan doktori, professor, 539 ta fan nomzodi va boshqa ko‘plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mavjud. Mazkur jild ustida 1965–1971-yillar mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971–1980-yillar oraliq‘ida O‘zSEning 14 jildi nashrdan chiqqan. O‘sha davr uchun bu juda katta voqeа edi, lekin ushbu qomusiy lug‘atdagi ko‘plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ularni qayta ishslash, mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yoritish lozim bo‘lib qoldi.

Filologik lug‘atlar, ularning tiplari

Lug‘at oldiga qo‘yilgan maqsadiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi; izohli lug‘at, tarjima lug‘ati, imlo lug‘ati va boshqalar.

Filologik lug‘atlar ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar muayyan bir tartibda (yo alfavit asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

Filologik lug‘atlarning o‘zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug‘atlariga bo‘linadi.

Tildagi barcha so‘zlarning qanday ma’nolarni bildirishini tanshituvchi lug‘at izohli lug‘at, muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi

tilda qanday so‘zga teng kelishini ko‘rsatuvchi lug‘atlar esa **tarjima lug‘ati** sanaladi.

Bir xil qo‘shimchali so‘zlar **ters lug‘atga** joylashtiriladi.

1981-yili Moskvadagi “Russkiy yazik” nashriyotida nashr qilin-gan 2 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 2001-yili Toshkentdag‘i “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” yoki o‘zbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar bunga misol bo‘la oladi.

Izohli lug‘atlar so‘zlilikning tanlanishiga ko‘ra umumiyligi va tar-moq lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar **umumiyligi** izohli lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar **tarmoq lug‘at** hisoblanadi. (Masalan, kasb-bunarga doir lug‘atlar, ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalar).

Har qanday lug‘at shu lug‘atning egasi bo‘lgan xalqning katta madaniy va ma’naviy boyligi sanaladi.

Imlo lug‘ati va undan foydalanish. Har bir tildagi so‘zlarni to‘g‘ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmui bo‘ladi, bunga **imlo** yoki **orfografiya qoidalari** deyiladi. Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini o‘tab kelmoqda.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek yozuviga o‘tilishi munosabati bilan imlo qoidalariiga ham sezilarli darajada o‘zgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yili A.Hojiyev muharrirligida yangi “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” nashr qilindi.

Imlo lug‘atlarida so‘zlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tar-tibi bilan beriladi.

Etimologik lug‘at va undan foydalanish. Tildagi har bir so‘z o‘zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan, Toshkent so‘zi qadimda Shosh, Choch nomlari bilan yuritilgan. Aytishlari ga qaraganda, bug‘doy, sholi yanchiladigan xirmonning o‘rnini, may-donni *choch*, *shosh* deb atashgan ekan. Unga joy ma’nosini bildiruvchi *kent* so‘zini qo‘shishib, Chochkent – Toshkent deb atay boshlashgan.

Tildagi so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘z ichiga olgan lug‘atlar **etimologik lug‘atlar** sanaladi.

Professor Sh.Rahmatullayevning ko‘p yillik samarali mehnatlari tufayli o‘zbek tilida ham dastlabki etimologik lug‘at paydo bo‘ldi.

Bilib oling: Navoiy asarlari lug‘ati – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972, 784-bet.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati – Moskva “Russkiy yazik” nashriyoti, 1981. 1-jild, 632-bet, 2-jild, 715-bet.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati – Toshkent, FAN nashriyoti, 1-jild, 656-bet, 1983; 2-jild, 644-bet, 1983, 3-jild, 622-bet, 1984; 4-jild, 634-bet, 1984.

Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati – Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh taxririysi, 1998, 318-bet.

O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati: –T., “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2001.

Birlashgan o‘zbek alfaviti va orfografiyasi. – Toshkent: O‘zFAN, 1940.

S.Ibrohimov, M.Rahmonov. Imlo lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1956, 1964.

S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedov. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: FAN, 1976.

A.Hojiyev muharrirligi ostida chiqarilgan O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.

O‘zbek tilshunosligida hali yaratilmagan lug‘atlar ham bor. Jumladan: 1.”O‘zbek tilining izohli etnografik lug‘ati”,

2.”O‘zbek tilining qo‘shma so‘zlar lug‘ati” kabi.

O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari

Tilning boyish yo‘llari. Mustaqillik yillarda hayotimizda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yangi-yangi tushunchalar vujudga keldi. Yangi tushunchalar ko‘proq tilning ichki imkoniyatlari: a) shevalardan so‘z olish; b) so‘z yasash imkoniyatidan foydalanish asosida yuzaga keldi. Masalan: *ishchi, gulzor, bog‘bon* kabi. Ba’zan yangi tushunchalar boshqa tillardan so‘z olish yo‘li bilan ham ifodalanadi. Bunday so‘zlar olinma so‘zlar hisoblanadi. Boshqa tillardan o‘zbek tiliga kirib o‘zlashib qolgan so‘zlarga olinma so‘zlar deyiladi. Masalan: *radio, televizor, tramvay, kollej, litsey*. Bular tilning tashqi imkoniyati sana-ladi.

So‘zlar bir tildan ikkinchi tilga xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa aloqalar natijasida o‘zlashadi.

Shuni bilingki, dunyoda boshqa tillardan so‘z olmaydigan biron ta ham til yo‘q. *Kurash*, *yonbosh*, *chala*, *halol* so‘zlari dunyoning barcha tillariga kirib borayotgani kabi, bizning tilimiz ham turmushimizga kirib kelgan bir qator yangi tushunchalarni ifodalovchi olinma so‘zlar hisobiga boyib bormoqda.

Barqaror birikmalar va ularning tasnifi

Nutq jarayonida fikrimizni bayon qilish uchun so‘zlar yordamida qilinadigan emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Masalan, *Toshkentdag‘i istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko‘rib, og‘zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og‘zim ochilib qoldi* birikmasi so‘zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kirilgan.

Og‘iz ochilib qolmoq birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema *hayron bo‘lmoq* leksemasi ifodalangan ma’noga teng keladi. Yoki: “*Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda*”, – deydi xalqimiz jumlasida *deydi xalqimiz* birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zaro erkin bo‘g‘langan bo‘lsa, undan oldingi so‘zlar so‘zlovchining nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda so‘zlarning xuddi shunday tarkibini doimiy saqlagan holda mavjuddir.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birikmalari barqaror birikmalar (turg‘un birikmalar) deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik, nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma’no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o‘rinli foydalinish nutq go‘zalligini ta’minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko‘rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi **paremiologiya** (lotincha parema “barqaror”, “logos” ta’limot), barqaror birikmalar lug‘atini tuzish muammolarini o‘rganuvchi bo‘lim esa **paremiografiya** (lot. parema – barqaror, grofho “yozmoq”) sanaladi.

Barqaror birikmalar tasnifi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtai nazari dan turlichadir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1. Frazeologizmlar. 2. Maqol va masallar. 3. Aforizmlar.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so‘zlar ma’no jihatdan uyg‘unlashib, mazmuniy yahlitlikni vujudga keltiradi va ko‘pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko‘chma ma’noda ishlatalidi.

Masalan, *qulog‘i ding bo‘lmoq – hushyor bo‘lmoq, qovog‘i osilmoq – xafa bo‘lmoq, og‘zining tanobi gochmoq – quvonmoq* kabi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosini bir so‘zga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi so‘zlar birikmasi yoki gaplarga **frazeologizmlar** (iboralar) deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so‘zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo‘laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni ko‘rib boshi osmonga yetadi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Iboralarda ham shakldoshlik, ma’nodoshlik va zid ma’nolilik mavjud. Masalan:

shakldosh iboralar: boshga ko‘tarmoq-e’zozlamoq, boshga ko‘tarmoq-to‘polon qilmoq; ma’nodosh iboralar: boshi osmonda-og‘zi qulog‘ida- do ‘ppisini osmonga otmoq (o‘ta xursand); *zid ma’noli iboralar: ko‘kka ko‘tarmoq-yerga urmoq* kabi.

Frazeologiya va idioma esa ko‘chgan ma’noli birikma yoki gapdir. **Idiomada**, odatda, hayotiy bo‘limgan hodisa, harakat, holatlar tasvirlanadi: Masalan: *latta (odam), Majlisda uni rosa terlatishdi*. Idiomaning mazmuni kontekstdan anglashilib turadi. Idiomalarni alohida olganda ham o‘z ko‘chma ma’nosini saqlaydi: *latta, kalla, tulki* (odamga nisbatan). Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.

Qo'llanish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so'zlar

Tildagi so'zlarning qo'llanish darajasi shu til egalari doirasida bir xil emas. Ba'zi so'zlar ular tomonidan birdek foydalanilsa, ba'zilari esa ma'lum territoriyada yashovchi yoki ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar nutqidagina qo'llanadi. Shu jihatdan o'zbek tili leksikasi ikki katta qatlama bo'linadi.

1. Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar;
2. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar.

Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar faqat ma'lum ijtimoiy guruh hamda ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'lmaydi.

Bunday so'zlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) hududiy chegaralangan so'zlar (dialektizmlar):
- 2) ijtimoiy (sotsial) chegaralangan so'zlar.

Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, boshqa hududda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar shevaga xos (hududiy chegaralangan) so'zlar yoki dialektizmlar deyiladi. Bu so'zlardan bittasi umumxalq tili bo'lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so'z adabiy til uchun me'yor sanaladi. Masalan, *eshik "hovli"*, *"uy" (Andijon)*, *shoti "narvon" (Andijon, Farg'ona, Namangan)*, *do'ppi so'zi* adabiy me'yor, *kallapo 'sh, qalpoq, takya; inak*(Buxoro), *uy (qipchoq) – sigir, bibi – buvi, gavora – beshik, uchak – tom, ay – oy, go'rmak – ko'rmoq, mo'rcha (Buxoro), qarindja (Xorazm) – chumoli, yumirta (Xorazm), mayak (qipchoq) – tuxum, huvnon – xonim, yop (Xorazm) - kanal* va boshqa so'zlar shevaga xos so'zlardir.

Bilib oling. Har bir shahar, qishloq va viloyat aholisi tilida umumxalq tili bilan barobar shu joyga xos so'zlar, iboralar qo'llanadi. Bu xususiyatlarni tilshunoslik fanining shevashunoslik bo'limi o'rganadi. O'zbek shevalarini o'rganishda G'ozi Olim Yunusov, Y.D.Polivanov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirzayev, A.Aliyev, F.Abdullayev va boshqa olimlarning xizmati katta bo'ldi.

Har bir sheva yana bir necha lajjalarga bo'linadi. Masalan, Farg'ona shevasining Namangan lajjasida *kelutti, didomizza* shaklida qo'llanadi. Shahar shevalari (Toshkent, Namangan, Qo'qon, Farg'ona)

umumiylar ega bo'lsa ham, ayrim so'zlarda (*tancha, turshak* – Toshkent) va ba'zi qo'shimchalarda, unlilar talaffuzida (*kevotti, kelutti, kelyapti; Sho'kat, Do'lat, oting nima? Kitobdi o'qidingizmi?*) farqlanib turadi. Shevadagi u yoki bu so'z umumxalq lug'atiga kirib, adabiy tildagi so'zga sinonim bo'la oladi: *dovuchcha – g'o'ra, eshik – uy ma'nosida, uy – hovli, tancha – sandal* va b.

Ammo *kelutti, alma, apa, ong'lar, biza, mayliz, nondi, devotsiz* kabi talaffuz adabiy til me'yoriga to'g'ri kelmaydi. Ular faqat biror asar qahramonlari (biror shevaga mansub shaxslar) nutqida uchrashi mumkin: *Ikkalasi bamisolai yalakat mag'iz. (As.M.) Adashmasam, ocharni boshqa hech joyda qilishmaydi. (B.Daminov)*

Ma'lum ijtimoiy guruh doirasidagina ishlatiladigan so'zlarga sotsial chegaralangan so'zlar deyiladi. Bunday so'zlar argolar deb yuritiladi. Argolar qiziqishlari, mashg'ulotlari, yoshlari bir xil bo'lgan judator doira (guruh)ga mansub kishilar qo'llaydigan, ma'nosi shunday kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlardir. Masalan:

1) otarchilar argosidan: *yakan (pul), joyi (yo'q), dah (yaxshi, durust);*

2) o'g'rilar argosidan: *loy (pul), harif (pul egasi yo o'g'rilik obyekti);*

3) savdogarlar argosidan: *sar yoki sari piyoz (ming so'm), kapara (olti ming so'm).*

Shuningdek, ayrim tabaqa vakillari tilida faol ishlatiladigan leksemalar ham uchrab turadi, bular **jargonlar** deyiladi. Masalan, *olampanoh, validai muhtarama, padari buzrukvor, manzirat qilmoq* va hokazo.

Tilimizning ma'lum davrida qo'llanilib, hozirgi kunda foydalanimaydigan so'zlarga eskirgan so'zlar deyiladi. So'zlarning eskirishi ikki xil yo'l bilan amalgalashadi:

1. So'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi. Bunday so'zlarga **tarixiy so'zlar** deyiladi. Bu so'zlar yaqin o'tmishda qo'llanib kelgan so'z, so'z birikmasi, qo'shimchalardir: *mingboshi, qozi, faqir, arshi a'lo* kabi.

2. So'z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so'z bilan nomlanadi. Ularga **arxaik so'zlar** deyiladi. Arxaizmlar o'tgan davrlarda qo'llanib, hozirgi kunda iste'moldan chiqqan so'z, so'z birikmasi va

qo'shimchalardir: *ashu* (*qizil tuproq*), *ashuq* (*temir qalpoq, dubulg'a*), *aqrū* (*sekin*),

Arxaik va tarixiy so'zlar, qo'shimchalar badiiy va ommaviy uslublarni hosil qiladi.

Arxaizm va tarixiy so'zlar yozma adabiyotda tarixiy davrni tasvirlash uchun, uslubiy ma'noda esa asar qahramonini ta'riflash, uning eskilikka moyilligini ko'rsatish, mazax, kulgu mazmunida qo'llanadi.

Bilib oling: Dehqon so'zi yer ohib, ekin o'stiruvchi qishloq odamlarini anglatadi. Lekin uning uzoq tarixi bor, o'zi tojikcha so'z bo'lib, *deh* – qishloq, *qoon* yoki *xon* – *hokim* degani. Qadimda mayday yer egalarini dehqon deyishgan. Keyinchalik bu so'z ekadigan-tikadigan odam ma'nosida qo'llana boshladi. Arabcha *vatan* so'zi tug'ilgan joy ma'nosini bildirgan. Endi uning mazmun doirasi katta bir mamlakat darajasiga chiqdi. **Basir** so'zi ko'rish va bilish tushunchalarini ifodalagan. Endilikda-ko'r (ko'rmaslik) ma'nosida qo'llanadi. *Ziyo-nur, agar zim-ziyo desak, qorong'i* degani bo'ladi.

Esda saqlang: Foytun (izvosh – odam tashiydigan prujinali arava), dinor (pul), charx (ip yigiruv asbobi); chaksa (taxminan 5 kg), payssa (taxminan 50 gr), misqol (taxminan 4,25 gr), xon, amir, qushbegi, mingboshi, ellikboshi, sipohi, qozi, qozixona, (sud), mirshab (militcioner), mirshabxona, avaxta (turma), hokim, to'ra, pristav, tilmoch, muhrdor, tanobchi (yer o'lchovchi), imom, mullavachcha.

Hozirgi kunda yangilik belgisini saqlab turgan so'zlarga yangi so'zlar deyiladi.

Bilib oling. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisod, madaniyat, fan va texnika, tashqi aloqalar sohasida katta yutuqlarga erishdi va natijada tilimizga Yevropa tillaridan va boshqa tillardan ko'plab so'z va iboralar kirib keldi. Bular yangi tushunchalarni ifodalagani sababli *yangi paydo bo'lgan so'zlar* deyiladi.

1. Yevropa tillaridan kirgan yangi so'zlar: *avizo* – hisob-kitob operatsiyasi; *aksiya* – paychiga beriladigan qimmatbaho qog'oz; *auksion* – kimoshdi savdosi; *balans* – narsalarning o'zaro muvofiq salmog'i; *bankrot* – qarzini to'lashga qurbi yetmagan korxona, savdogar; *biznes* – foyda orttirishga qaratilgan ish; *biznesmen* – biznes

bilan shug‘ullanuvchi shaxs; *broker* – rasmiy dalol; *budget* – kirim-chiqim hisobi; *viza* – o‘zga mamlakatlarga kirishga berilgan ruxsat-noma; dekloratsiya 1) hukumat bayonoti; 2) chegaradan olib o‘tish uchun ariza; 3) daromad to‘g‘risidagi ma’lumot; bakalavr – to‘rt yoki besh yillik oliy ma’lumot tizimi; magistratura – bakalavrdan so‘ng chuqurlashtirilgan oliy ma’lumot berish tizimi.

2. Arab va fors-tojik tillaridan kirgan hamda eski o‘zbek tilidan tiklangan yangi so‘zlar: *anjuman* – yig‘in, majlis, qurultoy; *badal* – evaziga beriladigan narsa; *bayonnomा* – rasmiy bayonot, tushuntirish; *boj* – chet ellardan keltirilgan mol uchun to‘lov; *buyurtma* – biror narsani ishlab berish haqida topshiriq; *vazir* – ministr, oliy mansab; *vasiqa* – mol-mulk olingani haqida hujjat; *voris* – merosxo‘r; *juri* – maslahatchilar kengashi; *ishbay* – bajargan ishiga qarab haq to‘lash; *kafolat* – kafillik, ishonch xati; *erkinlashtirish* – liberallashtirish, yum-shatish; *muallif* – avtor, ixtiro yoki kitob egasi; *xatboshi* – abzas; *pay-chi* – aksioner; *hakam* – arbitr.

Ma’lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilgan so‘zlarga **atama** deyiladi.

Atamalar qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy va kasbiy atamalarga bo‘linadi.

Ma’lum bir fan doirasida qo‘llaniladigan atamalar ilmiy atamalar hisoblanadi.

Atamalar ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi.

1. Umumxalq tilidagi so‘zlardan ma’nosini maxsuslashtirish orqali hosil qilinadi. Natijada bunday so‘zlar umumxalq tilida bir ma’noni, fan tilida esa boshqa ma’noni bildiradi. Masalan: *ot*, *ildiz*, *hol*, *fe'l*.

2. Boshqa tillardan ilmiy tushuncha uchun atama olish orqali. Bular faqat shu fan sohasidagina ishlatalib, umumxalq tilida ishlatalmaydi. Masalan: *kasr*, *musbat*, *manfiy*.

Ma’lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llaniladigan so‘zlarga *kasbiy atama* deyiladi.

Tilning lug‘atida kasb-hunarga oid ko‘plab maxsus so‘zlar ham bo‘ladi. Birgina *etikdo‘zlikda angob*, *loya*, *qolip*, *sog‘i*, *betlik*, *posh-na*, *charm* kabi atamalar qo‘llanadi. Filologiya fanlari doktori Sobirjon Ibrohimov hunarmandlar tilini o‘rganib, Farg‘onaning kasb-hunar lek-

sikasiga doir yirik kitoblar yaratdi. Bunday so‘zlarni yozuvchilar asarda ishtirok etayotgan shaxslarning kosib ekanliklarini ko‘rsatish uchun, uslubning hamma turlarida, ayniqsa, badiiy uslubda ko‘proq ishlatajilar.

Umumxalq tilida keng qo‘llaniladigan va shu tilda so‘zlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlarga qo‘llanish doirasini chegaralanmagan so‘zlar deyiladi. Ular neytral leksika atamasi bilan ham yuritiladi. Masalan, *non*, *bug‘doy*, *qalam*, *qor*, *daftor*, *bulut*, *radio*.

Nomshunoslik. Siz yashab turgan joydagisi ko‘chalar, maydonlar shahar va qishloqlar, daryo, ko‘l, tepalik, qabristonlar, ma’lum nom bilan yuritiladi. Masalan, *Samarqand shahri*, *Amir Temur ko‘chasi*.

Turli xil obyektlarning muayyan nom bilan atalishida ularning ma’lum belgilari e’tiborga olinadi. Buyuk shaxslarning nomini abadiylashtirish uchun u bilan bog‘liq bo‘lgan holat hisobga olinadi. Yoki shaxsga katta hurmat yuzasidan joy shu shaxs nomi bilan yuritiladi.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limiga **onomastika** (lot. Onuma “nom” so‘zidan olingan) deyiladi.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi:

1. Shaxs va ularga qo‘yilgan nomlar **antroponimlar** (lot. antropos “shaxs”, “odam”, onuma “nom”): Ahmad, Karim;

2. Geografik obyektlar va ularning nomlari **toponimlar** (lot. topos qishloq, shahar, maydon, ko‘cha, onuma “nom”): Qorako‘l, Qarshi;

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar **zoonimlar** (lot. nom “hayvon”, onuma “nom”): To‘rtko‘z;

4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar (daryo, ko‘l, dengiz nomlari) **gidronimlar** (lot. gidro “suv” onuma “nom”): Orol dengizi, Balxash ko‘li.

Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o‘xshatish orqali tasvirlab ifodalashga **tasviriy ifoda** deyiladi. Tasviriy ifodalar, asosan, ot so‘z turkumi doirasida keng qo‘llaniladi. Masalan: *aql gimnastikasi – shaxmat (ot)* kabi.

Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi. Masalan: *o‘rmon podshosi – sher*.

Tasviriy ifodalar ham shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra shakldoshlik va ma’nodoshlik xususiyatiga ega. **Omonim** tasviriy ifoda: *bilim bulog‘i – kitob va kutubxona; qora oltin – neft va ko‘mir. Sironim* tasviriy ifoda – *g‘azal mulkining sultonini va turkiy til asoschisi – A.Navoiy.*

Tasviriy ifodalar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minlaydi.

MORFEMIKA

Nutqingizdagи so‘zlarga hech diqqat qilganmisiz?

Ular bir xil shaklda qotib qolgan emas. Nutq talabi bilan ular turli xil qo‘sishchalarни qabul qiladi, o‘zgaradi, turfa ma’nolarni ifodalash uchun xoslanadi. Misol uchun “o‘z” so‘ziga e’tibor bering: *o‘zim, o‘zing, o‘zicha, o‘zga, o‘zлari, o‘zida.*

Ko‘rinib turibdiki, shakl o‘zgarishi bilan so‘zning ma’nosida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘limoqda. Shu vajdan har bir so‘zni tarkibiy qismga ajratish hamda mazkur qismlarning qanday ma’no anglatayotganligini anglab yetish mumkin. Bu esa tilni bilishdagi eng muhim bosqich sanaladi. Masalan, “*Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga*” maqolidagi “o‘ziga” so‘zini “o‘zga”, “o‘zini”, “o‘zimdan” so‘zlariga almashtirib ko‘ring-chi – sira mumkin emas: mantiq buziladi.

So‘z tarkibi asos va qo‘sishchalaridan iborat. *Litsey-dosh, quvon-ch, maslahat-chi, fikr-iy, ish-i* so‘zlaridan birinchi qism asos sanaladi, ikkinchi qism esa qo‘sishcha qismidir.

So‘zlarning eng kichik ma’noli qismlarini o‘rgatuvchi tilshunoslik bo‘limiga **morfemika** deyiladi.

Yetakchi morfema. So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan, shakl yasovchi qo‘sishchalarsiz qismi **asos** deyiladi.

Asosda qo‘sishchalar qo‘sish natijasida turli xil ma’nolar yuzaga chiqariladi. Masalan: *tin-ch, tin-ish, tin-ch-lik, tin-im-siz, be-tin-im* kabi so‘zlarning asosi “tin” so‘zidir, ammo qo‘sishcha qo‘shilishi bilan ma’no o‘zgarib bormoqda. Mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘silib, unga yangi yoki qo‘sishcha ma’no yuklaydigan, shuningdek, so‘zлarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismga **qo‘sishcha** deyiladi.

Ayrim so‘zlar tarixiy taraqqiyot natijasida o‘zining tub – asos qismini o‘zgartirishi, boshqacha shaklga kirishi mumkin. Yomg‘ir

(yom-g'ir), ko'mir (ko'm-mir), olg'a (ol(d)-ga) kabi so'zlarni asos va qo'shimcha qismiga ajratib bo'imaydi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham asos ko'pincha bиринчи bo'lib keladi. Masalan: *video-chi, tadbirkor, toy-choq* va hokazo.

Bir umumiylasosga ega bo'lgan so'zlar asosdosh sanaladi: *fikrdosh, fikriy, hamfikr, fikran* singari. Ba'zi hollarda asosdan oldin ham qo'shimcha qo'shilishi mumkin. Masalan: *bexabar, nodavlat, serhashamat, bama'ni*. Bunday qo'shimchalar, asosan, sifat so'z turkumida uchraydi. Biror narsaga egalikni (*badavlat, baquvvat, serfarzand, serqatnov*) yoki ega emaslikni (*beibo, behayo, noo'rin, nomard*) bildiradi.

Ko'makchi morfemalar. Tilning imkoniyatlari shu darajada boyki, oz vositalar bilan cheksiz tushunchalarni, xilma-xil axborotlarni ifodalash mumkin.

Yangi-yangi tushunchalarni ifodalashda ilgari tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarga ko'makchi morfemalarni qo'shib, yangi so'z hosil qilish usuli keng qo'llaniladi. Ana shunday usul bilan yangi so'z hosil qilish **so'z yasalishi** sanaladi.

Ko'makchi morfemalar qo'shish yo'li bilan yangi so'z yasalishi doimo ikki qismning bo'linishini talab qiladi:

1. So'z yasashga asos qism.
2. Yasovchi qism.

Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ikki turli bo'ladi: a) so'z yasovchi qo'shimchalar; b) shakl yasovchi qo'shimchalar.

Asosga qo'shilib, yangi ma'no hosil qiluvchi qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar (morfemalar) deyiladi. Masalan, *terim* so'zi *ter* so'ziga -im so'z yasovchi morfemasini qo'shish orqali hosil qilingan. *Terimchi* so'zi esa *terim* so'ziga -chi qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. Demak, bиринчи so'zda yasovchi asos *ter*, ikkinchi so'zda esa *terimdir*.

Ishchi, ishla so'zlarining yasalish asosi bir xil. Bir asosdan hosil bo'lgan so'zlar so'z yasalish usulini tashkil etadi.

Suvchi so'zi "suv quyish bilan shug'ullanuvchi shaxs" ma'nosini, temirchi so'zi "temir bilan ish ko'ruchchi shaxs", toshloq "toshga serob joy" ma'nosini bildiradi. Yuqorida gildan ko'rinib turibdiki, yasovchi morfema asosida yangi yasalgan so'z yasashga asos bo'lgan so'zning ma'nosiga asoslanadi, uning ma'nosini bilan bog'liq bo'ladi.

Agar yasalgan so‘z bilan yasashga asos qism o‘rtasida ana shunday bog‘lanish bo‘lmasa, yasama so‘z hisoblanmaydi.

Solishtiring: *tepki* “tepishga xoslangan” so‘zi *tep* so‘zi bilan mazmunan bog‘lanadi, lekin *tulki*, *eski* so‘zlarini *tul* va *ki*, *es* va *ki* qismlarga ajratib bo‘lmaydi, chunki *tulki* va *eski* so‘zları, *tul* – “beva”, *es* – “aql”, “xotira” so‘zları bilan mazmuniy bog‘lanmaydi.

Tarkibi asos va yasovchi qo‘srimchalarga bo‘linmaydigan so‘zlarga **tub so‘zlar** deyiladi. Masalan: *tosh*, *temir*, *quyosh*.

Asosga so‘z yasovchi qo‘srimchalar qo‘shilishi orqali hosil qilingan yangi asos **sodda yasama so‘zlar** deyiladi. Masalan: *toshloq*, *temirchi*, *temirchilik*, *serquyosh*.

Tilda oldin mavjud bo‘lgan so‘zga ma’lum yasovchi vositalar qo‘sish bilan yangi so‘z hosil qilinishiga so‘z yasalish hodisasi, shunday hodisani o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limiga esa so‘z **yasalishi** deyiladi.

Asosga qo‘silib, uning ma’nosiga qo‘srimcha ma’no yuklash yoki o‘zi qo‘silayotgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘srimchalarga **shakl yasovchi qo‘srimchalar** deyiladi. Masalan, *yaxshigina*, *Zamiraxon*, *ukamni* va h.k.

Yuqorida qora harflar bilan berilgan morfemalar shakl yasovchi morfemalardir. Shakl yasovchi morfemalar sintaktik munosabatni bildirish-bildirmasligiga ko‘ra (vazifasiga ko‘ra) ikki guruhga bo‘linadi:

1. Sintaktik munosabat bildirmaydigan morfemalar. Bunday morfemalar lug‘aviy shakl yasovchi morfemalar sanaladi.

2. Sintaktik munosabat bildiradigan morfemalar. Bunday morfemalar sintaktik shakl yasovchi morfemalar hisoblanadi.

Asosga qo‘silib, uning ma’nosiga qo‘srimcha ma’no yuklovchi qo‘srimchalar *lug‘aviy shakl yasovchi* qo‘srimchalardir. Masalan, *o‘qigach* so‘zidagi *-gach* morfemasi *o‘qi* so‘ziga qo‘silib, undan yangi so‘z ham yasamaydi, bu so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun ham xizmat qilmaydi. Shuning uchun u lug‘aviy shakl yasovchi morfemadir.

Kitobim, *kitobni* so‘zlarida *kitob* so‘ziga qo‘silgan *-im* va *-ni* morfemalari o‘zi qo‘silgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi.

O'zi qo'shilayotgan so'zni boshqasiga bog'lash vazifasini bajarib, uni ma'lum morfologik shaklini ko'rsatuvchi qo'shimchalar sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar yoki munosabat shakllari deyildi. Masalan, *egalik*, *kelishik*, *shaxs-son qo'shimchalari* (morfemalari) sintaktik shakl yasovchi morfemalar tarkibiga kiradi.

Morfemalarning agglutinativ tabiat. So'z tarkibida tartib

O'zbek tilida ko'makchi morfemalar, ya'ni qo'shimchalar yetakchi morfemaga undan keyin kelib ulanadi. Masalan, *zamon-dosh*, *zamondosh-lar*, *zamondoshlar-im*, *zamondoshlarim-ga* kabi.

Asosga eng avval so'z yasovchi qo'shimcha, so'ng lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha, eng oxirida esa sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Masalan, *sholi-kor*, *muqova-soz*, *kamtaron-a*; *tadbirkor-lar*, *sana-moq*, *yaltira-sh*, *fidokorlar-ga*, *o'nashdi-m*, *uyqusirab-man* kabi.

Asosga so'z yasovchi qo'shimcha, shakl yasovchi qo'shimchalar ikkitadan qo'shilsa, ular ketma-ket ulanadi, yuqoridagi tartib buzilmaydi. Masalan, *mulk-dor-lik*, *bil-im-li*, *jo'sh-qin-lik*, *ko'k-ish-roq*, *o'yna-t-di*, *ket-a-yotir-man*, *sinf-dosh-lar-im-dan*, *bor-a-yotgan-ingizni*, *varaq-la-sh-ni*.

Ba'zi bir hollarda so'z yasovchi qo'shimcha asosga old tomonidan kelib qo'shilishi ham mumkin (Masalan, no-o'rin), lekin bunday old qo'shimchalar o'zbek tilida juda kam.

Shuningdek, ayrim so'zlarda umumiyligi tartib buzilishi ham kuzatladi: *es-la-gan-lik* kabi. Bunda asos + so'z yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilmoqda.

Umuman olganda, qo'shimchalarining qo'shilishida o'ng qo'l qoidasiga rioya qilinadi.

So'z yasalishining tuzilishi. 1. *Ter*, *terim*, *terimchi*. 2. *Tara*, *tarroq*, *tarroqchi* so'zlariga e'tibor bersangiz, shuni sezasizki, birinchi guruhdagi so'zlarning hammasida ter so'zi takrorlanadi, ikkinchi guruhdagilarida esa tara qismi hammasi uchun umumiyligi sanaladi.

Ko'rindaniki, so'z yasalishi hodisasi o'zining ichki tuzilishiga ega bo'ladi va ikkita tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: a) yasashga asos qism; b) yasovchi vosita. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda yasalmani tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan

terim so‘zida *ter* qismi yasashga asos, *-im* qismi yasovchi vosita, ikkala qismning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan hosila esa - *terim* yasalma hisoblanadi. *Terimchi* so‘zida esa *terim* yasashga asos qism, *-chi* yasovchi vosita, *terimchi* esa yasalma sanaladi.

So‘zning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. So‘zning ma’noli qismlarga bo‘linishi uning morfemik tuzilishi sanaladi.

So‘zda nechta ma’ noli qism bo‘lsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, *terimchi* uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: *ter-im-chi*. *Terimchilar* so‘zi esa to‘rtta ma’noli qismdan iborat: *ter-im-chi-lar*. *Terimchilarga* so‘zi beshta ma’noli qismdan iborat: Shuning uchun u morfemik tuzilishga ko‘ra besh qismga bo‘linadi: *ter-im-chi-lar-ga*.

Ko‘rinadiki, so‘zning morfemik tuzilishi yasovchi qo‘shimchalarni ham, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarni ham o‘z ichiga oladi. So‘zning morfemik tuzilishini belgilashda ma’noli qismlarning so‘z yasovchi yoki sintaktik shakl yasovchi ekanligining ahamiyati bo‘lmaydi. Qanday ma’noli qismlardan – morfemalardan iborat ekanligi e’tiborga olinadi.

So‘zning yasalish tuzilishi esa faqat yasovchilarnigina o‘z ichiga oladi. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘z yasalishi tuzilishi ga kirmaydi.

So‘z yasalishi tuzilishi doimo ikkita tarkibiy qismni – yasashga asos va yasovchi vositani o‘z ichiga oladi. Agar so‘zda birdan ortiq yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etsa, eng oxirgisi yasovchi vosita sanaladi, oldingilari esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi. Masalan, *taroqchi* so‘zida *-chi* yasovchi vosita, *taroq* yasashga asos, *taroqchi* yasalma, *taroq* so‘zida esa *-q* yasovchi vosita, *tara* yasashga asos, *taroq* yasalma hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘z yasalishi tuzilishida yasashga asos qism bilan yasalma o‘rtasida mazmuniy bog‘liqlik, mazmuniy davomiylik bo‘ladi. Yasalmada yasashga asos davom etadi. Masalan, *tepki* so‘zi yasalma bo‘lib, *-ki* yasovchi vositasida *tep* so‘zidan yasalgan. *Tepki* yasashga asos qism ma’nosini davom ettiradi: 1. *Tepki* uchun xoslangan moslama (otish qurolida). 2. Tepki zarbasi (tepki yedi).

So‘z yasalishi usullari. So‘z yasashga asos qismning qanday xususiyatga ega ekanligiga ko‘ra so‘z yasalishning bir necha usullari bor:

1) yasashga asos qismga qo‘sishimchalar qo‘sishish orqali (affiksatsiya); 2) so‘zlarni qo‘sishish orqali (kompozitsiya). Masalan, *ishla* so‘zi *ish* qismga (yasashga asos) -*la* qo‘sishimchasini qo‘sishish yo‘li bilan hosil bo‘lgan. *Qo‘shma korxona*, *ishlab chiqarish* singari so‘zlar esa ikki so‘zni bir-biriga qo‘sishish asosida hosil qilingan.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasashning mahsuldor usuli qo‘sishimchalar qo‘sishish yo‘li bilan so‘z yasash – affiksatsiyadir. Bu usul tilda mavjud bo‘lgan muayyan so‘z yasash qoliplari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so‘zlovchi xotirasida so‘z yasashning qoliplari mavjud bo‘ladi. Masalan, *ot+chi*; “shaxs oti yasovchi” (*ishchi*, *temirchi*, *suvchi*); *ot+li* “belgining mavjudligi yoki ortiqligi” (*suvli*, *mevali*) va boshqalar. Ana shu so‘z yasash qoliplari asosida turli-tuman yasama so‘zlar hosil qilinadi.

So‘zlovchi xotirasida, so‘z yasash qoliplari va ularning ma’nolari haqida ko‘nikmaning mavjud bo‘lishi har qanday yangi yasalmaning oson tushunilishiga imkon beradi. Demak, so‘zlar quyidagicha tahlil qilinadi: 1.Morfemik 2.Morfologik 3.So‘z yasalishi

So‘z yasash qoliplari va ularning ma’nolari bir xil yasovchi qo‘sishimchali so‘zlarni ma’lum uyalarga birlashtirish asosida aniqlanadi. Masalan:

Traktorchi	yig‘la	binokor
Kombaynchi	sizla	paxtakor
Suvchi	qo‘lla	sholikor

Qo‘sishimchalarda shakldoshlik. Shakldoshlik nafaqat leksemalarga, balki qo‘sishimchalarga ham xos xususiyat sanaladi. Qo‘sishimchalarning ayrimlari ifoda planiga ko‘ra aynan bir-birlariga o‘xshasa-da, mazmun mohiyati bilan keskin farqlanadi.

Masalan, *-in* qo‘sishchasi:

a) ot yasaydi; b)sifat yasaydi; c) ravish yasaydi; d) fe'l nisbatini yasaydi.

Tiqin, to‘lin, ostin-ustun, yuvin

Yig'in, erkin, birin-ketin, ko'rin

Chaqin, yashirin, qishin-yozin, qilin

Bunday qo'shimchalar o'zbek tilida ko'plab uchraydi: *-ma, -chi, -li, dor, -ch, -(i)sh, -ar, -ga, -ik, -k, -ish, -qin, -chak, -(a)y, -siz* kabi qo'shimchalarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Shakldosh qo'shimchalar quyidagi ko'rinishlarda uchraydi.

1. Har bir holatda so'z yasaydi:

Qalamdon (ot), *qadron* (sifat)

Siniq (sifat), *chiniq* (fe'l)

Tepki (ot), *kechki* (sifat)

Qatlama (ot), *bo'g'ma* (sifat)

O'rroq (ot), *qo'rroq* (sifat)

Yoshlik (ot), *sirdaryolik* (sifat)

Yuzsiz (sifat), *so'zsiz* (ravish)

Yugurik (sifat), *ko'rik* (ot)

2. So'z yasovchi qo'shimcha so'z shakli yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'ladi:

Kelinchak (erkalash, hurmatlash shakli), *erinchak* (sifat yasaydi)

Gapirma (fe'lning bo'lishsiz shakli) – *burama* (sifat yasaydi)

Aytasiz (shaxs-son ko'rsatkichi) – *so'zsiz* (ravish yasaydi)

Yuzlab (chama son shakli) – *haftalab* (ravish yasovchi)

Qizcha (kichraytirish shakli) – *erkakcha* (ravish yasovchi)

Dilafruzxon (hurmat shakli) – *kitobxon* (ot yasovchi)

Do'sti (III shaxs, birlik shakli) – *boyi* (fe'l yasovchi)

3. Har qanday holatda so'z shakli yasaydi.

Oqish (ozaytirma shakli) – *kelish* (harakat nomi)

Otam (egalik shakli) – *ko'rdim* (shaxs-son shakli)

Ukang (egalik shakli) – *bording* (shaxs-son shakli)

Qo'shimchalar ma'nodoshligi. Qo'shimchalarda shakldoshlik-dan tashqari ma'nodoshlik hodisasi ham uchraydi. Ba'zan ma'lum bir so'z yasash ma'nosini ifodalash uchun birdan ortiq qo'shimchalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan, *-li* qo'shimchasi *o'rniga -kor, -dor, bo-, ba-, ser-* qo'shimchalarini qo'llash mumkin: *itoatli* – *itoatkor, shirali* – *shirador, savlatli* – *basavlat, sutli* – *sersut, obro'li* – *boo'bro'*.

Shuningdek, *-chi* o‘rnida, *-shunos*, *-kash*, *-kor*; *-siz* o‘rnida esa *be-*, *no-* old qo‘s Shimchalarni qo‘llash kuzatiladi: *adabiyotchi* – *adabiyotshunos*, *aravachi* – *aravakash*, *g‘allachi* – *g‘allakor*, *hayosiz* – *behayo*, *o‘rinsiz* – *noo‘rin*.

Hamma holatlarda ham yuqoridagicha ma’nodoshlik yuzaga kelavermaydi. Masalan, *nodavlat tashkilotlar* deyish o‘rniga *bedavlat tashkilotlar* deyilsa, uslubiy g‘alizlik yuzaga keladi.

Demak, qo‘s Shimchalardagi ma’nodoshlik nutqning muayyan davrdagi me’yorlari asosida yuzaga keladigan til hodisasi sanaladi.

Qo‘s Shimchalarda zid ma’nolilik. Nutqni ravon, ta’sirchan, emotsiyal-ekspressiv jihatdan bo‘yodkor bo‘lib chiqishida zid ma’noli qo‘s Shimchalardan foydalanishning ahamiyati katta. Masalan, *-li* qo‘s Shimchasi *-siz*, *be-* *no-* qo‘s Shimchalariga nisbatan qarama-qarshi qo‘yiladi: *aqlii-aqlsiz*, *iboli-beibo*, *o‘rinli-noo‘rin* kabi.

Bunday qo‘s Shimchalar, asosan, sifat so‘z turkumida ishlataladi. *Ser-* qo‘s Shimchasi *be-* qo‘s Shimchasiga, *ba-* qo‘s Shimchasi *-siz* qo‘s Shimchasiga, *bo-* qo‘s Shimchasi *-siz* va *be-* qo‘s Shimchalariga, *-dor* qo‘s Shimchasi *-siz* va *be-* qo‘s Shimchalariga nisbatan zid ma’nolidir. Bunday qo‘s Shimchalarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1) biror belgi-xususiyatga, shakl-shamoyilga yoki rang-tusga ega-likni bildiruvchi qo‘s Shimchalar: (-li, bo-, ser-, ba-, -dor);

2) shunday belgiga ega emaslikni ifodalovchi qo‘s Shimchalar (-siz, be-, no-).

Masalan: *badavlat-davlatsiz*, *shirador-beshira*, *shirasiz*, *sero‘t-o‘tsiz*, *boobro‘-beobro‘*, *obro‘siz*, *ko‘ngilli-ko‘ngilsiz*.

Qo‘s Shimchalar shakldoshligi, ma’nodoshligi va zid ma’noliligi nutqni ko‘rkam qiladi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, uning uslubiy jihatdan rang-barang bo‘lishini ta’minlaydi, ta’sirchanligini oshiradi.

SO‘ZLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

So‘zlar tuzilishiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linadi:

1. Sodda so‘zlar;
2. Qo‘shma so‘zlar;
3. Juft so‘zlar;

4. Takroriy so‘zlar.

Sodda so‘zlar: Faqat bir o‘zakdan tashkil topgan so‘zlar sodda so‘zlar hisoblanadi. Masalan: *keldi, yondirishdi, yigitlarga, g‘allachilik, lalmikor, yettinchi, o‘rikzor* kabi.

Qo‘shma so‘zlar: Ikki va undan ortiq o‘zaklardan tashkil topgan so‘zlar qo‘shma so‘zlar deyiladi. Masalan, *shirinzabon, muzqaymoq, ishlab chiqarish, kungaboqar* kabi.

Qo‘shma so‘zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida aslida ikki va undan ortiq so‘zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazardan bu birikuv o‘z kuchini yo‘qotib bir so‘zga aylanib qolgan bo‘ladi. Shuning uchun qo‘shma so‘z tarkibida alohida so‘z bo‘lib ko‘ringan qismlar (*kunga-boqar, beshik-tervatar, nomoz-shom-gul*) hozirgi o‘zbek tilida so‘zlik xususuyatini yo‘qotgan, bir so‘z tarkibidagi ma’noli qism (morfema)lar sanaladi.

Qo‘shma so‘zlar bitta so‘z bo‘lganidan, ularning qismlari orasi-ga boshqa ma’noli qismni kiritib bo‘lmaydi. Masalan, *kungaboqar* so‘zining kunga qismidagi -ga ni boshqa kelishiklar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Shuningdek, bu qism egalik, ko‘plik shakllarini ham olmaydi. Ana shu xususiyati bilan so‘z birikmasidan va sodda so‘zning ko‘makchi fe’lli shaklidan farq qiladi. **Solishtiring:** *uxlab chiqdi-uxlamay chiqdi; kunga qaradi-kun qaradi* (so‘z birikmasi). Qo‘shma so‘zlar qismlari birikib bitta so‘zning tarkibiga aylangani uchun ular ko‘pincha sodda so‘zlar bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi. Masalan, *o‘sal qilmoq – uyaltirmoq, oq qilmoq – haydamoq, bayon qilmoq – so‘zlamoq; kamchiqim – pishiq, shifobaxsh – dori, hamnafas – yaqin* va boshqalar.

Juft so‘zlar ikki so‘zni yonma-yon qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlar sanaladi. Masalan, *qishin-yozin, erta-kech, bugun-erta* va boshqalar. Bunday so‘zlar ko‘pincha yangi ma’noga ega bo‘ladi va sodda so‘zlar bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi: *qishin-yozin – doimo, erta-kech – hamisha, bugun-erta- yaqinda*. Yoki umumlashtirish ma’nosini ifodalaydi: *idish-tovoq (ro‘zg‘or buyumlari), qalam-daftар (o‘quv quroli), ko‘ylak-lozim (sarupo)* kabi.

Juft so‘zlar doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi. Bu qismlar zid ma’noli so‘zlardan (masalan, *erta-kech, ostun-ustun*), o‘zaro yaqin ma’noli so‘zlardan (*er-xotin, idish-tovoq, taxta-o‘qlov*) tashkil topadi.

Sodda so‘zlar bilan sinonim bo‘lgan juft so‘zlarda tasviriylik, ta’kid ma’nosini kuchliroq bo‘ladi. Masalan *qishin-yozin tinmaydi* jumlesi *doimo tinmaydi* jumlasiga nisbatan tasviriyliroq, ta’sirchanroqdir.

Takroriy so‘zlar bir so‘zning qo‘shaloq kelishidan hosil bo‘lgan so‘zlardir: *baland-balad, qator-qator, non-pon, choy-poy*. Takroriy so‘zlar ko‘plik, davomiylik, takror kabi ma’nolarni bildiradi: *etaket-etak gul, ayta-ayta charchadim*. Bundan tashqari, so‘z ma’nosini kuchaytirish (tez-tez), ta’kidlash (sira-sira), umumlashtirish (tun-kun) ma’nolarini ham bildiradi. Takroriy so‘zlarda ayni bir so‘zning takror holda qo‘llanishi natijasida grammatik ma’no ifodalanadi. Ma’noni kuchaytirish uchun ketma-ket keltiriladigan so‘zlar takroriy so‘zlar hisoblanmaydi: *Havoni qara, havoni!*

MORFOLOGIYA – SO‘Z TURKUMLARI

Morfologiya va uning o‘rganish obyekti. Grammatika (grek. grammaтика “harf o‘qish va yozish san’ati”, “harf”) atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishi va bu qurilishni o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limi ma’nolarida qo‘llaniladi. Demak, grammatica tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo‘limlarini o‘z ichiga oladi.

Morfologiya grekcha *morfos* “shakl”, *logos* “ta’limot” so‘zlaridan olingan bo‘lib, so‘z shakllari haqidagi ta’limotdir.

Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi ham morfologiya bo‘limi ham so‘z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo‘lim so‘zning qaysi tomoniga e’tibor qaratishi bilan bir-biridan farq qiladi. Leksikologiya leksik so‘z (leksema)larni, ularning atash ma’nolarini o‘rgansa, morfologiya so‘zning grammatik ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllarni, ya’ni so‘zning morfologik shakllarini o‘rganadi. Masalan, *qalam, qalamning, qalamni, qalamga, qalamdan, qalamda* shakllari bir so‘zning (qalam so‘zining) turli shakllari hisoblanadi. Bu so‘z shakllarining hammasida takrorlanayotgan qalam qismi ikkita ma’noga ega. Birinchi ma’nosini yozish, chizish uchun mo‘ljallangan grafit toshga yog‘och qoplama o‘rnatilgan o‘quv qurolini bildiradi. Bu qalam leksemasining (leksik so‘zning) atash ma’nosini sanaladi. Leksik so‘zning atash ma’nolari leksikologiyada o‘rganiladi. Shu bilan birgalikda qalam so‘zi daftар, kitob so‘zları singari nima? so‘rog‘iga

javob bo‘lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma’nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo‘limida o‘rganiladi.

Shunday qilib, morfologiya so‘z turkumlari va ularning grammatishik shakllari bo‘yicha bahs yuritadi.

Ko‘rinadiki, so‘zning leksik ma’nosini bilan ularning predmetlik, belgi, harakat singari ma’nolarini ifodalovchi umumiyligi grammatishik ma’nolari o‘rtasida uzviy aloqa mavjuddir. So‘zlarni turkumlarga ajratishda so‘zning leksik ma’nosini ustiga qo‘yilgan umumiyligi grammatishik (predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat kabi) ma’no asosiy tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birligida morfologiya bilan sintaksis o‘rtasida ham chambarchas bog‘liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so‘z shakli gap tarkibida ma’lum sintaktik vazifa bajaradi, ma’lum gap bo‘lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo‘laklarni bir-biriga bog‘lovchi yoki gap bo‘lagiga qo‘shimcha ma’no yuklovchi vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tilshunoslikning leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo‘limlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud.

So‘z turkumlari. So‘zning umumiyligi grammatishik ma’nolariga ko‘ra guruhanishi so‘z turkumlari deyiladi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. Leksik ma’no anglatib, biror so‘roqqa javob bo‘lishi;
2. Grammatik qo‘shimchalarni qabul qilishi;
3. Gapda biror gap bo‘lagi vazifasida kelishi.

Agar so‘zlar har uchala prinsipga amal qilsa, mustaqil so‘zlar turkumi; agar har uchallasiga amal qilmasa, yordamchi so‘zlar turkumi; uchallasidan biriga amal qilsa oraliqdagi so‘zlar turkumi hosil bo‘ladi.

Ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, atash va umumiyligi grammatishik ma’noga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega bo‘lgan so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi. Masalan, *gul* (nima?), *chol* (kim?), *chiroyli* (qanday?), *yuztacha* (nechta?), *keldi* (nima qildi?) kabi.

Ma’lum so‘roqqa javob bermaydigan, atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, faqat grammatishik ma’no ifodalovchi, lekin o‘zidan oldin kelgan so‘zga grammatishik shakl sifatida qo‘shilib, u bilan bir lug‘aviy urg‘u ostida birlashmaydigan so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi. Masalan, *ammo*, *ham*, *faqat*, *-chi* (ayt-chi), *-mi* (sizmi?) kabi.

Bulardan tashqari, mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos belgini o‘zida ma’lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so‘zlar bor. Bular undov so‘zlar, modal so‘zlar, taqlid so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, so‘z turkumlari ma’no va vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1. Mustaqil so‘zlar (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l). 2. Yordamchi so‘zlar (ko‘makchi, bog‘lovchi yuklama). 3. Undov so‘zlar. 4. Taqlid so‘zlar. 5. Modal so‘zlar.

Mustaqil so‘z turkumlari Ot va uning uslubiy xususiyatlari

Shaxs, narsa ma’nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar **ot** deyiladi.

Kim? so‘rog‘i shaxsni bildiruvchi so‘zlarga, nima? so‘rog‘i narsa-buyumni bildiruvchi so‘zlarga, qayer? so‘rog‘i joy nomini bildiruvchi so‘zlarga beriladi. Shunga ko‘ra otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o‘rin-joy otlariga bo‘linadi.

Otning morfologik xususiyatlari:

- 1) kelishik qo‘sishchalarini bilan qo‘llanadi;
 - 2) birlik va ko‘plik sonda ishlataladi (kelishik va son shakli ularning doimiy xususiyatidir);
 - 3) egalik qo‘sishchalarini oladi (bu doimiy xususiyat emas).
- Otlar sifat o‘rnida qo‘llanishi mumkin: *asfalt yo‘l, oltin bilag-uzuk, temir sandiq*.

Otning sintaktik xususiyatlari:

1) bosh bo‘lak (ega va kesim): Onam parrandachilik fermasida ishlaydi; Kitob-mening do‘stim:

2) ikkinchi darajali bo‘lak (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol): Bugungi ishni ertaga qo‘yma! Bolalarning shovqinidan boshim og‘rib ketdi. Tog‘am kecha Buxoradan keldi.

3) undalma bo‘lib keladi: Bolalar, ko‘cha harakati qoidalariga rioxva qiling!

Otlar ma’no jihatidan *turdosh* va *atoqli* otlarga bo‘linadi.

Turdosh otlar va ularning turlari. Bir turdag'i shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi: *shahar, odam, mактаб*.

Turdosh otlar:

1. **Shaxs otlari.** Shaxs otlari kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, shaxs-larni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko‘ra nomlab keladi. Masalan, shaharlik, kampir, zargar, aka.

Shaxs oti yasovchi qo‘sishimchalar. Shaxs otlarining bir guruhi o‘zakka -chi, -kor, -xon, -dosh, -boz, (-voz), -vchi yasovchi qo‘sishimchalarini qo‘sish yordamida yasaladi. -vchi qo‘sishimchasi i unlisi bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda, i unlisi u shaklida, a bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda, a unlisi o shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Undosh bilan tugagan fe’llarga -uvchi shaklida qo‘shiladi: *quruvchi, suzuvchi*.

-lik qo‘sishimchasi o‘rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘silib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo‘silgan -lik qo‘sishimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi. Masalan, *farg‘onalik, toshkentlik*.

Narsa otlari. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, jonli va jonsiz narsalarning nomlarini bildirgan otlarga narsa otlari deyiladi.

O‘rin-joy otlari. Qayer? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi otlar o‘rin-joy otlari sanaladi. Bunday otlar o‘rin-joy ma’nosini bilan birga narsalik ma’nosini ham bildiradi, shuning uchun qayer? so‘rog‘i bilan birga nima? so‘rog‘ini olishi ham mumkin: -zor, -loq, -iston, -goh, -xona qo‘sishimchalari o‘rin-joy otlarini yasaydi.

Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar. Shaxs va narsalarning faoliyat jarayonini nomlovchi otlarga faoliyat – jarayon otlari deyiladi.

Faoliyat-jarayon otlari -lik, -chilik, -garchilik, -(i)m,-(i)k, (-q) qo‘sishimchalari yordamida yasaladi: *ezmalik, g‘allachilik, serobgarchilik, terim, unum va hokazo*.

1. Turdosh otlar *qanday tushunchani* ifodalashiga ko‘ra 2 xil:

Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lgan narsalarni bildirgan otlarga **aniq otlar** deyiladi: *kitob, toyush, havo, shahar, daqiqa*.

Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lmagan tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlarga

mavhum otlar deyiladi: dev, xayol, go'zallik. Mavhum otlar –lik (*tinchlik*), -ch (*ishonch*), -inch(*shoshilinch*), -at(*insoniyat*), -ot (*hayvonot*)

Aniq otlar birlik va ko'plik shaklida qo'llana oladi, ammo mavhum otlar ko'plik shaklida qo'llanganda, ko'plik ma'nosi emas, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi.

2. Turdosh otlar birlik shaklda ko'plik ma'nosini ifodalash-ifodalamasligiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1) yakka otlar birlik shaklda yakka predmetlarni ifodalaydi: *odam*, *ko'cha*, *gul*;

2) jamlovchi otlar birlik shaklda ham ko'plikni ifodalaydi: *xalq*, *karvon*, *guruh*.

Atoqli otlar va ularning turlari. Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar sanaladi. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko'ra shaxs nomlari va joy nomlariga bo'linadi.

Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar shaxs nomlari sanaladi.

Familiyalar shaxs ismidan so'ng otasining ismini qoldirish (Usmon Nosir), otasining ismiga -ov(a), -(y) ev (a) qo'shimchasini qo'shish (Erkin Vohidov) bilan ifodalanadi.

Joy nomlari imlosi. Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar joy nomlari hisoblanadi. Mamlakat, o'lka nomlari qo'shma so'z shaklida bo'lganda, tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi. Masalan: *Markaziy Osiyo*

Esda tuting. Tarkibida *bo'yi*, *orti*, *oldi* so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi. Masalan: *Boltiqbo'yi*, *Kavkazorti*

Tashkilot, korxona, muassasa nomlari. Xalqaro tashkilot va oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi.

Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabilarga berilgan shartli nomlar qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali holatlarda faqat birinchi so'z) yoziladi: "Turkiston" (saroji), "Sharq gullari" (firmasi).

Tarixiy sana va bayram nomlari. Tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi.

Masalan: *8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 1-oktabr – Ustozlar va murabbiylar kuni*.

Suv havzalari va inshootlari nomlari. Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi: *Katta Farg‘ona kanali, Qora dengiz, Shahrixonsov, Amu-Buxoro kanali* kabi.

Kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, binolar hamda tashkilotlarga atab qo‘yilgan nomlar qo‘shtirnoq ichiga olinadi. Ammo shahar, kinoteatr, jamoa xo‘jaligi kishilar nomiga qo‘yilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoq ishlatalmaydi. Ularda *nomidagi, nomli* so‘zlari qo‘llanadi.

Ko‘pchilik atoqli otlar turdosh ot yoki boshqa biron so‘z asosida vujudga keladi: *Po‘lat* (ot), *Go‘zal* (sifat), *Sakson ota* (son), *Kimsan* (olmosh), *Sotiboldi*, *Ko‘paysin* (fe'l). Ba’zan atoqli otlar turdosh otga aylanishi ham mumkin: *amper* (tok o‘lchovi), *xosiyatxon* (atlas turi), *makintosh* (kiyim turi).

Otlarning lug‘avy shakllari. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi (son shakllari). Otlar birlik va ko‘plik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Ko‘plik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlar ko‘plikda -lar qo‘shimchasi orqali ifodalansa, *morfologik usul* hisoblanadi: *bolalar, uylar*. Ko‘plik ma’nosini qo‘srimchasziz holda maxsus so‘zlar yordamida ifodalansa, *leksik usul* hisoblanadi: *bir qancha odam, ming-ming daraxt, beshta dastar*. Ba’zan bu usullar aralash ifodalanishi mumkin (*leksik-morfologik usul*): *Ko‘p ota-onalar kelishdi*.

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plik shakli sanaluvchi -lar ot-larga qo‘silib doimo ko‘plikni bildiravermaydi. U birlik ma’nosini o‘zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda -lar hurmat, tasviriylikni kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish ma’nolarida qo‘llaniladi. Masalan, *ko‘zlarimga ishonmayman*. («*O’tkan kunlar*») Bu jumladagi *ko‘zlarimga* so‘zini birlik shaklga – *ko‘zimga* shakliga almashtirib ko‘ring. Ikkinci holat bilan birinchi holat bir xil ma’noni – birlik ma’nosini (bir kishining ko‘zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta’sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilari bor, ikkinchi holatda esa yo‘q. ***Yana sol-ishtiring:*** *Bolalarning shovqinidan boshlarim og‘rib ketdi* – *Bolalarning shovqinidan boshim og‘rib ketdi*. Har ikki holatda ham bir

kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda *boshlarim* so‘zidagi -*lar* ko‘plikni bildirmasdan, bosh so‘zining ma’nosini kuchaytirish, ta’kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma’no esa ikkinchi holatda yo‘q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarini bildiruvchi otlar birlik shaklda kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. Masalan, *Ko ‘chaga qum to ‘kilgan yoki Ariq to ‘la suv, ichgani tashna, bolam.*

Bunday so‘zlar ko‘plik shaklini olganda ko‘pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. *Suvlar* (gazli suv, mineral suv kabi); *bozordagi unlar*. Ba’zan tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: *ko ‘z yoshini artdi – ko ‘z yosollarini artdi*.

Ko‘plik atoqli otlarga qo‘shilganda o‘zi qo‘shilgan otning ko‘pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga qo‘shilganda shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligini bildiradi: *Olimjonlar kelishdi (bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari); Mirzacho ‘llar obod bo ‘ldi (Mirzacho ‘l va unga yaqin joylar).*

Qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarga ko‘plik shakli qo‘shilib hurmat ma’nosini bildiradi. Bunday vaqtida egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanilishiga ko‘ra ko‘plik va egalik qo‘shimchalarining o‘rinlashishi farqlanadi:

1. I shaxs egalik qo‘shimchasi bilan kelganda ko‘pincha egalik qo‘shimchasi oldin, ko‘plik qo‘shimchasi esa undan keyin keladi: Masalan, *Dadamlar keldilar. Opamlar salom aytdilar*. Agar bu tartib o‘zgarib, ko‘plik shakli oldin, egalik keyin kelsa, shaxsning ko‘pligini ifodalash mumkin: Qiyoslang: *Opalarim kelishdi*.

2. Ko‘plik shakli. II shaxs egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llaniganda, ko‘plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko‘plik shakli hurmat ma’nosini ifodalaydi. Masalan, *Xayriniso, dadamning opalari bo ‘ladilar*.

- *lar* ko‘rsatkichi otlardan tashqari olmosh, son, sifat, fe’l, ravish turkumidagi so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: *bular, kimlar, bizzlar, tushuntirishlar, kattalarni, beshlar, ilgarilar, kelganlar* kabi. Bu ko‘rsatkich fe’lga qo‘shilganda tuslovchi tarkibida keladi: *boradilar* (3-shaxs tuslovchi tarkibida).

Qarashlilik shakli haqida. Bu shakl *-niki* qo'shimchasi bilan yasaladi va narsa yoki shaxsning shu qo'shimcha olgan narsa yoki shaxsga tegishli ekanligini bildiradi. Bu shaklning egalik shakllaridan farqlari: 1) egalik ma'nosi shaxs ko'rsata oladi, qarashlilik esa shaxs ko'rsata olmaydi; 2) egalik shakli egalik qo'shimchasini olgan so'z bildirgan narsa yoki shaxsning boshqa biror narsa yoki shaxsga tegishliligini bildiradi, qarashlilik shakli esa biror narsa yoki shaxsning -niki qo'snimchani olgan so'z bildirgan narsa yoki shaxsga tegishliligini, qarashli ekanligini ifodalaydi.

Egalik va qarashlilik qo'shimchalari bir otga baravar qo'shilishi mumkin: *kitob ukamniki*. Qarashlilik shaklidagi so'z qarashli bo'lgan so'z ifodalagan so'z bilan birga qo'llansa, doim kesim vazifasida keladi. Ba'zan qarashli bo'lgan narsani bildiruvchi so'z qo'llanmasligi mumkin. -*niki* qo'shimchasi otdan tashqari olmosh va otlashgan so'zlarga ham qo'shilishi mumkin: *bizniki, ikkinchisiniki, boshqasiniki, kelganniki*. Bu qo'shimcha ko'plik, egalik, hurmat ifodalovchi qo'shimchalardan keyin, kelishik qo'shimchasidan oldin qo'shiladi.

Kichraytirish, hurmatlash va erkalash otlari. Nutqimizda kichraytirish, hurmatlash va erkalash otlari ham qo'llanadi. Bunday otlar kichraytirish, ba'zan esa ham kichraytirish, ham erkalash ma'nolarini anglatadigan quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:

Kichraytirish qo'shimchalari: *-cha*: Akbarcha (kesatish ma'nosida), uycha, ro'molcha, kitobcha; *-choq, -chak, -chiq*: qo'zichoq, kelinchak, qopchiq; *-(a) loq*: qizaloq, bo'taloq;

Erkalash qo'shimchalari: *-jon*: ukajon, Rahimjon; *-xon*: Odilxon, Salimaxon; *-oy*: Qunduzoy, Tursunoy; *-begim*: Nodirabegim; *-nisa*: Zebunniso; *-bibi*: Oyshabibi; *-bek*: Otabek; *-xo'ja*: Akbarxo'ja; *-gina*: qizginam, bolaginası.

Diqqat! *-gina* qo'shimchasi kichraytirish, erkalashdan tashqari, achinish ma'nosini ham ifodalaydi. Bu qo'shimcha *-gina* ayiruv yuklamasi bilan omonimdir. *Farqlari:* *-gina* yuklamasi barcha qo'shimchalardan keyin qo'shiladi; *-gina* yuklamasi urg'u olmaydi, *-gina* qo'shimchasi esa urg'u olishi mumkin. Masalan: *ukám-gina* (yuklama) – *ukaginám* (lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha)

Otlarning yasalishi. Otlar besh xil usul bilan yasaladi: 1. Ot yasovchi qo'shimchalar bilan; 2. So'zlarni qo'shish yoki juftlash bilan; 3. So'zlarni qisqartirish bilan.

4. Turkumdan turkumga so'z ko'chishi yordamida; 5. So'zlarni takrorlash yordamida.

I. Yasovchi qo'shimchalar bilan ot yasash (morfologik yoki afiksatsiya usuli)

Ot yasovchi qo'shimchalar o'zak bilan birikkan holda quyidagi ma'nolarni bildiruvchi otlar yasaydi: 1. Shaxs otlari. 2. Narsa-buyum otlari. 3. O'rinn-joy otlari. 4. Mavhum otlar.

1. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar:

- | | |
|--|---------------------------------|
| -chi: suvchi, sportchi, navbatchi; | -dosh: sinfdosh, suhbatdosh. |
| -kash: aravakash; | -dor: chorvador, amaldor; |
| -bon: saroybon, darvozabon; | -boz: dorboz, askiyaboz; |
| -paz: oshpaz; | -xon: gazetxon, kitobxon; |
| -shunos: tilshunos; | -do'z: gilamdo'z, etikdo'z; |
| -soz: soatsoz, aravasoz; | -xo'r: choyxo'r, qimizxo'r; |
| -parast: shaxsiyatparast, amalparast; | -go'y: duogo'y; |
| -furush; mevafurush, chitfurush; | -vachcha: tog'avachcha; |
| -(u)vchi: yozuvchi, uchuvchi; | -(o)vchi: tinglovchi, o'quvchi; |
| ham-: hamsuhbat, hamyurt; | |
| -kor (-kor, -gar, -gor) paxtakor, talabgor, miskar, zargar | |

2. Narsa-buyum otlari yasovchi qo'shimchalar:

- | | |
|--|-----------------------------|
| -k, -ak: kurak, pirpirak, varrak; | -q, -oq: taroq, o'roq; |
| -iq, -ik: chopiq, topshiriq, teshik; | -uq: uchuq, yutuq; |
| -ma: to'qima, bo'g'ma, bosma; | -m, -im: to'plam, kiyim; |
| -um: unum, yutum; uy+um-uyum; | -don: qalamdon, tuzdon; |
| -in (-un, -on): yig'in, tugun, to'zon; | -noma: taklifnoma; |
| -(i)ndi: chirindi, cho'kindi; | -machoq: bekinmachoq; |
| -(i)sh: qurilish, turlanish; | -(u)v, (o)v: yozuv, saylov; |
| -ak (oq): qarsak, qaldoq, varrak; | -ildoq: shaqildoq; |
| -a: sharshara, jizza; | -os: gulduros; |
| -chilik: dehqonchilik; | -poya: bedapoya; |

- qoq (-kak, -gak): botqoq, eshkak, ilgak;
- dak (-doq): yugurdak, qovurdoq; -chiq: yopinchiq;
- iz: bo[‘]g[‘]iz; -mish: o[‘]tmish, qilmish;
- kilik (-gilik): ichkilik, ko[‘]rgilik; -cha: qizilcha;
- ka: yo[‘]lka;
- gich (-kich, -qich, -g[‘]ich): tishkovlagich, ko[‘]rsatkich, qisqich, chizg[‘]ich;
- gi (-ki, -qi, -g[‘]i, -g[‘]u): supurgi, tepki, tutatqi, chalg[‘]i, sachratqi, tuyg[‘]u;
- qin (-qun, -g[‘]in, -g[‘]un): to[‘]lqin, yong[‘]in, uchqun, yulg[‘]un;
- t(-it, -at, -ot): qurt (quri+^t), chiqit, o[‘]lat, ko[‘]chat, sizot;
- moq(-mak): quymoq (ovqat turi), chertmak (o[‘]yin);

3. O[‘]rin-joy otlari yasovchi qo[‘]shimchalar:

- zor: gulzor, paxtazor, olmazor; -iston: O[‘]zbekiston, guliston;
- loq: o[‘]tloq, toshloq; -goh: saylgoh, o[‘]yingoh;
- xona: oshxona, choyxona; -obod: Yunusobod. Yangiobod;

4. Mavhum ot yasovchi qo[‘]shimchalar:

- lik: bolalik, do[‘]stlik, birlik, mustaqillik;
- liq: otaliq, borliq;
- ch: sevinch, quvonch, tayanch;
- garchilik: odam garchilik, og[‘]aynigarchilik;
- chilik: kamchilik, dehqonchilik;
- sh(-ish): qurilish, emlash;
- v(-uv): undov, uquv;
- i: suyunchi;
- at(-ot): madaniyat (madaniy+at-madaniyat), qonuniyat, shaxsiyat, tashviqot.

II. So[‘]zlarni qo[‘]shib, juftlab, bog[‘]lab ot yasash (sintaktik yoki kompozitsiya usuli). Bunda qo[‘]shma va juft otlar yasaladi. Qo[‘]shma otlar quyidagicha yasaladi: 1) ot bilan otdan: *otquloq, qo[‘]larra, ko[‘]zoynak*; 2) sifat bilan otdan: *ko[‘]ksulton, xomtok*; 3) ot bilan sifatdan: *gulbeor, oshko[‘]k*; 4) son bilan otdan: *mingoyoq, qirqog[‘]ayni, uch-burchak*; 5) ot bilan fe[‘]ldan: *o[‘]rinbosar, beshiktervatar*; 6) fe[‘]l bilan fe[‘]ldan: *iskabtopar, olibsotar*.

Biror belgisiga ko‘ra atalgan joy nomlari ko‘pincha qo‘shma ot orqali ifodalanadi: *Oqtepa, To‘ytepa, Uchqo ‘rg‘on*.

Qo‘shma otlar qismlarining munosabatlari quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

1. Sifatlovchi-sifatlanmish birikmasi shaklida: *ko‘ksulton, itbaliq*.
 2. Qaratqich-qaralmish birikmasi shaklida: *bilaguzuk, otqulog*.
 3. To‘ldiruvchi-to‘ldirilmish birikmasi shaklida: *o‘ribbosar, be-shiktervatar, dunyoqarash*.
 4. Hol-hollanmish birikmasi shaklida: *beshotar, iskabtopar (chivin)*.
 5. Ega-kesim birikmasi shaklida: *go‘shtkuydi (marosim)*.
 6. Kesim-undalma shaklida: *urto‘qmoq, ochildasturxon*.
- Quyidagi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi:
- 1) qismlari turdosh otlardan iborat bo‘lib, bir urg‘u bilan aytildigan narsa-buyum noimlari: *gulko‘rpa, oshqozon, o‘qilon, tutmayiz, oshko‘k*.
 - 2) ot bilan -ar qo‘shimchali fe’ldan yasalgan qo‘shma otlar: *ot-boqar*.

Bulardan tashqari, ruscha-baynalmilal so‘zlar ishtirokida yasalgan qo‘shma otlar ham o‘zbek tilida mavjud: *bronepoyezd, aviabo‘linma, avtoyo‘l, kinoqissa*.

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

- 1) bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlardan: *uy-joy, oyoq-ko‘l*.
- 2) sinonim so‘zlardan: *kuch-quvvat, oziq-ovqat, baxt-saodat*.
- 3) antonimlardan: *yosh-qari, ost-ust*.
- 4) butun-bo‘lak ma’nosini ifodalovchi so‘zlardan: *tog‘-tosh, idish-tovoq, gap-so‘z, oy-kun, vaqt-soat*.

Har doim ham ikkita otning juftlanishidan yangi ot yasalavermaydi. Juft so‘zning turkumini qismlarning qaysi turkumdan ekanligini qarab emas, balki juft so‘zning butunligicha qanday ma’no anglatishiga qarab aniqlash kerak bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, quyidagi turkum so‘zlar juftlanib, ot yasaladi:

1. Ot: *yor-birodar, to‘y-tomosha*.
2. Sifat: *oq-qora, issiq-sovuq*.
3. Ravish: *kam-ko‘st*.
4. Sof fe’l: *ur-yiqit, keldi-ketdi*.

5. Fe'lning harakat nomi shakli: *yurish-turish, yozuv-chizuv.*

6. Taqlidiy so'zlar: *adi-badi, qiy-chuv.*

Juft otlar qismlarining qaysi tilga mansubligi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'zbekcha-o'zbekcha: *ot-ulov, ko'rpa-yostiq.*

2. O'zbekcha-arabcha: *kuch-quvvat, o'y-xayol.*

3. O'zbekcha-tojikcha: *tuz-namak*

4. O'zbekcha-ruscha: *kissa-karmon.*

5. Arabcha-arabcha: *hisob-kitob.*

6. Tojikcha-o'zbekcha: *savdo-sotiq.*

III. So'zlarni qisqartirib ot yasash (abbreviatsiya usuli). Qisqartirish yangi so'z yasash emas, chunki qisqartirish faqat so'zning shakliga oid bo'lib, ma'noga ta'sir etmaydi. Masalan: BMT, TDPU kabi.

IV. Turkumdan turkumga ko'chish vositasida ot yasalishi (semantik usul)

1) sifatdan otga ko'chish: *o'g'il (bola), qiz (bola), ayol (kishi), chol (odam), kampir (odam);*

2) fe'lidan otga ko'chish: *kelajak* (O'zbekiston kelajagi buyuk davlatdir);

3) jufl fe'llar otga ko'chadi: *keldi-ketdi, oldi-sotdi, qo'ydi-chiqdi.*

V. So'zlarni takrorlash yordamida ot yasash: *Lik-lik* (ko'kat turi), *pat-pat* (mototsikl), *bog'cha-bog'cha* (o'yin), *yugur-yugur* (shoshilish), *biyovbiyov* (qush), *shaqshaq* (qush).

Otlarning tuzilish jihatidan turlari. Otlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

Sodda ot. Faqat bir asosdan tarkib topgan otlar sodda ot hisoblanadi. Masalan: *uy, yer, tosh, tuz, daraxt.* Sodda otlar: a) sodda tub otlar; b) sodda yasama otlar. Tub otlar yasovchi qo'shimcha olmagan otlardir: *kitob, qalam.* Yasama otlar qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan otlardir: *ishchi, guldon.*

Qo'shma ot. Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar qo'shma ot sanaladi. Masalan: *qo'lqop, oltingugurt, beshiktervatar.*

Qo'shma otlar imlosi: Quyidagi qo'shma otlar qo'shib yozildi. Ikki va undan ortiq asosdan takrib topgan turdosh otlar har doim qo'shib yoziladi: *qorbo'ron, beshiktebratar, ko'ksulton, kungaboqar, o'rribbosar*.

Ikkinci qismi turdosh otdan iborat bo'lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi: *Beshariq, Qorqiz, Qashqadaryo*. Ikkinci qismi atoqli oldan iborat bo'lgan qo'shma otlar esa ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, Quyi Chirchiq*.

Juft ot. Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlarga juft otlar deyiladi. Masalan, *og'il - qiz, idish - tovoq, ota - ona*.

Takroriy ot. Ikkinci qismi birinchi qismning tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar takroriy otlar sanaladi. Masalan, *tuz-puz, tovoq-povoq, tovug-povug*.

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qo'yib yoziladi.

Agar juft otlar o'rtasida ikki otni bir-biri bilan bog'laydigan -u, -yu tovushlari bo'lsa, chiziqcha yuklamadan oldin qo'yiladi: *Ona-yu bola - gul-u lola*. Takroriy otlar bir otni takrorlash yordamida hosil qilinadi: *Aytilgan so'zlar jon-jonidan o'tib ketdi*. Tilda takrorlangan, so'zning boshida kelgan undosh p yoki m undoshidan biriga almashtigan yoki unli tovushdan oldin p tovushi orttiriladigan *choy-poy, non-pon, qop-mop, osh-posh, pul-mul* kabi takroriy otlar ham bor.

Qisqartma otlar: Qisqartirish turli yo'l bilan amalga oshiriladi:

1) Barqaror so'z birikmasi qismlarining birinchi tovushlari (yozuvda harflari) asosida: *BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti*;

2) Barqaror so'z birikmasi birinchi qisminig birinchi bo'g'ini, qolgan qismlarining birinchi tovushlari (harflari) asosida: *O'zAS – O'zbekiston adabiyoti va san'ati*;

3) Barqaror so'z birikmasi birinchi va ikkinchi qismlarining birinchi bo'g'ini, qolgan qismlarning to'la ko'rinishi: *O'zmashxolding*;

4) Birinchi qismning birinchi bo'g'ini, qolgan qismlarning to'la ko'rinishi: *O'zmevaxolding, O'zdunrobita*.

Qisqartma so'zlar, asosan, yozma nutq uslubiga xosdir. Bundan so'zlar dastlab yozma nutq uslubida vujudga keladi va nutqimizda faollahib, hamma uchun tushunarli bo'lgandan so'ng keyinchalik og'zaki so'zlashuv uslubiga o'tadi.

Kelishik qo'shimchalari va ularning uslubiy xususiyatlari

Otlarni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar kelishik qo'shimchalari deyiladi. Kelishik shakllari ot-larning gapda bajaradigan sintaktik vazifalarini belgilab beradi. Otlarda oltita kelishik shakli mavjud:

Nº	Kelishik nomi	Qo'shimchasi	Savollari
1	Bosh kelishik	--	Kim? Nima? Qayer?
2	Qaratqich kelishik	-ning, -n	Kimning? Nimaning? Qayerning?
3	Tushum kelishik	-ni, -n	Kimni? Nimani? Qayerni?
4	Jo'nalish kelishik	-ga, -ka, -qa, -na, -a	Kimga? Nimaga? Qayerga?
5	O'rinn-payt kelishik	-da	Kimda? Nimada? Qayerda?
6	Chiqish kelishik	-dan	Kimdan? Nimadan? Qayerdan?

Bosh kelishikning maxsus qo'shimchasi yo'q va bu kelishikdagi otlar ko'pincha ega (Dars boshlandi), ot-kesim (Mening do'stim ta-laba) undalma (Og'ayni, bugun birga dars tayyorlaylik), ba'zan si-fatlovchi aniqlovchi (Mashina asfalt yo'lga chiqib oldi) vazifalarini bajaradi.

Qaratqich kelishigidagi ot doim ot bilan bog'lanadi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi: *maktabning hovlisi, kitobning varaq'i*.

Tushum kelishigidagi ot doim fe'l bilan bog'lanadi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *maktabni sevish, kitobni o'qish*.

Jo'nalish, o'rinn-payt va chiqish kelishiklaridagi otlar fe'l bilan, ba'zan esa boshqa so'zlar bilan ham bog'lanadi va to'ldiruvchi, hol, ot-kesim vazifalarini bajaradi: *maktabga bormoq, maktabda bo'lmoq, maktabdan kelmoq, kitobdan minnatdor, ukamdan katta, kitob menda*.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi mumtoz adabiyotda -ga, -na, -a tarzida uchraydi: *yorima, qo'lina*.

Qaratqich, tushum, jo'nalish va o'rinn-payt kelishigidagi otlar belgili (qo'shimchali) va belgisiz (qo'shimchasiz) qo'llanishi mumkin:

maktab(ning) bog'i, xat(ni) yozdi, Andijon(ga) ketdi, tong(da) esgan shabada.

Qaratqich, tushum kelishigi qo'shimchalari -n shaklida qisqarishi mumkin va ular o'zaro omonim holatga kiradi: *Otin(ning) boshin(i) burdi*.

Kelishik qo'shimchalari biri o'mnida ikkinchisi ko'pincha almashinib kelishi va birikma ma'nosiga ta'sir etishi mumkin.

Avvalo, og'zaki nutqda qaratqich kelishigi shakli bilan tushum kelishigi shakli farqlanmaydi. Har ikki kelishik uchun tushum kelishigi shakli qo'llaniladi, lekin bunday qo'llanish ma'noni o'zgartirmaydi.

Qaratqich kelishigi va tushum kelishigi shakllari bosh kelishik shakli bilan almashinishi mumkin. Masalan, *o'rikning guli – o'rik guli. Uzumni yedi – uzum yedi*.

Qaratqich qo'shimchasining bunday ikki xil qo'llanilishi o'rtasida quyidagicha ma'no farqlanishi bor: ikkinchi holatda umuman o'rik guli ma'nosini bildirilsa, birinchi holat, ya'ni qaratqich kelishigi bilan kelgan holatda predmetning aniqligi va bu predmetning ta'kidlanishini bildiradi. Xuddi shunday ma'no farqlanishi tushum kelishigi bilan bosh kelishik almashgan holatda ham kuzatiladi: *uzumni yedi* (so'zlovchi va tinglovchiga ma'lum bo'lgan aniq uzum) – *uzum yedi* (umuman uzum).

Tushum kelishigi bilan chiqish kelishigi o'zaro almashinib kelishi mumkin. Bunday vaqtida tushum kelishigi qo'llanilgan birikma uch xil ko'rinishga ega bo'лади:

Uzumni yedi – uzum yedi – uzumdan yedi. Birinchi va ikkinchi holatda butun (ya'ni uzumning hammasi) ma'nosini bo'lsa, uchinchi holatda qism ma'nosini (uzumning bir qismi) ifodalanadi.

Ko'rindiki, kelishik qo'shimchalaridan o'rinli, maqsadga muvofiq foydalanish fikrni aniq ifodalashga katta yordam beradi.

Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi

Egalik qo'shimchalari predmetning uch shaxsdan (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga) biriga qarashli ekanini bildiradi. Egalik qo'shimchalari oxiri unli bilan tugagan otlarga **birlikda** -m, -ng, -si; **ko'plikda** -miz, -ngiz, -(lar)i shaklida; oxiri undosh bilan tugagan otlarga esa birlikda -im, -ing, -i; ko'plikda -imiz, -ingiz, -i shaklida qo'shiladi:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	Dalam, kitobim	Dalamiz, kitobimiz
II shaxs	Dalang, kitobing	Dalangiz, kitobingiz
III shaxs	Dalasi, kitobi	Dalalari, kitoblari

Egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik ma'nolari asosida yuqoridagi kabi zidlanish ayrim vaqtarda buziladi. Bunday vaqtda ko'plik shakli o'zi qo'llanayotgan narsa-hodisaning birdan ortiqligini emas, balki hurmat ma'nosini bildiradi. Masalan, *Onamiz dam olgani ketdilar*.

II shaxs egalik qo'shimchasining ko'plik shakli ko'pincha «siz»lash ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, *opang* («sen»siraganini bildiradi) – *opangiz* («siz»lashni bildiradi)

Bunday hodisa III shaxs egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik shakliga ham daxldordir. Masalan, *opasi* («sen»lash) – *opalari* («siz»lashni bildiradi)

Badiiy uslubda tilimizning bunday imkoniyatidan personajlar xarakterini ochishda ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, *Xo'jayinning itlari*. (A. Qahhor) It hurmatga sazovor emas. Lekin xo'jayiniga laganbordorlik shunday kuchliki, uning itiga ham ana shunday munosabat bildiriladi.

Otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda quyidagi fonetik o'zgarishlar yuzaga keladi:

Tovush almashishi: K va q undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, o'zak-negiz oxiridagi jarangsiz k undoshi jarangli g tovushiga, jarangsiz q undoshi jarangli g' undoshiga aylanadi va *koptogi*, *tuprog'i* kabi yoziladi.

Tovush tushishi: Og'iz, burun, zahar kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi qisqaroq aytildigan a, i, a unlilari tushib qoladi: *og'zi*, *burni*, *zahri*.

Tovush orttirilishi: *Obro'*, *parvo* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilganda esa y tovushi orttiriladi: *parvoyi*, *obro'yim*.

Singl-i-si, *shun-i-si*, *bun-i-si* so'zlarida egalik qo'shimchalari ikki marta qo'shiladi. Egalik qo'shimchasining 2-shaxs ko'plik shaklida 3 ta morfologik varianti mavjud: *shaharingiz* – *shaharinglar* – *shaharlaring*.

Otlarning kelishik va egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi turlanish deyiladi, shuning uchun bu qo'shimchalar yana **turlovchi qo'shimchalar** deb ham yuritiladi.

Sifat va uning uslubiy xususiyatlari

Otga bog'lanib, uning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi.

Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) xususiyat sifatlari; 2) makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlar.

Xususiyat, hajm-o'Ichov, makon-zamon sifatlari. Narsalarning turli xususiyat-holatlarini bildirgan sifatlar xususiyat sifatlari, hajmi, vazni, o'Ichovi va shaklini bildirgan sifatlar hajm-o'Ichov sifatlari, o'rin va vaqtga nisbatan belgilarini bildirgan sifatlar makon-zamon sifatlari deyiladi.

Rang-tus, maza-ta'm va hid sifatlari. Narsalarning rang-tusini bildirgan sifatlar rang-tus sifatlari, maza-ta'mini bildirgan sifatlar maza-ta'm sifatlari, hidini bildirgan sifatlar hid sifatlari deyiladi.

Sifatlarning morfologik xususiyatlari:

- 1) belgining darajasini ko'rsatadi: *sho 'x, sho 'xroq, eng sho 'x*.
- 2) otlashadi: *kattalarni hurmat qiling*.
- 3) ravish o'rnida keladi: *Sattor chiroyli yozadi*.

Sifatlarning sintaktik xususiyatlari:

1) asosan aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: *Yoqimli shamol esa boshlaydi. Tabiat go 'zal*.

2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab kelayotgan so'zi bilan moslashmaydi.

Asliy va nisbiy sifatlar. Narsalarning belgisini bevosita, to'g'ridan to'g'ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko'rsata oladigan (ya'ni -roq qo'shimchasini qabul qila oladigan) sifatlar asliy sifatlar deb ataladi: *kichik, yomon, aqli, qora*.

Narsalarning belgisini bevosita emas, balki o'rinni yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko'pincha daraja ko'rsata olmaydigan sifatlar nisbiy sifatlar deb ataladi. Bunday sifatlar yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan bo'ladi: *sharsimon, yozgi, uydag'i, oilaviy, ilmiy*.

Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari

Predmetlardagi bir xil belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi *sifat daroji* deyiladi. Sifatlarning quyidagi to'rt xil darajalari bor:

1. **Oddiy darajadagi sifatlarda belgi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydi.** Bu daraja belgining me'yordagicha ekanligini ko'rsatadi va maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas. Oddiy daraja boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi: *keng ko'cha, yashil yaproq, yaxshi odam*.

2. **Orttirma daraja** predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko'p ekanligini ifodalaydi. Orttirma daraja quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi:

1) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan *eng, g'oyat, juda, ni-hoyatda, bag'oyat* so'zlarini keltiriladi: *juda qizil, g'oyat shirin*.

2) oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: *bus-butun, kap-katta, to'ppa-to'g'ri*.

3. **Qiyosiy daraja** predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga *-roq* qo'shimchasini qo'shish yoki sifatdan oldin bir-biridan, undan ham, yanada so'zlarini keltirish bilan yasaladi: *olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq*.

4. **Ozaytirma darajada** belgi darajasining normal darajaga yetmaganligi, normaldan pastligi ifodalananadi: 1) qo'shimchalar yordamida: *oqish, qizg'ish, qoram tir-roq* qo'shimchasi bam ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi): eskiroq (kiyim); 2) sifatdan oldidan *nim, yarim, och, xiyol, sal, aytarli, uncha, u qadar* so'zlarini keltirish bilan: *yarim ochiq (eshik), uncha katta emas*.

Sifat yasovchi qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari

Sifatlarning tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlarga bo'linadi. Tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan sifatlarning tub sifatlari, asos va yasovchi qismidan iborat bo'lgan sifatlarning yasama sifatlari hisoblanadi. Yasama sifatlarning asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

Sifatlarning quyidagicha yasaladi: 1) sifat yasovchi qo'shimchalar bilan; 2) so'zlarini qo'shish bilan; 3) so'zlarini takrorlash bilan.

I. Sifat yasovchi qo'shimchalar quyidagilar:

1) otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-li: rasmlı, kuchli;	-lik: toshkentlik (bola);
-siz: tuzsiz;	-yi: havoyi;
-iy,-viy: tarbiyaviy, devoriy;	-gi, -ki, -qi: bahorgi, qishki;
-aki, -oqi: jizzaki, pistoqi;	-chan: ishchan;
-ser: serhosil;	ba-: badavlat;
be-: bexabar;	-simon: odamsimon;
-dor: aybdor;	-kor,-gar: zulmkor, ig'vegar;
-i: qishloqi;	-cha: farg'onacha;
-namo: darveshnamo;	-parvar: xalqparvar;
-on: za'faron;	bad-: badbaxt;
-shumul: olamshumul;	-mand: kasalmand;
-don: gapdon;	-kash: dilkash;
-bop: palovbop;	xush-: xushhavo;
-in: erkin;	-vor: devonavor;
-parast: mansabparast;	-bar-: barhayot;
-chil: xalqchil;	-lik(-liq): bolalik (chog'lar);
-dek(-day): muzdek (suv);	-kor; fusunkor (husn);
-chi: gapchi (odam);	-von: zo'ravon;
-qa: loyqa (suv);	-omuz: hazilomuz;
-xo'r: g'amxo'r;	-soz: soatsoz (usta);

2) fe'lidan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-ma: qaynatma sho'rva;	-qi: sayroqi;
-qoq,-g'oq; tirishqoq, toyg'oq;	-ag'on: bilag'on;
-mon: bilarmon;	-a: ko'tara
-kun, -qin, -g'in: tushkun, ozg'in, jo'shqin;	
-g'un, -qun: turg'un, tutqun;	-(a)rli: zerikarli;
-ch: tinch, jirkanch;	-g'ich: yulg'ich;
-ovuch: hurkovuch;	-(i)ndi: asrandi;
-mas: o'tmas;	
-choq, -chak, -chiq: maqtanchoq, kuyunchak, qizg'anchiq;	
-gir,-g'ir, -kir, -qir,-qur: sezgir, olg'ir; o'tkir, topqir, uchqur;	
-k (-uk, -ik, -ak): suzuk, chirik, g'alvirak;	
-q (-uq, -iq, -a/oq): iliq, siniq, buzuq, qoloq, baqiroq, qo'rkoq;	

3) boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo'shimchalar:

Ravishdan: -gi: kechagi, dastlabki;

Sifatdan: no-: noma'lum, noto'g'ri;

-lom: sog'lom;

-msiq: qarimsiq, achimsiq;

Taqlid so'zdan: -ildoq: bijildoq, likildoq

Sifat yasovchi -li qo'shimchasi -dor, -kor qo'shimchalari va *ba-old* qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun ularni birining o'rniда ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *go'shtli-go'shtdor*, *gunohli-gunohkor*, *mazali-bemaza* kabi; lekin doimo ham ularni bir-biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, *yurakli*, *kuchli* so'zlarini *bayurak*, *yurakdor*, *yurakkor*, *kuchdor*, *ba-kuch*, *kuchkor* deb bo'lmaydi.

Sifat yasovchi -siz qo'shimchasi *be-*, *-no* old qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rniда ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *umidsiz*, *beumid* – *noumid*; lekin ularni ham doimo bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan, *aqlsizni beaql* deyish mumkin, lekin *noaql* deb bo'lmaydi. Shuningdek, *nomard*, *noma'lum* singari so'zlardagi *no-* old qo'shimchasini *be-* old qo'shimchasi va -siz qo'shimchasiga almashtirib bo'lmaydi, chunki bu so'zlar forstojik tilidan o'zbek tiliga tayyor holda o'tgan. Hozirgi o'zbek tilida yasalgan emas.

Shunga ko'ra sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega.

Esda tuting. -li, -dor, ba-, ser-, -mand qo'shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi. Bu qo'shimchalar (-mand qo'shimchasidan tashqari) asosda ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi *no-*, *-siz*, *be-* qo'shimchalari bilan zid ma'nolidir.

Bilib oling: -gi (-ki) qo'shimchasi payt bildiruvchi otlarga qo'shilib, paytga xos belgini, -simon qo'shimchasi o'xshashlik belgisini, -(u) iy qo'shimchasi xoslik belqisini bildiruvchi sifatlar yasaydi.

II. So'zlarni qo'shish, bog'lash va juftlash bilan quyidagi turdag'i sifatlar yasaladi:

I. Qo'shma sifatlar quyidagicha yasaladi:

a) *ot va otdan*. Bular qo'shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak;*
b) *sifat va otdan*. Bular qo'shib yoziladi: *qimmatbaho;*
d) *ot yoki ravishga -ar qo'shimchali fe'lni* qo'shish bilan yasaladi. Bular qo'shib yoziladi: *tezoqar, ertapishar;*

e) *otga aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang so'zlarini* qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: *xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g'ayridin, nimpushti.*

Qo'shma sifatlar: a) ikki tub so'zdan tashkil topadi: *xomsemiz, kamgap;* b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o'zbilarmon.*

2. Birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo'ladi, bunday sifatlar *aralash, yo'q, ko'p, oliv, och, to'q, to'la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so'zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash, tengi yo'q, ko'p tarmoqli, oliv ma'lumotli, och qizil, qorni to'q, to'q qizil, to'la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli.*

3. Juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan *katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi;* 2) sinonim so'zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog'-salomat, uzuq-yuluq, soya-salqin, xor-zor;* 3) yaqin ma'noli so'zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, nozik-nihol, kuydi-pishdi.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, chiziqcha yuklamadan oldin qo'yiladi: *yakka-yu yagona farzand.*

4. So'zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi. Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlarga yasaladi: *yo'l-yo'l (ko'ylak), manman (odam), shiqshiq (tugma), liplip (chiroq), chaqchaq (odam).*

Sifatlarning otlashishi. Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi. Bunday vaqtida uning ma'nosi ham sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'ladi va ot bajargan sintaktik vaazifalar da keladi.

Otlashgan sifatlar kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi. Otlashgan sifatlar gap ichida ega, to'ldiruvchi, qaratqichaniqlovchi bo'lib kela di: *Qozonga yaqin yursang, gorasi(ega) yuqar, yomonga(to'ldiruvchi)*

yaqin yursang, yarasi yuqar (maqol). Otlashgan sifatlar undalma ham bo‘lib keladi: *Yaxshilar* (undalma) uni eslangu!

Boshqa turkumdagи so‘zlarning sifat o‘rnida qo‘llanishi

- 1) **otlar** sifat o‘rnida qo‘llanadi: tilla (odam), kumush (qish), temir (oyoq);
- 2) **sifatdoshlar:** kelishgan (qiz), kelajak (avlod);
- 3) **ravishlar:** oqilona (maslahat), o‘zbekcha (odat),

Sifatlarning tuzilish turlari. 1. **Sodda sifatlar:** Bir asosdan iborat bo‘lgan sifatlar sodda sifatlar sanaladi: *aglli, yaxshi*. 2. **Qo‘shma sifatlar:** Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar qo‘shma sifatlar hisoblanadi. Qo‘shma sifatlar, asosan, qo‘shib yoziladi: *ishyoq-mas, erksevar, tilbilmas, o‘zbilarmon* kabi. 3. **Birikmali sifatlar:** *uzun tolali(paxta), yoshi ulug’ (inson), gapga usta (odam)*. 4. **Juft sifatlar:** O‘zaro yaqin yoki zid ma’noli ikki asosning juft kelishidan hosil bo‘lgan sifat juft sifat hisoblanadi. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *uzun-qisqa, ola-quroq, yakka-yu yagona, katta-kichik, maza-bemaza*. 5. **Takroriy sifatlar:** Bir asosning aynan takrorlanishi dan hosil bo‘lgan sifat takroriy sifat sanaladi. Takroriy sifatlar belgini ta‘kidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifat qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *yirik-yirik, katta-katta* kabi.

SON

Sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar turkumi **son** deyiladi. Son necha? qancha? nechta? nechanchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Sonlarning morfologik xususiyatlari:

- 1) sonlar juft, dona, metr kabi hisob so‘zları bilan qo‘llana oladi;
- 2) sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar sonning hamma tur-lariga ham qo‘shilavermaydi;
- 3) boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi.

Sonning sintaktik xususiyatlari:

- 1) doim otlar bilan birga qo‘llanadi;
- 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi;

3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi: *Uch dugona kelishyapti*;

4) son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi: *ikkita chiroyli ko ‘ylak*.

5) sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: *Maqsadimiz bitta(kesim). Beshta(aniqlovchi) qalam oldi*.

Sonlarda quyidagi xususiyatlar ham mavjud: 1) **omonimlik**: yuz (son) – yuz (chehra), uch (son) – uch (harakat); 2) **sinonimlik**: bir – yakka, ikki – juft; 3) **paronimlik**: yetti – yetdi.

Sonlar ko‘pincha raqamlar bilan yoziladi: 1) *arab* raqamlari bilan: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 2) *rim* raqamlari bilan: *II chorak, XX asr*

Badiiy asarlarda sonlar so‘z bilan yoziladi: *To ‘rt yil kutdi*.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23 ta sodda son bo‘lib, boshqa sonlar shularning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: *nol, bir, ikki, uch, to ‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to ‘qqiz, o ‘n, yigirma, o ‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to ‘qson, yuz, ming, million, milliard*.

Qadimgi o‘zbek tilida **lak** (hindcha – yuz ming), **tuman** (mo‘g‘ulcha – o‘n ming) kabi sonlar mavjud bo‘lgan.

Eslatma: **uch, yetti, to‘qqiz, qirq** kabi sonlar sehrli sonlar sifatida ham talqin qilinadi.

Butun son, aralash son va ularning yozilishi. Narsa-buyumning son-sanog‘ini, miqdorini, uning butunligini saqlagan holda ifodelaydigan son butun son deyiladi: 1, 3, 25, 39 kabi. Butun son bilan kasr son birgalikda ishlatilsa, aralash son deb ataladi: *bir yarim, ikki butun o ‘ndan besh*. Butun, kasr, aralash sonlar ajratib yoziladi: *bir yarim metr*.

Sonning ma’no guruhlari

Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko‘ra sonlar ikki turga bo‘linadi: 1. Miqdor sonlar; 2. Tartib sonlar.

1. **Miqdor sonlar** qanday miqdorni bildirishiga ko‘ra sanoq, dona, chama, taqsim, jamllovchi, kasr sonlarga bo‘linadi.

Sanoq son: Son-sanoqni bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda ko‘pincha arab raqami bilan yoziladi: *ikki, uch (2,3)*

Dona son narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Dona son miqdor songa -ta qo'shimchasini (jonli va jonsiz narsa nomlariga birika oladi) qo'shish yoki *dona* (narsa nomlariga birikadi), *nafar, bosh* (mavjudot nomlari bilan birikadi), *tup* (o'simlik nomlari bilan birikadi), *litr* (suyuqlik), *gramm* (og'irlilik) so'zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: *beshta qush, uch dona non, o'n nafar odam, yuz bosh qo'y, bir tup o'rik.*

Chama son narsa-buyumlarning taxminiy sonini bildiradi va quyidagicha hosil qilinadi:

1) miqdor songa -*tacha* qo'shimchasini qo'shish bilan: *o'ntacha mashina;*

2) miqdor songa -*lar, -larcha* qo'shimchasini qo'shish bilan: *Soat o'n birlar edi. Yuzlarcha bola yig'ildi.*

3) miqdor songa -*lab* qo'shimchasini qo'shish bilan: *minglab odam;*

4) ikki miqdor sonni juft keltirish bilan: *besh-olti, uch-to'rt;*

Jamlovchi son narsa-buyumning umumiyligi sonini bildiradi va miqdor songa quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi:

1) miqdor songa -*ov* qo'shimchasini qo'shish bilan: *uchovi, to'rtovi;*

2) miqdor songa -*ala* qo'shimchasini qo'shish bilan: *ikkala, uchala;*

3) miqdor songa -*ovlon* qo'shimchasini qo'shish bilan: *beshovlon, oltovlon* (-ovlon qo'shimchasi eski tilimiz va xalq so'zlashuv tili uchun xosdir).

Ikki, olti, yetti miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, o'zakdag'i tovushi tushib qoladi: *ikkovi, oltovi, yettovi.*

Uch, to'rt sonlariga -*ala* qo'shilganda, *uchchala, to'rttala* tarzida aytilsa ham, *uchala, to'rtala* deb yoziladi.

Jamlovchi sonlar ma'no jihatdan otlarga yaqin turadi.

Jamlovchi sonlar otlashish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun jamlovchi son qo'shimchalari ko'plik va uch shaxsdag'i egalik qo'shimchalaridan birini olib keladi: *besh-beshovi – beshovlari, ikkalasi. Bir* soniga -*ov* qo'shimchasi qo'shilib jamlovchi "kimdir" degan ma'noda qo'llanadigan birov so'zi son ma'nosini yo'qotib, olmosh turkumiga o'tgan -*ala* qo'shimchasini olgan son egalik

qo'shimchasini olmasligi ham mumkin. U vaqtida son otlashmagan bo'ladi: *ikkala kishi*.

Taqsim son narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadi, miqdor songa -tadan qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: *ikkitadan, o'ntadan, yuztadan*. Ba'zan miqdor son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: *ikki-ikki bo'lib yurdi*.

Kasr son. Narsa-buyumlar miqdorini bo'laklab, qismlab ifodelaydigan son kasr son deyiladi: 1/2 (yarim), 1/4 chorak), 1/8 (nimchorak). Kasr son ikki xil ifodalanadi: 1) ikki son chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan bog'langan bo'ladi: *ikkidan bir*; 2) o'z holicha kasrni anglatadigan so'z bo'ladi: *yarim, chorak, nimchorak*.

Esda tuting. Nutqimizda **bir** so'zi miqdor ifodalashdan tashqari quyidagi ma'nolarni ham ifodalaydi: 1) noaniqlik (bunda u qandaydir olmoshiga sinonim bo'ladi): *Eshikni bir kishi taqillatyapti*; 2) kuchaytirish (bunda u **juda** so'ziga sinonim bo'ladi): *bir yugurdim, bir yugurdim*; 3) ketma-ketlik (bunda u dam, goh bog'lovchilariga sinonim bo'ladi): *bir menga, bir ukamga qaraydi*; 4) chegaralash (bunda u **faqat** yuklamasiga sinonim bo'ladi): *hamma keldi, bir Ahmad kelmadi*; 5) tenglik (bunda u **teng** so'ziga sinonim bo'ladi): *qonun oldida hamma bir*.

Bilib oling. Bir so'zi aniq miqdor – bitta ma'nosidan boshqa noaniqlik ma'nosiga ham ega. Bu ma'noda **bir** so'ziga *qandaydir, qaysidir, kimdir, nimadir* kabi guman bildiruvchi so'zlarga ma'nodosh bo'ladi.

2. **Tartib son** narsa-buyumning ketma-ketlik tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan miqdor songa **-nchi**, undosh bilan bitgan miqdor songa **-inchi** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: *birinchi, ikkinchi*.

Tartib sonlar arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo'shimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo'yiladi, rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha qo'yilmaydi: *2-brigada, 7-sinf, II kurs*.

Tartib sonlar ma'no jihatdan sifatlarga yaqin turadi va ularning ayrimlari sifat turkumiga ko'chishi ham mumkin: *Yettinchi lampa, o'ninchi ip*.

Bilib oling: Umumxalq bayramlarini ifodalovchi tartib raqamli so'z birikmalarida kunning tartib raqami harflar bilan yozilsa, bosh

harf bilan, oy nomi esa kichik harf bilan yoziladi: *Sakkizinchi dekabr*, *Yigirma birinchi mart* kabi.

Rim raqamlari quyidagilardan iborat (qavslarda ularning arab raqamlari bilan ifodasi berilgan): **Birliklar** I(1), II (2), III (3), IV(4), V(5), VI(6). **O'nliklar** -X(10), XX(20), XXX(30), XL(40), L(50), LX(60), LXX(70), LXXX(80), XC(90). **Yuzliklar** - C(100), CC(200), CCC(300), CD(400), D(500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900).

Mingliklar - M(1000).

Son va o'lchov so'zlar. Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanib, bu narsaning o'lchovini bildiradigan hisob so'zları (numerativlar) sanaladi. Bunday so'zlar aslida ot turkumiga mansub bo'lib, o'z lug'aviy ma'nolarini qisman yo'qotgan holda noaniq miqdor ifodalaydigan bo'lib qolgan so'zlardir.

Hisob so'zları quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Nº	O'lchov turlari	O'lchov birlıkları (hozirgi)	Tarixiy o'lchov birlıkları
1.	Predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlataladigan so'zlar	Dona, nusxa, tup, bosh, nafer	
2.	Butunning qismini ifodalash uchun ishlataladigan hisob so'zlar	Parcha, varaq, burda, og'iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, ho'plam, tomchi, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, toqa, bo'lak, shingil	
3.	To'dalab ko'rsatuvchi hisob so'zlar	Gala, to'p, guruh, to'da, dasta, bog', quchoq, shoda, hovuch	
4.	Juftlab ifodalovchi	Juft, para	
5.	Og'irlik o'lchovlari	Gramm, kilogramm, sentner, tonna	Misqol, botmon, pud, qadoq, paysa, dahsar

6.	Uzunlik o'chovlari	Millimetrik, santimetr, metr, kilometr	Chaqirim, tosh, gaz, qarich, quloch, qadam, yog'och
7.	Yosh o'chovlari	Yashar, yoshlik, oylik, kunlik	
8.	Vaqt o'chovlari	Soniya, soat, kun, oy, hafta, yil, asr	
9.	Qiymat o'chovlari	So'm, tiyin, tanga	Miri, paqir

Bulardan tashqari, quyidagi hisob so'zlari son va fe'l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: *marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf'a*.

O'chov so'zlar ichida ayrimlari faqat o'chov – hisob ma'nosini bildirsa, ayrimlari alohida olinganda predmet nomini, matn ichidagina o'chov birligi ma'nosini bildiradi. Masalan, suyuqlik o'chovi uchun *paqir* (*chelak*), *shisha*, *bochka*; xashak-o'tinlarni o'chash uchun *tutam*, *quchoq*, *bog'*; uzunlikni o'chash uchun *qarich*, *qadam*, *yog'och* singari so'zlar faqat matn ichidagini qo'llaniladi. Masalan, *besh shisha mineral suv*, *uch bochka pivo*, *bir paqir yog'*; *yuz bog'* beda, *bir quchoq o'tin*, *bir tutam xashak*, *uch qarich gazmol*, *besh qadam yo'l kabi*.

Alohidida olinganda esa narsa va hodisalarning nomini bildiradi. *Shisha, paqir, qarich, qadam* kabi.

Juda ko'p o'chov so'zları fanda va turmushda aniq miqdorni ifodalovchi so'zlar sifatida qabul qilingan. Vazn birliklari: *milligramm (mg)*, *gramm (g)*, *kilogramm (kg)*, *sentner (s)*, *tonna (t)*.

Uzunlik birliklari: millimetrik (ml), santimetr (sm), detsimetr (dm), metr (m), kilometr (km). **Sath o'chovi:** hektar (ha). **Elektr toki quvvati birliklari:** amper (A), megaamper (mA). **Kuchlanish birligi:** volt (v). **Quvvat birligi:** watt(w).

Shuningdek, fizika, kimyo, biologiya, matematikada ishlataladigan miqdoriy tushunchalarini ifodalovchi so'zlarning barchasi o'chov birliklaridir.

Sonlarning uslubiy xususiyatlari

Sonlar predmetlarning aniq miqdoriy belgilarni bildiradi. Ana shu xususiyati bilan miqdor bildiruvchi so'zlardan farq qiladi. Solish-tiring: *Magazindan kitob oldim. (Miqdori bittami, undan ortiqmi,*

noma'lum.) Magazindan ko'p kitob oldim. (Miqdori bittadan ortiq, lekin nechталigi noma'lum.) Magazindan o'nta kitob oldim. (Miqdorning nechталigi aniq.)

Birdan boshqa sonlarning barchasi predmet bildiruvchi so'zlarga qo'shib, uning bittadan ortiqligini, ko'pligini ifodalaganligi uchun son bilan birga kelgan otlar ko'plik shaklini olmaydi. Masalan, *olma – olmalari*. Lekin *ikkita olma, o'nta olmani, ikkita olmalar, o'nta olmalar* deb bo'lmaydi. Bu o'zbek adabiy tili uchun me'yorning buzilishi bo'ladi.

-ov, -ala qo'shimchalari ikki sonidan yigirma sonigacha qo'shiladi, lekin yigirma soni bu qo'shimchalar bilan qo'llanilmaydi. *O'n – o'novi* deyish mumkin, biroq *yigirma – yigirmovi – yigirmalasi* deyilmaydi.

Sonlarning otlashishi. Gapda son bog'langan ot tushib qolishi mumkin. Bunday holda son otlashadi. Otlashgan son xuddi otlarga o'xshab egalik, ko'plik va kelishik qo'shimchalarini oladi: *beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar*.

Sonlarning tuzilish jihatdan turlari. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari quyidagilar:

1. **Sodda sonlar** bir o'zakdan iborat bo'ladi: *bir, uch.*

2. **Qo'shma sonlar** ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladl: *o'n uch, bir yuz o'n sakkiz*. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma son tarkibiy qismlarining qat'iy joylashish o'rni bor: yuzgacha bo'lган sonlardan oldin katta son, undan so'ng kichik son keladi. Masalan, *o'n bir, o'ttiz besh* kabi. Yuzlikdan keyingi sonlarda birlik va o'nlik sonlar ulardan oldin kelishi ham, keyin kelishi ham mumkin. Birlik va o'nlik sonlar yuzlik, minglik sonlarning qayerida kelishiga ko'ra ma'no juda kuchli farqlanadi:

Birlik va o'nlik sonlar, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelgan son qancha bo'lsa yuzlik va undan ortiq sonlar shuncha barobar ortiq ekanligi anglashiladi. Masalan, ikki yuz degani ikkita yuz deganidir. Aksincha, birlik va o'nlik sonlar yuzlik hamda undan ortiq sonlardan keyin kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning birlik o'nlik sonlar bilan ortganligini bildiradi. Masalan, ikki yuz uch degani ikkita yuz-u va unga uchning qo'shiluv deganidir.

3. **Juft sonlar** ikkita turli o'zakning juftlashishidan tuziladi: *besholti, yetti-sakkiz, o'n besh-o'n olti.*

4. **Takroriy sonlar** bir o‘zakning takrorlanishidan tuziladi: *ikki-ikki, o ‘nta-o ‘nta*.

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi.

Tilchi olimlar **sakson** va **to‘qson** sonlarining **sakkiz** va **o‘n**, **to‘qqiz** va **o‘n** so‘zlaridan tuzilganligini aniqlashgan.

Olmoshlarning ma’no xususiyatlari

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba’zan so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llana oладиган, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmosh deb ataladi:

1) ot o‘rnida: *Karim juda quvondi, chunki u o‘z orzusiga erishgan edi*;

2) sifat o‘rnida: *kechagi kitobni berib tur, men shu kitobdan misollar olmoqchiman*;

3) son o‘rnida: *menda ikkita qalam bor, senda nechta qalam bor?*

4) ravish o‘rnida: *men bugun ketaman, sen qachon ketasan?*

5) so‘z birikmasi o‘rnida: *yomon so‘z bosh og‘rig‘idir, shu bois uni gapirmagan ma‘qul*;

6) gap o‘rnida: *sen mehnat qilishni voqtirmaysan. bu esa insondagi eng yomon xislatdir*.

Olmoshlarning atash ma’nosini bo‘lmaydi. Uning qaysi ma’noda kelayotganligi matnda qaysi so‘z yoki gap o‘rnida almashinib keli-shiga qarab belgilanadi.

Olmoshlar turlanadi, gapda ko‘pincha ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va undalma bo‘lib keladi: *Hamma(ega) keldi. Bizni(to‘ldiruvchi) tabriklang. Shu(aniqlovchi) kitobni bering.*

Olmoshlarning grammatik xususiyatlari.

1) so‘z yasalish xususiyati yo‘q (lekin olmoshlar asosida ot, fe’l, ravish, sifat yasalishi mumkin: *o ‘zlik, sensirama, o ‘zicha, menbop*);

2) juftlanib, boshqa so‘z turkumi vazifasida keladi: *o ‘sha-o ‘sha, shu-shu* (ravish);

3) olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni olishi mumkin: *unga, shunisi*;

4) olmosh hech vaqt o‘zidan oldin aniqlovchi olmaydi.

Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lsa bo‘ladi:

Olmoshlarning ma'no va tuzilish turlari

№	Olmoshlarning ma'no turlari	Ma'nolari va ta'rifi	Misollar	Tuzilish turi
1	Kishilik olmoshlari	Shaxs ma'nosini bildiruvchi o'tlar o'mida almashinib keladi va ularga ishora qiladi	Men (kamina) – biz Sen – siz U – uilar	Sodda juft
2	O'zlik olmoshlari	Uchala shaxsdag'i kishilik olmoshlari o'mida qo'llanib, ma'nosini ta'kidab keladi	O'z	Sodda, takror
3	Ko'rsatish olmoqlari	Mustaqil so'zlar yoki gaplar o'rniда kelib, ular orqali ifodalangan shaxs, premet, belgi, harakatharni ko'rsatib keladi.	U, bu, shu, o'sha, mana bu, (manavi), mana shu, ushbu	Sodda, qo'shma, juft, takror
4	So'roq olmoshlari	So'zlovchiga noma'lum bo'lgan shaxs, narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni so rash ma'nosini bildiradi	Kim? nima? Qachon? Qaysi? Oancha? Necha? Nimaga? Qani? Nima qildi? Nima bo'ldi?	Sodda, takror
5	Birgalik ajratish (belgilash olmoshlari)	Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'mida almashinib, ularning ma'nosini umumlashtirib, jamlab keladi	Jamlash: hamma, barcha bari, jami, jamiyki, butun, yalpi Ajratish: har kim, har nima, har bir, har qancha, har qanday, har qaysi, har narsa	Sodda, takror, qo'shma
6	Bo'lishtsizlik olmoshlari	Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'mida kelib, uning inkorini bildiradi	Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qanaqa, hech narsa, hech bir	Qo'shma
7	Gumon olmoshlari	Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'mida kelib, uning ma'nosini taxminlab, gumanlab keladi	Allakim, allanarsa, allaqanday, allaqancha Kimdir, nimadir, qaysidir	Sodda

1. **Ot toifasidagi olmoshlar.** Bular otlarning so‘roqlariga javob bo‘ladi, otlarga o‘xshab sintaktik shakl yasovchi qo‘sishchalarini qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarni bajaradi.

2. **Sifat toifasidagi olmoshlar.** Bular sifatlarga o‘xshab kesim va hol vazifalarini bajaradi, otlashish xususiyatiga ega.

3. **Son toifasidagi olmoshlar.** Bular miqdorni ifodalash uchun ishlataladi va gapda sifatlovchi – aniqlovchi, kesim, ba’zan hol vazifalarini bajaradi.

Olmoshlar bevosita atash ma’nosiga ega bo‘limganligi uchun «**ichi bo‘sh so‘zlar**» deb ham yuritiladi.

Kishilik olmoshlari. Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi.

So‘zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqeа-hodisalar o‘zga, ya’ni uchinchi shaxs sifatida qaraladi.

Men, biz birinchi shaxs, **sen, siz** ikkinchi shaxs **u, ular** uchinchi shaxs kishilik olmoshlari hisoblanadi. Bularidan men, sen, u birlik, biz, siz (lar), ular ko‘plik ma’nosini bildiradi.

Ba’zan **biz**, **siz**, **ular** birlik ma’nosida ham qo‘llaniladi. **Biz** birlik ma’nosida qo‘llanganda kamtarlik, bajargan ishida o‘zini ta’kidlamaslik ma’nosini, bildiradi. Masalan, *Mening uyim* o‘rniga *Bizning uyimiz*. *Men g‘olib chiqdim* o‘rniga *Biz g‘olib chiqdik*.

Shuningdek, **siz**, **ular** yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma’nosini bildiradi. Masalan, *Sen kelding* o‘rniga *Siz keldingiz*. *U keldi* o‘rniga *Ular keldilar*. **Siz** hurmat ma’nosini bildirganda, ko‘pincha ko‘plik ma’nosini ifodalash uchun unga *-lar* qo‘sishchasi qo‘shiladi. Masalan, *Sizlarga doimo baxt yor bo‘lsin*.

Men, sen olmoshlariga qaratqich *-ning*, tushum kelishigi *-ni* hamda *-niki* qo‘sishchasi qo‘shilganda, bir **n** tushib qoladi: *mening, seniki, seni*. U kishilik olmoshiga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishi-gi qo‘sishchalarini qo‘shilganda, bir **n** orttiriladi: *unga, unda, undan*. Bu olmoshlarga egalik qo‘sishchalarini deyarli qo‘silmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, kesim, izohlovchi vazifalarini bajaradi.

O‘zlik olmoshi. Kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llanilib, ko‘pincha shaxsni, ba’zan predmetni ko‘rsatuvchi **o‘z** so‘zi o‘zlik olmoshi sanaladi.

O'zim, o'zing, o'zi so'zлari ba'zan egalik qo'shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan mening o'zim, sening o'zing, sen o'zing, uning o'zi, u o'zi tarzida qo'llaniladi va bu vaqtدا ko'pincha kishilik olmoshlariга ta'kid ma'nosi yuklanadi.

O'zlik olmoshi narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *o'z uyi, o'z ukasi*. O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olib, kishilik olmoshlariغا sinonim bo'ladi: *o'zim-men, o'zing-sen, o zi-u*. O'zlik olmoshi turlanganda kelishik qo'shimchalaridan oldin egalik qo'shimchalari bo'lishi shart: *o'ziga, o'zingdan*. *O'z* olmoshi belgisiz kelishik ko'rinishida qo'llanishi mumkin: *o'z uying – o'zingning uying*.

Ko'rsatish olmoshlari. Oldingi gap, gapdagи biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari hisoblanadi.

So'z ma'nosini aniqlab keluvchi olmoshlar o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin qo'llanadi. Masalan: *Bu daftар meniki*.

Bu, shu, u, o'sha, ana, mana kabi so'zlar ko'rsatish olmoshlari sanaladi.

Ko'rsatish olmoshlari gapda ega, aniqlovchi, hol va kesim vazifalarini bajaradi. Kishilik olmoshi "u" bilan ko'rsatish olmoshi "u" ni gapdagи ma'nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda "u" kishilik olmoshi kim? so'rog'iga, ko'rsatish olmoshi "u" esa qaysi? so'rog'iga javob bo'ladi.

U, bu, shu, o'sha olmoshlari jo'naliш, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga *-day, -cha* qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimcha oldidan bir n tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, uncha, o'shanday*.

U, bu olmoshlari juftlanib har xil narsa va shaxs, *unaqa-bunaqa* tarzida belgining ortiqligi, *uncha-muncha* tarzida oz miqdor ma'nolarini ifodalaydi.

Yozuvda *mana bu, mana shu, ana bu, ana shu* olmoshlari ajratib yoziladi. Ba'zan bu olmoshlar og'zaki nutqda *manavi, anavi* tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi mumkin.

So'roq olmoshlari. Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad, o'rin, payt haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar so'roq olmoshlari sanaladi.

Kim, nima so'roq olmoshlari shaxs va narsaga nisbatan ishlataladi hamda birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik va kelishik qo'shimchalarini

oladi: Kim keldi? Nimang bor? Nimalarni ko'rding? Nima olmoshi belgisiz kelishik shaklida kelishi mumkin: Nima(ni) olding?

Qanday, qanaqa, qaysi olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatalidi: qanaqa odam, qaysi kitob? **Qayerda, qani, qayoqqa, qachon, nega** olmoshlari o'rinni, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlatalidi: Qachon keldi? Qayerda yuribdi? Ukang qani? Qayoqqa ketdi? Nega keldi?

Belgilash olmoshlari. **Har** so'zi so'roq olmoshlariga, **bir** so'ziga qo'shilib to'pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan belgilash olmoshlarini hosil qiladi. Har so'zi bir butunlikda, yig'inda, to'pda olingan shaxs, narsa, belgi, harakatlarni ajratib ko'rsatish ma'nosiga ega. Shuning uchun u ko'pincha **bir** so'zi bilan birikib keladi: *har bir kishi, har bir kun, har bir narsa, har bir joy* kabi.

Hamma, barcha, bari, butun olmoshlari esa shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydi. **Hamma, barcha, bari** belgialash olmoshlari bo'linuvchan butunni yaxlitlab, **butun** olmoshi esa butunni bo'linmas butunlik sifatida ifodalaydi. **Bari** olmoshida ko'tarinkilik, tantanavorlik bo'yog'i mavjud.

Demak, to'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi.

Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llanadi: *hammalari jim, har kimga aytaverma*.

Bo'lishsizlik olmoshlari. So'roq olmoshlari va bir, narsa, nima so'zlari oldidan hech so'zining qo'llanishi natijasida bo'lishsizlik olmoshlari hosil bo'ladi. **Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa** so'zlari bo'lishsizlik olmoshlari sanaladi va ular yozuvda ajratib yoziladi.

Bu olmoshlar ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo'ladi.

Bu olmoshlar egalik, kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. *U hech kimni ko'rmadi*.

Hech so'zi yakka holda qo'llanganda, ko'pincha fe'llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi: *u hech qiyalmadi*. **Kimsa** so'zi ham bo'lishsizlik olmoshlari o'rnida qo'llanishi mumkin. *Buni kimsa bilmasligi kerak*.

Gumon olmoshlari. So‘roq olmoshlariga va narsa so‘ziga alla-yoki -dir qo‘sishchalarini qo‘sish yo‘li bilan gumon olmoshlari hosil qilinadi.

Alla- qo‘sishchasi so‘roq olmoshlari oldidan, -dir qo‘sishchasi esa so‘roq olmoshlari so‘ngidan qo‘shiladi. Har ikki qo‘sishcha asos qism bilan qo‘shib yoziladi.

Narsa so‘zi faqat **-alla** qo‘sishchasi yordamida gumon olmoshi-ga aylanadi.

Bir so‘zi **kishi**, **narsa**, **nima** kabi so‘zlarga qo‘shib bu so‘zlarga gumon ma’nosini yuklaydi. Ularni *kimdir*, *nimadir*, *qachondir* singari gumon olmoshlari bilan almashtirish mumkin. Bunday vajtda bir so‘zi gumon olmoshi o‘rnida qo‘llangan bo‘ladi. Shu bilan birga **birov** so‘zi ham **kimdir** so‘zi bilan erkin almashina olganligi uchun gumon olmoshi hisoblanadi.

Gumon olmoshlari so‘roq olmoshlariga **bir**, **ham** so‘zlarini qo‘sish orqali yasalishi ham mumkin: *uni kim ham chaqirayotgan edi-ya*. *Akasi unga bir nima deganday bo‘ldi*, (*Ba’zan bir nima* birikmasi bo‘lishsiz olmosh o‘rnida kelishi mumkin: *buni ko‘rib bir nima demadi*.) Bu olmoshlar birlik va ko‘plikda (allakimlar) keladi, kelishiklarda turlanadi (kimnidir), egalik qo‘sishchasini oladi (allakimim).

Ayrim darsliklarda ot-olmoshlar ham ajratiladi. Bularga **kamina**, **faqir**, **banda** so‘zları kiradi.

Eski o‘zbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida **men** o‘rnida ko‘pincha **kamina**, **kaminai kamtaringiz**, **faqir**, **qulingiz**, **bandayi ojizingiz** singari so‘z va birikmalar qo‘llanilgan.

Hozirgi o‘zbek tilida ham xuddi shu ma’noda ba’zan **men** o‘rnida **kamina** so‘zi ishlatiladi.

Men olmoshi o‘rnida yuqoridagi so‘zlar qo‘llanilganda, kesim mazmunan birinchi shaxsni bildirsa ham, lekin III shaxs shaklida bo‘ladi.

Boshqa turkumlarga oid so‘zlarning olmoshlarga ko‘chishi

Quyidagi turkum so‘zlarga tegishli ayrim so‘zlar olmoshga ko‘chadi:

1) **ot**: *odam*, *kishi*, *inson*, *narsa*, *ish*; 2) **sifat**: *ba’zi*, *boshqa*, *ayrim*, *tubandagi*, *quyidagi*; 3) **son**: *bir*. Umuman olganda, *bir*, *har*, *hech* so‘zları bilan keladigan ko‘pgina so‘zlar olmoshga ko‘chishi mumkin: *hech narsa*, *bir narsa*, *har narsa*.

Olmoshlarning tuzilish turlari:

1. Sodda olmoshlar: Faqat bir asosdan iborat bo‘lgan olmoshlar sodda olmoshlar hisoblanadi: *men, sen, kim? shu, qachon? nima? hamma, barcha* singari tub olmoshlar, *kimdir, qaysidir, allakim, al-laqanday* singari yasama olmoshlar sodda olmoshlardir.

2. Qo‘shma olmoshlar: Ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar qo‘shma olmoshlar hisoblanadi: *ana shu, har kim, hech nima*. Tarkibida **hech, bir** qismlari mavjud bo‘lgan olmoshlar qo‘shma olmoshlardir.

Yasama sodda olmosh qismlari qo‘shib, qo‘shma olmosh qismlari esa ajratib yoziladi.

3. Juft olmoshlar: Bir-biriga mazmunan yaqin bo‘lgan olmoshlarining birikuvidan hosil bo‘lgan olmoshlar juft olmoshlar sanaladi: *u-bu, unga-bunga, siz-biz*.

4. Takroriy olmoshlar: Bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o‘zgarishi bilan (masalan, uncha-muncha) takrорlanishidan hosil bo‘lgan olmoshlar takroriy olmoshlar hisoblanadi: *shu-shu, o’sha-o’sha, kim-kim*.

Juft va takroriy olmoshlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

Olmoshlar boshqa so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lishi mumkin. *O’zboshimcha, o’zbilarmon, manman* kabilar sifat, *o’zidan ketmoq, o’ziga kelmoq* iboralar sanaladi.

Fe’l va uning uslubiy xususiyatlari

Predmetning harakatini bildirib, nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar fe’l deyiladi.

Esda saqlang. Fe’llardan anglashilgan harakat va holat ma’lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

Fe’llar bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarga ega, zamon va shaxs-son ifodalay oladi, o‘zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega, mayl ko‘rsata oladi, o‘timli-o‘timsizlik xususiyatiga ega. Fe’llar gapda ko‘pincha kesim vazifasini bajaradi: *Kuz keldi*.

Fe’llar nimani atab kelishiga ko‘ra **harakat fe’llari va holat fe’llariga** bo‘linadi.

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergen harakatni bildiruvchi fe’llar harakat fe’llari hisoblanadi. Shaxslarning

ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish jarayonini ifodalovchi fe’llar esa holat fe’llari sanaladi.

Fe’lning ma’noviy guruhlari: Fe’llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra nutqiy faoliyat fe’llari, aqliy faoliyat fe’llari, jismoniy faoliyat fe’llari, holat fe’llari kabi ma’no guruhlariga ajraladi.

Nº	Ma’no guruhlari	Fe’llar
1	Yumush fe’llari	Ishladi, mehnat qildi, ter to‘kdi
2	Tafakkur fe’llari	O‘ylaydi, o‘qidi, kashf qildi, fikrladi, tasavvur qildi
3	Sezgi fe’llari	Sezgi, his qildi
4	Ruhiy holat fe’llari	Kuldi, xursand bo‘ldi, qayg‘urdi, iztirob chekdi
5	Nutq fe’llari	Gapirdi, so‘zladi, bayon qildi, ifoda qildi, ming‘irladi, do‘ng‘illadi
6	Ishora fe’llari	Imo qildi, labini burdi, ko‘zini qisdi
7	Jismoniy holat fe’llari	Og‘ridi, isitma chiqди, xastalandi, so‘raydi, kuchaydi, charchadi
8	Tabiiy holat fe’llari	Eridi, muzladi, etdi, uxladi
9	Ko‘rish fe’llari	Qaradi, ko‘rdi, boqdi, termuldi

Yuqoridagi fe’l turlarining har qaysisi bir necha fe’llarni o‘z ichiga oladi. Bu fe’llar harakat-holat ma’nosini qanday ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi farqlanishlarni kuzatish mumkin:

1. Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko‘ra farqlanishi: *jilmaymoq – kulimsiramoq – kulmoq*.

2. Ijobjiy va salbiy bahoga ega bo‘lishligiga ko‘ra: *kulmoq – tirjaymoq, so‘zlamoq – to‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq*.

3. Uslubiy xoslanishiga ko‘ra: *kulmoq* (umumiste’moldagi so‘z) – *tabassum qilmoq* (badiiy uslubga xos), *so‘zlamoq* (umumiste’moldagi so‘z) – *bayon etmoq* (badiiy uslubga xos) kabi.

O‘timli va o‘timsiz fe’llar. O‘timli fe’llar tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana oladigan fe’llardir: *o‘qidi* (kitobni), *yozdi* (xatni). O‘timsiz fe’llar esa tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana olmaydigan fe’llardir: *yugurdi, bordi, turdi, o‘tirdi*.

Nisbat shakllari uslubiyoti. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe’l shakllari *nisbat*

shakllari sanaladi. Masalan, *supurdi* fe'lida supurish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, *supurildi* fe'lida noaniq, *supurishdi* fe'lida birdan ortiq, *supurtirdi* fe'lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan.

Esda saqlang: Nisbat shakllari fe'lning asos qismidan keyin qo'shiladi. Fe'l 5 ta nisbat shakliga ega: 1) aniq nisbat; 2) o'zlik nisbati; 3) orttirma nisbat; 4) majhul nisbat; 5) birgalik nisbati.

Nisbat shakllari va ularning ma'nolarini quyidagi jadvalda ko'ring:

No	Nisbat turlari	Nisbat shakllari	Ma'nolari	Misollar
1	Bosh (aniq nisbat)		Harakatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi.	O'qidi, kelyapti
2	O'zlik nisbat	-i(-il), -n (-in)	Harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi. Harakat shaxsnинг o'zida qoladi.	Yuvindi, kiyindi, qo'zg'aldi
3	Majhul nisbat	-i(-il), -n(-in)	Harakatni bajaruvchi shaxs noma'lum bo'ladi	Yuvildi, qilindi, bajarildi
4	Birgalik nisbat	-sh, -ish	Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganini ifodelaydi.	O'qishdi, kelishdi, bajarishdi
5	Orttirma nisbat	-dir(-dir) -giz(-qiz, -g'iz) -kaz (-qaz) -t -iz, -ar, -sat	Harakatning bajaruvchi ta'sirida boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi.	Qoldirdi, keltirdi, kirgizdi, o'tkazdi, o'qitdi, tomizdi, qaytardi, ko'rsatdi

Aniq nisbat. Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe’l shakli aniq nisbat deyiladi.

O‘zlik nisbat. Bajaruvchining o‘zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe’l shakli o‘zlik nisbati deyiladi. O‘zlik nisbatdagi fe’llar, asosan, o‘timli fe’llarning unli bilan tugagan negiziga -n, -l undosh bilan tugagan negiziga -in, -il qo‘sishimchalarini qo‘sish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe’lda -(i)sh qo‘sishimchasi bilan yasalish bor: *kerishdi, joylashdi*): *tarandi, sevindi, sudraldi*.

Jonlanmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq fe’llari tarkibida -n ko‘rsatkichi mayjudligiga qaramasdan, bu fe’llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi -n qo‘sishimchasi ajratilmaydi. *Yayra, qichqir, uxla, bor* kabi fe’llardan o‘zlik nisbat yasalmaydi.

Majhul nisbat. Bajaruvchisi noma'lum bo‘lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe’l shakli majhul nisbat deyiladi. Majhul nisbatdagi fe’llar, asosan, o‘timli fe’llarning unli bilan tugagan negiziga -n, -l, undosh bilan tugagan negiziga -in, -il qo‘sishimchalarini qo‘sish bilan hosil qilinadi.

Majhul va o‘zlik nisbatdagi fe’llar bir xil, lekin ular harakat yoki holatning bajaruvchisini aniq bildirishi-bildirmasligi bilan farq qiladi. Ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe’ldan oldin o‘zi so‘zini keltirib ko‘rish bilan aniqlanadi. O‘zlik nisbatda harakat bajaruvchisi aniq bo‘ladi va u gapda ega vazifasida keladi (*Sanjar imti-honga tayyorlandi*), majhul nisbatda esa bajaruvchi noaniq bo‘ladi va u gap tarkibida to‘ldiruvchi vazifasini bajarib keladi (*Devoriy gazeta Sanjar tomonidan tayyorlandi*).

Majhul nisbat shakllari ko‘pincha o‘timli fe’llardan yoki ortirma nisbat shaklidagi o‘timsiz fe’llardan yasaladi: *kitobni o‘qidi – kitob o‘qildi, mashqni yozdirdi – mashq yozdirildi*.

Birgalik nisbat. Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni Ifodalaydigan fe’l shakli birgalik nisbat deyiladi. Birgalik nisbatdagi fe’llar unli bilan tugagan negizga -sh, undosh bilan tugagan negizga -ish qo‘sishimchasini qo‘sish bilan yasaladi: *yozishdi, borishdi*.

To‘qnashdi, o‘rtoqlashdi, ommalashdi, hazillashdi, go‘zallahdi, boqishdi, qarashdi (*yordamlashdi*), *aytishdi, tortishdi* (*bahslashdi*)

fe'llari hozirgi o'zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun aniqlik nisbatidadir.

Orttirma nisbat. Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli orttirma nisbat deyiladi. Orttirma nisbatdagi fe'llar -*t* (asosan, unli bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), -*tir* (jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo'g'inli (kel fe'lidan tashqari) ko'p bo'g'inli fe'llarning ko'pchiligiga qo'shiladi), -*dir* (asosan, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), -*ir*, -*ar*, -*iz*, -*giz*, -*kaz*, -*g'iz*, -*gaz*, -*qiz*, -*sat* qo'shimchalarini yordamida hosil qilinadi: o'qit, keltir, yozdir, bitir, chiqar, tomiz, yurgiz, ko'rgaz, turg'iz, ketkiz, tutqaz, o'tkaz, ko'rsat. Bu qo'shimchalar o'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiradi: *keldi-keltirdi, yurdi-yurgizdi*.

Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: *erkalamoq - erkalatmoq* (har ikkalasi ham orttirma nisbatda).

Bir fe'lga ikki xil orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi mumkin: *yegiz-yegizdir, yozdir-yozdirtir*.

Fe'lning orttirma nisbati o'zlik va birgalik nisbatdagi fe'llardan ham hosil qilinishi mumkin: *yuvintir, yig'ishtir*. Orttirma nisbatdagi fe'llardan birgalik va majhul nisbatdagi fe'llar hosil qilinishi mumkin: *isitildi, yozdirishdi*.

Orttirma nisbat qo'shimchalarini holat fe'llarini ko'pincha natijali faoliyat fe'llariga aylantiradi: *uxlamoq - uxlatmoq, kulmoq - kuldirmoq*. Majhul va o'zlik nisbati qo'shimchalarini esa natijali faoliyat fe'llarini holat fe'llariga aylantiradi: *qurmoq-qurilmoq, bo'yamoq-bo'yanmoq*.

Birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini olgan fe'llarning qaysi nisbatdaligi oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi: *yuvintirdi - orttirma nisbat, yuvintirildi - majhul nisbat, yuvintirishdi - birgalik nisbat*.

Fe'l mayllari so'zlovchining ish-harakatga moyilligini bildiradi. Fe'l asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari mayl shakllari sanaladi. Fe'llarda to'rtta mayl mavjud: 1) xabar mayli; 2) buyruq-istak mayli; 3)shart mayli; 4) maqsad mayli

No	Mayl turlari	Mayl shakllari	Ma'nolari	Misollar
1	Ijro (xabar, aniqlik) mayl	-	Harakatning uch zamondan birida bajarilish-bajarilmasligini bildiradi	Ko'rdim, keldi, ko'ryapman, ko'rasan
2	Buyruq- istak mayli	-y (-ay), -ylik (-aylik), -ng (-ing) -ingiz -ngiz (-inglar) -sin, -sinlar	Harakat haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos, orzu kabi ma'nolarni bildiradi. Fe'lning zamon, shaxs-son qo'shimchalarisiz qismi II shaxs buyruq-istak maylini ifodalaydi. Bu qismga buyruq-istak ma'nosini kuchaytirish uchun -gin qo'shimchasini qo'shish ham mumkin, shuning uchun bu ikki shakl ma'nodosh sanaladi	Yozay, yozaylik, yoz, yozgin, yozsins, yozingiz
3	Shart mayli	-sa	Harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatning bajarish-bajarilmasligi haqida sof shart (<i>Kelsa, boramiz</i>), <i>edi</i> , <i>ekan</i> to'liqsiz fe'llari bilan kelganda orzu-istak (<i>qani endi o'qishga kirsam</i>), iltimos , maslahat (<i>o'sha kishini chiqarib bersangiz</i>), faraz (<i>yomg'ir yog'masa kerak</i>), payt (<i>tashqariga chiqsam, ukam turibdi</i>), buyruq-istak mayliga xos (<i>gapirsangiz-chi!</i>) kabi ma'nolarni anglatadi.	Yozsam, yozsang, yoza
5	Maqsad mayli	-moqchi	Harakatni bajaruvchining maqsadi, mo'ljali, niyatini bildiradi. Bu fe'llarning o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon shakllari bor	Yozmoqchi, yozmoqchi bo'ldim, yozmoqchi bo'lyapman

Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari

Fe'ldan ifodalangan harakat va holatni bajaravchi shaxsni bildirib, fe'lni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakllar *shaxs-son shakllari* sanaladi. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalarini olib o'zgarishi **tuslanish** deyiladi. Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari tuslovchi qo'shimchalar deb ham yuritiladi. *Masalan, keldim, yozding, boraman* so'zlaridagi -m, -ng, -man qo'shimchalari.

Bunday qo'shimchalarning shaxs-son qo'shimchalari deb yuritilishiga sabab shuki, shaxs qo'shimchalari ayni paytda sonni ham bildirib turadi: yo birlik, yo ko'plik shaklida bo'ladi. Masalan,

Birlik	Ko'plik
yozdi-m	yozdi-k
yozdi-ng	yozdi-ngiz (laring)
yozdi-	yozdi-lar (yoqishdi)

Ba'zi holatlarda birinchi shaxsni ifodalash uchun ikkinchi shaxs qo'shimchasi, shuningdek, birlik ma'nosini ifodalash uchun ko'plik qo'shimchalari qo'llanishi mumkin. Bunday holatlar ma'lum uslubiy maqsadda ro'y beradi. *Masalan, Yurasan, yurasan, hech masofa kamaymaydi – yuraman, yuraman, hech masofa kamaymaydi.*

Ikkinci va uchinchi shaxs birlik shakllari o'rniда ko'plik shakli qo'llanilsa, shaxs ko'pligi emas, balki shaxsga hurmat ma'nosi ifodalanadi. *Masalan, Dadam keldilar. Siz juda yoqimli kuyladingiz. So'zlang. (A. Qodiriy)*

Ayrim o'zbek shevalarida shart maylidan keyin qo'shiladigan shaxs-son shakllari o'rniغا o'tgan zamonning -gan shakli, hozirgi va kelasi zamon shakllaridan keyin ishlataladigan shakl qo'llaniladi. *Masalan, borsa o'rniغا borsamiz, borsavuz.*

Shaxs-son qo'shimchalarini quyidagi jadvalda ko'ring:

№	Shaxs-son asosi	Shaxs	Shaxs-son shakllari		Misollar	
			Birlik	Ko'plik	Birlik	Ko'plik
1.	a) o'tgan zamon aniq mayning -di shakli b) kelasi zamon shart mayli	I II III	-m -ng -	-k -ingiz -lar	Keldim, kelsam Kelding, kelsang Keldi, kelsa	Keldik, kelsak Keldingiz, kelsangiz Keldilar, kelsalar
2.	a) o'tgan zamon aniq mayning -gan shakli b) hozirgi zamon aniq maylining shakllari d) kelasi zamon aniq mayli	I II III	-man -san -adi	-miz, -siz -adilar	Kelganman Kelgansan Kelgan Kelyapman Kelyapsan Kelyapti Kelaman Kelasan Keladi	Kelganmiz Kelgansiz Kelgan Kelyapmiz Kelyapsiz Kelyaptilar Kelamiz Kelasiz Keladilar
3.	Kelasi zamon buyruq-istak mayli	I II III	-ay, -y, -gin -sin	-aylik -ylik -ingiz (lar) -sinlar	Kelay O'qiy Kelgin Kelsin	Kelaylik Kelingiz Kelsinlar

II shaxs buyruq mayli qo'shimchalari o'rniga III shaxs buyruq mayli qo'shimchasi ishlataladi. Masalan: *kiring* o'rniga *kirsinlar*, *o'tiring* o'rniga *o'tirsinlar*. Bunday holat o'zidan katta yoki obro'li kishilarga nisbatan qo'llanilib, hurmat ma'nosi ifodalanadi.

Fe'l zamonlari. Fe'lidan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga **zamon** shakllari deyiladi. Fe'llarda uchta zamon mavjud:

1. **O'tgan zamon** fe'llari nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni bildiradi. O'tgan zamon shakllariga quyidagi shakllar kiradi: *-di*, *-gan*, *-ib*, (*-man*, *-san*, *-di*) kabi. Masalan, *keldi*, *kelgan*, *kelibman*, *kelibsan* va b.

Bu shakllar garchi "o'tgan zamon" umumiy ma'nosi asosida birlashsa ham, lekin ularning har qaysisi bir-biri bilan ma'lum ma'nosiga

ko'ra farq qiladi: - *gan* shakli *-di* ga nisbatan harakatning nutq so'zlangan vaqtidan ancha oldin ro'y bergenini bildiradi.

-*ibdi*, -*ibman*, -*ibsan* shakllari esa so'zlovchi nutq momentidan oldin ro'y bergen harakatni boshqa shaxsdan eshitganligini yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganligini bildiradi. Masalan, *O'g'rini eshakka teskari mindiribdi*. (ertakdan)

-*di* shakli, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi. **Solishtiring:** *keldi*, *kelgan*, *kelgan edi*, *kelibdi*

O'tgan zamon shakllarida to'liqsiz fe'lning ishlatilishi. Edi, emish, ekan fe'llari to'liqsiz fe'llar sanaladi. Bu fe'llar yetakchi fe'lning zamon shakllaridan so'ng keladi, shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: *kelgan ekansan* (*eding, emishsan*), *kelayotgan ekansan* (*eding, emishsan*).

Edi, emish ekan to'liqsiz fe'llari -di, -mish, -kan shaklida ham qo'llaniladi. Masalan, *borgandi*, *borganmish*, *kelarkan*.

2. Hozirgi zamon fe'llari nutq paytining o'zida bajarilayotgan yoki bajarilmayotgan ish-harakatni bildiradi, shaxs-son qo'shimchalari zamon qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi. Hozirgi zamon ma'nosi -*yapti*, -*yotir*, -*moqda* singari qo'shimchalar qo'shish orqali ifodalanaadi. Masalan, *yozyapti*, *yozmoqda*, *yozayotir*. Bulardan -*yapti*, -*moqda* fe'l asoslariga, -*yotir* esa fe'lning ravishdosh shakliga qo'shiladi.

Hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanadi, -*yapti* uslubiy betaraf shakl bo'lsa, -*yotir*, -*moqda* yozma nutq uslubiga xosdir.

Bilib oling: -*yotir*, -*yotib* shakllari unli bilan tugagan fe'l asoslariga -*ayotir*, -*ayotib* shakllari esa undosh bilan tugagan fe'l asoslari-ga qo'shiladi.

-*yap* shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, -*ayap* holida talaffuz qilinsa ham, -*yap* yoziladi.

3. Kelasi zamon fe'llari nutq paytidan keyin bajariladigan yoki bajarilmaydigan ish-harakatni bildiradi. Bu zamon shakllari fe'l asoslariga -*a* ravishdosh shakliga -*di*, -*jak*; fe'l asoslariga -*ar*, -*ur*, -*gusi* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan, *keladi*, *keljak*, *kelar* (*kelur*), *kelgusi* kabi.

Bulardan -*adi*, -*ar* uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, -*jak*, -*gay*, -*ur*, -*gusi* shakllari badiiy va publisistik uslubga xosdir.

Uslubiy betaraflik belgisiga ko‘ra *-adi* va *-ar* shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin ma’nosini bildirish-bildirmasligiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisi bunday ma’noga betaraf bo‘lsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin ma’nosiga ega. **Solishtiring:** *keladi – kelar.*

Ba’zan turli zamonga mansub bo‘lgan shakllar o‘zaro almashinishi mumkin. Masałan, *Tanklar, zambaraklar ag'anab yotibdi. Bir jangchining peshonasi bog'langan, bir jangchining esa yelkasidan qon ogmoqda.* (*Shuhrat*)

O‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ularni uning ko‘z oldiga olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlatilgan.

Esda saqlang. Undosh bilan tugagan fe'l asoslariga kelasi zamonning -a, -ar, unli bilan tugagan fe'l asoslariga -y, -r, bo‘lishsiz fe'l shakllariga esa -s qo‘srimchasi qo‘shiladi. -(a)r shakli kelasi zamonni gumon, taxmin yo‘li bilan ifodalaydi.

Zamon shakllarining bir-biriga ko‘chishi. 1) o‘tgan zamon -di bilan yasalgan shakli kelasi zamon va hozirgi zamon ma’nolarida qo‘llanadi: *Hozir qayoqqa ham bordik. Shundan so‘ng bilmadim, qancha vaqt o‘tdi.* 2) -gan bilan yasalgan shakl hozirgi zamon ma’nosida qo‘llanadi: *Birov kitob o‘qigan, kimlar shaxmat atrofida.* 3) hozirgi zamon fe‘lining kelasi zamon ma’nosida qo‘llanishi *ket, bor, yubor, boshla* kabi fe‘llar doirasida uchraydi: *Bularni boshqa polkka yuboryapmiz.* 4) hozirgi zamonning o‘tgan zamon ma’nosida qo‘llanishi ko‘p uchraydigan holatdir: *Bir kun qarasam, darchani buzaman deb bolta ko‘tarib kelayotibdi.* 5) hozirgi zamon shakli orqali o‘tgan zamon ma’nosining ifodalanishi: *Tanklar, zambaraklar ag'anab yotibdi. Bir jangchining peshonasi bog'langan, bir jangchining esa yelkasidan qon ogmoqda.*

Fe’llarning munosabat shakllari. Fe‘l asoslariga qo‘silib, gapda kesim vazifasida qo‘llanilishiga xoslovchi shakllar *fe’llarning munosabat shakllari* hisoblanadi.

Fe’llarning zamon, mayl, shaxs-son qo‘srimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo‘lgan har qanday fe‘l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma’no va shakllardan xoli bo‘lgan fe‘l asosi fe‘lning noaniq shakli hisoblanadi va bu shakl -moq qo‘srimchasi yordamida ifodalanadi.

Fe'llarning yasalishi. Fe'llar ikki usul bilan yasaladi:

1. Fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan (affiksatsiya yoki morfologik usul): *ishla, ko'kar*.

2. So'zlarni bog'lab, qo'shish bilan (kompozitsiya yoki sintaktik usul): *e'lon qildi, borib keldi, sotib oldi, himoya etdi, javob berdi*.

Qo'shimchalar yordamida fe'l yasash. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardangina fe'l yasaladi (demak, qo'shimcha yordamida fe'lidan fe'l yasalmaydi).

Hozirgi o'zbek tilida eng faol fe'l yasovchi qo'shimcha -la qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha fe'lidan boshqa deyarli barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi: *ishla, oqla, sekinlamoq, shivirla, chuhlamoq, senlamoq, yarimlamoq*.

1. -la qo'shimchasi otlarga qo'shilib fe'l yasaganda, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) yasashga asos qismdan anglashilgan narsa-predmet bilan ta'minlash: *o'g'itla, moyla*;

b) narsa-qurol bildiruvchi otlarga qo'shilib, shu asbob bilan bajariladigan harakatni bildiradi: *qaychila, arrala*; c) yasashga asos qismdan anglashilgan narsani yuzaga keltirish ma'nosini bildiradi: *urug'la, bolala*.

2. Sifat va ravishlarga -la yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi: *tekisla, tezla*;

3. -la qo'shimchasi undov so'zlarga qo'shilib, yasashga asos qismidan ifodalangan his-hayajon, buyruq-xitoblarning bajarish harakatini bildiradi: *hihila, ufla, dodla*.

4. -la qo'shimchasi taqlid so'zlarga qo'shilib, yasashga asos qismidan ifodalagan tovushning yuz berishini ifodalaydi: *gumburla, taraqla*.

Sifat, ravish, undov va taqlid so'zlarga -la yasovchi qo'shimchasi qo'shilib fe'l yasalganda, yasovchi qo'shimcha *qil, et, de* singari ko'makchi fe'llari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: *tekisla - tekis qil, ufla - uf de, gumburla - gumbur et* kabi. Lekin doimo emas. Masalan: *tezla ni tez qilga almashtirib bo'lmaydi*.

Eslatma: 1. -la fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan -ta (*izla -ista*), -ga, -ka (*hidla - iska*) holida ham talaffuz qilinadi.

2. -la fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan bilan qo'shimchasining qisqargan shakli -la (qo'l-la bajarib bo'lmaydi) hamda -la (-oq, -yoq yuklamasi bilan ma'nodosh) yuklamasi bilan omonimlik munosabatida bo'ladi. Shuning uchun -la yasovchisini so'zga kuchaytiruvta'kid ma'nosini yuklaydigan -la yuklamasidan farq qilish kerak. Masalan, *kelib -la ketdi – kelib ketdi; qo'lla (madad qil) va qo'l-la (qo'l bilan)*.

Bu qo'shimchadan tashqari yana quyidagi qo'shimchalar yordamida fe'l yasaladi:

-*lan*, -*lash* qo'shimchalari ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: fahrlandi, ikkilandi;

-*illa* qo'shimchasi taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: *chirqilla*;

-*ira* qo'shimchasi taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: *yargiradi, yaltiradi*;

-*a* qo'shimchasi ot, sifat va taqlidi so'zlardan fe'l yasaydi: *tuna, bo'sha, guldura*;

-*(a)y* qo'shimchasi ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: *qoray, kuchay, ko'pay*.

-*(a)r* qo'shimchasi ayrim sifatlardan fe'l yasaydi: *qisqar, ko'kar*.

-*sira*, -*sa* qo'shimchalari ot va sen, siz olmoshlardan fe'l yasaydi: *gonsira, suvsia*.

-*(i)k*, -*(i)q* qo'shimchasi sanoqli so'zlardagina fe'l yasaydi: *birikmoq, yo'liqmoq*.

-*i* qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *boyi, tinchi*.

-*(i,o)t* qo'shimchasi sanoqli so'zlardangina fe'l yasaydi: *yo'qot, to'lat, berkit*.

-*ir* qo'shimchasi ot, taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: *gapir, tupur*.

-*la*, -*a* qo'shimchalari ot, sifat, undov so'zlardan, -*(a)y*, -*i*, -*sira*, -*sa* qo'shimchalari ot va sifatlardan, -*(a)r* qo'shimchasi sifatlardan, -*illa*, -*ira* qo'shimchalari taqlid so'zlardan fe'l yasaydi. (6-s. N.Mahmudov)

Fe'l yasovchi -a qo'shimchasi *o'yin, qiyin* kabi ikki bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda bu so'zlarning ikkinchi bo'g'indagi *i* unlisi talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi.

Fe'l yasovchi -*ay* qo'shimchasi *past, sust* so'zlariga qo'shilganda, bu so'zlar oxiridagi *t* talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi.

-illa qo'shimchasi tarkibidan u unlisi yo v undoshi bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda, *-ulla* tarzida aytildi va shu holda yoziladi.

So'zlarni bog'lab qo'shish yordamida (kompozitsiya yoki sintaktik usul). Bu usul bilan qo'shma fe'llar yasaladi. **Ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan fe'llar fe'l+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llar sanaladi.** Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi fe'lning -*b* (-ib), *ba'zan* -*a* ravishdosh shaklida bo'ladi. Shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik singari qo'shimchalar qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi. Masalan, *sotib olmoq, olib keldi (ola keldi)*. Qo'shma fe'llar tarkibiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. Fe'l bo'lмаган so'z bilan fe'lning birikishidan: *dam olmoq, himoya qilmoq, paydo bo'lmoq*. Ayrimlari sodda fe'lga sinonim bo'ladi: *tasdiq qildi, -tasdiqladi, yordam berdi -yordamlashdi*.

2. Ikki fe'lning birikishidan: *sotib olmoq, chiqarib olmoq, olib kelmoq, yutib olmoq*.

Ot+fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llarda ikkinchi qismni tashkil etgan *ayla* uslubiy xoslangan bo'lib, faqat badiiy uslub doirasida qo'llaniladi. *Qilmoq, etmoq, bo'lmoq* fe'llari esa uslubiy betaraf so'zlardir. Masalan, *javob qildi, javob berdi, javob etdi, javob ayladi* kabi qo'shma fe'llar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lib, ular uslubiy jihatdangina farqlanadi. *Javob ayladi* badiiy uslubga xos, qolganlari uslubiy betaraf so'zlar sanaladi.

Qo'shma fe'llar ajratib yoziladi: *hal qilmoq, kasal bo'lmoq*. Nutqimizdagi o'qib *chiqdi, ko'rib bo'ldi, boshlab yubordi* kabilalar qo'shma fe'l emas, chunki yangi lug'aviy ma'no ifodalamaydi, bular ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridir (harakat tarzi shakllaridir).

Harakatni qay darajada ifodalashiga ko'ra fe'l turlari:

1. Harakatning kuchliligini ifodalaydigan fe'llar:

-la: *savala, quvla*.

-kila (-gila, -qila, -g'ilal): *turtkila, tortqila, yugurgila, ezg'ilal*.

2. Harakatning kuchsizligini ifodalaydigan fe'llar:

-(i)sh: *to'lishmoq, oqarishmoq*.

-(i)msira: *kulimsiramoq, yig'lagsiramoq*.

-(i)nqira: *oqarinqiramoq*

Fe'lning vazifadosh (xoslangan) shakllari. Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari *fe'lning vazifa shakllari* sanaladi.

Fe'llarning to'rt vazifa shakli mavjud: 1) sof fe'l (kesimlik) shakli (o'qidi); 2) harakat nomi shakli (o'qimoq, o'qish); 3) sifatdosh shakli (o'qigan, oqar); 4) ravishdosh shakli (o'qib, kelgach).

1. **Sof fe'l** (kesimlik shakli) gap ichida fe'l kesim vazifasini bajaradigan fe'l shaklidir: *U yozdi*.

2. **Ravishdosh** ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini bildirgan fe'lning ravishga xoslangan shaklidir. Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi. Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi va ko'pincha hol bo'lib keladi. Ravishdoshlar bo'lishli-bo'lishsizlikni, nisbatni bildira oladi: *o'qib* - bo'lishli, aniq nisbatda, *o'qitmay* - bo'lishsiz, orttirma nisbatda. Ravishdoshlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1) **-b, -ib, -bon, (-bon)** qo'shimchalari bilan: *borib*, *o'qib*, *asraben*.

2) **-a, -y** qo'shimchalari bilan: *kula-kula*, *o'qiy-o'qiy*.

3) **-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha)** qo'shimchalari bilan: *otgach*, *to'kkach*, *chiqqach*, *kelguncha*, *oqquncha*, *tikkuncha*.

4) **-gani (-kani, -qani)** qo'shimchalari bilan: *o'qigani keldi*. *Ko'chat ekkani bordik*. Bu qo'shimchaning -gali ko'rinishi ham bor: *Idish so'ragali chiqdi*.

5) **-gudek** qo'shimchasi bilan: *yiqilgudek*.

6) **-gancha** qo'shimchasi bilan: *kulgancha*.

Ravishdoshlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Payt** ravishdoshlari -gach(-kach, -qach), -guncha (-quncha, -kuncha) qo'shimchalari bilan yasaladi.

2. **Holat** ravishdoshlari -b, -ib, -a, -y, -gudek, -gancha qo'shimchalari bilan yasaladi. (Ayrim darsliklarda -b, -ib, -a, -y qo'shimchali shakllarning sabab, payt ma'nosini ifodalashi haqida ham yozilgan.)

3. **Maqsad** ravishdoshlari –gani(-kani, -qani, -gali) qo'shimchalari bilan yasaladi.

Ravishdoshlar tuslanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Tuslanadigan** ravishdoshlar: -b, -(ib), -a, -y, -gudek qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar.

2. **Tuslanmaydigan** ravishdoshlar: -gach (-kach, -qach), -guncha, (-kuncha, -quncha,) -gani (-kani,-qani),-gancha qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar.

-gani qo'shimchasi bilan yasalgan maqsad ravishdoshning bo'lishsiz shakli yo'q, qolgan ravishdoshlar bo'lishsiz shaklga ega-dir: *borib - bormay* yoki *bormasdan*, *kelgach- kelmagach*, *kula-kula - kulmay-kulmay* (-may shakli mayin tarzida ham uchraydi: *Qanotini qush qoqmayin*).

3. **Sifatdosh** narsa-buyumning belgisini o'zgarish, harakat nati-jasi sifatida ifodalaydigan fe'lning sifatga xoslangan shaklidir. Sifatdosh fe'l singari ish-harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlikni bildiradi: *qolgan* bo'lishli, o'tgan zamon, aniq nisbatda. Sifatdosh sifat kabi otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi: *O'quvchilar to'kilgan paxtalarni terishdi. Vazifalar bajarilgan*.

Sifatdoshlarning bo'lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: *borgan-bormagan, borayotgan-bormayotgan, borar-bormas*.

Sifatdoshlar zamon bo'yicha quyidagicha yasaladi:

1. Sifatdoshning -gan (-kan, -qan) qo'shimchasi shaxs-narsalar-ning o'tgan zamonga xos harakat belgisini ifodalaydi: *otgan, tikkan, chiqgan*. Bu qo'shimcha unli bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, -gan holida tallaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, -kan holida talaffuz qilinsa ham, -gan yoziladi (*ko'chgan, o'sgan* kabi). Jarangsiz q undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda -qan, k undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda -kan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (*tiq-tiqgan, tik-tikkan*). Jarangli g' undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, -qan holida talaffuz qilinsa ham, -gan yoziladi (*tug'-tug'gan*).

2. Hozirgi zamon sifatdoshi -(a) *yotgan* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: *kelayotgan, o'qiyotgan*.

3. Kelasi zamon sifatdoshi -(a)r, -(a) digan, -(u) vchi qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: *Oqar suv, qaynar buloq, boradigan bola, o'qiydigan kitob, keluvchi odamlar*. Kelasi zamon sifatdoshining bo'lishsiz shakli *ma+s* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: *Aytar so 'zni ayt, aytmas so 'zdan qayt*.

Sifatdoshlar ot o'mnida qo'llanib, ot vazifasini bajarish mumkin, ya'ni otlashadi. Bunda otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va undalma bo'lib keladi: *O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar. Aytganlaringizni bajardik. Kelganlarning kiyimlari ho'l edi. Charchaganlar, dam oling*.

BILIB OLING. Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. Sitatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Solishtiring: *oq gul, oqar daryo*.

4. **Harakat nomi** ish-harakatning nomini bildirib, zamon va shaxs sonni ko'rsatmaydigan fe'lning otga xoslangan shaklidir. Yosalishi:

1. Fe'l o'zak-negiziga -sh, -ish qo'shimchalarini qo'shib: *o'qish, yozish*.

2. Fe'l o'zak-negiziga -v, -uv qo'shimchalarini qo'shish bilan: *o'quv, yozuv*.

3. Fe'l o'zak-negiziga -moq, (-mak) qo'shimchasini qo'shib: *yoz-moq, demak*.

a yoki *i* unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga -v qo'shimchasi qo'shilganda, *a* unlisi *o* ga, *i* unlisi *u* ga aylanadi va shunday yoziladi: *ishla-ishlov, tani-tanuv*.

-moq, -v(-uv) qo'shimchalarida ko'tarinkilik va badiylik -sh (-ish) qo'shimchalaridan ko'ra kuchliroqdir. Harakat nomi va unga tobe bo'lib kelgan so'zlar birgalikda kengaygan harakat nomili birik-malarni tashkil etadi.

-moq qo'shimchasi bilan yasalgan harakat nomi fe'lga yaqin turadi, -sh, -ish bilan yasalgan harakat nomi otga yaqin turadi, shuning uchun bularni doim almashtirib qo'llab bo'lmaydi: *Qurilish boshlandi* gapida -moq qo'shimchasini ishlatib bo'lmaydi, *o'qish so'zida -moq* qo'shimchasini qo'llasa bo'ladi. Harakat nomlarining bo'lishsiz shakli quyidagicha yasaladi: *bormoq-bormaslik, o'qish-o'qimaslik, keluv-kelmaslik*.

Harakat nomlari tuslanmaydi, otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik va ko‘plik qo‘sishchalarini oladi. Gapda ega, ot-kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovochi bo‘lib keladi: *Chuqur bilim olish maqsadimdir. Bundan maqsad – sodda qilib tushuntirish. O‘qishni boshladik. Su-zishning turli usullari bor.*

KO‘MAKCHI FE’LLAR, ULARNING VAZIFASI

Ravishdoshning -a,-y, -(i)b shakllariga qo‘silib, o‘z mustaqil ma’nolarini yo‘qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshanish, davom etish, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq, gapirib berib tura qol singari fe’llar **ko‘makchi fe’llar** hisoblanadi.

ESDA SAQLANG. Ko‘makchi fe’lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe’l hisoblanadi. Ko‘makchi fe’l faqat yetakchi fe’l bilan birgalikda qo‘llanadi. Ana shu xysusiyati bilan mustaqil qo‘llanuvchi *olmoq* (xatni olmoq), *tugatmoq* (o‘qishni tugatmoq), *turmoq* (o‘rnidan turmoq), *tashlamoq* (qog‘oz tashlamoq) fe’llaridan farq qiladi.

Ravishdoshning -a (-y) shakliga qo‘siluvchi *boshlamoq* ko‘makchi fe’li harakatning boshanishi; *olmoq* ko‘makchi fe’li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma’nosini ifodalaydi.

Yotmoq, yurmoq, turmoq ko‘makchi fe’llari ravishdoshning -(i)b shakliga qo‘silib, harakatning davomliligini bildiradi.

Yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq ko‘makchi fe’llari harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi.

Chiqmoq ko‘makchi fe’li harakatning to‘la yakunlanganini bildiradi.

Yetakchi va ko‘makchi fe’lning qo‘silishidan qo‘shma fe’l, ya’ni yangi so‘z hosil bo‘lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug‘aviy ma’noni ifodalamaydi. Yetakchi va ko‘makchi fe’lning birikishidan **ko‘makchi fe’li so‘z qo‘silmasi** hosil bo‘ladi. Ayrim darsliklarda bu birikmalar harakat tarzi shakllari deb yuritiladi. Harakat tarzi shakllari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) harakatni bajarishga kirishish (o‘qiy boshladi);

2) harakatni bajarishga imkoniyat (*bajara oladi*); 3) harakatni davomli muddatda ora-sira bajarish (*borib turibman*); 4) harakatning kutilmaganda sodir bo‘lishi (*ko‘rib qoldi*);

5) harakatni sinash maqsadida bajarish (*tatib ko'rdi*); 6) harakatlarni o'z maqsadlarida bajarish (*yozib oldi*); 7) harakatning boshqalar uchun bajarilishi (*sotib berdi*);

8) harakatning uzoq davom etishi (sinab yuribman); 9) harakatning favquloddaligi (ishonib o'tiribman); 10) harakatning to'la bajarilishi (bajarib bo'ldi); 11) harakatning to'siqsiz bajarilishi (olib tashladik); 12) harakatni bajarmaslikni qat'iy ta'kidlash (bora ko'rma); 13) harakatning ma'lum muddatgacha davom ettirilishi (tura turgin).

Ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibidagi yetakchi fe'l uyushib kelishi ham mumkin: *Yil sayin sovxozungning yeri kengayib, texnikasi ko'payib, odamlari o'sib bormoqda*. Ba'zan ko'makchi fe'l ham birdan ortiq bo'lishi mumkin: *aytib berib tura qol* (aytib-yetakchi fe'l, berib tura qol-ko'makchi fe'l).

Ko'makchi fe'lllar yetakchi fe'llarga ravishdosh yasovchi -(i)b, -a, -y qo'shimchalari yordamida bog'lanadi. Ayrim ko'makchi fe'lllar yetakchi fe'lga qo'shimchasiz ham birikadi: *yozdi-oldi, ketsin-qo'ysin, ayt-go'y*.

Yetakchi fe'llarga so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar, ko'makchi fe'llarga esa barcha turdag'i (zamon, shaxs-son, nisbat, vazifadosh shakllarning qo'shimchalari) qo'shimchalar qo'shila oladi: *yozib olarman, ishlay boshladik*.

Nisbat va bo'lishsizlik shakllari yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kelishi mumkin. Zamon, shaxs-son qo'shimchalari, fe'lning vazifa shakllari faqat ko'makchi fe'llarga qo'shiladi.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida o'zlik nisbat qo'shimchalari faqat yetakchi fe'lga qo'shiladi, majhul daraja qo'shimchasi ko'pincha ko'makchi fe'lga qo'shiladi, orttirma nisbat qo'shimchasi, asosan, yetakchi fe'lga qo'shiladi, birgalik nisbat qo'shimchasi esa yetakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shilaveradi. O'zbek tilida faqat ko'makchi fe'l bo'lib keladigan fe'lllar yo'q. Ayrim fe'lllar o'z asl ma'nolaridan tashqari, ko'makchi fe'l tarzida keladi. Bularni yetakchi fe'lga bog'lanish jihatidan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:
1) **ravishdoshning -(i)b qo'shimchali turiga birikadi:** *yot, o'tir, yur, kel, bo'l, bit, chiq, et, o't, yubor, tashla, tush, o'l, qara, boq, qo'y*;
2) **ravishdoshning -a, -y qo'shimchali turiga birikadi:** *boshla, bil,*

yoz; 3) ravishdoshning ham -(i)b, ham -a,-y qo'shimchali turlari-ga birikadi: tur, bor, ol, ber, qol, ko'r, ket. (sol ko'makchi fe'li -(i)b, -a qo'shimchasini olgan yetakchi fe'lga bog'lanadi). Bu ko'makchi fe'llarni yana ma'no jihatidan **harakat jarayonini tasvirlovechi** (bosbla, kel, ket, yot, tur, yur, o'tir, bor, ber, bo'l bit, bitir, chiq, yet, o'l, ol, qo'y, yubor, sol, tush, tashla, o'l, ko'r, yoz, qot), **modal ma'nolarni ifodalovchi** ya'ni so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi (bil, bo'l, qol, ol, qo'y, ko'r, ber, qara, boq, tur, yur, o'tir, yoz), **yo'nalish ma'nosini ifodalovchi** (ol, ber,) kabi guruhlarga bo'lish mumkin.

To'liqsiz fe'llar. O'zining lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotib, yordamchi so'zlarga yaqinlashib qolgan fe'llar to'liqsiz fe'llar deyiladi. Bularga *edi, ekan, emish, emas* so'zлari kiradi (esa bog'lovchilar guruhiga o'tib ketgan). To'liqsiz fe'llar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1) mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas; 2) nisbat, bo'lishsizlik, zamon kabi ma'nolarga ega emas; 3) shaxs-son qo'shimchalari ularga qo'shilsa ham, shaxs ma'nosи to'liqsiz fe'l qatnashgan butun birikmaga tegishlidir; 4) to'liqsiz fe'l qatnashgan birikma (asosiy fe'l+to'liqsiz fe'l) tarkibidagi to'liqsiz fe'lни har doim ham tushirib bo'lmaydi; 5) to'liqsiz fe'l tarkibidagi "e" tovushi tushib qolishi mumkin; 6) to'liqsiz fe'llar otlarga (keng ma'noda) ham, fe'llarga ham birika oladi. Ular ko'proq sifatdosh va ravislidosha birikadi; 7) bu fe'llar ketma-ket qo'shilishi ham mumkin: *Opam ishdan kelgan edimikin* (edimi ekan)? 8) bu fe'llar qator kelgan bir necha fe'lning oxirgisiga birikadi. To'liqsiz fe'llar gapda ko'pincha bog'lama (ega bilan kesimni bog'lovchi vosita) vazifasini bajaradi: *Otasi ishchi ekan*.

Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. *Bo'lishli* fe'llar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodalaydi: *yozdi, yozyapti, yozmoqchi*.

Bo'lishsiz fe'llar bajarilmagan, bajarilmayotgan va bajarilmaydigان harakatni ifodalaydi: *yozmadи, yozmayapti, yozmoqchi emas*. Bo'lishsiz fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bo'lishsizlik ma'nosи **emas** yordamida ifodalan-ganda shaxs-son qo'shimchasi undan so'ng, **yo'q** yordamida ifodalan-ganda esa oldin qo'llanadi. Qiyoslang:

Shaxs	Bo'lishli	Bo'lishsiz
I	keldim	Kelmadim, kelgan emasman, kelganim yo'q
II	kelding	Kelmading, kelgan emassan, kelganing yo'q
III	keldi	Kelmadi, kelgan emas, kelgan(i) yo'q

Ayrim shevalarda shaxs-son qo'shimchalari *yo'q* dan so'ng qo'-shiladi. Masalan, *borganim yo'q* o'rniiga *borgan yo'qman*, *borganing yo'q* o'rniiga *borgan yo'qsan*.

Bo'lishsizlikning yuqoridagi uchta shakli (-ma, emas, yo'q) o'rtaida ham ma'lum ma'no farqlanishi bor. Sifatdoshning -gan shakli uch xil bo'lishsizlik shakliga ega: 1. *Borganim yo'q* – fe'lidan anglashilgan harakatning oddiy inkori («borish kerak edi, lekin bormadi») ma'nosini bildirmoqda. 2. *Borgan emasman* – umuman borilmaganlikni ifodalamoqda. 3. *Bormaganman* – qat'iy inkorni anglatmoqda.

Yetakchi va ko'makchi fe'l qolipidagi fe'llarda bo'lishsizlik qo'shimchalari ikki qismning bittasiga (yo yetakchi qismga, yo ko'makchi qismga) yoki har ikki qismga qo'shilib kelib, turli ma'nolarni ifodalaydi;

1. Fe'lning yetakchi qismi bo'lishsiz shaklni oladi: *o'qib qo'ydi* – *o'qimay qo'ydi*.

2. Fe'lning ko'makchi qismi bo'lishsiz shaklni oladi: *o'qib qo'ydi* – *o'qib qo'ymadi*;

3. Fe'lning har ikki qismi bo'lishsiz shaklga ega bo'ladi: *o'qib qo'ydi* – *o'qimay qo'ymadi*.

Birinchi holatda bo'lishsiz shakl davomiy bo'lishsizlikni, ikkinchisida bir martalik harakat inkorini, uchinchi holatda esa tasdiq ma'nosini ifodalaydi.

Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari. Fe'llar tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi:

a) sodda fe'llar; b) qo'shma fe'llar; d) juft fe'llar.

Sodda fe'llar. Bir asosdan tarkib topadi. Sodda tub fe'llar asos holatida ish-harakat va holatni anglatadi. Masalan: *qurmoq*, *yurmoq*, *ketmoq*.

Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *shod-shodlanmoq*, *yangi-yangilamoq*, *gap-gapirmoq*, *guv-guvullamoq*, *tez-tezlamoq*.

Qo'shma fe'llar. Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar qo'shma fe'l sanaladi. Masalan: *sayr etmoq, taq etmoq, olib ketmoq, bunyod qilmoq*.

Esda saqlang. Qo'shma fe'llar ot, sifat, son, olmosh, undov va taqlid so'zlarga qil, et, bo'l singari so'zlarni, fe'l shakllariga kelmoq, ketmoq singari fe'llarni qo'shish bilan hosil bo'ladi. Masalan: *tarbiya gilmoq, eski bo'lmoq, bir bo'lmoq, chirs etmoq, kirib chiqmoq, sotib olmoq kabi*.

Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. Masalan: *borib keldi* (ham bordi, ham keldi), ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmaganda ko'makchi fe'lli so'z shakli hosil bo'ladi. Masalan: *o'qib chiqdi* (*o'qidi, lekin chiqmadi, balki o'qishni tamomladi, tugatdi*).

Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.

Juft fe'llar. Ikki fe'l juftligidan tashkil topgan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi va gapda bitta gap bo'lagi vazifasida keluvchi fe'llar juft fe'llar sanaladi. Juft fe'llar ish-harakatning tez va kutilmaganda ro'y berishini ifodalaydi. Juft fe'l qismlari doimo chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *yeb-ichib, o'ynab-kulib*.

Oldi-berdi, bordi-keldi kabi juft so'zlar ot turkumiga o'tgan so'zlar hisoblanadi.

Takroriy fe'llar. Asosni takrorlash bilan hosil bo'lgan juft fe'llar takroriy fe'llar ham deyiladi: Takroriy fe'l qismlari ham chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *yurib-yurib, ayta-ayta*.

Ravishlarning uslubiy xossalari

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va qanday? qachon? qayer? qancha? singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlar **ravish** deyiladi. Ravish ko'pincha fe'lga bog'lanadi.

Ravishlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Biror so'z bilan bog'langanda, o'z shaklini o'zgartirmaydi, ya'ni sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni olmaydi: *tez yurdi*;

2. O'ziga xos yasalish tizimiga ega: *kamtarona, birin-ketin, shu kuni*;

3. Harakat belgisini qisman bo'lsa-da darajalab ko'rsata oladi: *tez, tezroq, juda tez*;

4. Gap tarkibida ko'pincha hol (*Ikkisi do 'stlarcha ko 'rishdi*), ot kesim (*Uning bahosi ko 'p*), ba'zan otga bog'lanib, aniqlovchi (*Ko 'p odam to 'plandi*) bo'lib keladi.

Ravishlarda daraja. Ayrim ravishlar sifat kabi darajani ham bildiradi: 1) bosh daraja: *U sekin yurdi*; 2) qiyosiy daraja: *Mashina tezroq yurdi*; 3) orttirma daraja: *Juda ko 'p paxta terdi*; 4) kuchaytirma daraja: *juda-juda charchadi*.

Ravishlar ma'nosiga ko'ra holat, payt, o'rin, miqdor-daraja, maqsad-sabab ravishlariga bo'linadi.

Esda tuting. *Ataylab, atayin, noiloj, noilojlikdan, jo 'rttaga, qasddan* kabi ravishlar **maqsad-sabab ravishlari** hisoblanib, ularning miqdori u qadar ko'p emas.

Ravishlarning ma'no jihatdan turlari

Nº	Ravish ma'no turlari	Ma'nosi va qoidasi	So'rog'i, vazifasi	Misollar
1.	Holat ravishlari	Harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganini bildiradi	Qanday? Qay holda? Qay tarzda?	Asta, sekin, tez, birdan, qo'qqisdan, to'satdan, yonma-yon, qo'lma-qo'l, omon-eson, zo'rg'a, piyoda, jim, chindan, majburan, tasodifan, astoydil, eskicha, qatorasiga, birma-bir, yakkama-yakka, bafurja, arang, yayov, yana, naridamberi, bazo'r, do'stona, qahramonona, qadrdonlarcha, darhol, bexosdan
2.	Payt ravishlari	Harakatning bajarilish paytini bildiradi	Qachon? Qachongacha? Qachondan beri?	Avval, oldin, ilgari, so'ng, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada, endi, hanuz, hamisha, hamon, dastlab, erta-indin, qishin-yozin, kecha-kunduz, yaqinda

№	Ravish ma'no turlari	Ma'nosi va qoidasi	So'rog'i, vazifasi	Misollar
3.	O'rin ravishlari	Harakatning bajarilish o'mini bildiradi	Qayerda? Qayerdan? Qayerga?	Oldinda, orqada, o'ngda, chapdan, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o'tada, tashqarida, olg'a, u yoq-bu yoqqa, olisda, yaqindan
4.	Maqsad -sabab ravishlari	Harakatning bajarilish maqsadini, sababini bildiradi	Nega? Nima maqsadda?	Atay(in), ataylab, jo'rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza, noiloj, ilojsiz(likdan), chorasisz(likdan)
5.	Daraja-miqdor ravishlari	Harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildiradi	Qancha? Qay darajada?	Juda, eng, g'oyat(da), nihoyatda, ko'p, mo'l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, biroz, ko'plab, sal-pal

Holat ravishlari tarkibiga kirgan *qo'qqisdan, to'satdan, birdaniga, bordan* singari ravishlar harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelganini ifodalaydi.

To'satdan ravishi ayrim shevalarda *to'sindan* holida ham talaffuz qilinadi. Bunda u dialektal variant sanaladi.

Yoki *yaqinda, uzoq* ravishlari harakatning bajarilish payti yoki o'rni ma'nolarini ifodalaydi. *Yaqinda keldi-yaqinda joylashgan* so'zlaridagi yaqinda so'zi ikkita mustaqil leksema sanaladi.

Ravishlarning yasalishi. 1. *Ravish yasovchi qo'shimchalar bilan: g'olibona, akalarcha.*

Ravishlar quyidagi ravish yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan, shuningdek, ravishlardan ham yasaladi:

-larcha: qardoshlarcha, o'rtoqlarcha
-chasiga: yangichasiga, toshkentchasiga
-dek / day: o'qdek, qushday.
-lab: ertalab, ko'plab.
-ona: do'stona, g'olibona, fidokorona.
-an: umuman, taxminan, asosan, rasman.
-gacha: kechgacha, tushgacha
-namo: uyalgannamo, oliftanamo.
-lay (in): butunlayin, tiriklay
-incha, -iqcha: ko'pincha, aksincha, yashiriqcha
-siz, be-: to'htovsiz, beixtiyor
-chang: ko'yakchang, kovushchang.
-in: oldin.
-omuz: shikoyatomuz
-aki: yodaki, og'zaki.
-simon: erkalangansimon, uyalgansimon
-(s)iga: tikkasiga, yalpisiga, baravariga, birdaniga.
-ligicha: xomligicha, tirikligicha, butunligicha, ho'lligicha.
-cha: qisqacha, o'zicha, boshqacha, buguncha, istagancha,
 o'zbekcha, eskicha.

Bilib oling: *-cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga* qo'shimchalari ot, sifatga qo'shilib ravish yasaydi.

Ravish yasovchi *-larcha* qo'shimchasidagi *-cha* qismi kabi, *singari* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ular ko'pincha almashtirib qo'llaniladi.

Masalan, *mardlarcha – mardlar kabi, yovuzlarcha – yovuzlar singari*.

Shuningdek, ravish yasovchi *-cha* qo'shimchasi otlardagi kichraytirish-erkalash qo'shimchasi bo'lgan *-cha* bilan omonimlik munosabatda bo'ladi. Masalan, *yosh yigitcha – yigitcha ishladi*.

Bu o'rinda *-cha* qo'shimchasing omonimligi asosida leksema omonimligi vujudga kelgan: *yigitcha*: 1. *Kichkina yigit*. 2. *Yigit kabi*.

-cha ning bu ikki vazifasi urg'u bilan ham farqlanadi. Kichraytirish-erkalash ma'nosini bildiruvchi *-cha* qo'shimchasi urg'u oladi. *Yigitcha, qizcha, kuchukcha* kabi. Ravish yasovchi *-cha* qo'shimchasi

esa urg‘u olmaydi. Urg‘u so‘zning bu qo‘shimchadan oldingi bo‘g‘iniga tushadi: *yigitcha, xotincha, erkakcha* kabi.

-cha qo‘shimchasini tushirib qoldirib, bu qo‘shimchani olgan so‘z oldidan kichkina so‘zini qo‘yish mumkin bo‘lsa, -cha qo‘shimchasi otning kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha sanaladi. Masalan, *quticha – kichkina quti, uycha – kichkina uy* kabi.

-cha o‘rniga -dek, *kabi, singari* ko‘makchilarini qo‘shish mumkin bo‘lsa, u ravish yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi. Masalan, *yigit-cha – yigit* kabi (*singari*).

Esda saqlang: *Tubdan, to ‘satdan, qo ‘qqisdan, rostdan, birdan, kechalari, avvallari, so ‘ngra.* Bu kabi ravishlarda -dan kelishik qo‘shimchasi, asos qism bilan mustahkam birikib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan.

2. So‘zlarni qo‘shib ravish yasash. Bunda qo‘shma, juft va takroriy ravishlar yasaladi. Qo‘shma ravishlar, asosan, ikki so‘zdan yasaladi va ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi:

1) tarkibida *u, bu, o‘sha, shu* olmoshlari bo‘lgan payt va o‘rin ravishlari: *u yoqqa, bu yoqqa, u yerga, shu yerda, o‘sha yerda* va b.

2) tarkibida *har, hech, hamma, bir, qay* so‘zlari bo‘lgan ravishlar: *har vaqt, har zamon, hech vaqt, bir zum, bir necha, hech yoqqa, bir oz, qay payt, qay vaqt.*

3) Tarkibida *alla-* elementi bor bo‘lgan ravishlar qo‘shib yoziladi: *allaqachon, allavaqt.*

Bir yo‘la, birmuncha, birvarakayiga, birpas, ozmuncha, birato ‘la ravishlari ham qo‘shib yoziladi.

Juft ravishlarning tub ravishlardan hosil bo‘lganlari kam: *astasekin, bugun-erta* va b. O‘rin-payt kelishigidagi ba‘zi ot va olmoshlar ravishga ko‘chib, juft ravish hosil qilinadi: *oyda-yilda, unda-bunda.*

Juft ravishlar, asosan, quyidagicha yasaladi:

1) bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlardan: *eson-omon, ochiq-oydin.*

2) antonim so‘zlardan: *erta-kech, kecha-kunduz, ochin-to ‘qin.*

Takroriy va juft ravishlar quyidagicha yasaladi: a) ot bilan ot takrorlanadi: *qator-qator, yildan yilga, qadam-baqadam;* b) sifat bilan sifat: *chaqqon-chaqqon, uzundan uzoq, bekordan bekorga;* c) fe‘l shakllari: *uzil-kesil, bilinar-bilinmas, bora-bora, ura-sura, qayta-qayta, borib-borib, turib-turib, qo ‘yarda-qo ‘ymas;* d) ravish bilan ravish:

nari-beri, oldin-ketin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri; e) olmosh, son, taqlid va aralash holda so‘zlarning takrorlanishi: o ‘z-o ‘zidan, yakkama-yakka, taqa-taq.

Juft ravishlar ham, takroriy ravishlar ham chiziqcha bilan yozildi: *asta-asta, nari-beri* va b.

3) Bulardan tashqari, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigida-gi so‘zlarning ravishga aylanish holatlari ham uchraydi: *yangidan, bir-dan, birga, boshda, charchamasdan, shoshmasdan, indamasdan* kabi.

4) Boshqa turkumlarning ko‘chishidan hosil bo‘lgan ravishlar:

1) otlar ko‘chadi: *erta, indin, kecha, kech, kechqurun*; 2) sifatlar: *baralla, yaqqol, tugal, bafurja, muttasil, vaqtli, rosa, baravar, uzluk-siz, beomon*; 3) ravishdoshlar: *osha, o ‘la, qiya, qo ‘sha, qayta*; 4) taqlidiy so‘zlar: *shartta, taqqa, tappa, shig ‘a, chippa*.

Ravishlarning otlashishi. Ravishlar ham otlarga xos so‘roqlarga javob bo‘lib otlashadi. Bunda ular ko‘plik, kelishik, egalik qo‘shimchalarini oladi: *Ko ‘pdan quyon qochib qutulmas. Ko ‘pi ketib, ozi qoldi.*

Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari:

1. **Sodda ravishlar:** *ko ‘p, tez, do ‘stona*
2. **Qo‘shma ravishlar:** *biroz, har zamon, ozmuncha*
3. **Juft ravishlar:** *unda-bunda, birin-ketin, omon-eson*
4. **Takroriy ravishlar:** *asta-asta, tez-tez.*

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI

Atash ma’noli so‘zlar yoki ular o‘rnida qo‘llanilib, ma’lum so‘roqlarga javob bo‘luvchi va gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida keluvchi so‘zlar **mustaqil so‘zlar** sanaladi.

Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar **yordamchi so‘zlar** hisoblanadi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, ularning ma’nolariga qo‘shimcha ma’no yuklash vazifalari ni bajaradi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlar bilan qo‘shimchalar oralig‘ida turgan grammatik vositalardir. Yordamchi so‘zlarga *ko ‘makchi, bog ‘lovchi va yuklamalar* kiradi.

Ko'makchi haqida ma'lumot

So'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifoda-lash uchun ishlataladigan, ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi *bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin* kabi so'zlar ko'makchi hisoblanadi.

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar.
2. Vazifadosh ko'makchilar.

Sof ko'makchilar lug'aviy (atash) ma'nolarini butunlay yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin taradigan, o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlardir. Bularغا *bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig'*, *haqida, holda* kabi ko'makchilar kiradi. Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi, urg'u ko'makchidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuvda ko'makchi doimo ajratib yoziladi.

Ba'zan *ilan*, *uchun* ko'makchilari badiiy uslubda *-la, -chun* shaklida qo'llanadi va chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Sof ko'makchilar bilan bir qatorda ayrim so'zlar ko'makchi vazifasida qo'llanadi va ular vazifadosh ko'makchilar sanaladi. Vazifadosh ko'makchilar leksik ma'nosini saqlagan holda, gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaradigan, o'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi bo'lib keladigan so'zlardir. Bular quyidagi turkumlardan ko'makchilarga ko'chadi:

- 1) ot turkumidan: *tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda;*
- 2) sifatdan: *sabali, tufayli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa;*
- 3) fe'lidan: *qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, deb, deya, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;*
- 4) ravishdan: *avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon,*

asosan, binoan. Bunday so‘zlar ko‘makchi vazifasida kelganda, atash ma’nosini yo‘qotadi, shuning uchun ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydi. O‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birgalikda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Ko‘makchilar va qo‘shimchalar ma’nodoshligi. -dek qo‘shimchasi narsa-hodisa, belgi-xususiyatga o‘xshatishini ifodalaydi va shu ma’noda *kabi, singari, yanglig’* ko‘makchilari bilan ma’nodoshlikni hosil qiladi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi yo‘nalish ma’nosida *tomon, bo‘ylab* ko‘makchilari bilan ma’nodoshdir.

Ayrim ko‘makchilar bog‘lovchi vazifasini ham bajaradi. Bunday so‘zlar *ko‘makchi-bog‘lovchilar* deb yuritiladi: *ilan, deb, deya.* Masalan: *daftar bilan qalam; Umrilm shirin o‘tsin deya, u ko‘p mehnat qildi.*

Bulardan tashqari, o‘z lug‘aviy ma’nolarini saqlagan holda ko‘makchi o‘rnida kelib, harakat bilan predmet o‘rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan so‘zlar ham bor. Bu so‘zlar o‘rin-payt, chiqish va egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi. Bunday so‘zlar ko‘makchi otlar deb ataladi: *old, o‘rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o‘rin, qosh, yoqa, tomon.* Bu so‘zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zdan keyin kelgandagina ko‘makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqig‘i ostida.* Aks holda, ular o‘rin otlari hisoblanadi: *stolning ustida, uyning oldida.* Ko‘makchi otlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1) vertikal yo‘nalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag;* 2) gorizontal yo‘nalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon;* 3) aralash yo‘nalishni bildiruvchi: *o‘rta, ora, bosh.*

Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma’nolari

1. **Bosh kelishikdagi** so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar:
Bilan (qisqa shakllari: *-la, ila*) ko‘makchisi birgalik, vosita, tez boshlanish, payt, ish-harakat obyekti, holat, maqsad ma’nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uqlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi. Uchun* (qisqa shakli: *-chun*) ko‘makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma’nolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. O‘qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Kabi, singari, yanglig’* (ba‘zan misoli so‘zi) ko‘makchilari o‘xshatish, qiyoslash ma’nolarini ifodalaydi: *Shamol kabi yeldi. Cho‘l singari*

bepoyon. Sayin ko‘makchisi payt, izchillik, davomiylik ma’nolarini ifodalaydi: *Sovuq kun sayin kuchaydi. Sari, yoqalab* ko‘makchilar yo‘nalish ma’nosini ifodalaydi: *Dala sari ketdi. Daryo yogalab yurdi. Sababli, tufayli* ko‘makchilar aloqadorlik, sabab ma’nosini ifodalaydi: *chaqirilmaganligi sababli kelmadi. Orqali* ko‘makchisi vosita ma’nosini; **chog‘li, chamasi** ko‘makchilar chama, taxmin ma’nolarini; **osha, bo‘ylab** ko‘makchilar makon bo‘ylab sodir bo‘lish ma’nosini; **bo‘yicha** ko‘makchisi moslik ma’nosini; **uzra** ko‘makchisi biror sath bo‘ylab yo‘nalish ma’nosini; **ichra** ko‘makchisi biror predmetning ichida sodir bo‘lish ma’nosini; **degan** ko‘makchisi atash ma’nosini; **bo‘yi** ko‘makchisi davomlilik ma’nosini; **haqida** (*to‘g‘risida*) ko‘makchilar fikr mavzusi ma’nosini; **holda** (yo‘sinda) ko‘makchilar holat ma’nosini: *pochta orqali jo‘natdi. O‘n chog‘li odam to‘plandi. Asrlar osha yetib keldi. Ariq bo‘ylab yurishdi. Urush haqida so‘zladi.*

2. **Jo‘nalish kelishigidagi** so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar: **Tomon** ko‘makchisi yo‘nalish ma’nosini; **qadar** ko‘makchisi chegara ma’nosini; **ko‘ra** ko‘makchisi sabab, ta‘kidlash, qiyoslash ma’nolarini; **qarshi** ko‘makchisi zidlik ma’nosini; **qarab, qarata** ko‘makchisi yo‘nalish, o‘lchov ma’nosini; **qaraganda** ko‘makchisi ta‘kidlash, qiyoslash ma’nolarini; **qaramasdan, qaramay** ko‘makchilar to‘siksizlik ma’nosini; **yarasha** ko‘makchisi moslik ma’nosini; **doir** ko‘makchisi aloqadorlik ma’nosini; **asosan, binoan, muvofiq** ko‘makchilar tayanch ma’nosini ifodalaydi: *uy tomon ketdi. Kechga qadar kutib o‘tirdi. Uning topshirig‘iga ko‘ra yetib kelishdi. Bilimiga qarab baho qo‘yiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. Odamlarga qarata nutq so‘zladi.*

3. **Chiqish kelishigidagi** so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar. **So‘ng, avval, keyin, burun, ilgari** ko‘makchilar payt ma’nosini; **boshqa, tashqari, o‘zga, bo‘lak** ko‘makchilar mustas-nolik ma’nosini; **beri, buyon** ko‘makchilar payt ma’nosini; **nari** ko‘makchisi ish-harakatning chegarasi ma’nosini; **boshlab, tortib** ko‘makchilar boshlanish vaqt, nuqta ma’nolarini ifodalaydi: *Uch yil dan keyin paydo bo‘ldi. Sendan boshqa hech kimi yo‘q. Shu kundan boshlab ishga kirishamiz.*

4. **Qaratqich kelishigidagi** so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar. Ko‘pchilik ko‘makchi otlar shu kelishikdagi so‘zlar bilan

qo'llanadi. **Old, ost, ust** singari vazifadosh ko'makchilar qaratqich kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Bunday hollarda ba'zan keli-shik qo'shimchasi qo'llanmasligi ham mumkin: *Uy oldida to 'xtadi. Bog' ichiga kirib ketdi. Devor orasida qolib ketdi. Ko 'cha o'rtasida ketyapli. Ko 'priq boshida kutib turdi.*

Diqqat! *Uchun, bilan, kabi, singari* ko'makchilar qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham qo'llanishi mumkin: *shuning uchun, bu-ning kabi, shuning singari, shuning bilan.*

Ko'makchilar va kelishiklar. Ko'makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o'xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi yoki kelishik qo'shimchasi o'rnida ko'makchilar almashib kelishi mumkin. Ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari o'rnida almashib kelishi mumkin. Biroq hamma vaqt ham ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilavermaydi: *radio orqali eshitdik – radiodan eshitdik. U kamga oldim – ukam uchun oldim. Qalam bilan yozdi – qalamda yozdi. Borganini gapirib berdi – borgani haqida gapirib berdi.*

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazi-fa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, *Bolalar bog'chasiga hadya qildim. Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim.*

Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro '-e 'tibor topdi. Mehnat-sevarligi uchun xalq o'rtasida obro '-e 'tibor topdi.

Dalaga ketdi – dala tomon ketdi.

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylig bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosи, ikkinchi gapda sabab ma'nosи, uchinchisida yo'nalish ma'nosи mavjud. Ana shu umumiyl ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiyl ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyoq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. **Solishtiring:** *Samarqandga ketdi – Samarcand tomon(ga) ketdi.*

Bog‘lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari

Gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlarga **bog‘lovchi** deyiladi. Masalan: *va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo.., yo..., dam... dam..., goh... goh...* singari. *Maysa va daraxtlarga jon kiryapti, chunki bahorning iliq nafasi sezila boshlagan edi.*

Bilan ko‘makchisi ba‘zan uyushiq bo‘laklarni bog‘lab kelganda bog‘lovchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan daftар oldim.* O‘zaro tobe bog‘lanuvchi so‘zlarni bog‘lab kelganda ko‘makchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan yozdim.*

Bog‘lovchilar gapda qo‘llanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Yakka holda qo‘llanadigan bog‘lovchilar: *va, ammo, chunki;*
2. Takrorlangan holda qo‘llanadigan bog‘lovchilar: *yo...yo, yoki... yoki*

Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra *teng bog‘lovchilar* va *ergashtiruvchi bog‘lovchilarga* bo‘linadi.

Uyushiq bo‘laklar va gaplarni o‘zaro bog‘lab keluvchi bog‘lovchilar **teng bog‘lovchilar** hisoblanadi.

Teng bog‘lovchilar uyushiq bo‘lak va gaplarni bog‘lash bilan birga, ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro‘yobga chiqaradi. Shunga ko‘ra teng bog‘lovchilar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- 1) biriktiruv bog‘lovchilari: *va, hamda, bilan, ham.*
- 2) zidlov bog‘lovchilari: *ammo, lekin, biroq, balki.*
- 3) ayiruv bog‘lovchilari: *yo... yo, goh ... goh, dam... dam, bir... bir, ba‘zan... ba‘zan, xoh ... xoh.*
- 4) inkor bog‘lovchisi: *na... na.*

Sof va vazifadosh bog‘lovchilar. Bog‘lovchilar ham xuddi ko‘makchilar singari sof va vazifadosh bog‘lovchilarga bo‘linadi.

Faqat bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so‘zlar **sof bog‘lovchilar** sanaladi: *va, lekin, ammo, biroq kabi.*

Bir o‘rinda bog‘lovchi, boshqa o‘rinda ko‘makchi, yuklama yoki modal so‘z vazifasida keluvchi yordamchilar **vazifadosh bog‘lovchilar** sanaladi.

Masalan, **bilan** ham ko‘makchi, ham bog‘lovchi; **ham, na ... na** ham bog‘lovchi, ham yuklama; **-u (-yu), -da** yordamchilari ham

yuklama, ham bog‘lovchi; **balki** ham bog‘lovchi, ham modal so‘z vazifasini bajaradi.

Teng bog‘lovchilar. Bu bog‘lovchilar so‘zlarni va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog‘laydi va quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Uyushiq bo‘laklarni va uyushiq gaplarni o‘zaro biriktirib keluvchi bog‘lovchilar **biriktiruv bog‘lovchilari** hisoblanadi.

Biriktiruv bog‘lovchilariga va, *hamda* sof bog‘lovchilari, *bilan* ko‘makchi-bog‘lovchisi, -*u(-yu)*, -*da*, *ham* yuklama-bog‘lovchilari mansubdir. Bularidan ham bog‘lovchi vazifasida takror holda qo‘llaniladi. *Ham* so‘zi uyushiq bo‘laklar oldidan kelgandagina bog‘lovchi hisoblanadi: *Ham akamni, ham ukamni tabriklashdi va sovg‘alar topshirishdi hamda dam olish uyiga yo‘llanma bilan mukofotlashdi. Bilan* ko‘makchisi ham biriktiruvchi bog‘lovchi (va) o‘rnida kelishi mumkin: *Karim bilan Salim mактабга birga borishgan.*

-*u (-yu)*, -*da* o‘zi qo‘shilayotgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi, lekin uyushiq bo‘laklar o‘rtasiga vergul qo‘yilmaydi.

Biriktiruvchi bog‘lovchi sifatida oddiy so‘zlashuv uslubida ko‘proq *bilan (minan)* ko‘makchisi ishlatiladi. *Va, ham, hamda yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan.*

2. O‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab keluvchi *ammo, lekin, biroq, holbuki* bog‘lovchilar **zidlov bog‘lovchilari** sanaladi.

Balki so‘zi ko‘pincha zidlov bog‘lovchisi vazifasida qo‘llaniladi. Masalan: *Bu jarang-jurung ovozlar uning g‘ashini keltirmas, balki xayolini chalg‘itib, unga orom bag‘ishlardi.* (M.Karim)

Yozuvda zidlov bog‘lovchilaridan oldin vergul qo‘yiladi.

So‘zlashuv tilida rus tilidan o‘tgan **a** bog‘lovchisi sodda yoki qo‘shma gaplarni bog‘lab, zid munosabatlarni ifodalaydi: *Men bor-moqchiman, a siz-chi?*

Zidlov bog‘lovchisi sifatida so‘zlashuv uslubi uchun *ammo, lekin* bog‘lovchilarining birikkan holida *ammo-lekin (ammolek)* shakli ko‘proq ishlatiladi. *Lekin* bog‘lovchisining *lek. vale (valekin)* shakllari ham badiiy uslub uchun xoslangan.

3. O‘zaro bog‘lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatuvchi bog‘lovchilar **ayiruv bog‘lovchilari** hisoblanadi.

Masalan, *yo ..., yo yo, yoki, goh ..., goh ..., dam ..., dam ..., ba'zan ..., ba'zan..., bir ..., bir* kabi. *Alijon goh menga, goh yerga qarab jim turaverdi. Yo sen borasan, yo men kelaman.*

Takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchisi oldidan yozuvda vergul qo'yiladi. Takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilar ketma-ketlik ma'nosini ifodalaydi. *Ba'zan chumchuqning, ba'zan kakkuning yoqimli ovozi kishiga orom bag'ishlab, barglarning shivir-shiviriga jo'r bo'ladi.*

Ayiruv bog'lovchilaridan *yoxud, yoinki* yozma nutq uslubi (publisistik, badiiy uslub) dagina qo'llaniladi. Aniqlov bog'lovchilar faqat yozma nutq uslubida qo'llaniladi.

4. Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi *na..., na...* yordamchisi **inkor bog'lovchi** sanaladi. Bunda gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi: *Unda na kitob bor, na daftар.*

O'zaro tobe munosabatida bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchi sanaladi. *Chunki, ya'ni, agar, garchi* singari so'zlar **ergashtiruvchi bog'lovchilardir.**

Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **aniqlov bog'lovchilari:** *ya'ni, -ki (-kim), toki:* U ko'rdiki, kamchiliklar ko'p ba'zan -ki ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatadi, bunda u bog'lovchi emas, yuqlama sanaladi: ...ko'ksi to'la nuqul ordenki, bir-biridan chiroyli. *Ya'ni* bog'lovchisi aniqlov bog'lovchisi sanaladi. Yozuvda *ya'ni* bog'lovchisidan oldin doimo vergul qo'yiladi.

2) **sabab bog'lovchilari:** *chunki, shuning uchun, negaki, zeroiki:* Ish o'z vaqtida bajarildi, chunki bunga puxta tayyorgarlik ko'rilgan edi. Ba'zan *uchun* ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi: *ular yetib kelsin uchun, Turdi kulib turdi.* Yozuvda bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi.

Sabab bog'lovchilaridan *chunki, shu sabab, shu tufayli* ko'proq yozma nutq uslubida qo'llaniladi.

3) **shart bog'lovchilari:** *agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti:* *agar ishimiz o'ngidan kelsa, bugun qaytib ketamiz.*

4) o‘xshatish bog‘lovchisi: go ‘yo(ki). Siz keldingiz, go ‘yo kul-bamizga nur kirib keldi.

Shart bog‘lovchilaridan garchi yozma nutq uslubi uchun xoslangan. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilaridan xuddi uslubiy betaraf, go ‘yo yozma nutq uchun xoslangan.

Bog‘lovchi vazifasini bajaradigan so‘zlar: *bilan, deb, bordi-yu so‘zлari bog‘lovchi o‘rnida almashib keladi: Bordi-yu, o‘zim kelolmasam, odam jo ‘nataman. Ular yetib kelsin deb, kutdim.* Iboralar ham ba’zan bog‘lovchilarga sinonim bo‘lishi mumkin: *Shunga qaramay u kelmadi – ammo (lekin, biroq) u kelmadi.*

Yuklama haqida ma’lumot

So‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, ayirish-chegegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z va qo‘srimchalarga **yuklamalar** deyiladi.

Yuklamalarga: 1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go ‘yo, go ‘yoki, naq, hech, sira, nahotki so‘zлari; 2) -mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a, na ... na ... singari qo‘srimchalalar kiradi.* Ularning birinchi guruhi so‘z -yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qo‘srimcha-yuklamalar sanaladi.

Yuklamalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi.

1. **So‘z yuklamalar:** *faqat, ham, axir, hatto.* So‘z yuklamalar o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zlardan vergal bilan ajratilmaydi.

2. **Qo‘srimcha ko‘rinishidagi yuklamalar:** *-ku, -mi, -a, -gina.*

Sof va vazifadosh yuklamalar: *-u (-yu), -da yordamchisi o‘rniga va bog‘lovchisini qo‘yish mumkin bo‘lsa, bog‘lovchi vazifasida, boshqa holatlarda yuklama vazifasida keladi.*

-da yordamchisi yuklama vazifasida kelganda, ko‘pincha uning o‘rniga ham yuklamasini qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Yuklamalarning ma’no jihatdan turlari:

1. **So‘roq va taajjub yuklamalari:** *-mi, -chi, -a(ya).* Bulardan -mi yuklamasi so‘roq va taajjubdan tashqari modal ma’noni ham bildiradi, bunda u noaniqlikni ifodalaydi: *uyidami, ko‘chadami, uning uchun farqi yo‘q edi. -chi so‘roqdan tashqari buyruq, do‘q, iltimos, qistash, ta’kid, uqtirish ma’nolarini ham bildiradi: Qani, yur-chi! -a, -ya* yuklamalari ham so‘roq va taajjubdan tashqari his-hayajonni, tas-

diq va ishonchni ham bildiradi: *Qanday chiroyli-ya! Go'sht olibdi – jiqqa yog'-a.*

2. **Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari:** -ku, -da, -u(-yu), ham, nahotki, axir, hatto(ki), -oq (-yoq), axir yuklamalari kuchaytirish va ta'kid ma'nolarini anglatса, tim (qora), liq(to 'la), lim (to 'la), g'irt (yolg'on), g'arq (pishgan), jiqqa (ho 'l) yuklamalari nutqqa tasviriylik berib, so'z ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

3. **Ayiruv- chegaralov yuklamalari:** faqat, -gina (-kina, -qina), atigi, xolos. Ham yuklamasi ba'zan bog'lovchi o'rnila ham qo'llanadi: *Uni birinchi kursga qabul qilishdi ham stipendiya tayin qilishdi.* Bu so'z takrorlanib kelganda, fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin: *U yurtiniyam, xalqiniyam boqdi.* Faqat, -gina yuklamalari o'rnila yolg'iz so'zi qo'llana oladi: *bu yolg'iz nom xolos.* Bulardan faqat sof yuklama, -gina(-kina, -qina) vazifadosh yuklamadir.

4. **O'xhatish-qiyoslash yuklamalari:** go 'yo, go 'yoki, xuddi, naq

5. **Inkor yuklamasi:** hech, sira, aslo, na...na. Bunday yuklamalar qo'llanganda, gapning kesimi, asosan, inkor shaklida bo'ladi. na takroriy qo'llanadi: *Bepoyon dasht bag'riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa olmadi.*

6. **Gumon yuklamasi:** -dir. Bu yuklama -man, -san qo'shimchalari qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo'shimchasi -dir bilan shakldoshdir. -dir yuklamasi urg'u olmaydi. *Uyiga yetib borgandir.*

Yuqorida keltirilgan yuklamalardan -ku, na... na yuklamalari yozma nutq uslubi uchun xoslangan bo'lsa, qolganlari uslubiy betaraf yuklamalar sanaladi.

Yuklamalarning yozilishi

1. -mi, -oq(-yoq), -gina (-kina, -qina), -dir yuklamalari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?*

2. -chi, -ku, -u (-yu), -da, -a (-ya) yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi. *Sen-chi?*

3. *Faqat, ham, hatto, axir* kabi so'z yuklamalar ayrim yoziladi: *Tog'larda hatto yoz oylarida ham yomg'ir yog'adi.*

E s l a t m a: -gina (-kina, -qina) shakllari ot, sifat, ravishga qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkakash, ta'kidlash uchun ishlatalidi.

Masalan, *ukaginam*, *qizgina*, *yaxshigina*, *sekkingina*, *ko'pgina*, *ozgina* va boshqalar.

Undov so'zlar, ularning uslubiyoti

His-hayajon, tuyg'uni, buyruq-xitobni bildiradigan so'zlar turkumi **undov so'zlar** deyiladi: *eh, uh, o, e, uf, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo'sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo'y, a, ax, ohho, ey, ehhe, i, iye, o'h, o'hho', hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o', ha, iyi*. Undov so'zlar ham xuddi modal so'zlar kabi qo'shimchalar olib o'zgarmaydi. Ayrim undov so'zlar otlashganda, ya'ni ot vazifasida qo'llanganda, egalik qo'shimchasini olishi mumkin.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takroriy holda qo'llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay*. Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undovlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **His-hayajon undovlari** quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1) shafqat, mehribonlik: *iye, o, voy, voy-ey, eh*; 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o'h-ho', ehe*; 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh*; 4) mammuniyat, faxrlanish, g'ururlanish, xayri-hohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o'*; 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha*.

Undovlar boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, shuning uchun ular yozuvda gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo'lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo'yiladi: *Eh! Havo naqadar sof va musaffo!*

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so'zlardan undovlarga ko'chgan so'zlar ham mavjud: 1) olmoshdan: *qani*; 2) fe'llardan: *kel, hormang, yo'qol, bor-ey, yashang, kechirasiz*: *Kel, bir bahslashaylik!*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so'z, yoki so'z-gap bo'lib kelishi mumkin: *Iye, men kimni ko'ryapman? – Dod! – ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi*.

His-hayajon uhdovlarining o'zi undov gap bo'lib kelishi yoki gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin. Bunday gaplar oxiriga doimo undov belgisi qo'yiladi.

2. **Buyruq-xitob undovlari** ikki xil bo'ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar:

a) kishilarning diqqattini tortish uchun qo‘llanadigan: *hoy, hay (bir marta aytilsa) hey, allo, ey*; b) ta’kid, buyurish uchun qo‘llanadigan: *ma, tss, jim, marsh*; 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo‘llanadigan: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey*; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to‘xtatish uchun qo‘llanadigan *tshsh ho ‘k, tak*; c) hayvon va parrandalarni biror harakatni bajarishga undash uchun ishlatiladigan *pisht, drr, xix, hoy-hoy, cho ‘k, tek, hayt, chu*.

3. **Ko‘rsatish, ta’kid undovlari** quyidagi ma’nolarni ifodalaydi.

1) ko‘rsatish: *hu, huv, hovv*; 2) javob, tasdiq, ta’kid, mulohaza: *ha-ha-ha, xo ‘sh, labbay, ha*.

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari tarzida ajratish mumkin: *rahmat, marhamat, salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qulluq* va b.

Undovlar odatda **deb** so‘zi bilan qo‘llanib, gapda ko‘pincha si-fatlovchi-aniqlovchi bo‘lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega (*Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi*), to‘ldiruvchi (*Uning oh-vohiga kim quloq soladi?*), qaratqich-aniqlovchi (*Dod-voyning foydasi yo ‘q*) vazifalarini bajaradi.

Yozuvda undov so‘zlardan keyin vergul qo‘yiladi. Undovlardan oldin kelganda esa undan keyin vergul qo‘yilmaydi.

Shuningdek, undovlar og‘zaki so‘zlashuv, badiiy, qisman publisistik uslubda keng qo‘llanilib, rasmiy va ilmiy uslubda qo‘llanilish doirasi cheklangan. Ba’zan xat janrida, ma’lum voqeа-hodisalar bayoni yuzasidan o‘zaro maktublarda yoki ishqiy maktublarda, undovlar qo‘llanilishi mumkin. Rasmiy doiralarning xatlarida undovlar qo‘llanilmaydi. Sababi rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtirolardan xoli bo‘ladi.

Taqlid so‘zlar va ularning uslubiyoti

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. Taqlid so‘zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Narsalarning ovoziga taqlidni bildiruvchi so‘zlar **tovushga**

taqlid so‘zlar sanaladi. Masalan, *g‘a-g‘a* (o‘rdak ovoziga taqlid), dit (mashina signaliga taq{id}).

Tovushga taqlid bildiradigan so‘zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g‘arch-g‘urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo ‘o’, maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g‘a-g‘a, qag -qag’, pit-pildiq, parr, viz-viz* kabi.

Narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so‘zlar **holatga taqlid so‘zlar** hisoblanadi. Masalan, *lip-lip (chiroq holati), jimir-jimir (suv holati)*.

Holatga taqlid bildirilgan so‘zlar: *yalt-yult, apil-tapil, g‘uj-g‘uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jil-pang-jilpang, alang-jalang, mo ‘lt-mo ‘lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g‘ivir-g‘ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid so‘zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo‘llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yiladi.

Asos qismning aynan takrorlanishidan yoki ayrim tovush o‘zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar **takror taqlid so‘zlar** sanaladi. Masalan, *gumbur-gumbur, gurs-gurs, chars-churs, taq-tuq, yarq-yurq*. Takror taqlid so‘zlar qismlari chiziqcha bilan ajiatib yoziladi.

Taqlid so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi gap bo‘lagi bo‘la oladi: *Shamol g‘ir-g‘ir (hol) esmoqda*.

Tovushga taqlid so‘zlar ba’zan otlashib, ko‘plik, egaltk va keli-shik qo‘shimchalarini qabul qiladi va ega, qaratqich aniqlovchi hamda to‘ldiruvchi vazifalarini bajaradi: *Odamlarning g‘ovur-g‘ovuri bosildi. Yuraginiн duk-dukini eshitdi. Chug‘ur-chug‘urning to‘xtashi amri mahol*.

Taqlid so‘zlarning barchasidan fe’l yasaladi: *shovullamoq, gum-burlamoq, dupirlamoq, qarsillamoq, yaltillamoq* kabi.

Modal so‘zlar va ularning uslubiyoti

Ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini (ishonch, guman, achinish kabi) bildirgan so‘zlarga **modal so‘zlar** deyiladi.

Modal so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi: *Ehtimol, bugun yetib kelar.*

Modal so‘zlar ma’no jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so‘zlar:

a) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx);*

b) fikrning qat’iyligi ta’kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so‘zsiz;*

c) ishonch: *albatta;*

d) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o‘z-o‘zidan;*

e) fikrning chinligi eslatiladi: *to‘g‘ri, xoynahoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so‘zlar:

a) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog‘i;*

b) fikrning gumanli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*

c) fikrning tusmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*

d) fikrning chinligiga guman ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay.*

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor;*

4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan;*

5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom;*

6. Afsuslanish, achinish: *afsus, attang, essiz;*

7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim;*

8. Quvonch: *xayriyat;*

9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo‘q.*

Bulardan tashqari, *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so‘zlar ham mavjud.

Modal so‘zlarning ko‘pchiligi mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqqandir:

1. Ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat;*

2. Sifatdan: *yaxshi(ki), to‘g‘ri, so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy;*

3. Ravishdan: *albatta;*

4. Fe’ldan: *xoyna-xoy* (tojikcha xohi-naxohi so‘zidan);

5. Bog‘lovchidan: *balki;*

6. So‘z birikmasidan: *har qalay, har holda;*

7. Gapning modal so‘zga aylanishi: *holbuki* (Hol buki);
8. So‘z tushirish natijasida hosil bo‘lgan: *o‘z-o‘zidan* (aniq so‘zi tushib qolgan).

Modal so‘zlar gap tarkibida ko‘pincha **kirish so‘z** bo‘lib keladi.

Sof va vazifadosh modal so‘zlar. Modal so‘zlar ham *sof modal* so‘zlar va *vazifadosh modal* so‘zlarga bo‘linadi.

Faqat modal ma’no uchun xoslangan so‘zlar **sof modal so‘zlar** sanaladi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, masalan* kabi. Modal ma’noda ham qo‘llanilgan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, umuman, taxminan, shubhasiz* singari so‘zlar vazifadosh modal so‘zlar hisoblanadi.

Tasdiq va inkor so‘zlar

Ha, xo‘p, mayli singari so‘zlar **tasdiq so‘zlar;** *yo‘q, mutlaqo, aslo* singari so‘zlar **inkor so‘zlar** sanaladi. Bunday so‘zlar dialogik nutqda -*mi* so‘roq yuklamasi orqali ifodalangan so‘roq gaplarning javobi bo‘lib keladi.

SO‘ZLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI ISMLAR VA ULARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan *qadimgi hindlar* so‘zlarni otlar, fe’llar, yordamchilarga ajratgan edilar.

Hindlarning tilshunoslik g‘oyalari bilan oziqlangan *arablar* so‘zlarni uchga: ismlar, fe’llar, yordamchilarga bo‘ladilar.

Hind tilshunoslari fikrlari asosida *yunon* olimlari, xususan, Arastu ham so‘zlarni ana shunday uchga ajratadi. Faqat keyinchalik *yunonlar* ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar.

G‘arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. *Rus* tilshunoslari ham ana shu an‘anaga amal qilib, mustaqil so‘zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to‘rtta so‘z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar o‘rnida

almashinib keluvchi so‘zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so‘zlar nomi bilan birlashtiradilar.

Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda ismlar nomi bilan o‘rganib kelganlar.

Bu so‘z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko‘plik shakllari bilan o‘zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat ottargagina emas, balki *son*, *olmoshlarga*, *shuningdek*, *harakat nomi*, *sifatdosh* va *taqlid* so‘zlarga ham daxildordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so‘zlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo‘srimchalar bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni *ismlar* atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ismlarning lug‘aviy va munosabat shakllari

Ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi qo‘srimchalarga ega bo‘lgan shakli *lug‘aviy shakl* sanaladi.

Egalik, kelishik, -man, -san, -dir qo‘srimchalariga ega bo‘lgan shakli esa *munosabat shakllari* hisoblanadi.

Ism asoslariga qo‘silib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lab kelish va gap bo‘laklarini shakllantirishga xizmat qilganligi uchun egalik, kelishik, *-man*, *-san*, *-dir* qo‘srimchalar munosabat shakllari deyiladi.

Demak, ismlarning munosabat shakllariga quyidagilar kiradi:

- 1) egalik shakllari;

- 2) kelishik shakllari; 3) ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi *-man*, *-san*, *-dir* qo‘srimchalar, *bo‘lmoq*, *sanalmoq*, *hisoblanmoq* so‘zlari. Uchinchi turdagi qo‘srimchalar **bog‘lamalar** deb ham yuritiladi.

Egalik shakllari va ularning imlosi

Ismlarga qo‘silib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat holatlarni uch shaxsdan biriga qarashliligin bildirgan qo‘srimchalar **egalik** qo‘srimchalar hisoblanadi.

Viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlarida qo‘llanilgan III shaxs egalik qo‘srimchasi shaxsga qarashlilik ma’nosini emas,

balki xoslik, umumdan ajratilganlik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo'llanilmaydi. Masalan, *Boburning bog'i emas, Bobur bog'i; Orolning dengizi emas, Orol dengizi*.

-i, -si egalik qo'shimchasi bir qator so'zlarda qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Bunday so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan. O'z vazifasini yo'qtongan. *Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi. (Topishmoq) 2. Kunduz kunlari aniq ko'rindi. 3. Tuni bilan mijja qoqmadi.*

Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qo'shimchalari. Sifatdosh va harakat nomlari tarkibidagi egalik qo'shimchalari harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildiradi. Shuning uchun qaratqich kelishigini olgan shaxs bildiruvchi so'zning qo'llanilishiga ko'pincha ehtiyoj bo'lmaydi. Masalan: *Bo'zchi bilganin to'qir, Baxshi bilganin o'qir*.

Egalik qo'shimchali so'zlarning imlosi.

Terak, qishloq, bolalik singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismning oxirgi *k, q* tovushi *g* va *g'* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Qorin, o'g'il, singil kabi ikkinchi bo'g'inida i unlisi ishtirok etган so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi i unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi.

Nok, chok singari bir bo'g'inli, *idrok, ishtirok* singari ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, asos qismda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

Kelishik shakllari

Ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar *kelishik shakllari* sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi.

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisi-ning o'z nomi va shakli bor.

Ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyiladi.

Bosh kelishik shakli. Ismlarning bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu shakl *kim? nima? qayer?*

so‘roqlarining biriga javob bo‘ladi va gapda ko‘pincha ega, ot-kesim, undalma vazifalarida keladi. Masalan, 1. *O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent*. 2. *Men 7-sinf o‘quvchisiman*. 3. *Toshkent, munschalar go‘zalsan!*

Qaratqich kelishigi shakli. Qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z-qaratqich, qaratqich bog‘lanib kelgan so‘z esa qaralmish deyiladi.

Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelaشتirib bog‘lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanligini bildiradi.

Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganda ko‘p hollarda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin. Lekin qaratqich va qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llanilsa, qaratqich qo‘shimchasi tiklanadi. Masalan, *Maktabimizning chiroyli bog‘i*.

Shuningdek qaratqich kelishigi *atoqli otlar, olmoshlar va sifat-doshlarga qo‘shilganda*, tushib qolmaydi.

Tushum kelishigi shakli. Tushum kelishigi shaklini olgan so‘z doimo o‘timli fe‘lga bog‘lanadi.

Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l yonma-yon turganda, ko‘pincha tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qoladi. Masalan, *Kitobni o‘qidim – Kitob o‘qidim*.

Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l o‘rtasida boshqa bir so‘z ishlatsa, tushum kelishigidagi so‘z *atoqli ot, olmosh yoki sifat-dosh* bo‘lsa, tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qolmaydi.

Tushum kelishigidagi so‘z gapda doimo to‘ldiruvchi vazifasida keladi.

Egalik qo‘shimchasini olgan ismlarga bog‘lanuvchi so‘z qaratqich kelishigi shaklida, o‘timli fe‘llarga bog‘lanuvchi so‘z tushum kelishigi shaklida keladi.

Jo‘nalish kelishigi shakli. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, *qayerga?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda *o‘rin holi* vazifasida keladi.

Payt otlariga qo‘shilib *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda *payt holi* vazifasini bajaradi.

Shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, *kimga?* *nimaga?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda *to‘ldiruvchi* vazifasida qo‘llaniladi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi **k**, **q** tovushlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘silganda, **-ka**, **-qa** holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

G‘tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘silganda **-qa** holida talafuz qilinsa ham, **-ga** tarzida yoziladi.

O‘rin-payt kelishigi shakli. O‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘silib, *qayerda?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va hokim qismdan ifodalangan harakatning o‘rnini bildiradi. Bunday otlar gapda *o‘rin holi* vazifasida keladi.

Payt otlariga qo‘silib, *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va hokim qismdan ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday so‘zlar gapda *payt holi* vazifasida keladi.

Shaxs va narsa otlariga qo‘silib, *kimda?* *nimada?* so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bunday otlar gapda *to ‘ldiruvchi* vazifasida keladi.

Chiqish kelishigi shakli. Chiqish kelishigi qo‘srimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘silib, *qayerda?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va *o‘rin holi* vazifasini bajaradi.

Payt otlariga qo‘silib, *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va *payt holi* vazifasida keladi.

Shaxs va narsa otlariga qo‘silib, *kimdan?* *nimadan?* so‘roqlariga javob bo‘ladi va *to ‘ldiruvchi* bo‘lib keladi.

Ba‘zan tushum kelishigi o‘rnida chiqish kelishigi shakli ishlatalishi mumkin. Lekin ularning ma’nosida ma’lum farq bor. Tushum kelishigidagi so‘z butunni, chiqish kelishigidagi so‘z qismni bildiradi.

Ismalarni kesimga xoslovchi shakllar. Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ism orqali ifodalangan kesimlar shaxs-sonni bildiruvchi maxsus **-man**, **-san**, **-dir** qo‘srimchalari, shuningdek, **bo‘lmoq**, **sanalmoq**, **hisoblanmoq**; **ekan**, **emish**, **emas** so‘zлari vositasa ega bilan moslashadi. Ot-kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi bunday vositalar **bog‘lamalar** hisoblanadi.

Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida *kerak*, *lozim*, *darkor*, *shart* so‘zлari bo‘lganda, kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son qo‘srimchalari harakat nomiga qo‘siladi.

SINTAKSIS

Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi fikrni shakllantirish, uni ifoda-lash, odamlar orasida fikr almashuv vositasi bo‘lib xizmat qilishdan iborat. Tilning fikrni shakllantirish vazifasi so‘zlar, qo‘shimchalar va ularda mujassamlangan ma’nolar yordamida amalga oshsa, fikrni ifodalash, uni birovga yetkazish vazifasi gap orqali namoyon bo‘ladi. Gap esa so‘zlarni o‘zaro biriktirish, bir-biriga bog‘lash asosida vu-judga keladi. Tilimizdagi so‘zlar, so‘z ma’nolari va qo‘shimchalar hamda ularga daxldor qonun-qoidalarni tilshunoslikning leksikologiya va morfologiya kabi bo‘limlari o‘rgansa, so‘zlarni o‘zaro biriktirish, gap hosil qilish, gaplarning qurilish xususiyatlarini o‘rganish bilan tilshunoslikning sintaksis deb nomlanuvchi bo‘limi shug‘ullanadi. Morfologiya va sintaksis birgalikda “grammatika” deb yuritiladi. Shuning uchun “o‘zbek tili grammatikasi” va “o‘zbek tili morfologiyasi hamda sintaksisi” kabi ikki birikma o‘zaro teng tushunchalarni anglatadi.

Sintaksis yunoncha “syntaxis” so‘zidan olingan bo‘lib, yopishtirish, bog‘lash, demakdir. “Sintaksis” deganda nafaqat grammaticikaning bir bo‘limi, balki so‘zlarni o‘zaro biriktirish va gap hosil qilish qonun-qoidalari ham tushuniladi. “O‘zbek tilining sintaktik xususiyatlari”, “ravishdoshlarning sintaktik vazifasi” kabi birikmalarda sintaksis so‘zi ayni shu ma’noda qo‘llanadi. Sintaksis so‘zlarni bir-biriga bog‘lash hamda gap tuzish qonun-qoidalarni o‘rganganligi uchun unda:

1) so‘z birikmalari sintaksisi; 2) gap sintaksisi kabi ikki bo‘lim mavjuddir:

Tilimiz o‘zining tovushlar, so‘zlar, iboralar va qo‘shimchalardagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya’ni gap qurilishida namoyon qiladi.

Gap og‘zaki nutqda ma’lum bir ohang bilan aytildi. Bu ohang yozuvda tinish belgilari bilan ifoda etiladi. Shuning uchun sintaksis tilimizning fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi va imlo qoidalari bilan uzviy bog‘langan. Sintaksis tilimiz imkoniyatlarining ko‘zgusidir.

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi

Gap odatda bir so‘zdan yoki bir necha so‘zlarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan: *Kuz... Bog‘larda mevalar qiyg‘os pishgan*. Yuqoridaqgi gap-

larning birinchisi faqat bir so‘zdan tashkil topgan bo‘lsa, ikkinchisi bitta so‘zning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan.

Gap ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘lganda, bu so‘zlar o‘zaro grammatik va mazmun tomonidan bog‘lanadi.

Eslab qoling. Bir so‘zning boshqa so‘zga ma’lum grammatik vositalar (grammatik qo‘sishchalar, yordamchi so‘zlar) yordamida bog‘lanishi grammatik bog‘lanish hisoblanadi.

Juda muhim. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi ikki xil bo‘ladi:

a) teng bog‘lanish;

b) tobe bog‘lanish. Masalan, *Kalila va Dimna*, *Kitobni o‘qitmoq*.

Bularning birinchisida Kalila so‘zi bilan va teng bog‘lovchisi yordamida *kitobni* so‘zi esa o‘qimoq so‘ziga -ni tushum kelishigi yordamida bog‘lanyapti. Birinchi bog‘lanish teng bog‘lanish, ikkinchi bog‘lanish esa tobe bog‘lanish sanaladi.

1) *teng bog‘lanish* – ikki so‘zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo‘ysunmay bog‘lanishi. So‘zlarning teng bog‘lanishi so‘z qo‘silmalarini hosil qiladi. So‘z qo‘silmasida har bir so‘z ma’no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: *opam va akam*.

Teng bog‘lanish quyidagi vositalar orqali bog‘lanadi:

I. *Teng bog‘lovchilar*: a) biriktiruvchi bog‘lovchilar: *va*, *hamda* (ko‘pincha *va* o‘rnida *bilan* ko‘makchisi ham qo‘llanadi.) Masalan, *Oygul va Baxtiyor*; *Oygul bilan Baxtiyor*.

b) zidlov bog‘lovchilari: *ammo*, *lekin*, *biroq*. c) ayiruv bog‘lovchilari: *yo*, *yoki*, *yo-yo*, *goh-goh*, *dam-dam*.

II. *Bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar*: a) inkor yuklamasi: *na...* *na...* b) kuchaytiruv- ta’kid yuklamasi: *-u* (-*yu*), *-da*

2) *tobe bog‘lanish* – bir so‘zning (tobe so‘zning) boshqa bir so‘zga (hokim so‘zga) bo‘ysunishi orqali bog‘lanishi: *opamning kitobi*, *uyning tomi* kabi.

So‘zlarning tobelanish asosida bog‘lanishi so‘z birikmalarini hosil qiladi va so‘z birikmasi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi: *opamning kitobi*, *qizil gul*, *uyga kirmoq*.

Tobe bog‘lanish. Tobe bog‘lanishning tuzilishi. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bog‘lanish yo‘llari

Bir bo‘lakni boshqa bo‘lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo‘srimchalari, ko‘makchilar, so‘z tartibi va ohang yordamida bog‘lanishiga tobe bog‘lanish deyiladi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lak bilan kelishik, egalik, shaxs-son qo‘srimchalari, ko‘makchilar va ohang yordamida bog‘lanadi. Bunday bog‘lanish ikki xil sintaktik birlikni vujudga keltiradi: a) gap b) so‘z birikmasi.

Shaxs-son qo‘srimchalari yordamida bog‘lanish gapni, qolgan vositalar yordamidagi bog‘lanish so‘z birikmasini hosil qiladi.

Solishtiring: *Gul ochildi* (shaxs-son, zamon qo‘srimchasi -di yordamida bog‘lanyapti) – gap. *Gulning ochilishi* (qaratqich va egalik qo‘srimchasi yordamida bog‘lanyapti) – so‘z birikmasi.

Tobe bog‘lanishning tuzilishi:

Tobe bog‘lanish doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi: tobe bo‘lak va hokim bo‘lak.

So‘roq bog‘lanib kelgan qism hokim, so‘roqqa javob bo‘lib keluvchi qism tobe bo‘lak sanaladi. Masalan, *chiroyli (qanday?) ko‘ylak, go‘zal (qanday?) mamlakat; dalaga (qayerga?) bormoq.*

Bilib oling. Ikki va undan ortiq mustaqil so‘z grammatik va ma’no jihatdan birikib, so‘z birikmasini hosil qiladi. So‘z birikmasi hokim so‘z va tobe so‘zdan tuziladi. Tobe so‘z hokim so‘zni aniqlab, to‘ldirib, izohlab keladi. Turli turkum so‘zlar hokim so‘z vazifasida kela oladi.

So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi turkumga oid so‘z bilan ifodalananisha qarab, ikki guruhga bo‘linadi: otli so‘z birikmasi, fe’lli so‘z birikmasi.

Oqli so‘z birikmasida hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalananadi: *shaharning ko‘chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug‘ur-chug‘uri, o‘quvchilarning beshtasi, beqiyos o‘lka, katta qishloq.*

Fe’lli so‘z birikmasida hokim so‘z sof fe’l bilan ifodalananadi: *kitobni o‘qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq, ta’sirli so‘zlamoq, zavq bilan o‘qimoq.*

O‘zbek tilida so‘z birikmasida tobe bo‘lak bilan hokim bo‘lakning joylashishi o‘rnini aniq: tobe so‘z, asosan, hokim so‘zdan oldin keladi.

Kelishik va egalik qo'shimchalari hamda ko'makchilar so'z birikmalar tarkibida so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.

So'z birikmalar tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi **bitishuv** deyiladi: *tez termoq, chiroqli gapirmoq, ishchan o'quvchi, mehribon murabbiy*. Bitishuvda ergash so'z vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa so'zlar keladi: *qizil gul, tez yurmoq*. Bosh so'z ot va fe'l so'z turkumidan iborat bo'ladi.

Birga o'qish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolg'ondan gapirmoq, uzunasiga yurmoq, to'satdan kelmoq kabi birikmalar o'rinn-payt, jo'nalish, chiqish kelishigi qo'shimchalari, ko'makchilar bilan bog'langan bo'lishiga qaramay, boshqaruv emas, balki bitishuv sanaladi, chunki bu birikmalar tarkibidagi kelishik va egalik qo'shimchalari hamda ko'makchilar "qotib" qolgan. Ular ikki so'zni bog'lashda hech qanday grammatik ahamiyatga ega emas.

Devor soat, uy vazifa, ot to'rva, non zavodi, bahor fasli, Navoiy shahri kabi xoslik, mansublik munosabatini bildiradigan birikmalar ham bitishuv munosabatiga misol bo'ladi.

Tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rinn-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi **boshqaruv** deyiladi: *do'stlarni hurmat qilmoq, g'alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g'amxo'rlik qilmoq, sharoitga ko'ra yondashmoq*.

Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi **moslashuv** deyiladi: *kitobning muqovasi, xonalarning kattarog'i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz*.

SO'Z BIRIKMASI

**Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalari
yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi va ularning
sinonimiysi**

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi. Demak, bog'lovchi vosita tobe bo'lak oxiriga qo'shiladi. Bundan faqat egalik qo'shimchasi yordamida bog'langani mustasno. Egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shiladi. Tobe bo'lak esa

qaratqich kelishigida turadi. Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasligi ham mumkin. Masalan, *litseyning bog'i - litsey bog'i*.

Juda muhim. Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositaning qo'shilish o'rni ikki xil bo'ladi: kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi. Uni quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin:

1. tobe	→	hokim kelishik ko'makchi ohang
2. tobe	→	hokim a) qaratqich kelishigi b) egalik qo'shimchasi

Tobe bo'lak hokim bo'lakka bir yoki bir nechta kelishik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi mumkin.

Agar hokim bo‘lak egalik qo‘sishchasi dagi ot bilan ifodalangan bo‘lsa, tobe bo‘lak faqat qaratqich kelishigidiagi ot bilan ifodalanadi:

OT ning → ot - im (-m)
 - ing (ng)
 - i (-si)

Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasa ham, uning izi bilinib turadi:

OT → ot - im (-m)
 - ing (ng)
 - i (si)

Agar hokim bo‘lak belgi bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so‘z chiqish kelishigi orqali bog‘lanadi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

OT dan → belgi bildiruvchi so‘z

Masalan, *Oydan go 'zal; asaldan shirin; otdan baland kabi.*

Agar hokim bo'lak fe'l bilan ifodalansa, shu fe'lning ma'no talabiga ko'ra tobe bo'lak bir necha kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi. Uni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin:

OT → FE'L

-ni

-dan

Masalan, *uzum ye uzumni ye; uzumdan ye.*

Bularning birinchisida har qanday uzum, ikkinchisida so‘zlovchi bilan tinglovchi uchun ma’lum bo‘lgan aniq uzum va uning hammasi, uchinchisida so‘zlovchi bilan tinglovchi uchun ma’lum bo‘lgan aniq uzum va undan bir qism ma’nosи ifodalanadi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida ham bog‘lanadi.

Masalan: *Istiqlol uchun kurashmoq. Toshkent tomon yo‘nalmoq.*

Ba‘zan kelishik va ko‘makchilar birgalikda qo‘llaniladi. Bunday vaqtda kelishik tobe so‘z oxiriga yoki ko‘makchi oxiriga qo‘shilishi mumkin. Masalan: *Dala tomon ketmoq; Dala tomonga ketmoq.*

Juda muhim. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘langanda, ko‘p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashib qo‘llanilishi mumkin. Natijada kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar sinonimiysi vujudga keladi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

OT → FE’L

-ga
-tomon
-tomonga
-ga tomon

Eslab qoling. Kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lsa ham, ular o‘rtasida ma’lum ma’no farqlanishi mavjud. Kelishik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda hokim bo‘lak ifodalangan barakatning chiqish yoki yo‘nalish nuqtasi aniq, ko‘makchi yordamida bog‘langanda esa noaniq bo‘ladi.

Solishtiring:

<i>Maktabdan chiqdi</i>	}	<i>Maktabga ketdi</i>
<i>Maktab tomondan chiqdi</i>		<i>Maktab tomonga ketdi</i>
		<i>Maktab tomon ketdi</i>
		<i>Maktabga tomon ketdi</i>

Qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchalarining qo‘llanilishi

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda ikki tomonlama bog‘lanish ro‘y beradi. Tobe bo‘lak qaratqich kelishigi qo‘shimchasini, hokim bo‘lak esa egalik qo‘shimchasini oladi. Bunday bog‘lanishda tobe

qism qaratqich, hokim qism qaralmish deb ham nomlanadi.

Ko'pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo'shimchasi, ba'zan esa har ikkisi ifodalanmaydi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin.

- | | |
|-----------------------------------|------------------------|
| a) - ning (<i>do 'stimning</i>) | (<i>ona</i>) -si |
| b) - (<i>mustaqillik</i>) | (<i>shabada</i>) -si |
| c) - ning (<i>bizning</i>) | (<i>Vatan</i>) - |

Qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. U quyidagi hollarda, albatta, qo'llaniladi: a) qaratqich bilan qaralmish o'rtaida boshqa so'z kelsa: Masalan, *Derazaning qora oynasi*; b) qaratqich atoqli otlar va olmoshlar bilan ifodalanganda: Masalan, *Ahmadning daftari, mening daftaram* kabi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qaratqich va qaralmish munosabatida qaratqich va egalik qo'shimchalarning ifodalaniishi to'rt xil ko'rinishsga ega:

Bu ko'rinishlar o'rtaida ma'lum mazmuniy va uslubiy farqlanish bor. Solishtiring:

- | | |
|------------------------------|--------------------------|
| 1) <i>daftarning varag'i</i> | 2) <i>daftar varag'i</i> |
| 3) <i>bizning daftar</i> | 4) <i>daftar varaq</i> |

Birinchi bog'lanish bilan ikkinchi bog'lanish o'rtaida aniqliknoaniqlik ma'nosi bor yoki yo'qligiga ko'ra farqlanish mavjud.

Agar *varaq* so'zlovchi va tinglovchi uchun aniq bitta daftarga qarashli bo'lsa, birinchi bog'lanish qo'llaniladi, umuman daftarga qarashli bo'lsa, ikkinchi bog'lanish qo'llaniladi. Uchinchi bog'lanish ko'proq qaratqich l-shaxs ko'plikdagи olmoshlar bilan ifodalanganda ishlataladi. To'rtinchi bog'lanish esa birinchi va ikkinchisidan ko'proq so'zlashuv uslubiga xosligi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, qaratqichli birikmalarining qay holatda qaysi biridan foydalanishni bilish madaniy nutq uchun katta ahamiyatga ega.

Qaratqich va tushum kelishiklaridan o'rini foydalanish. Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari bir-biriga shakl jihatidan juda yaqin. Shuning uchun og'zaki so'zlashuvda qaratqich kelishigi o'rnida ham ko'pincha tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llaniladi. Masalan, *olmaning sharbati o'rniga olmani sharbati* deyiladi. Nati-jada yozuvda ham ko'pchilik og'zaki so'zlashuv ta'sirida shunday

yozib qo'yiladi. Bunday xatodan qutulish uchun hokim so'zning ifodalanishiga e'tibor berish kerak.

Eslab qoling. Agar hokim bo'lak sof fe'l bilan ifodalansa va bu fe'l kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'luchchi so'zni talab qilsa, tobe bo'lak tushum kelishigida qo'llanadi, hokim bo'lak egalik qo'shimchasini olgan ot, ba'zan harakat nomi va sifatdosh ifodalansa, tobe bo'lak qaratqich kelishigida qo'llaniladi.

So'z birikmasi va so'z

So'z birikmalari ham so'zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so'z – leksik hodisa, so'z birikmasi – grammatisk hodisadir. So'z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro aloqaga kirishuvি orqali ifodalaydi.

Masalan, *kitob* so'zi bir narsaning umumlashgan oti bo'lib, yolg'iz tushunchani ifodalaydi, o'rtoq'imning *kitobi* birikmasida esa faqat "kitob" ma'nosining o'zi emas, balki "o'rtoq'imga tegishli kitob" tushunchasi ifodalanadi.

Bilib oling. So'z birikmalarida ma'no, tushuncha ancha aniq va ravshan bo'ladi.

Qiyoslang: nor-erkak tuya, g'o'nang-ikki yashar ot, ezma-sergap odam.

Shuning uchun lug'atlarda so'zning ma'nosini ochib berishda so'z birikmalaridan foydalilanildi.

So'z birikmasi va qo'shma so'z

1. *Dori bosh og'rig'ini darrov goldirdi. "Boshog'rigni ko'paytirmang", – dedi rahbarimiz.* 2. *Qayerdandir oq qushlar uchib keldi. Bola jarohatlangan oqqushni davoladi. Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga qo'l qo'ydi. Rahimjon ma'yus holda so'ri suyanchig'ga qo'l qo'ydi.*

Bilib oling. So'z birikmasida ham, so'zda ham qismlar bir xildagi so'z turkumlariga oid bo'lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu ularning shakliy o'xshashligidir. Lekin so'z birikmasidagi qismlar ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi.

Qo'shma so'z tarkibidagi qismlarning ma'nosi esa saqlanmagan bo'lib, qo'shma so'zning umumiy ma'nosi orqali anglashiladi.

So'z birikmasidagi qismlar orasida grammatick aloqa sezilib turadi, qo'shma so'z qismlari orasidagi grammatick aloqa esa yo'qolgan bo'ladi.

So'z birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida so'roq berish mumkin: *kitobni* (*nimani?*) o'qimoq, *uydan* (*qayerdan?*) *chiqmoq* kabi. Qo'shma so'zlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin: *kungaboqar* (*nima?*), *kamquvvat* (*qanday?*).

So'z birikmasining qismlari o'z mustaqil so'z urg'usini saqlagan bo'ladi (uyning eshigi, xatni o'qidim, tez yugurdi, qo'shma so'z esa umumiy bir urg'uga ega bo'ladi (*oqko'ngil*, *bilakuzuk*, *Yangiqo'rg'on*).

Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi tarixan so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan: *otboqar* – *otni boqar*, *bilag uzuk* – *bilakning uzugi*.

So'z birikmasi va ibora

Iboralar turg'un, yaxlit ma'noli so'z birikmalaridir. Shuning uchun so'z birikmalari: *erkin birikmalar* va *turg'un birikmalar* kabi turlarga ajratiladi.

Erkin birikmalarda so'z birikmasining ma'nosi shu birikmani tashkil etuvchi so'zlarning ma'nolari yig'indisidan iborat bo'ladi. Bunday birikmalarda tobe va hokim so'zlarni almashtirib, yangi-yangi erkin birikmalar hosil qilish mumkin: *oq qog'oz*, *chiroyli bino*, *ko'prikan o'tkazmoq*.

Qiyoslang: *ko'k qog'oz*, *oq mato*, *chiroyli manzara*, *ko'prikan sakramoq*.

Turg'un birikmalarda ma'no yaxlit, ajralmas bo'ladi va ularda tobe yoki hokim so'zni almashtirish mumkin emas: *oqko'ngil* (*samimi*, *beg'araz*), *o'pkasi yo'q* (*hovliqma*), *ko'ngildan o'tkazmoq* (*o'yamoq*, *sezmoq*), *qo'ymoq* (*tan oldirmoq*, *iqror qilmoq*).

So'z birikmasi va tasviriy ifoda

So'zning so'z birikmalari bilan ifodalangan ma'nodoshlari *tasviriy ifodalar* yoki *parafrazalar* deyiladi. Tasviriy ifodalar so'zning ma'nosini oydinlashtirish, matnni badiylashtirish, takrorning oldini olish kabi uslubiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

So‘z birikmalari zanjiri

Gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelangan, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir necha hokim so‘zga aloqador bo‘lgan hollarda so‘z birikmalari zanjiri hosil bo‘ladi. So‘z birikmasidagi tobe va hokim so‘zlar orasida bir necha boshqa so‘zlar va so‘z birikmalari kelishi mumkin. Masalan, *paxta gulli chinni piyola; uchta paxta gulli chinni payola kabi*.

Bilib oling. Bitta gap tarkibida bitta yoki ikkita so‘z birikmalari zanjirigina bo‘la oladi. Bu zanjirlar gapning kesimi yoki egasi atrofida birlashadi: *Darvesh Alining zindonda yotishi Alisherning yuragida dashmanlik olovini to‘ldiradi.*

So‘z birikmasi va gap

So‘z birikmasi ham, gap ham so‘zlarning grammatik aloqaga kiri-shuvidan yuzaga keladi. So‘z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa ma’lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qo‘sishimchalari bilan shakklangan bo‘ladi. Masalan, *qiziqarli mashg‘ulot – mashg‘ulot qiziqarlidir; maqolani o‘qimoq – maqolani o‘qidim; gulning ochilishi – gul ochildi.*

Sintagma fonetik hodisa bo‘lib, unda ikki so‘z o‘zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil yoki bitta yordamchi so‘z ham sintagmani tashkil etishi mumkin yoxud bir so‘zning o‘zi ham sintagmani tashkil etishi mumkin. So‘z birikmasi esa eng kamida ikki mustaqil so‘zdan iborat bo‘ladi. Masalan, *Dilbar / shifokor Diloromning qizi. Dilbar shifokor/ Diloromning qizi.*

GAP BO‘LAKLARI

Gap tarkibidagi o‘zaro tobe bog‘lanishda bo‘lgan so‘zlardan bit-tasi tobe bo‘lak, ikkinchisi hokim bo‘lak vazifasini bajaradi. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bog‘lanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi.

Eslab qoling: Gap tarkibida tobe bog‘lanib ma’lum so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasiga gap bo‘lagi deyiladi. Masalan, *O‘qituvchimga gul berdlim.* Bu gapda uchta gap bo‘lagi

bo‘lib birinchisi kimga? so‘rog‘iga javob bo‘lib to‘ldiruvchi vazifasida, ikkinchisi nima(ni)? so‘rog‘iga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasida, uchinchisi nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesim vazifasida kelyapti.

Demak, gap bo‘lagi tobe bog‘lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo‘laklar hisoblanadi. Uning qaysi bo‘lak vazifasida kelayotganligi hokim bo‘lakka nisbatan aniqlanadi.

Gapda kesimgina boshqa bo‘laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanligini kesimlik shakllari ko‘rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug‘dirmaydi, qolgan bo‘laklar kesimga nisbatan aniqlanadi. Boshqa bo‘laklar javob bo‘lishi lozim bo‘lgan so‘roqlar kesimga qarab beriladi. Masalan, *Sen Pushkinning sevgan malagi* gapda kim? so‘rog‘iga kesim vazifasidagi Pushkinning sevgan malagi bo‘lagiga bog‘lanadi. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi bo‘lak ega vazifasida keladi. Demak, ega ham kesimga nisbatan belgilanadi.

Gap bo‘laklari gap tuzilishidagi vazifasiga ko‘ra ikki guruhg‘a, ikki darajaga bo‘linadi.

Juda muhim. Gapni gap qilib shakllanishida muhim bo‘lgan, uning mazmuniy va grammatic markazi hisoblanuvchi bo‘lak – kesim. Shuning uchun u gapning eng muhim bo‘lagi, bosh bo‘lak hisoblanadi.

Ega kesim ifodalagan belgi, harakat – holatlarning egasi sifatida kesimdan keyingi bo‘lak sanaladi.

To‘ldiruvchi va hol kesim bilan tobe munosabatga kirishib, ularning ma’nosini izohlab, to‘ldirib keladi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo‘laklar sanaladi.

Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo‘laklarga bog‘lanib, ularning ma’nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo‘lak bilan munosabatda bo‘lsa, shu bo‘lak bilan birgalikda bitta gap bo‘lagi, birikmali gap bo‘lagi bo‘lib keladi. Aniqlovchi shu birikmali gap bo‘laklarining bo‘lagi sifatida keyingi bosqichda ajralib chiqadi.

Shunday qilib, gap bo‘laklari bir necha darajalarga bo‘linadi:

1. **Bosh bo‘lak:** kesim, ega

2. **Ikkinci darajali bo‘laklar:** to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchi

Kesim va uning ifodalanishi. Ega va kesimning moslashuvi

Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal, mayl) ma'nosini ifodalab kelgan, hukmni ifodalagan va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtirgan gapning markaziy bo'lagi kesim deyiladi.

Bilib oling: Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdag'i ahamiyati katta. U hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi.

Kesim nima qildi? nima bo'ldi? nima qilmoqda? (qilyapti) kim(dir)? nima (dir)? (ba'zan nechanchi? qanday?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan, *Ishlasang, tishlaysan* maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi nima qilsang? Ikkinchisi nima qilasan? so'roqlariga javob bo'ladi.

Otam – o'qituvchi gapida *o'qituvchi* bo'lagi kesim sanalib, kim(dir)? Kim hisoblanadi? so'roqlariga javob bo'ladi.

Kesimlar qaysi turkum so'zleri bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) fe'l kesimlar; 2) ot kesimlar.

Fe'lning turli shakllari orqali ifodalangan kesim fe'l kesim deyiladi. Fe'l-kesim nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'ladi.

Fe'l kesimlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) sof fe'l kesimlar: *Men muktabga boraman;*

b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim: *Motor gurullab, mashina oldinga intildi;*

c) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *It xurar – karvon o'tar. Po 'lat xatni kecha yuborgan.*

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so'z) bilan, shuningdek, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi.

Ot kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

a) ot bilan: *Teshaboy ashaddiy dushman-u, siz xizmatini qilayotgan depo xo'jayini do'stmi?* (M.Ism.) *Yaxshi ro'zg'or – jannat, yomon ro'zg'or – do'zax.* (*Maqol*);

- b) sifat bilan: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. (Maqol);*
- d) son bilan: *Birniki – mingga, mingniki – tumanga. (Maqol) Bu birinchisi. Ikki marta ikki – to ‘rt;*
- c) olmosh bilan: *Maqsadim – shu. O’zim har joydaman, ko ‘nglim sandadur;*
- f) ravish bilan: *Sizdan umidim ko ‘p;*
- g) modal so‘z bilan: *Yo ‘qoling, siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo ‘q!*

Fe’l kesimlar shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl (modal) ma’nolarini kesimlik (fe’l) shakllari orqali ifodalaydi.

Esda saqlang: Murakkab ot kesimlar ot (keng ma’noda) – bog‘lama vazifasida kelgan yordamchi fe’l yoki ko‘makchi fe’l tarzidagi qo‘shilishdan hosil bo‘ladi. Bunda asosiy ma’no otdan anglashiladi, ko‘makchi yoki to‘liqsiz fe’l qo‘shimcha ma’no bildiradi va kesimning ega bilan bog‘lanishini ta’minlaydi.

Kesim bilan egani bog‘lashda xizmat qiluvchi bunday so‘zlar bog‘lama deyiladi. Bular asl mustaqil ma’nosini to‘la yoki qisman yo‘qotib, yordamchi vazifaga ko‘chgan so‘zlardir. Bularning vazifasi fe’l bo‘lmagan so‘zlar bilan qo‘silib, kesimni shakllantirishdir, ya’ni mayl, zamon, shaxs-son ma’nolarini ifodalashdan iborat. Bog‘lama ba’zan qo‘llanmasligi mumkin. Bunday vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi. Masalan, *U o ‘quvchi*.

Kesimni shakllantirishga xizmat qiladigan bunday bog‘lamalar *bo‘l, qil, edi, ekan, emish, hisoblan, sana kabi yordamchilardir.* Masalan: *U o ‘quvchi(dir). U o ‘quvchi hisoblanadi. U o ‘quvchi sana-ladi.*

Kerak zarur, darkor so‘zları ham bog‘lama vazifasida qo‘llanadi; Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish kerak. Opam – vrach gapida vrach kim(dir)? so‘roqlariga javob bo‘lib, ot kesim hisoblanadi.

Kesimlar tuzilishiga ko‘ra: sodda va murakkab (qo‘shma) kesim-larga bo‘linadi.

Faqat birgina so‘z bilan ifodalangan kesimga *sodda kesim*, ikki va undan ortiq so‘z bilan ifodalangan kesimga esa *murakkab (qo‘shma) kesim* deyiladi. Masalan, *qirlarda lolalar ochildi gapida ochildi sodda kesim, “Lolazor” romanini o‘qib chiqdim gapida o‘qib chiqdim bo‘lagi qo‘shma kesim sanaladi.*

Murakkab kesim tarkibidagi so'zlardan biri yordamchi so'zlar(ko'makchi fe'l, bog'lama, nisbiy so'zlar va b.)dan bo'lishi mumkin.

Sodda va qo'shma kesimlar ifodalanishiga ko'ra sodda fe'l kesim va sodda ot kesim hamda qo'shma fe'l kesim va qo'shma ot kesim-larga bo'linadi. Masalan, 1. *Dugonam tashqariga ko'z qirini tashladi*. 2. *Dadam kasalxonaning bosh vrachi hisoblanadi*. Birinchi gapda ko'z qirini tashladi bo'lagi nima qildi? so'rog'iga javob bo'lib, qo'shma fe'l kesim, ikkinchi gapda esa *kasalxonaning bosh vrachi hisoblanadi* bo'lagi Kim hisoblandi? so'rog'iga javob bo'lib qo'shma ot kesim vazifasini bajaradi.

Ega va kesimning moslashuvi. Ega kesim bilan grammatik va mazmun jihatidan bog'langanligi uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklda kelishiga **moslashuv** deyiladi.

Masalan, yuqorida keltirilgan *talabaman* kesimi birinchi shaxs birlikda turganligi uchun uning egasi ham birinchi shaxs birlikdagi olmosh bo'ladi. Kesim bilan ega ba'zan son shakli bo'yicha moslashmasligi mumkin. Xususan, ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda: Masalan, *qushlar sayraydilar* emas, *qushlar say-raydi*, lekin shaxsda doimo moslik bo'lishi shart.

Juda muhim. Kesim ot kesim bo'lib, uning kesimlik shaklini ko'rsatuvchi bog'lamalar qo'llanilmasa, u vaqtida kesim ohang yordamida shakllanadi.

Ot kesim va ega orasida tirening ishlatalishi

Ot kesimning kesimlik shakilari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganda, shu tugallangan ohangni ifodalash uchun ega bilan kesim o'rtasiga yozuvda tire qo'yiladi. Quyidagi hollarda ot kesim va ega orasida tire qo'yiladi:

1. Ot kesim bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, kesimlik qo'shimchalarisiz yoki bog'lamasiz qo'llanganda: *Tinchlik – farovon hayot manbai*. *Mening aytadigan gapim – shu*. *Uch karra uch – to'qqiz*.

2. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi yoki sanoq son bilan ifodalanib, kesim tarkibida kesimlik qo'shimchasi yoki bog'lama

bo‘lma ganda: *O‘qish – ulg‘ayish. Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat. Maqsadim – o‘qimoq. Ikki karra ikki – to‘rt.*

3. Ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: *Bu – siz uchun katta sinovdir.*

4. Ega bilan kesim *bu, u, mana bu* so‘zlari bilan ajralganda ham, ega va kesim orasida tire ishlataladi, tire bu so‘zlardan oldin ishlataladi: *Tinchlik – bu sevinchdir, hayotda lazzat, Tinchlik – bu totuvlik, har ishda orom.*

5. Eganing ma’nosи ta’kidlab ko‘rsatilganda: *Men – mana shu minglarning biriman. Urush – quyon ovi emas. Sen – bizni ozod etuv-chisan.*

6. Gapning egasi yoki kesimi birikmalar bilan lfodalanib, tenglik, o‘xhatish kabi ma’nolarni bildirsa va bog‘lama bo‘lmasa, egadan keyin tire qo‘yiladi: *Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz.*

Ega bilan kesim orasida quyidagi o‘rintarda tire qo‘yilmaydi:

1. Agar ega bilan kesim orasida **ham** yordamchisi bo‘lsa: *Olma ham meva. Bular ham – a’lochi.*

2. Kesim shaxs qo‘srimchasini olsa yoki yuklama bilan birikib kelsa: *Bu kishi muallimimiz. Bu ishni bajaruvchi sensan. Yuragi galam-u, qog‘ozi – keng yer (H.Po ‘lat) A’lochilaringiz Salimjonmi?*

3. Kesim sifat, son (sanoq sondan tashqari), olmosh, ravish bilan ifodalansa: *Yurtimiz obod. Ona tilidan yuqori baho olgan talabalarning soni yigirma beshta. Nega yurishingiz sekin?*

4. Kesim kelishik qo‘srimchasini olgan bo‘lsa: *Butun umidimiz sendan.*

5. Ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo‘lsa, bog‘lama bo‘lmasa ham, tire qo‘yilmaydi. *U tajribali yurist..*

Mustaqil va nomustaql kesim shakllari

Tilimizda shart mayli shakli (istik gaplardagi bundan mustasno) **nomustaql kesim** shaklini yasashga xizmat qiladi. Bunday kesimli gaplarning mustaqil ravishda qo‘llanilishi uchun maxsus nutqiy sharoit talab etiladi. Masalan, *Yomg‘ir yog‘sa...*

Shaxs-son va zamon shakllaridagi fe’l kesimlar hamda bog‘lamasiz va bog‘lamali ot kesimlar mustaqil kesimlardir. Masalan, *Mehmonlar kelsa, biz ularni yaxshi kutib olamiz.*

Ega va uning ifodalanishi

Gap kesimining qo'shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak egadir. Ega, asosan, kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi, egalik va ko'plik shakllarini qabul qilishi mumkin. Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Aziz o'sha kitobni o'qidi. Milt-milt yonib turgan chiroq birozdan so'ng o'chdi.*

2. Olmosh bilan: *Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin.* (*Maqol*) *Otlashganda:*

3. Son bilan: *Ikkalasi ham chiqib ketishdi.* (*M.Ism.*)

4. Sifatdosh bilan: *O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar.* (*Maqol*)

5. Sifat bilan: *Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin.* (*Qo'shiqdan*)

6. Ravish bilan: *Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi.* (*Maqol*)

7. Harakat nomi bilan: *O'qish jafoli, ketti vafoli.* (*Maqol*) *Ishlam-oq ishtaha ochar:*

8. Taqlid so'z bilan: *Qars ikki qo'lidan chiqadi.* (*Maqol*)

9. Modal so'z bilan: *Bor so'zlaydi, yo'q o'ylaydi.* (*Maqol*)

10. Ibora bilan: *Uning yuziga oyoq qo'yish axloqimizga zid.*

11. Sintaktik birliklar bilan: *Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Ziyoddillani taajjublantirdi.*

Ayrim paytlarda teng aloqadagi bir necha so'z ham butunicha yoki bo'lak-bo'iak ravishcha ega bo'lib kelishi mumkin: *Otam bilan akam bozorga ketishdi.*

Ba'zan ega chiqish kelishigidagi so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday paytlarda haqiqiy ega tushirilgan bo'lib, undan oldin kelayotgan chiqish kelishigidagi so'z ega vazifasini ifodalaydigan bo'lib qoladi: *Unda ham bu kitoblardan bor.* Bu gapdag'i haqiqiy egani tiklash mumkin: *Unda bu kitoblardan biri bor.*

Ikkinch darajali bo'laklar. To'ldiruvchi va uning ifodalanishi

Gapning biror bo'lagiga (ko'pincha kesimga) boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uni to'ldirib kelgan ikkinchi darajali bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. Masalan: *Omon menga qaradi, men unga qaradim. (G'.G')* *Vodiylarni, tog'larni oshib, Dalalarda yolg'iz adashib, kelib qoldi yurtingga Omon. (H.O.) Sizga nima bo'ldi o'zi? (O.Yo.)*

To'ldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Dilshod maktubni xolasiga berib, ko'chaga chiqib ketdi. (M.Ism.) Mansurov odamlar bilan xayrlashdi.*
2. Otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas. (Maqol)*
3. Otlashgan son bilan: *Beshni beshga qo'shsak, on bo'ladi.*
4. Sifatdosh bilan: *Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi. (Maqol)*
5. Harakat nomi bilan: *Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.*

6. Taqlid so'z bilan: *Taqir-tuquringni yig'ishtir.*

7. Modal so'z bilan: *Yo'jni yo'q deydi, borni bor deydi.*

To'ldiruvchilar, boshqa gap bo'laklari kabi, birikmali holda ham qo'llanadi: *Men uning go'zal siymosida qalbim ko'zgusini, visol orzusini, umidim gulshanini ko'rardim. (M.Qoriyev)* *O'qituvchining pedagogik mahorati u tarbiyalagan shogirdlarining bilimdonligi bilan o'chanadi. O'qituvchida zilol chashmadek tiganmas mehr va bilim bo'lmog'i kerakligini unutmang. Bola bir guruh jangchilarni botqoqlikdan xatarsiz o'tkazib qo'yanini aytди. (O.)*

To'ldiruvchilar yordamida aytilmoqchi bo'lgan fikr ravshanlashadi: *Oyni (etak bilan) yopib bo'lmas. (Maqol) Odam (mehnatda) sinaladi.* Bu gaplardagi etak bilan, mehnatda bo'laklari yordamida so'zlovchining niyati to'la ochilgan.

To'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog'langan predmetni bildirganligi tufayli ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

To'ldiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog'lanadi. Agar u bog'langan so'z kesim bo'lib shakllana olmagan bo'lsa, ana shu so'z bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta gap bo'lagi vazifasida keladi.

Bunday vaqtida u gapning emas, bo‘lakning bo‘lagi bo‘ladi. Masalan, *Onamdan eshitgan gaplarni aytdim*. Bu yerda *onamdan eshitgan gaplarni* birikmasi nimalarni? so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesimga bir butun holda bog‘lanadi. Bu birikmali to‘ldiruvchi o‘z ichida qismlargacha bo‘linadi: *onamdan eshitgan* (qanday?) *gap*. Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi *onamdan eshitgan* birikmali aniqlovchi o‘z ichida yana tarkibiy qismlargacha bo‘linadi: *onamdan (kimdan?) eshitgan*.

Shunday qilib, to‘ldiruvchilar kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish-bog‘lanmasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: a) mustaqil to‘ldiruvchilar; b) nomustaqlar to‘ldiruvchilar.

Juda muhim: To‘g‘ridan to‘gri kesimga tobe bog‘lanib kelgan to‘ldiruvchilar **mustaqil** to‘ldiruvchilar sanaladi. Masalan, *seni sog‘indim* gapida kimni? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi *seni* so‘zi kesim vazifasida keluvchi *sog‘indim* bo‘lagiga bog‘lanib, mustaqil to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Kesim vazifasida kelmagan, bunday to‘ldiruvchilar o‘zi bog‘langan fe‘l bilan bog‘langan to‘ldiruvchilar **nomustaqlar** to‘ldiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun u biron bir ikkinchi darajali bo‘lakning tarkibiy qismi-bo‘lakning bo‘lagi vazifasini bajaradi. Masalan, *Dangasaning non yeyishini ko‘r* gapida *dangasaning non yeyishi* birikmasi nimani? so‘rog‘iga javob bo‘lib, birikmali to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Birikmali gap bo‘lagi esa kimning? va nimani? so‘roqlariga javob bo‘luvchi aniqlovchi (*dangasaning*) va to‘ldiruvchi (non) larni o‘z ichiga oladi. Bu bo‘lak tarkibidagi *non bo‘lagi* nomustaqlar to‘ldiruvchi, bo‘lakning bo‘lagidir.

To‘ldiruvchilar kesim bilan qanday bog‘lovchi vosita yordamida bog‘lanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: a) kelishikli to‘ldiruvchilar; b) ko‘makchili to‘ldiruvchilar. Masalan, *sen bilan (kim bilan?) olam munavvar* gapida *sen bilan* bo‘lagi ko‘makchili to‘ldiruvchi. *Senga (kimga?) aytar gapim bor* gapidagi *senga* bo‘lagi kelishikli to‘ldiruvchi sanaladi.

Tushum kelishigi bilan shakllangan to‘ldiruvchilarda to‘ldiruvchi bilan u bog‘langan hokim bo‘lak yonma-yon turganda tushum kelishigi ifodalamanmasligi mumkin, lekin uning borligi so‘rog‘idan va kesimning o‘timli fe‘l ekanligidan ko‘rinib turadi. Masalan, *shoirlari g‘azal bitadi*, gapida *g‘azal* so‘zi u bog‘langan kesim o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lib, nimani? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zning

bo‘lishini talab qiladi. Agar to‘ldiruvchini kesimdan uzoqlashtirsak, to‘ldiruvchi bilan kesim o‘rtasiga boshqa bir so‘zni kiritsak, tushum kelishigi tiklanadi. Masalan, *G’azalni shoirlari yozadi*. Ko‘rinadiki, tushum kelishigi doimo tushib qola bermaydi.

To‘ldiruvchi tushum kelishigi qo‘srimchasi -ni bilan belgili va qo‘srimchasiz – belgisiz ko‘rinishlarda kela oladi.

Beglili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodالangan to‘ldiruvchi **vositasiz** to‘ldiruvchi deyiladi: *Yashashni istasang, ish-lashni o‘rgan*.

Hokim so‘zning *kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan?* kabi so‘roqlarga javob bo‘lib keladigan kengaytiruvchilar **vositali** to‘ldiruvchilar deyiladi. Vositali to‘ldiruvchi jo‘nalish, chiqish, ba’zan o‘rin-payt kelishiklari qo‘srimchalarini yoki *uchun, bilan, orgali, xususida, to‘g‘risida* kabi ko‘makchiarni olgan so‘zlar (yoki so‘z birikmasi) bilan ifodalanadi. Masalan, *Chizmani kitobdan daf-targa ko‘chirdim*.

Hol va uning ifodalanishi

Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo‘lagiga hol deyiladi. Hollar qanday? qanday qilib? qay hol-da? qachon (-gacha, -dan, -dan buyon?), qayer (-da, -ga, dan?), nima sababdan? nima maqsadda? kabi so‘roqqa javob bo‘ladi.

Hol doimo fe’l kesimga bog‘lanadi. Masalan, *quyosh ko‘kdan mo‘ralab qarar* gapida qarar so‘ziga mo‘ralab so‘zi bog‘lanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, ko‘kdan so‘zi qarar so‘ziga bog‘lanib, uning o‘rnini bildiradi. Ba’zan hol ot kesimlarga ham bog‘lanishi mumkin. Bunday vaqtida hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o‘rnini bildiradi. Masalan, *Andijonda o‘t yoqsam, O‘shda tutuni*.

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe’llarga ham bog‘lanishi mumkin. Hol bog‘lanib kelgan fe’lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko‘ra hollar xuddi to‘ldiruvchilar kabi mustaqil va nomustaqlil hollarga bo‘linadi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri kesim vazifasidagi fe’lga tobe bog‘lanib kelgan hollarga **mustaqil hollar** deyiladi. Masalan, *Dalalarda boshla-nadi ish.* (H.Olimjon) Bu gapda qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi

dalalarda o‘rin holi nima qiladi? nima bo‘ladi? so‘roqlariga javob bo‘luvchi fe’l kesimiga tobe bog‘lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol mustaqil holdir.

Kesim vazifasida kelmagan fe’llarga tobe bog‘langan hollar **nomustaql hol** hisoblanadi. Masalan, *Daladan charchab kelgan yigit tezda uxbab qoldi*. Bu gapda qaerdan? so‘rog‘iga javob bo‘lib hol vazifasida kelayotgan *daladan bo‘lagi kesimga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi charchab kelgan bo‘lagiga tobe bog‘lanib kelyapti*. Shuning uchun bu hol **nomustaql hol** hisoblanadi.

Hollar ravish so‘zlar bilan, kelishik shaklidagi va ko‘makchili otlar bilan, sifat, son, taqlidiy so‘z va undovlar bilan, fe’ning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin.

Hollar sodda (bir so‘zdan iborat) va murakkab (ikki va undan ortiq so‘zdan tuzilishiga ega bo‘ladi).

Hoilar o‘zi bog‘lanib kelgan hokim bo‘lakning qanday belgisini bildirishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi.

O‘rin holi. Ish-harakatning o‘rnini bildirib, qayerga? qayerdan? qayerda? kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘lgan bo‘lak o‘rin holi deyiladi.

O‘rin holi o‘zi ergashgan so‘zga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. O‘rin holi makon-zamon (jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish) kelishiklari-dagi so‘zlar yoki ko‘makchili otlar va o‘rin ravishlari bilan ifodalanadi. Misollar: *Poyezd bizni Toshkentda qoldirib, Moskvaga yo‘l oldi. Shu yerdan boshlanur daryo va quyosh.*

Payt holi. Ish-harakat yoki holatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol payt holi deyiladi. Masalan: *Bugun poytaxt mardlar sha’niga Bir ming to‘pdan yo‘lladi salom. (G.G.) 1945-yil 9-may kunida g‘alaba salutlari jahonni qoplagan.*

Payt holi ko‘pincha ot yoki payt ravishi bilan, shuningdek, son birikmalari bilan ifodalanadi. *Bundan besh yil ilgari, o’sha kundan beri, shu yildan boshlab shaklidagi so‘z birikmalari ham gapda birgina payt holi sanaladi.*

Ravish holi. Ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday qilib? qanday ahvolda? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol ravish holi deyiladi. Misollar: “*Volga*” yangi asfalt yo‘lda

tez yurib ketdi. Shoир shamning uchini avaylab kesdi. Siz indamay o'tirar edingiz.

Ravish holi ravish, fe'l va ko'makchili otlar bilan ifodalanadi.

Ravish holi kesimga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Demak, u ko'pincha o'zi ergashgan so'zdan oldin keladi.

Daraja-miqdor holi. Ish-harakatning miqdorini va darajasini bildirib, qancha? nechta? necha marta? qay darajada? so'roqlaridan biriga javob bo'lgan hol daraja-miqdor holi deyiladi.

Daraja-miqdor hollari sonlar bilan, miqdor ravishlari bilan, *marta* so'zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi: *Paxta to 'g'risida ko 'p yozdi. (A.Q.) Shu gapni besh marta takrorladi.*

Sabab holi. Ish-harakatning sababini bildirib, nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli? kabi so'roqlarga javob bo'lgan hol sabab holi deyiladi. Misollar: *Tinchlik tufayli yurt obod. Yaxshi o'qigani uchun mukofotlandi. Qul Tarlon shodligidan To'xtolmadi yig'idan. (H. O.)*

Sabab holi -lik, -sizlik qo'shimchalarini olgan otlar, -gani qo'shimchali sifatdoshlar va *sababli, uchun* ko'makchi qurilmalar bilan ifodalanadi.

Maqsad holi. Ish-harakatning maqsadini bildirib, nima uchun? nima maqsadda? nima qigani? kabi so'roqlarga javob bo'lgan hol maqsad holi deyiladi. Misollar. *Qoratoy do 'stining dov-daragini surisihtirish uchun yelib-yugurdi. (O.) Bolalar o'ynab kelgani ko'chaga chiqib ketdi. (O.)*

Maqsad holi maqsad ravishdoshlaridan, ot yoki fe'llardan keyin *uchun, deb, maqsadida, maqsadi bilan* kabi so'zlarni keltirish orqali shuningdek, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan ish otlari orqali ifodalanadi.

Aniqlovchi va uning turlari

Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak aniqlovchi hisoblanadi. Masalan, *Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin, gapida nima tarqaladi?* so'rog'iga *shakar qovunlarning mayin hidlari* birikmasi javob bo'ladi. Demak, bu birikmaning hammasi yaxlit holda birikmali ega vazifasida keladi. Birikmali ega,

o‘z navbatida, aniqlovchi va aniqlanmish qismlariga bo‘linadi: *shakar qovunlarning* (qaratqich aniqlovchi) *mayin hidlari* (aniqlanmish). Qaratqich aniqlovchi ham, aniqlanmish ham birikmali bo‘lib, ular sifatlovchi va sifatlanmishlardan tashkil topgan. *Shakar* (sifatlovchi) *hidlari* (sifatlanmish).

Aniqlovchilar sifat, olmosh va sifatdoshlar bilan ifodalanadi.

Aniqlovchi narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilagini bildiradi.

Aniqlovchi ega, ot kesim, to‘ldiruvchi va holga bog‘lanadi: *Bahaybat samolyot* (ega) *yerga ohista qo‘ndi*. *Salimjon-a’lochi o‘quvchi* (ot kesim). *Ilg‘or ishchilarga* (to‘ldiruvchi) *mukofotlar topshirildi*. *Mehnat faxriylari bilan yangi bog‘da (hol) uchrashdik*.

Aniqlovchilarning bir xili narsa-buyumning belgisi (rangi, miqdori, mazasi, hajmi)ni bildirsa, boshqa xili narsa-buyumning kimga yoki nimaga qarashlilagini bildiradi. Shunga ko‘ra, aniqlovchilar ikkiga bo‘linadi: 1) sifatlovchi aniqlovchi; 2) qaratqichli aniqlovchi. Misol: *Yangi (sifatlovchi aniqlovchi) binolar qishloqning* (qaratqichli aniqlovchi) *husniga husn qo‘shmoqda*.

Sifatlovchi aniqlovchi. Gapda shaxs yoki narsa-buyumning belgi-xususiyati, hajmi, shakli, maza-ta’mi, rang-tusi, miqdori, tartibi kabi ma’nolarni anglatadigan aniqlovchi sifatlovchi aniqlovchi deyiladi. Sifatlovchi bog‘lanib kelgan so‘z sifatlanmish deb ataladi: *Mustaqil O‘zbekiston, qizil gul, mohir qo‘llar, qo‘shni hovli, kuzgi bug‘doy, uzoqdagi do‘sit, temir eshik* kabi.

Sifatlovchi aniqlovchilar quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) sifat bilan: *Uning ziyrak qo‘ng‘ir ko‘zlarida horg‘inlik* bor edi.

2) son bilan: *Tepalikdagi chinor, ikki tup sadaqayrag‘och to‘rt-besh kishilik talay supalarga soya solib turardi.* (A.Q.)

3) olmosh bilan: *Qirlardan esayotgan mayin shabada ana shu ajoyib gullarning g‘unchalarini yozmoqda*.

4) ot bilan: *Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.* (U.)

5) ravish bilan: *Uzoq-yaqin yerlardan odamlar yig‘ila boshladi.* (O.)

6) sifatdosh bilan: *Mayin esgan shabada ko'nglimizni chog' qildi.*

7) modal so'z bilan: *Zarur ishlarimizni bitirdik.*

8) taqlidiy so'z bilan: *Zavodning mashina bo'limidan gurs-gurs zarb uzlusiz eshitilib turardi.* Sifatlovchi aniqlovchilar ba'zan o'ziga qarashli so'zlar bilan birikmali holda qo'llanadi: *Jamilovning egnida oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyog'ida kavkazcha etik, boshida chust do'ppi edi.* (S.Anorboyev) *Yuzida bilinar-bilinmas chechak o'rni qolgan, keng peshanali, sochlarini o'ng tomonga silliq taragan journalist shoirga bir qarab qo'ydi.*

Aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdoshlar birikmali qo'llanib, sifatdosh qurilmani hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan so'nggi misolda ikkita sifatdosh qurilma bor: *yuzida bilinar-bilinmas chechak o'rni qolgan, sochlarini o'ng tomonga silliq taragan.*

Qaratqich aniqlovchi. Gapning biror shaxs yoki narsa-buyumga qarashliligini, xosligini bildirgan bo'lagi qaratqichli aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchining bu turi qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Qaratqichli aniqlovchilar tobelangan so'z (bo'lak) qaralmish hisoblanadi.

Qaratqich aniqlovchili so'z birikmalarining asosiy belgisi hokim so'zning egalik qo'shimchalari bilan (ko'pincha, III shaxs birlik sondagi -i, -si qo'shimchasi bilan) kelishini talab qilishidadir: *maktabimizning binosi.*

Qaratqichli aniqlovchilar qaralmish bilan munosabatga kirishganda turlicha shakllanadi:

1) qaratqich va qaralmish belgili keladi (*daraxtning bargi*);

2) qaratqich belgisiz, qaralmish belgili keladi (*direktor xonasi*);

3) qaratqich va qaralmish belgisiz qo'llanadi (*o'rik danak, yong'oq mag'iz*). Ayrim vaqtda qaratqich belgili, qaralmish belgisiz kelishi ham mumkin (*bizning qishloq*).

Qaratqichli aniqlovchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) ot bilan. *Shiftga osig'liq qirqinchi chiroqning qalpog'i uy devorlarining tepe yog'iga cho'ziq soya solgan.* (H.G').

2) otlashgan sifat bilan: *Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar tor yerda.* (Maqol)

3) otlashgan son bilan: *Birining ko'zi qora, ikkinchisining ko'zi ko'k edi. O'nning yarmi – besh.*

4) olmosh bilan: *Bizning eshon – kabobpazlarning piri. (A. Q.)*

5) otlashgan sifatdosh bilan: *So'raganning bir yuzi qora, berma-ganning ikki yuzi qora. (Magol)*

Juda muhim. Qaratqichda qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. Agar qaratqich atoqli otlar, olmoshlar, otlashgan so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, albatta, qaratqich kelishigi bilan qo'llanadi.

Shuningdek, qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa bir so'z bo'lsa, qaratqich kelishigi tushib qolmaydi. Masalan, *Mirzacho'l shamoli, Mirzacho'lning sovuq shamoli.*

Qaratqich bilan qaralmish o'zaro shaxs-sonda moslashadi. Masalan, *Mening daftaram, sening daftaring, uning daftari.*

Izohlovchi. Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar ko'pincha ot so'zlar bilan ifodalanadi: *injener Rustamov, usta Qodir, mayor Ahmedov, shoira Zulfiya* kabi. Izohlovchi bog'langan bo'lak izohlan mish hisoblanadi.

Izohlan mish shaxsning millati, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi, jinsi va boshqa qo'shimcha belgilarini tavsiflovchi bo'lak izohlovchi deb yuritiladi:

1) unvon, amal: *Kapitan Mansurov so'zladi. Anjumanda direktor Xoligov ham qatnashdi.*

2) mashg'ulot, kasb: *Oshpaz Shukur, gulchi Nizom va duradgor Vahobjonlar yetib kelishdi.*

3) yosh, jins, qarindoshlik: *O'sha kuni Mavjud xola bilan Sobir amaki foydali nasihatlar qildilar.*

4) laqab: *Jalil sovuq, Juman pismiqlarning askiyasini eshitidik.*

5) taxallus: *Muso Toshmuhammad o'gli Oybek yirik nasriy asar-lar muallifidir.*

Aniqlovchili so'z birikmalarning izohlovchi-izohlan mish turida izohlovchi va izohlan mish o'rnini almashtirish ma'noga ham, so'z birikmasidagi so'zlararo munosabatlarga ham ta'sir etmaydi. *Ayol hamshira* birikmasida *ayol* izohlovchi-aniqlovchi, *hamshira* izohlan mish-aniqlan mish bo'lsa, *hamshira ayol* birikmasida, aksincha, *hamshira-* izohlovchi, *ayol-esa* izohlan mishdir.

Izohlovchi-izohlanmish munosabati sifatlovchi-sifatlanmish munosabatiga o‘xshaydi, lekin ular qanday so‘zlar bilan ifodalanishi bilan farq qiladi. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatida sifatlovchi, asosan, sifat va sifatlashgan so‘zlardan ifodalanadi. Sifat+ot ko‘rinishida bo‘ladi. *Solishtiring: qizil gul* (sifatlovchi-sifatlanmish); *professor G‘ozı Olim Yunusov* (izohlovchi-izohlanmish).

Izohlovchi taxallus va o‘xshatish ma’nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o‘rtasida tire qo‘yiladi. Masalan, *erk kuychisi – Abdulhamid Cho‘pon she‘rlarini sevib o‘qiyma*.

Gap bo‘laklarining kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi

Kengaygan birikma gapda yaxlit holda bitta murakkab gap bo‘lagi bo‘lib keladi va o‘z ichida boshqa bo‘laklarga ajratilmaydi.

Eslang: Kengaytirilgan birikma yaxlit holda bitta murakkab bo‘lak bo‘lib keladi. Chunonchi: *Sevaraxon choyni keltirib, dasturxon yozgach, shirinliklarni olish uchun javon oldiga bordi*.

Bu gap bitta egadan (*Sevaraxon*), bitta fe‘l kesimdan (*bordi*), kengaygan ravishdosh birikmalari bilan ifodalangan ikki murakkab payt holidan (*choyni keltirib, dasturxon yozgach*) va kengaygan harakat nomi birikmasi bilan ifodalangan murakkab maqsad holidan (*shirinliklarni olish uchun*) iboratdir.

Gap bo‘laklarining tartibi: odatdagি tartib va o‘zgargan tartib

Quloq soling menga, yaxshi qiz, biroz

Dilimni ochmoqchi bo‘laman Sizga. *(A. Oripov)*

Biz fikrimizni bayon qilish chog‘imizda zarur so‘zlarni tanlash bilan birga, ularni muayyan tartibda joylaymiz, chunki so‘zlashuvchilarning ongida gap bo‘laklarining tartibi bo‘yicha ko‘nikma mavjud bo‘ladi. Unga ko‘ra, kesim gapning eng oxirida; to‘ldiruvchi to‘ldirilmishdan, hol esa hollanmishdan oldin, ega ko‘pincha gap boshida, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Bunday tartib so‘zlashuv va ilmiy uslublarga xosdir. Badiiy va qisman publitsistik uslubda esa gap bo‘laklari tartibi o‘zgarishiga yo‘l qo‘yiladi.

Gap bo‘laklari tartibining buzilishi **inversiya** deb ataladi. Inversiya badiiylik, ifodalilik, ta’sirchanlilikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida gap bo‘laklarining tartibi deyarli erkin bo‘lsa-da, ular gapda ma’lum grammatic qoidalar asosida o‘rinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bog‘langan bo‘laklar oldin, kesim va unga bog‘langan bo‘laklar keyin joylashadi, ba’zan aksinchasi ham bo‘ladi; *Bu yo ‘llar menga tanish. – Menga tanish bu yo ‘llar.*

Eganing ko‘proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (*Men keldim*), holning kesimdan oldin (*ohista gapirdi*), to‘ldiruvchining kesimdan oldin (*she’rni yod oldi*), aniqlovchining egadan oldin (*qizil gul, do ‘stimning akasi*) joylashuvi odatdagি, me’yoriy tartibdir.

Lekin nutqda doimo ham gap bo‘laklarining odatdagи tartibi saqlanavermaydi, gapdan ko‘zda tutilgan umumiyl fikrga qo‘shimcha ma’no, uslubiy yuk berish uchun tartib o‘zgartirilishi mumkin. Masalan:

1. *Kecha akam samolyotda Farg‘onadan Toshkentga ketdi (boshqa yerga emas, Toshkentga).*
2. *Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg‘onadan ketdi (boshqa yerdan emas, Farg‘onadan).*
3. *Kecha akam Farg‘onadan Toshkentga samolyotda ketdi (boshqa narsada emas, samolyotda).*
4. *Kecha samolyotda Farg‘onadan Toshkentga akam keldi (boshqa kishi emas, akam).*
5. *Akam samolyotda Farg‘onadan Toshkentga kecha ketdi (boshqa kuni emas, kecha).* Ko‘rinadiki, e’tibor qaratilgan ma’noni ifodalagan bo‘lak kesim oldiga keltirilgan.

Gap bo‘laklarining odatdagи va o‘zgargan tartibining nutqda o‘z qo‘llanish o‘rnlari bor. *Odatdagи tartib ilmiy asarlar uslubi uchun mos bo‘lsa, o‘zgargan tartib og‘zaki nutq uchun va badiiy (ayniqsa, she’riy) nutq uslubi uchun xos.*

Biror so‘zning sintaktik vazifasi uning morfologik shakllanishidan bilinib turmasa, bunday so‘zda tartib erkinligi bo‘lmaydi. Bu hodisa tartibning grammatic rolidir. Boshqa o‘rnarda tartib stilistik rol o‘ynaydi.

Tartibning grammatic holatga ta’sir etishi o‘zbek tilida juda kam uchraydigan hodisadir (Gapdagи elementlarning sintaktik funksiyasi sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha, ko‘makchi kabi vositalardan aniq bilinib turadi: bu erkin tartibga katta imkoniyatlar beruvchi holatdir). Bu holat, asosan, quyidagi paytlarda uchraydi:

1) ega va kesim predikativ aloqaga kirishuvchi so‘zlarning tartibi bilan belgilanganda (Bunday vaqtida u so‘zlar bilan ifodalangan tasavvurlar teng bo‘lib, bog‘lama qo‘llanmaydi, predikativlikni shakllantirishga pauza xizmat qiladi), ularning tartibi o‘zgartirilsa, grammatik holatlari ham aksincha bo‘ladi: 1. *Sen – Toshpo ‘lat, Toshpo ‘lat – sen.* 2. *O ‘lmoq – jon bermoq, Jon bermoq – o ‘lmoq.* 3. *Yetti kun – bir hafta, Bir hafta – yetti kun.*

2) sifatlovchi va sifatlanmishning tartibi o‘zgartirilsa, ular aniqlovchi va aniqlanmishlikdan chiqib, ega va kesimga aylanadi: *ko ‘m-ko ‘k yaproqlar – Yaproqlar ko ‘m-ko ‘k; o ‘qigan bola – Bola o ‘qigan.*

3) soy o‘rtasi tipidagi birikmalarda tartib o‘zgarishi ularni aniqlovchi va aniqlanmishlikdan chiqarib, ega va kesimga aylantiradi: *soy o‘rtasi* (soyning o‘rtasi) – *O‘rtasi – soy* (Bunda pauzaning roli kuchli). Yana qiyoslang: *tog ‘orasi – Orasi tog ‘;*

4) tartibning o‘zgarishi bilan ba’zan quyidagi holat tug‘iladi: kesimi fe’l bilan ifodalangan gap aniqlovchili (sifatlovchili) yoyiq gap tusida bo‘lganda, sifatlovchi bilan sifatlanmishning o‘rnini almashtirish natijasida sifatlovchi fe’lga bog‘lanib, holga aylanadi. Masalan: *Katta bola gapirdi – Bola katta gapirdi.*

5) vositasiz to‘ldiruvchi “belgisiz” tushum kelishigidagi so‘z bilan ifodalansa, uning grammatic holati tartib asosida belgilanadi: *Xon davrida hamma yoq qonlarga botdi butkul. Ona izladl bola. Ko ‘p yosh jonlar bo ‘ldi qul.* Bunda tartibning roli: Ona izladi bola: a) “ona bola(ni) izladi”; b) “bola ona(ni) izladi”.

Uyushiq bo‘lakli gaplar

Gapda ikki va undan ortiq bir xil gap bo‘laklari ishlatilishi mumkin. Masalan, *Eshilib, to ‘lg‘onib ingranadi kuy.* (A. Oripov) Bu gapda *eshilib, to ‘lg‘onib* so‘zlarini bir hokim bo‘lakka – *ingranadi* ga tobe bog‘lanadi va har ikkisi bir xil so‘roqqa (qanday? so‘rog‘iga) javob bo‘ladi. Har ikkisi bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Bu ikki bir xil bo‘lak bir-biri bilan sanash ohangi yordamida bog‘lanadi.

Bir umumiy bo‘lakka tobe bog‘lanuvchi, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan, o‘zaro teng bog‘lovchilar va sanash ohangi yordamida bog‘langan, ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi ikki yoki undan ortiq bo‘laklarga **uyushgan bo‘laklar** deyiladi. Har bir uyushiq

bo‘lakning o‘z ayrim urg‘usi bo‘ladi.

Gap bo‘laklari ham, bo‘lakning bo‘laklari ham uyushib keli-shi mumkin. Masalan, *Rangi o‘chgan, umri kechgan kuz gul... egil (Cho lpon)* gapida *rangi o‘chgan, umri kechgan* bo‘laklarining har ik-kisi qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib, *kuz gulib* bo‘lagiga tobe bog‘langan. Bu bo‘laklar o‘zaro sanash ohangi yordamida teng bog‘langan eganing aniqlovchilari sifatida bo‘lakning uyushgan bo‘laklari sanaladi.

Uyushgan bo‘laklar ishtirok etgan gaplar uyushiq bo‘lakli gaplar hisoblanadi.

Uyushgan bo‘laklarning shakllari va ularda teng bog‘lovchilarining qo‘llanilishi

Uyushgan bo‘laklarning xarakterli xususiyati shundaki, ular bir xil grammatik shaklda bo‘ladi. Bu grammatik shakllarning qo‘llanilishi ikki xil bo‘ladi:

a) Uyushgan bo‘laklarning har birida takrorlanadi:

Yam-yashil vohalarga,

Badiiy lavhalarga,

She‘riy sarlavhalarga,

Boy ekansan, Farg‘ona.

Bunday vaqtida uyushgan bo‘laklarning har biri ta’kidlangan bo‘ladi;

b) Uyushgan bo‘laklarning eng oxirida qo‘llanilib, hammasi uchun tegishli bo‘ladi: *Toshkent, Samarcand, Buxoroda bo‘lishdi.*

Bunday vaqtida sanalayotgan bo‘laklarning har qaysisi ta’kidlanmaydi, balki sanab ko‘rsatiladi.

Uyushgan bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi yordamchi so‘zlar (ham,-u (-yu), na.., na... yuklamalari, bilan ko‘makchisi) va sanash ohangi yordamida bog‘lanadi.

Uyushgan bo‘laklar biriktiruv bog‘lovchisi bo‘lgan va, hamda bog‘lovchi vazifasidagi *bilan* yordamida bog‘langanda ular ko‘pincha takrorlanib keladi.

Adol bilan o‘yinchi Sora;

Asal bilan quvnoq Ruxsora... (H.Olimjon)

Bunday vaqtida uyushgan bo‘laklar orqali ifodalangan shaxs, predmetlarning guruh-guruh ekanligi ifodalanadi.

Ana shunday ma’no ifodalanganda va, *hamda, bilan bog*‘lovchilari bir-biri bilan erkin almashinib keladi.

Va, hamda, bilan bog‘lovchilari ikkidan ortiq uyushgan bo‘laklar tarkibida bir marta qo‘llanilsa, uyushiq bo‘laklarning oxirgi juftligi orasida keladi va sanashning tugallanganligini bildiradi: *Bog imizda o‘rik, shaftoli, gilos va olmalar bor.*

Uyushgan bo‘laklar ikki a‘zodan iborat bo‘lib, biriktiruv munosabatini bildirsa, bu a‘zolar o‘rtasida va, *ilan, -u(-yu)* bog‘lovchilari ishlataladi. **Solishtiring:**

Bir sevgi-kim, jon berur tanga.

Faqat Zaynab-u Omonlarga xos.

Zaynab-u Omonni Zaynab va Omon, Zaynab bilan Omon deb ishlatalish mumkin.

Uyushiq bo‘laklar otlar bilan ifodalanganda va, *hamda, bilan o‘zaro almashinadi*. Fe’liar biian ifodalanganda esa va, *hamda, -u (-yu)* o‘zaro almashina oladi, lekin “va” ning o‘rniga “*ilan*”ni qo‘yib bo‘lmaydi. Solishtiring: *Keldi va ketdi. Keldi-yu ketdi.*

Uyushiq bo‘laklar o‘zaro sanash ohangi yordamida bog‘lanib, ularning har birining ma’nosini ta‘kidlanganda, har bir bo‘lak oxirida ham yuklamasi qo‘llaniladi: *Sen ham, u ham farishta emas.* Uyushgan bo‘laklar o‘zaro ayiruv munosabatida bo‘lganda, ular o‘rtasida yo, yoki, yo-yo, ba‘zan-ba‘zan, dam-dam singari bog‘lovchilar qo‘llaniladi. Masalan, *yo kitob, yo ruchka olaman.*

Juda muhim. Yo, yo-yo, yoki bog‘lovchilari uyushgan bo‘laklardan birini tasdiqlab, ikkinchisini esa inkor etib bog‘laydi.

Masalan, yuqorida misolda *kitob olsa, ruchka olmaydi, ruchka olsa, kitob olmaydi.*

Ba‘zan-ba‘zan, dam-dam, goh-goh kabi bog‘lovchilar yordamida bog‘langanda esa uyushgan bo‘laklarning navbatma-navbatligi ifodalanadi. **Solishtiring:** *Goh o‘ynaydi, goh yig‘laydi.* Ana shunday ma’no ifodalaganda *dam-dam, goh-goh, ba‘zan-ba‘zan* kabi bog‘lovchilar o‘zaro almashinib keladi.

Uyushgan bo‘laklar o‘zaro zidlik munosabatida bo‘lganda, ular o‘rtasiga zidlov bog‘lovchilari (ammo, lekin, biroq) qo‘llaniladi. Masalan: *Hammasini tinglardim, ammo (lekin, biroq) o‘xshashini topmasdim aslo.* (*H. Olimjon*)

Uyushiq bo'laklar ifodalagan ma'no inkor qilinib, ularning har biri ta'kidlab ko'rsatilsa, *na... na.. bog'lovchi vazifasidagi yuklama qo'llaniladi*. Masalan, *Na sen, na men buning kafolatini olganimiz.* (*Shuhrat*)

Na... na... uyushgan bo'lakli gapning kesimi tasdiq shaklida bo'lganda ham, inkor shaklda bo'lganda ham qo'llana beradi. Agar uyushiq bo'lakli gap kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, *na... na... uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va gapni inkor gapga aylantirish vazifasini bajaradi.* Aksincha, gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa, *na... na... uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va ularning ma'nosini ta'kidlash vazifasini bajaradi.* *Solishtiring:* *Na Salim, na Karim keldi. Na Salim, na Karim kelmadidi.*

Uyushiq kesim. Gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklari (so'z, ibora, so'z birikmalar) bilan ifodalangan kesim bo'lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo'lsa, bunday ko'p kesimli gap uyushiq kesimli gap sanaladi: *Siz a'lochi va jamoatchisiz.*

Esga oling. Shakllangan, ya'ni kesimlik shakllari (tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolari)ga ega bo'lgan kesim alohida bir hukmnii ifodalaydi, muayyan gap markazini tashkil eta oladi. Shuning uchun ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar (lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo'laklar tarzida bo'lmasa) qo'shma gaplar sanaladi.

Uyushiq ega. Bir sodda gap tarkibida birdan ortiq ega qator kelishi mumkin. Sodda gap kesimiga bir xil munosabatda bo'lib, sanash ohangi bilan aytiluvchi birdan ortiq eganing ketma-ket kelishi uyushiq ega hisoblanadi.

Uyushiq egalar bir-biri bilan sanash ohangi yoki bog'lovchilar orqali bog'lanadi: *Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi.* *Siz bilan biz bu oddiy haqiqatni tushunmagan ekanmiz.*

Uyushiq hol. Bir xil mazmun-munosabatni (yo tarz, yo o'rinn, yo payt va b. munosabatlarni) bildirgan bir necha holning o'zaro sanash ohangi bilan, teng bog'lanib kelishi uyushiq holni hosil qiladi: *Tomlardan, ivigan devorlardan bug' ko'tarila boshladidi.* (*S.A.*) *Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.* *U dam hazil bilan, dam jiddiy so'rardi.*

Bir sodda gap tarkibida yonma-yon, qator kelgan bir necha payt holi hamma vaqt uyushiq bo'lavermaydi. Masalan, *U kecha ertalab*

biznikiga kelib ketdi gapida ikkita payt holi (kecha, ertalab) bor. Lekin ular uyushiq emas: bundagi *ertalab* holi *kecha* holi ma’nosidagi paytni chegaralab, aniqlashtirib beradi.

Uyushiq to’ldiruvchi. Gapdag'i ikki va undan ortiq to’ldiruvchi bir xil ma’noni (shaxsni yoki narsani) bildirib, bir xil shaklda (kelishik shaklida yoki ko‘makchi bilan) kelsa va sanash ohangiga ega bo‘lsa, bular uyushiq to’ldiruvchilardir: *Taram-taram olmalarni, asl nashvatilarni, po ‘sti yupqa luchchak shaftolilarni, quymoqqa o ‘xhash anjirlarni aytmaysizmi, bay-bay.* (O.)

Har xil ma’noni bildirgan, turli shakllarda kelgan to’ldiruvchilar uyushiq hisoblanavermaydi. Masalan, *Bu daftarni senga oldim* gapi-dagi *daftarni va senga* to’ldiruvchilari uyushmagan. Chunki ularning biri (*daftarni*) narsa-buyum ma’nosini, ikkinchisi (*senga*) atalganlik ma’nosini ifodalaydi.

Uyushiq aniqlovchi. Narsa-buyumlarning bir turdag'i belgilari (yo rang-tusini, yo maza-ta'mini, yo son-miqdorini va hokazo)ni bildirgan birdan ortiq aniqlovchilar uyushiq aniqlovchilar hisoblanadi: *Bog ‘imizda oq, qizil, pushti gullar qiyg ‘os ochilib yotibdi.*

Shuningdek, bir narsa-buyumning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sıfatlovchilar ham uyushiq aniqlovchilar sanaladi: *Chaqaloq kichkina, oppoq, va dumaloq qo ‘llarini cho ‘zib, menga talpinar edi.* (Yo. Sh.)

Uyushiq aniqlovchilar o‘zaro sanash ohangi bilan teng bog‘lanadi va aniqlanmishga baravar tobe bo‘ladi.

Qaratqich aniqlovchilar uyushib kelganda, ulardagi -ning qoshimchasi ba’zan barcha bo‘laklarda saqlanadi, ba’zan esa faqat oxirgi aniqlovchiga qo‘shiladi, u oldingilarga ham taalluqli bo‘ladi: *To ‘lqinning, Ozodaning va Shoiraning ukalari bog‘chada tarbiyalanadilar – To ‘lqin, Ozoda va Shoiraning ukalari bog‘chada tarbiyalanadilar.*

Uyushiq bo‘laklarda ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanishi

Bu qo‘shimchalarning qo‘llanishi ikki xil:

1. Son (ko‘plik), egalik va kelishik qo‘shimchalari uyushiq bo‘laklarning oxirgisiga qo‘shiladi: *Noma va arizalarning ba’zilari mirzo, muftilarga havola qilinar edi.*

2. Gapdag'i uyushiq bo'laklarning har birida son, egalik, kelishik qo'shimchalari alohida-alohida takrorlanadi: *Qor sovug'i qo'llarimni va oyoqlarimni, peshonamni yalab tursa-da, menga juda yoqimli tuyuldi.*

Nutqda son, egalik va kelishik qo'shimchalarining uyushiq bo'laklarda har xil ishlatalish hollari ham uchraydi: *Bolalar yaslilari va bog'chalarida, maktablarda mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalanmoqdalar.*

Gapda uyushiq bo'laklar bog'lovchilarsiz, sanash ohangi bilan biriktiruv bog'lovchilari (*va, hamda*), ular vazifasidagi -u, -yu yuklamalari, *bilan* ko'makchisi, zidlov bog'lovchilari (*ammo, lekin, bi-roq*), *na* yuklamasi, *-da* yuklamasi, *goh, yoki, yoxud, dam, ba'zan, yo* kabi ayiruv bog'lovchilari bilan bog'lanib keladi: *Mashaqqatli, lekin sharafli ishga qo'l urdik.*

Gapning uyushiq bo'laklari guruhi-guruhi bo'lsa, bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Yutib chiqish uchun ot chopqir, zotdor bo'lishi, yaxshi toblanib sovitilishi; chavandoz usta, epchil bo'lishi kerak.*

Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlarning qo'llanilishi

Litseyimiz bog'ida..., ..., ..., ...barcha mevalar bor. Sinfimizda ko'pchilik o'quvchilar: ..., ..., ...lar ingliz tilini yaxshi bilishadi.

Uyushgan bo'lakli gaplarda ko'pincha uyushgan bo'laklarning mazmunini jamlovchi umumlashtiruvchi so'zlar ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda uyushgan bo'laklar narsa va hodisalarni, belgi-xususiyatlarni alohida-alohida ifodalasa, umumlashtiruvchi so'z esa ularning hammasini jamlagan holda ifodalaydi, shuning uchun bu qism umumlashtiruvchi ma'noli so'zlar (olmoshlar, otlar, fe'llar v.h.), so'z birikmalar, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin. Uyushuvchi bo'laklar umumlashtiruvchi so'zning ma'nosini izohlab, aniqlab keladi.

Demak, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtaida xususiylik-umumiylilik, jins-tur munosabati mavjud bo'ladi. Uyushgan bo'laklar xususiyliklarni, jinsnini, umumlashtiruvchi so'z esa umumiylikni, turni bildiradi.

Uyushgan bo'laklar qaysi grammatik shaklda bo'lsa va qanday so'roqqa javob bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham ko'pincha ana shunday shaklda bo'ladi va shunday so'roqqa javob bo'ladi.

Uyushgan bo'laklar qaysi bo'lak bilan tobe munosabatda bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham shu bo'lak bilan tobe aloqada bo'ladi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.

Esda saqlang. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin kelsa, yozuvda umumlashtiruvchi so'zdan keyin *ikki nuqta* qo'yiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan keyin kelsa, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasiga *tire* qo'yiladi.

Uyushgan bo'laklar yozuvda bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Agar uyushgan bo'laklar guruh-guruh bo'lib kelsa, guruhlar bir-biridan *nuqtali vergul* biian ajratiladi. Masalan, *Bog'imizda qovun, handalaklar, olma, o'rik, shaftolilar pishib yotibdi*.

Ajratilgan bo'lakli gaplar

Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi. Bunday gaplarga gap urg'u (mantiqiy urg'u)sini oladi.

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, *Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas*. Bu gapda birinchi axborot Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa Tursunali akaning katta olimligi ajralilgan bo'lak orqali ifodalanadi.

Yuqorida bayon qilinganidek, ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi:

a) ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;

b) o'zi ifodalagan mazmunning ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.

Bu xil ajratilgan bo'laklar ham ikki xil bo'ladi:

a) ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar: *Borlig 'im-la farzanding-man, sodiq, mehribon, Ozarbayjon, Ozarbayjon!*

b) ajratilgan ravishdosh qurilmalari: *Ey Farg 'ona! Tushkun kunder bolasini tishida tishlab, yuvib, tarab, sevib, o'pib, quchib, opichlab, ey baxtlarni balog 'atga yetkazgan ona!*

Har ikki holatda ham ajratilgan bo'lak boshqa gap bo'laklaridan o'ziga xos (ko'tariluvchi yoki pasayuvchisi) ohang bilan ajralib turadi.

Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

Esda saqlang. Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi: a) tartibni o'zgartirish; b) bir nomni boshqacha nomlash.

Tartibini o'zgartirish orqali gap bo'laklarini ajratish

Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi. Ba'zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganda, so'zlovchi uning odatdagagi tartibini o'zgartirib, sifatlanmishdan keyin keltiradi. Natijada sifatlovchi gapning boshqa bo'laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchining ma'nosi odatdagagi tartib bo'yicha qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rttiriladi, alohida ta'kidlanadi. Gapdagisi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismiga aylanadi.

Esda saqlang. Tartibi o'zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchilar ajratilgan bo'lakka aylanadi. Masalan, *Bu o'zbek yigit - tanti, mehribon.*

Ajratilgan bo'laklar: a)bir bo'lak holida keladi: *Boyagi yigitning Avazning, qo'li gul ekan;* b) birikmali bo'lak holida keladi. *Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Siddiqjonga hamroh bo'lib qoldi.*

Ajratilgan bo'laklar, gapdagisi qaysi bo'lakka oid ekanligiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: ajratilgan hollar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan to'ldiruvchilar.

Ajratilgan hol. Yuqoridagi mashqdan ma'lum bo'ladiki, holalar ham, to'ldiruvchilar ham, aniqlovchilar ham ajratilgan holda qo'llanishi mumkin.

Ajratilgan hol o'zidan oldin kelgan holning ma'nosiga aniqlik kiritadi, izohlaydi. Ajratilgan bo'lak vazifasida ko'pincha o'rinni, payt

hollari keladi: *Hu ana shu joyda, taxta ko 'priknning ostida, kichik bir buloq bor.* (A. Q.)

Ajratilgan to'ldiruvchi o'zidan oldin kelgan to'ldiruvchining ma'nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Vositasiz to'ldiruvchi ham, vositali to'ldiruvchi ham ajratilgan bo'lak sifatida qo'llanishi mumkin: *Nasihatimni, otangning so'zini, esingda tut. Xatni uning o'ziga, Muqaddasga, bering.*

Ajratilgan aniqlovechi shaxs yoki narsaning belgisini, kimga yoki nimaga qarashliligini ta'kidlab, ayirib ko'rsatish uchun qo'llanadi: *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi.* (A. Q.) *Bizning, o'quvchi yoshlarning, o'zimizga yarasha or-nomusimiz bor.*

Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan keyin keladi va o'ziga xos ohang bilan aytildi.

Ajratilgan izohlovchilar ko'pincha egaga taalluqli bo'ladi: *O'glim, qo'zichog'im, orom olib u xlabelapti, – dedi ona. Birozdan so'ng Hasan aka, fizika o'qituvchisi kirib keldi.*

Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanishi

1. Ajratilgan bo'lak ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi. *Bayroq, havo rang, mag'rur hilpirab turar.*

Ajratilgan aniqlovchilar aniqlanmishidan bevosita oldin kelgani uchun undan so'ng to'xtalish bo'lmaydi, vergul qo'yilmaydi. Fe'l bilan yonma-yon kelgan ravishdosh va ravishdosh qurilmalardan keyin ham tinish belgisi qo'yilmaydi: *Kechagi, ya'ni urushdan oldingi hayotning naqadar maroqli ekanini... bilgandir. Salim otaning, mashhur dehqonning bu tashabbusi keng quloch yoydi. Kimdir mehmonlarni ancha yergacha kuzatib qo'ydi.* (A. Q.)

Ajratilgan bo'lak *ya'ni, masalan* kabi so'zlar bilan bog'lanishi mumkin. Bunda vergul ana shu so'zlardan oldin qo'yiladi.

2. Agar ajratilgan bo'lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo'yiladi: *Paxtakor o'zbekman – zabardast, mag'rur; Sharqning mayog'i deb atalur yurtim.* (G'.G.).

3. Ajratilgan bo'lak gap orasida kengayib yoki uyushib kelsa ham har ikki yoki bir tomoniga tire yoki vergul va tire qo'yiladi: *Ismi barlos – sodda, dilovar – ov va qush ilmining piridir.* (O.)

4. Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo vergul bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarni o'zi

uyushgan bo‘lib, ichida vergul bilan ajratilgan bo‘lsa, ajratilgan bo‘lak boshqa bo‘laklardan tire bilan ajratiladi. Masalan: *Boboq xo‘roz – go‘shtdor, kelishgan – xo‘rozlarning eng sarasidir*,

Ajratilgan bo‘lak o‘zi izohlayotgan bo‘lakdan doimo keyin keladi va yozuvda vergul, tire va ba’zan qavs bilan ajratiladi.

Undalmali murakkablashgan gaplar

So‘zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini o‘z nutqingizga qaratish uchun ko‘pincha uning nomini aytib yoki *opa, aka, singil, tog‘a, amma, xola* kabi so‘zlar orqali murojaat qilasiz. Ba’zan tinglovchiga murojaat ifodalovchi so‘zni qo‘llash orqali unga shaxsiy munosabatingizni ifodalaysiz. Masalan, *Arpangizni xom o‘ribmanmi, uka. Do‘ndig‘im, o‘ynoqlab yura tur. Onajonim, balki bir kun Aytganningday bo‘lar to‘y*.

Eslab qoling. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalab, gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so‘z yoki so‘zlar birikmasiga undalma deyiladi.

Undalmalar so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni bildirganligi uchun u ko‘pincha shaxs bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanadi. Badiiy nutqda esa shaxs bildirmaydigan jonli va hatto jonsiz ptedmetlar ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan, bag‘rimni, ohang* (A. Oripov).

Undalmalar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi sababli uning o‘rni erkin bo‘ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko‘ra, alohida-alohida vazifa bajaradi. So‘zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtida undalma gap boshida keladi.

So‘zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, u vaqtida undalma gap o‘rtasi va oxirida keladi. Masalan, *Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim. Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am?!* (A. Oripov)... *Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo – Sen beshik emassan, dorsan, tabiat* (A. Oripov).

Juda muhim. Undalmalar nutq jarayoniga undalgan, diqqati jalb qilingan shaxs-predmetlar bo‘lgani uchun bosh kelishikda turadi. Bu jihatdan u egaga o‘xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farq qiladi.

Solishtiring: Ahmad keldi. – Ahmad ega. Kesim bilan grammatik bog‘langan.

Ahmad, keldi. Ahmad – undalma. Kimningdir kelganligi Ahmadga aytilyapti, kesim bilan grammatik bog‘lanmaydi. Undash ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Undalmalarda tinish belgilarining ishlatalishi

Undalmalar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi.

Gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalma dan so‘ng undov belgisi qo‘yilishi ham mumkin. Masalan, *Odamlar! Eshitmadim demanglar.*

Undalmalar gap boshida kelsa, undan so‘ng, o‘rtada kelsa, ikki tomonidan, oxirida kelsa, undan oldin vergul qo‘yiladi.

Undalmalarning undov so‘z va egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi hamda ularning uslubiyati

Undalmalar tinglovchining diqqatini kuchliroq jalb etish, emotsionallikni ta’minalash, hayron qolish ma’nosini ifodalash uchun ko‘pincha *ey, hoy, voy* kabi undovlar bilan birgalikda keladi. Bunday undovlar ko‘pincha undalma oldidan qo‘llaniladi. Masalan, *Hoy o‘rtoqjon, quloq soling so‘zimga.*

Ba’zan undalmadan so‘ng *ey, ho, ov, -u (-yu)* kabi undovlar ham ishlataladi: *Karimjon -u, (ov, ey, ho), bu yoqqa keling.* Bu vaqtida undalma orqali ifodalangan shaxs yoki predmet so‘zlovchidan uzoq masofada ekanligi ifodalanadi.

Eslab qoling. Undalmalar oldidan undov so‘zlar ishlataliganda, yozuvda undalma bilan undov so‘zlar orasiga hech qanday tinish belgi qo‘yilmaydi. Undov so‘zlar undalmadan so‘ng kelganda esa undov bilan undalma chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Undalmalar ko‘pincha I shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasini olib keladi. Bunday vaqtida undalma vazifasida kelayotgan tinglovchi so‘zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma’nolarini ifodalarydi. *Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.* (Uyg‘un)

Ayrim hollarda undalma nutqda tushib qolib, uning o‘rnida undovlar qo‘llaniladi. Masalan, *Hoylar, buyoqqa kelinglar. Hoy, chilim*

keltir. Undalma o‘rnida hoy kelganda tinglovchiga hurmatsizlik, men-simaslik ma’nosni ifodalanadi.

Ba’zan, er-xotin bir-biriga murojaat etganda III shaxs birlikdagi egalik qo‘sishimchasi bilan kelgan undalmadan foydalaniadi. Masalan, *Oyisi, keling. Dadajonisi, choy iching* kabi.

Undalmalar uyushib kelishi ham mumkin: *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o‘g‘illar, opa-singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz* kabi.

O‘ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar yoyiq **undalmalardir.** *Jahonga yuz tutgan O‘zbekistonim, sening har bir yutug‘ing mening yutug‘imdir.*

Undalmalar **gap boshida** ham, **oxirida** ham, ba’zan **gap o‘rtasida** ham keladi. **Gap oxirida** kelgan undalmalar ko‘proq muhabbat, **hurmat** (ba’zan, aksincha) ma’nolarini anglatadi. **Gap boshida** kelsa, **chaqiriq, murojaat** kabi ma’nolar uqiladi: *Onajon, qolganlar baxtiga faqat Olov chulg‘amasa basdir olamni. (A. O.) Asabga so‘z bermang, odamlar, aziz bolajonlar, yuzingiz doimo kulgi bilan yorishib tursin. Bosh turmushni to‘ri, ko‘nglimning jo‘ri, Bularning hammasi sen, Vatanim-onam.* (H. P.)

Kiritmalar (kirish so‘zlar) va ularning uslubiy xususiyatlari

Gap orqali ma’lum axborot ifodalanishi bilan birga, so‘zlovchining shu axborotga munosabati ham ifodalanadi. So‘zlovchining munosabati gapning kesim shakli (mayl shakli, bog‘lamalar va nol shakl) orqali hamda maxsus modal so‘zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, *albatta, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, to‘g‘ri, ehtimol.*

So‘zlovchi gap orqali bayon qilayotgan axborotga qanday munosabatda ekanligiga qarab yuqoridagi modal so‘zlardan muvofig‘ini qo‘llaydi: tasdiq munosabatini ifodalamoqchi bo‘lsa, *darhaqiqat, haqiqatdan ham, to‘g‘ri so‘zlaridan; ishonch munosabatlarini bildirmoqchi bo‘lsa, albatta, shubhasiz* kabi so‘zlardan, gumon ma’nosini ifodalamoqchi bo‘lsa, *ehtimol, balki so‘zlaridan; chama-taxmin ma’nosini ifodalamoqchi bo‘lsa, chamasni so‘zlaridan foydalananadi.*

Eslab qoling. So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarni ifodalovchi so‘zlarga **kiritmalar** deyiladi.

Kiritmalar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatic aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun u boshqa gap bo‘laklaridan farq qiluvchi alohida ohang (kichik to‘xtam) bilan talaffuz qilinadi va yozuvda vergul, tire ba’zan qavslar bilan ajratiladi.

So‘zlovchining o‘zi ifodalagan fikriga munosabat turlari va har qaysi ma’no munosabatini ifodalaydigan kiritmalarni quyidagi jadvalda ko‘ring.

Nº	So‘zlovchining o‘z fikriga munosabati	Shu munosabatni ifodalashga xoslangan so‘zlar	Misollar
1.	Ishonch	Albatta, shubhasiz, shaksiz	Bu iltimosingizni, albatta, bajaraman.
2.	Gumon	Balki, ehtimol, chamasi	Balki, kelib qolar.
3.	Tasdiq	To‘g‘ri, darhaqiqat, haqiqatan	To‘g‘ri, bu litsey binosi.
4.	Achinish	Afsuski, attang	Afsuski, men yordam berolmadim.
5.	Fikrga yakun yasash	Xullas, demak	Xullas, o‘qishlar yaxshi.
6.	Fikrning kimga qarashli ekanligi	Menimcha, uning ta’kidlashicha, fikri ojizimcha, aytishlaricha	Menimcha, eng yaxshisi shu.
7.	Fikrning tartibi	Birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor	Avvalo, men bunday demoqchi emasman.

Kiritmalarning uslubiy xususiyatlari. Kiritmalar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so‘zlovchi o‘zi qo‘llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini tanlab qo‘llaydi. Masalan, *shaksiz*, *shubhasiz*, *darhaqiqat*, *demak* so‘zlar kitobiy uslubga xos. Kitobiy uslubga xos bu so‘zlar o‘z ichida ichki xoslanishiga ega: *shaksiz*, *fikri ojizimcha* – badiiy uslubga xos; *bayon qilinishicha* – publitsistik uslubga xos. Shuning uchun har qaysi kirish so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish madaniy nutq belgisi sanaladi.

Kiritmalar quyidagicha ifodalanadi:

1) Ma'lum so'z turkumlaridan ajralib chiqqan so'zlar: *birinchi-dan, afsus, modomiki, shekilli, essiz, demak, darhaqiqat, baxtimizga*.

2) Ma'lum so'z turkumidan chiqmagan kiritma vazifasida ham, gap bo'lak vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar: *to'g'ri, rost, shubhaisiz, so'zsiz, aftidan, qisqasi, albatta, oxiri*.

Kiritmalar barcha bo'laklar kabi sodda va murakkab bo'ladi. Sodda kiritmalar so'zlar va so'z-gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa so'z birikmali, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi. Masalan, *Menimcha, ogil va sodiq er o'z rafiqasi uchun eng beba ho bezakdir (sodda kiritma)*. *Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga (H.O.) (murakkab kiritma)*.

Kiritma gaplar va ularning uslubiy xossalari. Nutq jarayonida so'zlovchi muayyan tushuncha yoki fikrga bog'liq qo'shimcha ma'lumot bergisi kelishi mumkin. Ana shu qo'shimcha ma'lumot ifodalovchi qism gapning asosiy qismidan to'xtam va pastroq ohang bilan talaffuz qilinadi.

Masalan, *Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimayotgan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi*.

Yuqoridagi gapda asosiy axborot *uni tanishsa kerak, bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi* qismi orqali ifodalanadi. *Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam yo'q* qismi esa gapning asosiy qismi tarkibidagi *tanishsa kerak* bo'lagi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotni ifodalaydi.

Juda muhim. Bu qo'shimcha ma'lumot ifodalovchi qism gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma'nosiga ziyon yetmaydi. Qo'shimcha ma'lumot beruvchi qism gapning asosiy qismlaridan past ohang bilan ajralib turibdi.

Gapning asosiy mazmuniga qo'shimcha axborot qo'shuvchi va alohida ohang bilan ajralib turuvchi qismga **kiritma gaplar** deyiladi.

Kiritma gaplar asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritma gaplar fikrga qo'shimcha ma'lumot bergenligi uchun, asosan, gap o'rtaida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi. Kiritma gaplar juda keng qo'llaniladigan soha dramatik nutqdir. Bu nutqda qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda (personaj nomi bilan uning nutqi oralig'idagi qavslarda) ko'rsatib boriladi.

GAP VA UNING GRAMMATIK BELGILARI

Siz o‘z fikr-mulohazalaringizni boshqalarga yetkazish uchun so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gap tuzasiz. So‘zlarni tilning ma’lum qoidalari asosida bir-biriga bog‘lab so‘z birikmasi va gap hosil qilish sintaktik hodisadir, ana shunday hodisalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi esa sintaksis deb yuritiladi.

Biz o‘z fikrimizni o‘zgalarga yetkazish uchun gaplardan foydalananamiz.

1. *Vatanimizni, milliy qadriyatlarimizni chin dildan sevamiz.*
2. *Mehnat qilgan rohat ko‘radi.*
3. *Men akademik litsey talabasiman.*

Yuqoridagi uchta gap uch xil fikrni, uch xil ma’noni ifodalaydi. Shu bilan birga ulardan ifodalanayotgan voqeanning zamoni, kim tomonidan bajarilayotganligi, bo‘lishsizligi aniq va noaniqligi kabi qator ma’nolar ham anglashiladi. Bu ma’nolar gap kesimining kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Birinchi gapda *sevamiz* kesimi tarkibidagi *-miz*, ikkinchi gapda *rohat ko‘radi* kesimi tarkibidagi *-a,-di*, uchinchi gapda *talabasiman* kesimidagi *-man* shakllari shaxs, zamon, bo‘lishli, aniqlik ma’nolarini ifodalaydi.

Bu ma’nolar kesimlik ma’nolari sanaladi. Shuningdek, yuqorida ma’nolar kesimning nol shakli orqali ham ifodalanishi mumkin.

Masalan: *Bu – litsey* deganda uchinchi shaxs, hozirgi zamon bo‘lishli, aniqlik ma’nolari maxsus shakllar bilan ifodalangan emas. Ohang ana shularning hammasini ifoda etadi. Maxsus shakllar qatnashmagan holda kesim nol shaklga ega bo‘ladi. Kesimlik ma’nolari maxsus shakllar yordamida hamda nol shakl yordamida ifodalanadi.

Demak, har qanday gapning asosida kesim yotadi.

Juda muhim. Gapning gap bo‘limgan boshqa sintaktik birliklar dan farqi ham kesimlik belgisidir.

Masalan: *Men keldim* – gap. Bu gapda *keldim* so‘zi grammatic shakllanib kesim vazifasida kelyapti. *Mening kelishim* – gap emas. *Kelishim* kesimlik shakliga ega emas va kesim vazifasida kelmayapti. Kesimlik belgisiga ega bo‘lgan har qanday so‘z gap bo‘lib kela oladi. Masalan: *Bahor... Go‘zalsan!*

Eslab qoling. Kesimlik belgisiga ega bo‘lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma’lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi.

So'zlovchi nutq jarayonida turli maqsadlarni amalga oshiradi: o'ziga ma'lum bo'lgan axborotni boshqasiga yetkazish maqsadi, o'ziga ma'lum bo'lmanan axborotni boshqasidan so'rash maqsadi, ma'lum voqeа-hodisani amalga oshirishga tinglovchini da'vat etish maqsadi va boshqalar. Ana shu maqsadlarning amalga oshishiga muvofiqlashgan gap shakllari (qoliplari) mavjud.

Eslab qoling. So'zlovchining so'zlash maqsadiga xoslangan gap turlariga gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari deyiladi. Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar to'rt turga bo'linadi:

1) darak gaplar; 2) buyruq gaplar; 3) so'roq gaplar; 4) istak gaplar.

Darak, so'roq, buyruq va istak gaplar egali va egasiz, yig'iq va yoyiq, sodda va qo'shma gap shaklida bo'lishi mumkin.

Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

Sizga ma'lum bo'lgan biror axborotni boshqalarga yetkazmoqchi bo'lsangiz, darhol shu maqsadingizga muvofiq keladigan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Bunday gaplarning xarakterli xususiyati shundaki, kesimi tasdiq yoki inkor shaklida turgan anqlik maylidagi fe'llar bilan, ba'zan tasdiq yoki inkor shaklidagi otlar bilan ifodalanadi; yuz bergen yoki yuz berishi mumkin bo'lgan voqeа-hodisani tasdiq yoki inkor qilish yo'li bilan ifodalandaydi; darak ohangi bilan talaffuz qilinadi; darak ohangi gap oxiriga qarab pasayib boradi; gap bo'laklari to'g'ri tartibda joylashgan bo'ladi.

Eslab qoling. Kesimi anqlik maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqeа-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi. Masalan, *Ana bu – bizning bog imiz.*

Yozuvda darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ba'zan darak gaplardagi gap bo'laklarining me'yordagi tartibi o'zgarishi mumkin. Masalan:

A) Urug'chilik instituti shahar markazidan hiyla chetda joylashgan.

B) Shahar markazidan urug'chilik instituti hiyla chetda joylashgan.

D) Hiyla chetda joylashgan urug'chilik instituti shahar markazi dan uzoqda edi.

Juda muhim. Darak gaplarning bunday uch xil gap bo‘laklarining tartibi gapning umumiy mazmunini bir xil ifodalasa ham, lekin uslubiy xoslanishlik va gap bo‘laklaridan birining ahamiyatlilik darajasini ifodalashga ko‘ra o‘zaro farqlanadi: a) va b) harflari bilan berilgan gaplar *kitobiy uslubga*, d) harfi bilan berilgan gap esa *so‘zlashuv uslubiga* xoslangan; e) harfi ostida berilgan gapda institutning qayerda joylashganligiga alohida ahamiyat beriladi.

Darak gaplar ma’lum axborotni tasdiq va inkor yo‘li bilan ifodalaydi. Kesimi bo‘lishsiz fe’llardan, *yo‘q, emas so‘zlarini* olgan sifatdosh va otlardan ifodalangan gaplar darak-inkor gaplar deyiladi.

Juda muhim. Ba’zan gapning inkor shakli orqali tasdiq ma’nosini ifodalananadi. Bunday vaqtida ikkita inkor shakl qo‘llanilib, gapga tasdiq ma’nosini beradi. Masalan, *o‘qimay qo‘ymayman*. Inkor shakl orqali ifodalangan tasdiq ma’nosini tasdiq shakl orqali ifodaiga tasdiq ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi.

Buyruq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

Ma’lum bir harakat holatni, voqeа-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka tinglovchini da’vat etmoqchisiz. Ana shu joyda kesimi buyruq maylidagi fe’llardan ifodalangan gaplardan foydalanasiz. Masalan, *Oldin o‘yla, keyin so‘yla*.

Kesimi buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalaniб buyruq-xitob ma’nolarini ifodalagan gaplarga *buyruq gaplar* deyiladi.

Buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalangan kesimi ba’zan tushib qolishi mumkin, lekin uning izi nutq vaziyatidan biiinib turadi. Masalan, *Hamma paxta terimiga!*

Buyruq gaplarning oxiriga yozuvda vergul, ba’zan undov belgisi qo‘yiladi.

Buyruq gaplarning kesimi aniqlik nisbati, ikkinchi shaxs, buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalananadi. Masalan, *Chek mang!*

Ba’zan majhul nisbat, uchinchi shaxs, buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalaniши ham mumkin. Masalan, *Ishga qabul qilinsin.*

Juda muhim. Ayrim hollarda uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan, *chekmang o‘rnida chekilmasin. Uyga kiring*

o‘rnida *uyga kirilsin*. Bunday vaqtda iltifot, mulozamat bildirish, kesiatiq kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Buryuq gapning kesimi odatda gap oxirida keladi. Ba’zan buyruqni kuchaytirish, do‘q-po‘pisa ma’nosini ifodalangananda kesim gap boshida keladi. Masalan, *Qo ‘lingizni oling o‘rniga oling qo ‘lingizni*.

Istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

Nutq jarayonida boshqalarga o‘zingizning istak xohishingizni bayon qilgingiz kelsa, ana shu maqsadingizga muvofiq kesimi shart istak maylidagi fe’l bilan ifodalangan gap shaklini tanlaysiz. Masalan, *Toshkentga borsam, Mustaqillik maydonini ko ‘rsam*.

Kesimi shart-istak maylidagi fe’llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi. Yozuvda islak gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi.

So‘roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

O‘zingizga noma’lum bo‘lgan voqeal -hodisa haqida axborot olish uchun tarkibida so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi bo‘lgan gap shaklini tanlaysiz. Masalan, *Uyingizga kimdir keldi, lekin bu shaxsning kimligini bilmaysiz. Ana shu shaxs haqida aniq ma’lumot olish uchun kim keldi? deb so‘raysiz va so‘rog‘ingizga kelgan shaxs haqida ma’lumot olasiz*.

So‘rash maqsadida foydalanadigan gapingiz tarkibida, albatta, so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi mavjud bo‘ladi.

So‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi yordamida ifodalananib, so‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan voqeal-hodisa haqida axborot olib maqsadida qo‘llaniluvchi gaplarga *so‘roq gaplar* deyiladi.

So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar bilan so‘roq ohangi yordamida ifodalangan so‘roq gaplar qanday javob talab qilish bilan farq qiladi. So‘roq olmoshlari ma’nosiga muvofiq aniq javobni talab etadi.

Masalan: – *Guruhingizda kim yaxshi o‘qiydi?*

– *Fotima*.

So‘roq yuklamasi so‘roq olmoshlari ishtirok etgan so‘roq gaplar esa *ha* yoki *yo ‘q* javobini talab etadi. *Ha* va *yo ‘q* so‘zlarini javob tarzida qo‘llab, so‘ngra unga izoh beriladi. Masalan:

- *Sen akademik litseyda o ‘qiysanmi?*
 - *Ha, men akademik litseyning bitiruvchi o ‘quvchisiman.*
- Yoki:
- *Bu litseymi?*
 - *Ha, bu litsey.*

So‘roq gaplar oxiriga doimo so‘roq belgisi qo‘yiladi.

Ba‘zan darak ma’nosini ifodalash uchun so‘zlovchi darak shaklidan emas, balki so‘roq gap shaklidan foydalanadi. Masalan: *Buni kim bilmaydi?*

Juda muhim. Bunday so‘roq gaplar javob talab qilmaydi. Javobi shu gapning o‘zida bo‘ladi. So‘roq gap kesimi bo‘lishsiz fe’llar bilan ifodalangan bo‘lsa, tasdiq darak gap ma’nosini; aksincha, bo‘lishli fe’llar bilan ifodalangan bo‘lsa, inkor gap ma’nosini bildiradi. Masalan, *Bu daraxtni kesishga kim jur’at qiladi? (Bu daraxtni kesishga hech kim jur’at qilolmaydi).*

So‘roq gap orqali ifodalangan darak ma’nosini darak gap orqali ifodalangan darak ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi.

Shuningdek, so‘roq gap shakli orqali buyruq ma’nosini ham ifodalaniishi mumkin. Masalan, *Yurmaymizmi? (“yuring” ma’nosida)*

So‘roq gap orqali ifodalangan buyruq ma’nosini buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi.

Darak ma’nosini ifodalagan so‘roq gaplarga so‘roq-darak gaplar, buyruq ma’nosini bildirgan so‘roq gaplarga esa so‘roq-buyruq gaplar deyliladi.

So‘roq gaplar ikki guruhga bo‘linadi: 1) sof so‘roq gaplar javob talab qiladigan gaplardir: *Siz ertaga kelasizmi!* 2) ritorik so‘roq gaplar so‘roq gaplarning javob talab qilmaydigan turi bo‘lib, javobi o‘z ichida yashiringan va barcha uchun ma’lum bo‘ladi. *Men uning to’satdan kelib qolishini qaydan bilay?* Ritorik so‘roq gaplar quyidagi ma’nolarni ifodalashi mumkin: *Bu Vatanda nimalar yo‘q (tasdiq).* *O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga (inkor).* *Bu nimasid?! (taajjub)* *Meni tashlab ketmaysanmi?! (tashvish)* *Maqsad nima, maqsad?! (g‘azab)* *Paxtalar ham yaxshi ochilmagandir? (gumon)* *To-kaygacha ezilamiz, ota?! (kuchli hayajon).*

His-hayajon gaplar. *Mustaqilligimiz abadiyy yashasin!* (ko‘tarinki ohang bilan). *Mustaqilligimiz abadiy yashasin.* (tinch ohang bilan)

Ma'lum voqeа-hodisani hech qanday ehtirossiz oddiy bayon qilish bilan birga, ba'zan ehtiros, hayajon qo'shilgan holda ifoda qilinadi. Yuqorida keltirilgan bиринчи gap oddiy sodda gap bo'lsa, ikkinchi sodda gap his-hayajon qo'shilgan gapdir.

His-hayajonning qatnashish yoki qatnashmasligiga ko'ra gaplar ikki guruhgа bo'linadi: 1) his-hayajonsiz gaplar. Bularga odatdagи darak, buyruq, so'roq, istak gaplar kiradi; 2) his-hayajon gaplar (undov gaplar).

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra yuqoridagi to'rt xil turiga nutq jarayonida so'zlovchining his-hayajoni qo'shilish bilan bu gaplarni his-hayajon gapga uylantiradi. His-hayajon gaplar undov gaplar atamasi bilan yuritiladi.

His-hayajonsiz gaplar

1. *Poyezd keldi.*
2. *Uyingiz nurga to 'lsin.*
3. *Dalaga chiqmaysizmi?*
4. *Vatanim bog'larga burkansa.*

His-hayajon (undov) gaplar

- Keldi poyezd!*
Nurga to 'lsin uyingiz!
Chiqmaysizmi dalaga!
Eh, bog'larga burkansa Vatanim!

Eslab qoling. His-hayajon bilan aytigan gaplar undov gap deyiladi.

His-hayajon (undov) gaplarda kesim ko'pincha gapning oldida keladi, tarkibida ko'pincha *eh, oh* singari undov so'zлari ishtirok etadi va kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi. Shuning uchun yozuvda undov gapdan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Agar his-hayajon so'roq gapga qo'shib, uni undov gapga aylantirsa, avval so'roq belgisi, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi. Masalan, *Qo'shiqdan kim bahra olmaydi.*

Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari

Nutqimizdagi gaplar bir yoki ikki grammatik asosdan, ba'zan esa ikkitadan ortiq grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Shu jihatdan gaplar ikkiga bo'linadi: 1) sodda gaplar; 2) qo'shma gaplar.

Grammatik asosi bitta bo'lib, ma'lum bir fikrni (ba'zan unga qo'shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar sodda gap deyiladi: *Shahnoza o'qidi. Shahnoza kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni hayajon bilan o'qidi* kabi.

Ikki yoki undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkab-roq fikr anglatuvchi gap qo'shma gap deyiladi: *Shu payt eshik ochildi va hovliga harbiycha kiyangan bir yigit kirib keldi.* (I.R.) Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar. (*Maqol*) *Odam borki, odamlarning naqshidir.*

Fikrimizni birgina kesim orqali ham bayon qila olamiz. Shuning uchun ham gapning eng kichik ko'rinishi faqat kesimdan iborat bo'lgan gaplardir.

Kesimning ma'nosini kengaytirish ehtiyoji tug'ilganda, boshqa bo'laklardan foydalaniladi. Sodda gap tarkibidagi barcha bo'laklar kesim atrofida birlashadi. Qo'shma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq (uyushmagan) kesim bo'ladi.

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etgani yoki etmaganiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) yig'iq gaplar; 2) yoyiq gaplar.

Eslab qoling. Faqat kesimdangina tashkil topgan gaplar yig'iq gaplar deyiladi. Masalan: *keldi, kuz kabi.*

Kesimdan tashqari boshqa bo'laklar ham ishtirok etgan gaplarga yoyiq gaplar deyiladi. Masalan, *keldi bahor, gul bahor.*

Dialogik nutqda fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan barcha bo'laklar ishtirok eta bermaydi. So'zlashish jarayoni doimo ixchamlikka, ortiqcha so'zlardan qutilishga amal qiladi. Shuning uchun so'zlashish jarayonida oldingi gaplardan yoki so'zlashish vaziyatidan bilinib turgan so'zlar ko'pincha ishlatilmaydi, lekin uning mazmuni oldingi gaplardan va nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan,

-*Isming nima?*

-*Yodgor.*

Keyingi gapda *mening ismim* so'zlarining qo'llanilishi ortiqcha. Chunki uning mazmuni yuqorida gapdan bilinib turadi

Nutq jarayonida fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan so'zlarining qo'llanilish yoki qo'llanilmasligiga ko'ra gaplar ikki turga bo'linadi. 1) To'liq gaplar. 2) To'liqsiz gaplar

Fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan barcha bo'laklar ishtirok etgan gaplar *to'liq gaplar* deyiladi. Masalan, *Yurtimiz kundan-kun go'zallashib bormoqda.*

Fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan so'zlarining ba'zilari matn yoki nutq vaziyati taqozosи bilan ishlatilmagan gaplar *to'liqsiz gaplar* deyiladi. Masalan,

- *Gulni kimga terding?*
- *O'qituvchimga.*

Egasi yashiringan gap

Egasi yashiringan gaplar ikki turlidir:

1. Egasi (shaxsi) ma'lum.
2. Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar.

Egasi ma'lum gaplarda gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shaklida bo'ladi.

Egasi umumlashgan gaplarda gapning umumiyl mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi II va III shaxs shakllarida keladi: *Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. Avtobusga orqa eshikdan kiriladi (kirishadi).*

Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasmrusumlarni bayon etuvchi gaplarda, asosan, ega umumlashgan bo'ladi.

Gapda harakatning bajaruvchisi ta'kidlanishi zarur bo'lgan holdarda ega tushirilishi mumkin emas.

Ega-kesim qurilishli iboralarda egani hech qachon tushirib qoldirish mumkin emas.

Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga ko'ra ikki xil bo'ladi: egasi mavjud gaplar - shaxsli gaplar (*Biz yangi filmni tomosha qildik*) va egasi ishtirok etmagan gaplar – shaxssiz gaplar (*Yangi filmni tomosha qildik*).

Egasiz gaplar

Egasiz gaplarda ega umuman bo'lmaydi va gap ma'nosidan anglashilmaydi; egasiz gaplar shaxsi noma'lum gaplar, atov gaplar, so'z gaplar kabi uch turga bo'linadi.

Shaxsi noma'lum gaplarda kesim fe'l bilan ifodalananadi va ishharakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimning eng muhim belgisi uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni ifodalab

bo‘lmaydi. Masalan, *topshiriqni bajarish shart-o ‘ylamasdan berilgan topshiriqni bajarish shart emas*.

Atov gaplar so‘zlovchi ko‘z o‘ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalantirishga, uning xotirasida yoki xayolida ular bilan aloqador bo‘lgan voqea-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviriy vositadir. Atov gaplar otlar bilan ifodalanib, asosan aniqlik maylining hozirgi-kelasi, ba’zan esa o‘tgan zammon shakllaridagina keladi. Atov gaplar bitta so‘zdan iborat bo‘lishi ham, aniqlovchilar bilan kelishi ham mumkin. Masalan, *Amu-Buxoro kanali. Qaqragan ming-ming gektar yerlarga hayot suvi olib kelgan quadratli inshoot*.

So‘z-gaplar modal so‘z-gaplar, undov so‘z-gaplar, tasdiq-inkor so‘z-gaplar, taklif so‘z-gaplar kabi ma’noviy turlarga bo‘linadi.

Bilib oling. Bir so‘zdan iborat bo‘lib, tarkibga ajralmaydigan, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega bo‘limgan gaplar so‘z-gaplar deyiladi. Ular tasdiq, inkor, so‘roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, matn bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘z-gaplar, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarini ifoda etgani uchun ham ko‘proq dialogik va ba’zan monologik nutqqa xosdir. Masalan:

- *Endi so‘zingizdan aynamang, xo‘pmi?*
- *Mayli, – dedi Fazliddin. (O.)*
- *Yo‘q, – dedi Otabek, lekin uning taajjubi uy egasiga ochiq ko‘rinib turar edi.*

Yo‘lchi eshikchani ochib kirdi:

– *Assalomu alaykum, hormang, ota! (O.)*

Kishilar o‘rtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir so‘z yoki ibora (birlilik)lar so‘z-gaplar vazifasida qo‘llanadigan bo‘lib qolgan: *assalomu alaykum, yoqimli ishtaha, marhamat, salomat bo‘ling, qulluq, osh bo‘lsin, yaxshi boring, xush ko‘rdik, labbay, jonim bilan, bajonidil* kabi.

Yoyiq atov va so‘z-gaplar

Atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan bermalol kengayadi. Atov gap kengaygan harakat nomi birikmalarini bilan ham ifodalaniishi mumkin. So‘z-gaplarning kengayishi juda qiyin va o‘ta chegaralangan. Ba’zan so‘z-gaplar takrorlanib qo‘llanadi:

Ergash tushunmadi:

- *Nima-nima?* – *dedi ko 'zini katta ochib.*
- *Biror gap eshitdingizmi?* – *so 'radi Jo 'raxon.*
- *Yo 'q-yo 'q!* (*As.M.*)

Dialogik *nutqda ha, yo 'q, shaksiz, shubhasiz, ofarin, yashang, to 'g 'ri, ehtimol, albatta* kabi so'zlarning o'zi alohida gap bo'lib keladi va oldingi gapning mazmuniga so'zlovchining munosabatini bildiradi.

Eslab qoling. *Ha, yo 'q so'zlaridan hamda modal so'zlardan tashkil topgan, oldingi gap mazmuniga so'zlovchining munosabatini ifodalovchi gaplarga so 'z-gaplarga deyiladi.*

Qo'shma gap. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar va qo'shma gap turlari

O 'g 'ri o 'g 'riligini qo 'ysa qo 'yadi, ...oq poshsho zolimligini qo 'ymaydi. (M.Ismoiliy)

Gapni gap qilib turgan asosiy belgi uning kesimlik (predikativlik) belgisi ekanligidan xabaringiz bor. Gapning kesimlik belgisi kesimlik ma'nolarini shaxs-son, tasdiq, inkor, modal (mayl)lik ifodalovchi kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Kesimlik ma'nosini ifoda etgan har qanday sintaktik birlik gap sanaladi. Masalan, *Borma+sa(y)+di+m. Ko 'm-ko 'k dala.* Bu gaplarning birinchesida kesimlik ma'nolari alohida-alohida kesimlik shakllari: tasdiq-inkor ma'nosini -ma shakli orqali, modal (mayl) ma'no -sa(y) shakli orqali, zamon ma'nosini -di shakli orqali, skaxs ma'nosini esa -m shakli orqali ifodalanmoqda. Ikkinci gapda ham shu kesimlik ma'nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma'no), hozirgi zamon, III shaxs ma'nolari anglashiladi, lekin ular moddiy ko'rsatkichlarga ega emas. Nol ko'rsatkich orqali umumiy tarzda ifodalangan. Ana shu ma'nolar mavjudligi uchun ham u sintaktik birlik gap sanaladi.

Gap uchun muhim belgi sanalgan kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo'shma gaplarga bo'lishiga asos bo'ladi.

Bitta kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap sodda, ikki va undan ortiq kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap esa qo'shma gap sanaladi.

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topadi.

Juda muhim. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatik munosabati deganda, shu sodda gaplarning bir-biri bilan ma'lum

grammatik vositalar (bog‘lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog‘lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi tushuniladi.

Har qanday sodda gap o‘zaro bog‘lanib, qo‘shma gapni hosil qila bermaydi. Faqat o‘zaro mazmuniy muvofiq bo‘lgan gaplargina bir-biri bilan bog‘lanib, qo‘shma gapni tashkil etadi. Masalan, *Qor yog‘di va gullar ochildi; Bahor keldi, paxta terimi boshlandi* deb bo‘lmaydi, chunki bu gaplar bir-biri bilan mazmunan muvofiq kelmaydi.

Qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar alohida qo‘llangan sodda gaplar bilan teng emas. Alohida qo‘llangan sodda gaplar grammatik, mazmun va ohang tugalligiga ega bo‘ladi, ammo qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa bunday xususiyatga ega emas. Ularning har biri garchi gapning asosiy belgisini o‘zida namoyon etsa ham, grammatik, mazmun va ohang tugalligi qo‘shma gapning oxirida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida-alohida gaplar emas, balki bir umumiy gapning qismlari sanaladi. Bir qismning ohangi ikkinchi qismni talab qilib turadi. Masalan, *Suv keldi – nur keldi*.

Eslab qoling. Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o‘zaro grammatik, mazmun va ohang tomondan bog‘lanishidan tashkil topgan sintaktik butunlik qo‘shma gap deyiladi.

Qo‘shma gap tarkibida sodda gaplar o‘zaro quyidagi grammatik vositalar yordamida bog‘lanadi:

1. Bog‘lovchilar a) teng bog‘lovchilar (*va, hamda; ammo, lekin, biroq; yo, yo...yo, dam... dam* va b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar (*shuning uchun, chunki, -ki* va b.)

2. Bog‘lovchi vazifasidagi vositalar: a) *bo ‘lsa, esa, deb so‘zları;* b) *-u(-yu), -da, -ki* yuklamalari; c) nisbiy so‘zlar; d) *shuning uchun, shu tufayli, shu sababli* singari ko‘makchili qurilmalar; e) shart mayli qo‘shimchasi (*-sa*).

3. Ohang: *Qor yog‘di-rizq yog‘di.*

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o‘zaro qanday bog‘lovchi vositalar yordamida grammatik bog‘lanishga ko‘ra qo‘shma gaplar uch guruhga bo‘linadi:

1. Bog‘langan qo‘shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar sanaladi.

Tahlilda bog'lovchisiz qo'shma gaplar bir-biri bilan to'g'ri chiziq bilan bog'langan ikki to'rtburchak, orqali ifodalananadi. Bu bog'lovchisiz qo'shma gap qolipi sanaladi.

Eslab qoling. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi. 1. Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqealarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi. (*Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini supurdilar*). 2. Qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi (*Hamal keldi – amal keldi*). 3. Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganda, ular orasiga ikki nuqta qo'yiladi (*Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirot etamiz*). 4. Qo'shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo'limgan yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqealarni bildirgan va bir necha tinish belgilari qo'llangan hollarda nuqtali vergul ishlatiladi (*Xadicha xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'pdi, duo qildi; irim qilib o'zi kuzatgani chiqmadi*). (A.Qahhor)

Ohang yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtasida turli xil ma'no munosabatlari bo'ladi. Masalan, **Zidlik:** *Ko'priki biz qurdik, dushmanlar o'tdi. Sabab:* *Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi. Payt:* *Dalasida o'smas tikonlar, cho'llarida chopmas ilonlar va boshqalar.*

Bunday ma'nolar bog'langan va ergash gapli qo'shma gap qismlari o'rtasida ham mavjudligidan xabaringiz bor. Ana shu ma'no umumiyligi asosida bunday qo'shma gaplar o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *Ko'priki biz qurdik, dushmanlar o'tdi. Ko'priki biz qurdik, lekin (ammo) dushmanlar o'tdi.*

Yuqoridagi ikkita qo'shma gap qismlari o'rtasida bir xil ma'no munosabati – zidlik (birinchi gap ma'nosi bilan ikkinchi gap ma'nosi

o‘rtasida zidlik bor) munosabati ifodalangani uchun bu ikki gap bir-biri bilan sinonim sanaladi.

Ular o‘rtasidagi farq faqat qo‘shma gap qismlari o‘rtasida qanday bog‘lovchi vositaning ishlatalishidadir. Shuningdek, *Anor so‘ylar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar*. Qo‘shma gap qismlari o‘rtasida payt munosabati ifodalangan. Qo‘shma gap tarkibidagi ikkita sodda gap bir paytda ro‘y berayotgan ikkita voqeа-hodisani (birinchisi – Anorning so‘zlashi, ikkinchisi – Zaynab qalbining qaltirashi) ifodalaиди. Ikkala qism va bog‘lovchisi qatnashmagan holda ohang yordamida ham bog‘lanishi mumkin. *Anor so‘ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar*. Bu vaqtida bog‘langan qo‘shma gap emas, balki bog‘lovchisiz, ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap hisoblanadi.

Qo‘shma gap qismlari o‘rtasida sabab-natija (bir sodda gap sababni, ikkinchisi esa undan kelib chiqqan natijani bildiradi) munosabati mavjud bo‘lsa, unday qo‘shma gaplar ergash gapli qo‘shma gap shaklida ham, bog‘langan qo‘shma gap shaklida ham, ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap shaklida ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *Paxtalar qiyg‘os ochildi, terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg‘os ochildi, shuning uchun terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg‘os ochildi va terim avjiga chiqdi*.

Yuqoridagi uchta qo‘shma gap sabab-natija umumiy ma’nosini bilan o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lsa ham, lekin qo‘shma gapning qaysi turiga mansubligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Ko‘rinadiki, bir xil ma’noni turli qo‘shma gap shakllari orqali ifodalash mumkin. Shuning uchun ulardan nutqda o‘rinli foydalana olish nutq madaniyatiga ega bo‘lishda katta ahamiyatga ega.

Bog‘langan qo‘shma gap

Qismlari teng bog‘lovchilar, *bo‘lsa, esa so‘zлari, -u(-yu), -da* yuklamalari yordamida bog‘langan gaplar bog‘langan qo‘shma gaplar hisoblanadi. *Sarbon shundog‘ dedi-da, quchog‘ini ochib, Abu Bakr tomon keta boshladi*.

Biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar

Biriktiruv bog‘lovchisi qo‘shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarda bo‘lgan qismlarini bog‘lab keladi. Qismlari o‘rtasida

sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan *natijada* so'zini qo'yish mumkin bo'ladi. Masalan, *Bahor keldi va gullar ochildi*. – *Bahor keldi* (va) *natijada gullar ochildi*.

Eslab qoling. -*u*, -*yu*, -*da* yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilar bajargan vazifalarini bajaradi.

Zidlov bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar

Zidlov bog'lovchilar bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodala-ydi. Zidlov bog'lovchilar qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi. Masalan, *Dilimizda orzu balandrog edi, lekin ko'kram biroz noqulay keldi*.

Eslab qoling. -*u*, -*yu*, -*da* yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

Ayiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar

Ayiruv bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalagan voqe-a-hodisalarining galma-gal ro'y berishini yoki ularning faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.

Yo (yoki) bog'lovchisi yolg'iz holda ham, takror holda ham qo'llanishi mumkin. Qolgan ayiruv bog'lovchilar takror holda qo'llaniladi va yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi: *Goh osmonni tutib ashula yangraydi, goh allaqayer-dan garmon tovushi eshitiladi*.

Bo'lsa, esa so'zлari yordamida bog'langan qo'shma gaplar

Bo'lsa, esa so'zлari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini bildiradi. Bo'lsa, esa so'zлari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi. Masalan, U kim bo'lsa bo'lsin, men esa arxitektor bo'laman.

Ergashtiruvchl bog'lovchili qo'shma gaplar va ularning tasnifi

Qismlari o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchi yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida tobe bog'langan qo'shma gaplarga ergashgan qo'shma gaplar deyiladi.

Ergash gapli qo'shma gaplar bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Mazmuni izohlanayotgan qism *bosh gap*, bosh gap mazmunini izohlaydigan va ko'pincha tobe shaklda turgan qism esa *ergash gap* sana-ladi. Ergash gap bosh gap talab etgan ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, *Men xursandman, (nima sababli), chunki sen maqsadingga yetding. Shuni unutmangki, siz kelajagi buyuk davlat farzandisiz.*

Yuqorida keltirilgan qo'shma gaplar bilan ularning o'ng tomonidagi sodda gaplar bir xil ma'noni ifodalaydi, shuning uchun ular bir-biri bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Qo'shma gapda ma'no ta'kidlanadi.

Eslab qoling. Ergashgan qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra so'z birikmalariga o'xshaydi. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar nechta bo'lishidan qat'i nazar, doimo ikki qismdan – hokim va tobe so'zlardan tashkil topadi.

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

1) ergashtiruvchi bog'lovchilar; 2) ko'makchili qurilmalar (*shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* va b.); 3) yuklamalar (-*ki*); 4) nisbiy so'zlar (*kim – o'sha, nima – shu, qayer – shu yer* va b.); 5) *deb* so'zi va b.

Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti yoki qiyosini bildirgan ergash gaplar bosh gapga *sabab* (chunki, negaki), *maqsad* (toki), *shart* (agar, agarda, basharti, mabodo), *qiyoslash-chog'ishtiruv* (go'yo, go'yoki, xuddi) ergashtiruvchi bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Sabab, maqsad, qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari ergash gap boshida qo'llanadi va ergash gap bosh gapdan so'ng keladi. Bunday vaqtida yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. Shart bog'lovchilari gap boshida keladi. Ergash gap kesimi shart maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunday ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi. Ko'pincha shart bog'lovchilari qo'llanmasa ham, shart mayli shakli qo'shma gap qismlarini bog'layveradi.

Zero, zeroki, zotan bog'lovchilarida ko'tarinkilik, kitobiy uslub bo'yog'i mavjud.

Ergashtiruvchi bog‘lovchi o‘zining ma’nosiga mos ravishda tobe gapga sabab, maqsad, natija, shart, o‘xshatish kabi ma’nolarni beradi. Shuning uchun tobe gapli qo‘shma gaplar “sabab tobe gapli qo‘shma gaplar”, “maqsad tobe gapli qo‘shma gaplar” kabi ma’noviy turlarga bo‘linadi.

Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* singari ko‘makchili qurilmalar vositasida bog‘lanadi: *Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo‘l hosil oldik.*


Shuning uchun, shu sababli, shu bois, natijada, oqibatda, -ki / -kim bog‘lovchilari hokim gap tarkibida kelib, bu gapga tobe gapning bog‘lanib kelayotganligiga ishora qilib turadi. Agar, agarada, chunki, go‘yo, bamisoli, zero (zero), deb, toki, zotan ergashtiruvchi bog‘lovchilari tobe gap tarkibida keladi va uni hokim gapga bog‘laydi.

Shuning uchun, natijada, oqibatda, shu sababli, shu bois kabi bog‘lovchilar hokim gap boshida kelganda, matnda sabab tobe gap hokim gapdan nuqta bilan ajratilishi mumkin. Bu yil yomg‘ir ko‘p bo‘ldi. Shuning uchun daryo va soylarda toshqin xavfi bor.

Deb so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gaplar

Bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini, sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko‘pincha *deb so‘zi* yordamida bog‘lanadi va ergash gaplarning kesimi III shaxs buyruq mayli shaklidagi fe’llar bilan ifodalanadi. Bunday gaplar tarkibidagi *deb so‘zi* uchun ko‘makchisi bilan ma’nodosh sanaladi, shuning uchun bir-biri bilan erkin almashina oladi. Ergash gaplar yozuvda vergul bilan ajratiladi.

Deb yarim bog‘lovchisi buyruq va shart mayli, kelasi zamon fe’llidan keyin kelsa, *maqsad* ma’nosini, o‘tgan zamon fe’llidan keyin kelsa, *sabab* ma’nosini bildiradi:



Agar, garchi, chunki, go'yo, bamisoli, zero, zotan kabi bog'lovchilar tobe gap boshida, shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, natijada, oqibatda kabi bog'lovchilar hokim gap boshida, deb bog'lovchisi tobe gap oxirida, -ki / -kim bog'lovchisi esa hokim gap oxirida keladi.

Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar

Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalangananda, shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita sanaladi. Bunday ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik shartini, paytini bildiradi. Yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. *Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi.*

Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga -ki yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bu yuklama bosh gapkesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. Ba'zan bu bo'lak qo'llanmasligi ham mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi. *Shuni angladimki,inson qobiliyati cheksiz ekan.*

Nisbiy so'zli (havola bo'laklı) ergashgan qo'shma gaplar

Ergash gap tarkibida qo'llanuvchi kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer kabi so'roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo'lib keluvchi *shu, o'sha, shuncha, shunchalik, shundai* kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo'llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi uchun nisbiy so'zlar hisoblanadi. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

1) *Kim.... -sa, u.....-di.*

2) *Kim sa, uni....-di.*

Qo'shma gap tarkibida faqat ergash gapgina bosh gapga ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanib qolmaydi. Ko'pincha bosh gap tarkibida ham ergash gapni taqozo etadigan, uning mavjud bo'lishiga ishora (havola) qiladigan ko'rsatish olmoshlari ishtirot et-

di. Ergash gap shu olmoshning ma'nosini izohlaydi, uning ma'nosiga teng keladi.

Masalan, *Shunday odamlar borki, odamlarning naqshidir. Toleim shulki, Vatanda bir guliston tanladim. Kim ko 'p kitob o 'qisa, o 'sha ko 'p biladi.*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda havola bo'lak qanday gap bo'lagi vazifasida kelsa, ergash gap ham shunday gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

Yuqoridagi gaplarda *shunday, shulki, o 'sha* bo'laklarining mazmuni ergash gap orqali izohlanadi. Ular ergash gapga ishora qildi. Shuning uchun bunday bo'laklar havola bo'laklar sanaladi. Bunday bo'laklar qatnashgan qo'shma gaplar esa havola bo'lakli qo'shma gaplar deyiladi.

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapga havola bo'lakdan tashqari, *-ki* va *-sa* shakllari yordamida bog'lanadi. Bularidan *-ki* bosh gap kesimi oxiriga, *-sa* esa ergash gap kesimi oxiriga qo'shiladi. *Solishtiring:*

1) *shu... -ki, ... -di*

2) *kim...-sa, ...-di*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarni doimo sodda gapga aylantirish mumkin, chunki qo'shma gapning ergash gap qismi bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining umumiyligi mavhum ma'nosini konkretlashtirish, izohlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniiga qo'yish mumkin bo'ladi. Natijada, ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bajarigan gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Qo'shma gap esa sodda gapga aylanadi. Masalan, *Kim mehnatdan qochmasa, unga tole kulib boqadi. Mehnatdan qochmaganga tole kulib boqadi.*

Ko'rindiki, bir axborotni ikki xil gap-sodda va qo'shma gap orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Garchi gapning bu ikki turi bir xil mazmun ifodalash jihatdan umumiyligini tashkil etsa ham, lekin ular ma'noni ta'kidlash, uslubiy xoslanish jihatidan farq qiladi. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos va sodda gaplardagiga nisbatan ma'no ta'kidlangan bo'lsa, sodda gaplar uslubiy betaraflik xususiyatiga ega bo'ladi.

Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gap bilan ma'nodoshligi

Tarkibida ko'rsatish olmoshi mavjud bo'lган ergashgan qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo'lagi o'rniga qo'yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin. Masalan, 1. *Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi. Ko'p o'qigan ko'p biladi.* 2. *Shuni bilingki, kenga keng, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga torligini bilib oling.*

Kesim ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga kesim ergash gap deyiladi.

Kesim ergash gap bosh gapga ko'rsatish olmoshi tarkibidagi -ki yuklamasi yordamida bog'lanadi: *Toleim shulki, jahonda bir guliston tanladim.*

Ega ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibida ega vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga ega ergash (tobe) gap deyiladi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar (*kim – o'sha, nima – o'sha yer kabi*) yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi -ki yuklamasi yordamida bog'lanadi.

Gap qismlari nisbiy so'zlar yordamida bog'langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismlari -ki yordamida bog'langanda esa ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

Eslab qoling. Ba'zan bosh gapning egasi vazifasidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi: *Qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.*

Hol ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifo-

dalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi kabilarni bildirgan ergash gaplarga hol ergash (tobe) gap deyiladi.

Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so‘zlar, shart mayli shakllari; sabab, maqsad, shart bog‘lovchilari; *deb* so‘zi yordamida bog‘lanadi.

Hol ergash gaplar holning ma’no turlariga muvofiq o‘z ichida payt, o‘rin, sabab, maqsad, shart, miqdor-daraja ergash gaplar singari bir necha turlarga bo‘linadi.

To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar

Bosh gap tarkibida to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi ergash gaplarga to‘ldiruvchi ergash gaplar deyiladi. To‘ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so‘zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo‘llaniluvchi -*ki* yuklamasi yordamida bog‘lanadi.

Gap qismlari nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe’llar bilan ifodalanadi va to‘ldiruvchi ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismlari -*ki* yordamida bog‘langanda esa to‘ldiruvchi ergash(tobe) gap bosh gapdan keyin keladi.

Eslab qoling. Ba’zan bosh gapning to‘ldiruvchisi vazifasidagi ko‘rsatish olmoshi qo‘llanmasligi mumkin, ammo uning o‘rni bilinib turadi. *Bilingki, jim turib salomat bo‘lish, gapirib malomatga qolish-dan afzal.*

Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar

Bosh gap tarkibida aniqlovchi vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi ergash gapga aniqlovchi ergash gap deyiladi.

Aniqlovchi ergash (tobe) gaplar bosh gapga nisbiy so‘zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo‘llanuvchi -*ki* yuklamasi yordamida bog‘lanadi. Birinchi holatda ergash gap bosh gapdan oldin ikkinchi holatda keyin keladi.

Eslab qoling. Ba'zan bosh gapning aniqlovchisi vazifasida kelgan *shunday, shunaqa* kabi so'zlar qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi: *Odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar.*

Murakkab qo'shma gaplar

Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi murakkab qo'shma gap sanaladi.

Murakkab qo'shma gaplar to'rt gunihga bo'linadi: 1) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar; 2) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar, 3) aralash murakkab qo'shma gaplar; 4) qism-lari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.

Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplari mavjud bo'lган gaplar bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap sanaladi. *Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon bo'lsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin.*

Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gaplari mavjud bo'lган qo'shma gaplar bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap sanaladi: *Butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizning burchimiz.*

Aralash murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ergashgan, bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lган gaplar aralash murakkab qo'shma gaplar sanaladi. *Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir.*

Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar

Bir turdag'i uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan gaplar qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar sanaladi:

Meni bilsang, Qo'ng'irotning og'asi,

Boshimda botir yigitning jig'asi.

Yoz bo 'lsa yaylovim Amu yoqasi,

Meni bilsang, Qo'ng'irot elning to'rasi. ("Alpomish")

KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR USLUBIYATI

Nutq jarayonida so'zlovchi o'zi bevosita kuzatgan, bilgan voqe'a va hodisalar haqida axborot beribgina qolmasdan, o'zgalardan eshitgan voqe'a-hodisalarini ham bayon qiladi. Ko'pincha so'zlovchi o'z fikrini qo'shimcha dalillar bilan isbotlamoq uchun o'zigacha bo'lgan buyuk shaxslarning; asarlaridan namunalar keltiradi. Yoki ma'lum bir shaxs xarakterini ochish uchun shu shaxs bayon qilgan gapdan foydalaniadi. Masalan, "*Tiz cho'kib yashagandan tik turib o'lmoq yaxshiroq*", – *deydi G'ofur*. Bu esa nutqning ta'sirchan, mantiqli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap, so'zlovchining gapi esa muallif gapi deyiladi.

Monologik nutqda so'zlovchining o'zgalar gapidan aynan foydalaniishi ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

Ko'chirma gapli qo'shma gapning tuzilishi. Ko'chirma gapli qo'shma gap ikki qismidan tashkil topadi: 1) so'zlovchining (muallifning) gapi; 2) o'zganing gapi (ko'chirma gap). Masalan, "*Ko'p narsalarni ko'zimga ko'rsatdingiz. Yana ko'p narsalarni ko'rgani chiroq berdingiz, O'rmonjon aka!*", – *dedi Siddiqjon*.

Yuqoridagi gapda Siddiqjon qismi muallif gapi, ungacha bo'lgan qism esa o'zganing gapi hisoblanadi.

Fikrni asosli va go'zal ifodalamoq uchun ko'p hollarda xalq maqollaridan, hikmatli so'zlardan, adabiy parchalardan foydalaniadi. Nutqqa tayyor olib kirilgan bu maqol va hikmatli so'zlardan so'ng – *deydi xalqimiz*, – *deydi adib* singari muallif gaplari qo'llanilib, ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi. Masalan, "*Oltin boshing omon bo 'lsa, rangi ro'ying somon bo lmas*", – *deydi xalqimiz*.

Ko‘rinadiki bunday iboralardan o‘rinli foydalanish nutqiy mada-niyatni oshiradi.

Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi

Ko‘chirma gap bilan muallif gapi turlicha o‘rinlashish xususiyati ega. Ularning o‘rinlashish tartibini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Muallif gapi (M)+ko‘chirma gap(K) *Xalqimiz deydi*: “*Sabr tagi – sariq oltin*”.

Guli dedi: “*G‘azaldan bahra olmagay kim?*” Bunday vaqtida muallif gapidan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi, ko‘chirma gap qo‘shtirnoq ichiga olinib, bosh harf bilan boshlanadi. M: “K?”

Ko‘chirma gap oxiriga, agar u darak va buyruq gap bo‘lsa, undov belgisi qo‘yilib, qo‘shtirnoq yopiladi.

1. “K”, -M. “*To‘g‘ri, qoloqdan cho ‘loq yaxshi*”, –dedi qovog‘ini solib *Dilshod*.

2. K+M+K “*Endi hamisha xonodon sohibining gapiga qulog solgaysiz, – dedi Bibixonim kelinga, – aytganlarini so‘zsiz bajargaysiz*”.

Bunday vaqtida ko‘chirma gap qo‘shtirnoq ichidan bosh harf bilan boshlanadi. Muallif gapi bilan ko‘chirma gapning uzilgan joyi vergul va tire bilan ajratiladi. Muallif gapidan ko‘chirma gapning qolgan qismi nuqta va tire bilan ajratiladi. Muallif gapidan s‘ong ko‘chirma gapning qolgan qismi nuqta va tire yoki vergul bilan davom etadi. Uning sxemasi quyidagicha: “K..., -M, -K”. Yoki “K, -M, -K”.

3. M+K+M. *Qaynonasi Bibixonim*: *Bu in‘omning teran ma’nosi bor, – dedi sirg‘alarni kelinining qulog‘iga taqib qo‘yar ekan*.

Bunday vaqtida muallif gapidan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi, ko‘chirma gap qo‘shtirnoq ichidan bosh harf bilan boshlanadi.

Ko‘chirma gap oxiri qo‘shtirnoq bilan yopiladi va muallif gapping davomi ko‘chirma gapdan vergul va tire bilan ajratilgan holda kichik harf bilan boshlanadi. Sxemasi quyidagicha: K: “M”, -K.

O‘zlashtirma gap. Mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan gap o‘zlashtirma gap hisoblanadi. *Amakim bizga uqtirdi*: “*Bir-biringiz bilan ahil bo‘linglar!*” (ko‘chirma gap). *Amakim bizga bir-birimiz bilan ahil bo‘lishimizni uqtirdi* (o‘zlashtirma gap).

Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirish yo‘llari

Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, ko‘chirma gapli qo‘shma gap sodda gap shaklini oladi. Ko‘chirma gapli qo‘shma gapni sodda gapga aylantirish uchun ko‘chirma gap va muallif gaplari tarkibida ega va kesim vazifasida kelgan bo‘laklarning shakl va vazifasida ayrim o‘zgarishlar qilinadi.

Xususan, ko‘chirma gapning egasi qaratqich aniqlovchiga, kesimi esa to‘ldiruvchiga aylantiriladi. Ko‘chirma gap kesimini to‘ldiruvchiga aylantirish uchun unga *-lik* yoki *ekanlik* shakllari qo‘shiladi. Egasi II shaxs kishilik olmoshidan ifodalangan bo‘lsa, u I shaxs kishilik olmoshiga aylantiriladi. Muallif gapining kesimi vazidasida kelgan *dedi so‘zi aytdi* so‘zi bilan almashtiriladi.

Masalan,

Ko‘chirma gap

“Sizlar bir oilaning farzandisizlar”, – dedi rais.

O‘zlashtirma gap

Rais bizning bir oilaning farzandlari ekanligimizni aytdi.

MATN – ENG YIRIK BIRLIK

Ma‘lum bir shaxs tomonidan ayrim voqeа-hodisa, ko‘rinish, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan gaplar sirasi matndir.

Muallif matnni ko‘chirganda biror so‘z yoki bo‘lak tushirib qoldirilsa, u ko‘chirmada ko‘p nutqta bilan almashtiriladi, aksincha, biror so‘z yoki gap qo‘shilsa, u qavs ichida beriladi.

Matnda o‘zaro bog‘langan fikrlar tizmasida har bir yangi fikr yoki yangi turdagи axborot xatboshi bilan boshlanadi.

Suhbat nutqi shaklida berilgan, ya‘ni tire (-) belgisi bilan boshlangan ko‘chirma gap ham xatboshi bilan yoziladi.

Xatboshi matn rejasi bilan belgilanadi. Matn rejasi mo‘ljallangan matnda berilishi lozim bo‘lgan asosiy fikrlar (ma‘lumotlar) va ularning tartibi (birin-ketinligi)dir.

Bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og‘zaki nutq parchasi *mikromatn* hisoblanadi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “o‘g‘ri” hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar “o‘g‘irlilik” umumiy mavzusini ostida birlashgan.

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma‘lum bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi. Ular quyidagilardan iborat:

Bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi ayrim so‘zlar, takroriy bo‘laklar, olmoshlar, sinonimlar.

*Karimjon a’lo o‘qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega.
U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.*

Matn tarkibida ikkinchi gap boshida kelgan u olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan Karimjon o‘rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog‘lab keladi. Shuning uchun ham u olmoshi matn qismlarini bog‘lovchi, ya‘ni matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog‘lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo‘yoq dorlik hosil qiladi.

E’tibor bering: *Olti oykim, she’r yozmayman, yuragim zada,
Olti oykim, o‘zgalarga tilayman omad.
Olti oykim, do’stlarim ham pana-panada
Iste’dodim so‘nganidan qilar karomat.*

Takrorlar gap oxirida qo‘llanilishi ham mumkin.

USLUBIYAT ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI

Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aratishuvning eng asosiy vositasidir. U yozma va og‘zaki nutq jarayonida o‘z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevalarga xos ko‘rinishlari bor.

Adabiy nutq so‘z san’atkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat’iy me’yorlarga ega bo‘lgan nutq ko‘rinishidir. Adabiy nutqda har bir so‘z va qo‘sishchaning talaffuzi, imlosi, qo‘llanilishi, ma’nolari aniq me’yorlar bilan chegaralangan. Bu me’yorlarni buzish qo‘pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o‘qitish ishlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi. Adabiy nutq me’yorlarini buzish nafaqat savodsiz-

lik va madaniyatsizlik, balki o‘z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Mana shu sababdan, umumta’lim maktablarida “Ona tili” asosiy o‘quv fanlaridan biri sanaladi. Zeroki, bu fan adabiy nutq me’yorlarini o‘rgatadi, sizda undan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Nutq uslublari va ularning turlari. Radio, televide niye orqali taralayotgan suxandonlar nutqini har kuni eshitasiz. Gazeta-jurnallarda e’lon qilinayotgan xabarlarni o‘qiysiz. Badiiy asarlarni mutolaa qilib, tilimizning badiiy-estetik quvvatidan bahramand bo‘lasiz. Fizika, matematika singari fanlarni ham o‘zbek tilida o‘qiysiz. Shu bilan birgalikda ko‘cha-ko‘yda, oilada, mahallada turli yoshdagi kishilar bilan muloqotga kirishasiz.

Agar yuqorida bayon qilingan nutqiy jarayonlarga e’tibor bilan qarasangiz, ularning hammasi garchi o‘zbek tilining bevosita voqealaniishi bo‘lsa ham, lekin ma’lum jihatlari bilan bir-biridan farqlanishining guvohi bo‘lasiz.

Demak, adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida qo‘llaniladigan bir necha ko‘rinishlari mavjud. Ana shunday ko‘rinishlari nutq uslublari hisoblanadi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida qo‘llaniladigan ko‘rinishi nutq uslublari deyiladi.

O‘zbek tilining nutq uslublarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga esa o‘zbek tili uslubiyati deyiladi.

O‘zbek tilining ichki tuzilishinigina o‘rganish bizga bu til haqida to‘la axborotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *muhtaram, qimmatli, aziz* singari so‘zlarni ma’lum shaxs bildiruvchi so‘zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarga qo‘shib islatishingiz mumkin: *Muhtaram Solijon Soqihevich! Qimmatli aka! Aziz opajon!* kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishilarga qo‘llay olmaysiz. Agar shunday birikmalarni qo‘llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz.

Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko‘rinishlari – uslublari mavjud.

1) so‘zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub; 4) rasmiy – idoraviy uslub; 5) ilmiy uslub.

Bulardan so'zlashuv uslubi og'zaki nutqqa xos bo'lsa, qolgan uslublar esa ham og'zaki, ham yozma shakllarga ega. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma'ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma'ruzaning o'zi esa og'zaki nutqqa xosdir. Shuningdek, badiiy uslubning ham yozma va og'zaki (xalq og'zaki ijodi) ko'rinishi borligini bilasiz.

Tilimizda barcha uslublarda teng qo'llaniladigan so'zlar bo'lishi bilan birga, faqat ayrim nutq uslublari uchun xoslangan so'zlar ham mavjud. Shuning uchun so'zlar ana shu belgiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) uslubiy betaraf so'zlar (masalan, *so'zlamoq, gapirmoq, uy, daftар, ovqat* va boshqalar)

2) uslubiy xoslangan so'zlar (*mazkur, binobarin, dudoq, qaroq, nigoh, tashlamoq, bayonnoma, nota* va boshqalar).

Og'zaki so'zlashuv uslubi. Kundalik hayotda uyda, ko'cha-kuya, ish joylarida kishilarning bir-biri bilan erkin muioqotga kirishuvi so'zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi.

Oddiy so'zlashuv uslubida so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so'zlarnigina ishlataladi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to'ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so'raysiz: – *Beshinchidan ikkita* (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o'tirmaysiz).

So'zlashuv uslubining o'zi ikki turga bo'linadi: 1) adabiy so'zlashuv uslubi; 2) oddiy so'zlashuv uslubi.

Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubiga adabiy so'zlashuv uslubi deyiladi.

Adabiy tilning og'zaki shakli adabiy so'zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radio eshittirishlari, televideniye ko'rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

Adabiy til me'yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so'zlashuv uslubi sanaladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo'lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida gap bo'laklarining tartibi ham ancha erkin bo'ladi. Ba'zan shevaga xos so'zlar, qo'pol, dag'al so'zlar ham

kuzatiladi, lekin bularni qo'llash so'zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun siz oddiy so'zlashuv nutqingizda ham o'zingizning yuksak madaniyatingizni namoyish eting.

Publitsistik uslub. Publitsistika (lat. publika "xalq, omma") davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl;

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, feleton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilarga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanliligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *isyon*, *irqchilik*, *qo'poruvchilik*, *siyosiy tanglik*, *bitim* va boshqa.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrni o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniyeda beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o'zida berilayotgan reportaj, pamphlet, feleton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlari sanaladi. U ham bo'lsa nutqning jamiyatga qaratilganidir.

Badiiy uslub. Badiiy asarlarni ko'p o'qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.

Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, o‘zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste’moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro‘yobga chiqqan nutq ma’lum voqeа-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o‘quvchiga ta’sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oлади. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publisistik uslubning ham, so‘zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo‘laveradi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi **rasmiy uslub** hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi)

2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnama, bildirgi, tavsifnama, tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnama); diplomatik uslub (nota, bayonotnama, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy-idoraviy uslub deyarli yozma shaklda ro‘yobga chiqadi. U har qanday rasviriy vositalardan, obrazlilikdan holi bo‘ladi. Bu tilning ikki vazifasi-axborot uzatish va da’vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma’lumotnomada, axborot berilsa, buyruqda da’vat etish, axborot o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Rasmiy-idoraviy uslubga mansub har qaysi turning o‘ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatdagi fe’llar orqali ifodalananadi (ogohlan-tirilsin, topshirilsin kabi). Ma’lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy- idoraviy ish qog‘ozlarining sintaktik tuzilishi qat’iy qo-liplarga bo‘ysunadi. Masalan, “*Ushbu ma’lumotnomani ko ‘rsatuvchi G’. Mo ‘minov haqiqatan ham O’zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o ‘rinbosari lavozimida ishlaydi.*

Bilib oling. Ma’lumotnoma matnida bo‘lib o‘tgan voqeа-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Bunday matnda so‘zlarning ko‘chma ma’nolaridan, tilning badiy-tasviriy vositilaridan deyarli foydalanilmaydi, voqeа-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

Ijodiy-tavsifiy matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqeа-hodisa, narsa yoki shaxsnинг tasviri yoki xabar ma’lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir.

Ma’lum voqeа-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta’riflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir.

Ilmiy, publisistik va badiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko‘rinishlaridir.

Ilm-fan sohasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub daliliy ma’lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (ta’rif-qoidalarga) ega bo‘lish, atamalarining keng qo‘llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o‘z ichida ikki guruhga bo‘linadi. 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo‘llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma’lum sohasiga doir atamalar keng qo‘llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publisistik uslubga yaqinroq bo‘ladi. Ma’lum fan sohasiga doir atamalar qo‘llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning o‘zi ham fan tarmoqlari bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyot-shunoslik bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publisistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida

eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalar bayon qilish kuchli bo‘ladi.

INSHO – IJODIY MEHNAT

Insho o‘quvchining ma’lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o‘z fikrlarini yozma shaklda to‘g‘ri, ravon, savodli bayon qila olish ko‘nikrna va malakalarini, shu mavzu bo‘yicha bilimlarini namoyish etuvchi ijodiy matn – kichik bir asardir. Yozuvchi va shoir, olim va muxbir o‘zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas’uliyat bilan qaragani kabi o‘quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero, insho o‘quvchi ma’naviyati va ma’rifati ko‘zgusidir. Unda o‘quvchining bilimlari, his-tuyg‘ulari, fikrlarini bayon etish ko‘nikma va malakalari o‘z ak-sini topadi.

Inshoning har bir turi o‘z shakliy va mazmuniy xususiyatlariga ega.

Bilib oling. Insho – ijodiy mehnatning oliv ko‘rinishi, murakkab aqliy mehnat jarayonidir. U muallifdan o‘z fikrlarini zarur dalillar asosida mantiqan izchil va badiiy tarzda, grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘ri izhor etishni talab qiladi. Shuning uchun ma’lum mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid badiiy yoki hayotiy manbani, unga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur o‘rganib chiqish, tezis (qisqa ifoda) yaratish, dalillash uchun ko‘chirmalarni yig‘ish, xomaki rejani shakllantirib olish talab qilinadi.

Didaktik maqsadlarga ko‘ra insholar ikki xil bo‘ladi: a) ta’limiy insholar; b) sinov insholari.

Ta’limiy insholar sinfda yoki uyda o‘quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to‘g‘ri bayon qilishga qaratiladi.

Sinov insholari o‘rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko‘nikma va malakalarni sinash uchun yirik mavzular tugagandan so‘ng, choraklar yoki o‘quv yili oxirida, olimpiadalarda o‘tkaziladi.

Insho turlari

Insho arabcha so‘z bo‘lib, “yaratish”, “bino qilish”, “qurish” ma’nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so‘zning ma’nosini ancha tora-

yib, asosan, o‘quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan “ijodiy yozma ish” ma’nosida qo‘llanadi.

Insho muallifning ma’lum bir mavzu asosida o‘z fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik bir asardir. Inshoda muallifning so‘z qo‘llash mahorati, fikriy, tafakkuriy ko‘nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo‘ladi.

Insho mazmun-mohiyatiga ko‘ra 3 turga bo‘linadi:

1. Adabiy mavzudagi insholar.
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.
3. Erkin mavzudagi insholar.

Adabiy mavzudagi insholarga adabiyot darsligida qayd qilingan, o‘qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladigan insholar kiradi.

Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarga adabiyot darslarida o‘tilgan ma’lumotlarga o‘quvchining ijodiy munosabati (shaxsiy fikrlari) qo‘shib ifodalanadigan insholar kiradi.

Erkin mavzulardagi insholar adabiyot fani dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Boshqacha aytganda, o‘quvchining ma’lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi insholar erkin mavzudagi insholardir.

Adabiy va adabiy-ijodiy mavzulardagi insholar

Sizga birinchi sinfdan tanish bo‘lgan oddiy yozma tasvirlar, rasm asosidagi hikoya, turli xil maktublar ham inshoga o‘xshaydi. Lekin ularni asl insho deb bo‘lmaydi. Chunki bunday yozma ishlarda o‘quvchining mustaqilligi va ijodiyligi chegaralangan bo‘ladi.

Muayyan badiiy asar yoki undagi qahramonlar haqidagi insho adabiy mavzudagi inshodir. Bunday mavzudagi inshoda biror asar yoki qahramonlar taqdiri tahlil qilinadi.

Adabiy-ijodiy mavzudagi inshoda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdirini tahlil qilishda o‘quvchi o‘z mustaqil fikri bilan yondashadi. Ya’ni adabiy-ijodiy inshoda ijodiy fikrlashga katta e’tibor beriladi. Bu insho turining adabiy mavzudagi inshodan farqi ham ana shunda.

Erkin mavzudagi insholar

O‘quvchining ma’lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insholar erkin mavzudagi insholardir. Erkin mavzudagi insholarda o‘quvchining bir mavzu bo‘yicha turli fanlardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so‘z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi.

Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o‘ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo‘lgan matndan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.

Inshoda epigraf bo‘lishini qat’iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriydir. Lekin mavzuga va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf bo‘lsa, inshoning badiyiligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko‘rsatadi.

PUNKTUATSIYA. TINISH BELGILARI VA ULARNING ISHLATILISHI

Nuqta va uning qo‘llanishi. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatalishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatalila boshlangan.

Nuqta o‘zbek tilida, odatda, quyidagi o‘rinlarda ishlataladi.

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq va undov gaplardan so‘ng: *Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. Farzandlarimiz doimo sog‘lom bo‘lsin. Oydin kecha. Bo‘taboy aka Baqaquroolloqdan chiqib, Qo‘schinorga yuqorida – katta yo‘ldan ketdi. Havo sof va salqin. (A.Q) Valijondan salom. (Sh.Rashidav)*

Bilib oling. Ba’zan lekin, biroq, chunki, shuning uchun, go‘yo bog‘lovchilar bilan birikuvchi gaplar mazmunan ma’lum darajada mustaqil bo‘ladi va tugallangan ohang bilan aytildi: *Qo‘lini tig‘iga uzatdi. Lekin chol bu qimmatli buyumni qo‘ldan chiqarishni istamadi. (Oybek)*

2. Atov gaplardan keyin: *Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.*

3. Ism, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng nuqta qo'yiladi: *M.Behbudi, A.Fitrat, A.Cho'lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir.*

4. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng nuqta qo'yiladi: *va sh. k. (va shu kabilar); s. t. (so'zlashuv tilda); G'.G'. (G'afur G'ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent)*

5. Mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplarda ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap *ammo*, *lekin*, *biroq*, *chunki*, *shuning uchun* bog'lovchilar bilan boshlanishi mumkin: *Bobo dehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dala-larda ish qizg'in.*

6. Nuqta ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham qo'yilishi kuzatiladi: *21.02.2006*.

7. 1-bob yoki 1,2,3 ko'rinishidagi arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi: *2x2=4 (ikki karra ikkt to'rt).*

9. Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov yoki so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng: "Muhr qo'lidan kelsa... – dedi u. Mana ketmon, Ernazarning zvenosiga bor desa, nima qilaman?" a) – Yo'q: har so'zdan hurka bermang unday, – dedi Sayramov. – Qalovini bilsangiz, qor yonarmish. Ishning ko'zini bil – maslahat berdi U. – Dala ham obod, choyxona ham... (Oybek) "Pechat qo'lidan ketsa. – dedi u. – Mana ketmon, Ernazarning zvenosiga bor desa, nima qilaman? (I.Rahimov)

Bilib oling: Sarlavhalardan so'ng (darak gap bo'lsa) nuqta qo'yilmaydi.

Vergul va uning qo'llanilishi. Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan o'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o'rnlarda foydalaniladi:

1. Uyushuq bo'laklar orasida: a) Bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklar orasida: *Andijon, Namangan. Qo'qon, Marg'ilon – O'zbekning chamani, bog'-u bo'stoni. (G'.G'ulom)* b) Takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasida: *Saodat goh*

men bilan, goh atlas bilan mashg‘ul, boyagi uyalib turishini bir yoq-qa yig‘ishtirib qo‘ygan edi. (A.Qodiriy) d) Zidlovchi bog‘lovchilar yordami bilan birikkan uyushiq bo‘laklar orasida: Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (P.Qodirov)

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: *Uka, o‘qishning erta-kechi bo‘lmaydi. Men sizni, oyijon, juda yaxshi ko‘raman. Salom sizga, pur-viqr tog‘lar!*

3. Kirish so‘z, kirish birikmalar va tuzilish tomonidan murakkab bo‘lмаган kirish gaplarni ajratish uchun: a) *Modomiki, haqiqizda shu qabilda so‘z yurar ekan, albatta behuda bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman.* (Oybek) b) “*Ko‘nglingizga kelmasin-ku, izvoshiga eshak qo‘shib bo‘lmaydi*”. (A.Qahhor) *Shubhasiz, Vatanimiz jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olajak. Forobiyning yozishchicha, inson jamiyatda o‘zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta‘kid, inkor va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi *ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom* kabi so‘z-gaplardan keyin kelgan bo‘laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo‘yiladi: *Ha, hushyor bo‘lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo‘nab ketyapmiz. Xo‘sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o‘ylab ko‘rdingizmi?*

5. Ajratilgan bo‘laklar orasida ham vergul qo‘yiladi: *Onaga, eng ulug‘ zotga, ehtirom chinakam insoniyik sanaladi. O‘zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga vergul qo‘yiladi: *Do‘sting mingta bo‘lsa ham oz, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p. Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra.*

7. Bog‘langan qo‘shma gaplarda ham vergul ishlataladi: *Bilimli va tadbirkor bo‘ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetaklamasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.*

8. Undov so‘zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so‘ng vergul qo‘yiladi:

Ey, menga bir minutga qarab qo‘ying.

O, yoshlik! Sening qadringni yoshi qaytganlar bilar.

9. Ko‘chirma gap darak, buyruq gap bo‘lsa, undan so‘ng vergul qo‘yiladi:

"Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo 'lmog 'i lozim", – deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.

So'roq belgisi va uning qo'llanilishi. So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha Questio – so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning biringchi harfi *Q* ishlatila boshlangan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan. Bu belgi o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchrab, 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

So'roq belgisi quyidagi o'rinnlarda ishlatiladi:

1. So'roq gaplarning oxirida: Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? *Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo 'ldim. Vazifani bajarib bo 'ldim?*

2. *Kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi* kabi so'roq olmoshlaridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi. *Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo 'ladi.*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz, bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga so'roq belgisi qo'yiladi. Shuningdek, "o'yla"! "top"! ma'nolarida ham so'roq belgisi ishlatiladi. – Abdulla Qodiriyning "*O'tgan kunlar*" qissasida (?) (Bu yerda qissa emas, roman) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi. $5 \times 5 = ?$ (matematikada)

4. Ko'pincha so'roq gaplar birdan ortiq bo'lib keladi. Bu holatda so'roq belgisining qo'yilishi quyidagicha:

a) so'roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so'roq gap mazmuniga ko'ra mustaqil bo'lsa, har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi: *Komila so'zida davom etdi: "Ha, Jamol akam qanday? Toshkentdami?"*;

b) agar so'roq gaplar mazmunan umumiyligi bir fikrni ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi so'roq gapdan keyin qo'yiladi: – *Tag'in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi?*

Bilib oling. Ba'zi so'roq gap shaklidagi jumlalardan so'ng kelgan sodda gap so'roq gapdan anglashilgan mazmunga umumiyligi izoh beradi. Bu turdagiligi so'roq gaplar bilan so'nggi sodda gap orasida ba'zan vergul, ko'pincha tire qo'yiladi:

d) so'z yoki iboraga muallifning shaxsiy munosabatlarini bildi-

rish: *Ovqatga tajavvuz (?) qilingandan so'ng, mehmonlar qo'llarini dasturxonga (?! artdilar.*

Undov belgisi va uning ishlatalishi. Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha "lo" undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlataladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng undov belgisi qo'yiladi: *Oqpodsho yerdan bir qism tuproq oladi. –Ana tuproq, mana tuproq! – deydi. – Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq!* (Tog'ay Murod) "Professor Nazarov! Mana u qanday odam ekan!" (A.Muxtor). *Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday falokat, bu qanday mudhish, motam!* (Oybek)

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham undov belgisi ishlataladi. *Siz ham oyoqni ishlating! – deb buyurdi. Suv ostida o'pqonlar ko'p, Tortib ketmasin! Fido bo'lsin sen uchun, jon-tanim onam.* (A.Po'lat) Jamila, tur o'rningdan, yalinma bu itlarga, bo'lmasa, la'nat deyman senday vafodor xotinga! (Hamza)

3. So'z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng undov qo'yiladi. *Ey, arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber!* Seni unutolmas, aslo, *Ey O'rta Osiyo!!!* (V.Inberg) Yo'q, yo'q! Bu og'ir ishni bo'ynimga ololmayman!

4. *Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng undov belgisi qo'yiladi. *Balli-ball!* – dedi Rahim va Sharifga qarab sim qoqdi. Yo'q! Borolmayman, – dedi qayrilib.

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida undov belgisi berilishi mumkin. "Boburnoma"da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (?) oid qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta undov belgisi qo'yiladi. *Charos kafti bilan yuzini to'sgancha o'zini orqaga tashladi.* -A-a-a!!! – dedi chinqirib. – Chiqar buni jallod!!! *Jallodlar harakatlandilar.* – Xanjarimiz qonsirag'on!

7. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq, shuningdek, ritorik so‘roq gaplardan so‘ng ham undov belgisi qo‘yiladi. *Kimdir seni kutsa, kim-nidir sen ham sog ‘insang, qanday baxt bu!*

Qavs va uning qo‘llanilishi. Qavs o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlagan. Dastlab, 1873- yilda “Turkiston viloyati” gazetasida ishlatilgan.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Kirish gaplarda: *O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, (Xitoy, AQSh, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchи o‘rinda turadi) eksport bo‘yicha AQSh-dan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Qиргиз O‘roz belbog‘iga mahkam chandib tugilgan bittagina so‘lkovoyni (kim biladi, buni qachonlar-dan beri saqlab keladi) chiqardi. (Oybek)*

2. Remarkalarda: *Xon (yolg‘iz) – Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni quramoyin yana bitta si chiqib qoladur. (A Fitrat) Rohila (soxta kulib): Buni qarang, unash-tirishni to‘y deb yuborsa-ya! (A Qahhor)*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbaida: *Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur (Abdulla Avloniy) Jannat onalar oyog‘i osti-dadur. (Hadisdan) “Qasosli dunyo” (“Avlodlar dovonи” romanidan)*

4. Ifodalananayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘srimcha izoh beruvchi so‘z yoki iboralar qavsga olinadi: *Viktor (Lizaning ukasi) ishchi yoshlar maktabida, kichkina Liza bilan Karomat (bunisi Salomat xolaning qizi) ikkinchi smenada o‘qishadi. (AMuxtor) Ro‘za hayiti (Iyd va Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al Adha)ning biringchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyyati (demos – xalq, kratos – hokimiyat) ma‘nosini bildiradi.*

O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz pedagogik ta‘lim konsepsi-yasi (loyiha). – “Ma‘rifat” gazetasi, 1993-yil 8-sentabr.

Bilib oling. Qavsga olingan kirish so‘z va iboralardan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko‘chiriladi: *Erkaklarning biri – markaziy gazetaning muxbiri, ik-kinchisi – injener (Mavlonbekov uni Feodor Makarovich der edi); qiz esa Moskvada institutni bitirib, hozir shu injenerning qo‘lida tajriba ko‘rib yurgan ekan. (A.Qahhor)*

5. Qisqartirilgan ism, familiyalar yoki taxalluslarda: *1992-yil sentabrda O'zbekiston Parlamenti Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti* (YXHT). *Adabiyot-atomdan kuchli.* (A.Qahhor)

6. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti (hozirgi va ko'hna yoki aksincha) berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. “*Qutadg'u bilik*” (“*Baxt keltiruvchi bitimShuhrat* (G'ulom Aminjonovich Olimov) atoqli o'zbek yozuvchilaridan biridir.

Bilib oling. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalani-ladi.

7. () ko'rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko'p uchraydi. Masalan, *shah(a)ri, o'r(i)ni, sing(i)lisi so'zlaridagi "i" qoidaga ko'ra tushiriladi kabi.*

Ko'p nuqta va uning ishlatilish o'rirlari. Ko'p nuqta XIX asrning II yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran “Turkiston viloyatining gazeti”da muntazam qo'llangan.

Ko'p nuqta quyidagi o'rirlarda ishlatiladi:

1.Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida: *To'ra biroz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi. – Mana shu imperiya... Miryoqub hech narsa anglamadi.* (A.Cho'lpon) “*Bilmayman degan edingiz. Yana shuni aytdingizki...*”, *shu payt ad'yutant kirib, polkovnikka bir qog'oz uzatdi.* (A.Qahhor) “*Agar sevsang...*” – “*Agar chindan ham sevsang*”, – dedi yigit uning so'zini bo'lib. (Gazetadan) “*U mening kasalimni boqdi; kechalari uqlamay chiqdi... Sen, sen ham, malagim... Na ta'na, na gumon... Ana shularning hammasi men uchun, bir men uchunmi-ya...*” (Turgenev)

2. So'zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun: *Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'ladi. Uydagi ishlarning hammasini o'zi qilsa, o'zi tartibga solib, o'zi bezasa...* (A.Muxtor) *Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, – deya yig'ladi. – Bechora xalq-a, bechora xalq-a...* (T.Murod) *Qish... Butun atrof oppoq libosda.*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa:

– *Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?*

– *Xo'sh, xo'sh?*

- *Ilkimdin kelguncha... – deb boshlanar edi.*
 - *Ha-ha, bo ‘tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X.To ‘xtaboyev)*
 - 4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa: *Turkiston-da birinchi m... m... m... artaba tua... t... t... tr, dedi-da fikrga toldi.*
 - 5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa:
- *Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?*

– ...

- *Tushundingizmi, deyapman? (X.Sultonov)*
- 6. Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida: Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing. *Xayri...ox, a...loq, ...abar, ...Yudaxin familyiali bir rus bo‘lishiga qaramay, hamma usta-mardikorlar bilan... o‘zbek tilida so‘rashib chiqdi (Asli: Yodimda, shiypon tagiga g‘isht terilayotganda Yudaxin familyiali bir rus kishi dadamni so‘rab keldi va rus bo‘lishiga qaramay, hamma usta-mardikorlar bilan “horma, bor bo‘l” qilib o‘zbek tilida so‘rashib (H.Qodiriy, “Otam haqida”, Toshkent, 1984-y.)*

Tire va uning qo‘llanilishi. Tireni yozuvga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o‘zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog‘lamasiz birikkan ega va ot kesim orasiga: *Aziz vatandoshim, bu – sening imzong. Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra. Aziz vatandoshim, bu – sening imzong. (G.G.‘ulom)* “*Hamma sizning tarafingizza, chun-ki mana buni bajaruchi – siz. (A.Muxtor) Ikki karra ikki – to ‘rt.*

2. Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: *Suv, yer, gaz bular hayot bahoriga go‘zallik va yangi nash‘a bag‘ishlovchi kuchlar edi.*

3. Ajratilgan bo‘lak bilan izohlanmish bo‘lak orasiga: *Men – Valiyev Mahmud, 1954-yilda Toshkentda tug‘ilganman. “Ularning hammasi xoh yosh, xoh qari – firibgar, zolim. (Oybek)*

4. Kirish gap bilan gap bo‘laklari orasiga: *Aliyevlar – ular butun bir armiyani tashkil qiladilar – fandan oladilar ham, fanni boyitadilar ham.*

5. Muallif gap bilan ko‘chirma gap orasida: “*Nega buncha kech golding, Manzura?*” – dedi Aziz mehribon tovush bilan.

6. Dialog tipidagi ko‘chirma gaplarda:

a) – *Boltaboy akam qayoqqa ketdilar?*

– *Stansiyaga.*

– *Qachon keladilar?*

– *Sementni tushirib bo ‘lib keladilar-da.*

– *Sementlik to ‘g’on bo ‘lar ekan-da!*

– *Bo lmasa bahorgi toshqinda hamma yoqni suv olib ketmaydi-mi?* (A.Qahhor)

b) “*Hurmatli og‘alar, sizlardan ijozat bo ‘lsa, so ‘zlayin*”. – “*So ‘zla!*” “*Yoki yurtning hammasini to ‘playmizmi?*” – “*Gapira ber, hammamiz shu yerdamiz (Ertakdan)*

7. Kutilmagan voqeа-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: “*Men darrov idoraga yugurdim – yo ‘qsiz*”. “*Men unga tikilib o ‘tiraman-da, rohat qilaman – faqat shu*”. (Gazetadan)

8. Zid ma’noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: *Jismimiz yo ‘qolur – o ‘chmas nomimiz.*

9. Ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanal-gan har bir gap boshida: – “*Amir Temur*” ordeni; – “*Buyuk xizmatlari uchun*” ordeni. 1996 -yil 26-aprelida ta’sis etildi.

10. Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida: *Veksel – qimmatbaho qog ‘oz, qarz hujjati, pul qarz olganlik haqidagi tilxat.*

11. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar orasida: *Toshkent – Andijon “Oltin vodiy” poyezdi 6-yo ‘lga kelib to ‘xtadi.*

12. Nashr, kitobot ishlarida: *X.Sultonov. Onamning yurti: Qissa va hikoyalar – T: Adabiyot va san ‘at nashriyoti, 1987. –256 bet.*

Bilib oling. Hisob-kitob bilan bog‘liq fanlarda -(tire) ayirish (minus) belgisini bildiradi: $30 - 7 = 23$; *Bugun Toshkentda -3° sovuq bo ‘ladi.*

Qo‘shtirnoq va uning ishlatalish o‘rinlari. Qo‘shtirnoqni til-shunoslikka rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. Tinish belgisi si-fatida o‘zbek yozuvida u XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi. Qo‘shtirnoq quyidagi o‘rinlarda ishlatalidi:

1. Ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi: “*Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa*”, – degan edi *Sa ‘diy Sheroziy.*

2. Sitatalar qo'shtirnoq ichida yoziladi: *Buyuk yozuvchimiz A.Qahhorning quyidagi gaplari hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q: "Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi; bиринчи асари билан yashnab, bиринчи асари билан tutab kiradi..."*

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatiq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildinivchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi: ...*oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lган. Bu safar Botirovning "jinoyati" o'n bir yillik qamoq bilan "taqdirlandi".*

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi: "*Lison ut-tayr*" asari haqida suhbatlashdik, "*Ma'rifat*" gazetasi, "*Sohibqiron*" dramasi.

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomiari qo'shtirnoq ichida yoziladi: "*Kamolot ijtimoiy harakati*", "*Diyor*" savdo uyi.

6. Transport (mashina, samolot, avtobus va sh.k.)larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi: "*Neksiya*" rusumli yengil mashina, "*Otayo l'* mikroavtobusi, "*Kibo*" oyoq kiyimi.

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi: "*El-yurt hurmati*" ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi: *1995-yilning 6-may kunl "Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" Qonun chiqdi.*

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida yoziladi: *XI "A" sinf "Quvnoqlar va zukkolar" bahsida g'olib chiqdi.*

Ikki nuqta va uning ishlatilish o'rinnlari. Ikki nuqta o'zbek til-shunosligida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan. U quyidagi o'rinnlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng: *Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi.*

2. Muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelganda, undan so‘ng: *Bundan so‘ng quidor tanchada o‘tiruvchi Ostoboyim va Kumushga qichqirdi: – Sir ochildi! Adam birdan samovarchiga buyruq berdi: Musavoyga joy solib ber, yumshoq yostiq qo‘y.* (Oybek)

3. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin: *O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasidir. Xolmurodning do‘satlari: Ergash, Jo‘ra va Omontoy ham birin-ketin qaytib kelishdi.* (Gazetadan)

Bilib oling. Ba’zan umumlashtiruvchi so‘z yashirinishi mumkin, ammo ohang va mazmuniga ko‘ra uyushiq bo‘laklardan oldin ikki nuqta qo‘yila beradi, bu hol ish qog‘ozlarida va ilmiy asarlarda ko‘proq uchraydi. Masalan: *Majlisga qatnashdilar: Sobir Erkinov, Shokir Otaqulov, Abdulla Saidov.*

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so‘zlardan so‘ng: *Mavzu: “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni.*

5. Quyidagi ma’nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda: a) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa: *Men bu yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim: kuzgi bug‘doyning boshoglari kuyib, qovjirab ketdi.*

b) Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning nati-jasini ko‘rsatsa: *Xo‘ja G‘iyosiddin Hirotdagi ba‘zi mashhur zotlarni go‘zal taqlid qildi: o‘tirganlar o‘rinlaridan qo‘zg‘olmay qoldilar.*

d) Agar biror gap boshqa bir gapning mazmunin to‘ldirsa yoki izohlasa: *Qosim mirob aytardi: agar qo‘rmasang eng odamxo‘r daryo hech nima qilolmaydi – suvning o‘zi qirg‘oqqa chiqarib qo‘yadi.*

6. Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingen ochkolar yoki kiritilgan go‘llarning nisbatini belgilash uchun: “*Navro‘z*” (*Andijon*) va “*Paxtakor*” (*Toshkent*) komandalari o‘rtasidagi o‘yin durrang natija bilan tugadi – 2:2.

Bilib oling. Hisob-kitob ishlarida ikki nuqta:bo‘luv alomati sana-ladi: *100:2=50.*

Nuqtali vergul va uning ishlatalish o‘rinlari. Nuqtali vergul o‘zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.U quyidagi o‘rinlarda ishlataladi:

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatdan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo‘limgan hollarda:

Zunnunxo 'ja Siddiqjonning tarafini olgan bo 'lib kampirga qarab kovush otdi; Siddiqjonga nimadir demoqchi bo 'lib og 'iz ochgan qizini bir tarsaki urdi; so 'ngra Siddiqjondan o 'pkalab mayin tovush bilan gap boshladi.

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda: *Ish kuchini yelga berma, yerga ber, jamg 'armani selga berma, elga ber!*

3. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin: *Gerb rangli tasvirda bo 'lib, Humo qushi kumush rangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog'i va "O'zbekiston" degan yozuv tilla rangda; g'o 'za shoxlari va barglari, vodiyilar yashil rangda; tog'lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to 'rt xil rangda beriladi.*

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida:

Otabek timsoliga tavsif:

- a) *Otabek – o'qimishli, o'z davrining yetuk kishisi;*
- b) *Otabek – mard va jasur yigit;*
- c) *Otabek – o'z ahdiga sodiq, vafoli yor.*

5. O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida:

a) Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yonig'i, hayot quvonchi –

Hammasing asli, manbai –

Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi. (S.Nazar)

b) *Qo'naboy yonida bir gala xushomadgo 'ylari; Irg'iz-boylardan Moybosar, Jaqib, Iziquittilardek qarindoshlari, bu kunlarda Qo'naboy tarafdori bo 'lib yurgan Juontayoq, Qombotir, To 'pay, To 'rg'ay ellarining oqsoqol-qorasоqollari bor. (M.Avezov)*

6. O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lgan sodda gaplar orasida hamda har xil turdag'i gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: a) *Zunnunxo 'ja Siddiqjonning tarafini olgan bo 'lib, kampirga qarab kavush otdi; Siddiqjonga nimadir demoqchi bo 'lib og 'iz ochgan qizini bir tarsaki urdi, so 'ngra Siddiqjondan o 'pkalab mayin tovush bilan gap boshladi. (A.Qahhor)*

b) *Izchil qozoq bir-ikki qum tepalikning bu yonidan u yog‘iga, u yog‘idan – bu yog‘iga o‘tdi, ammo izdan nishon yo‘q edi; eski izlar nari tursin, hatto qozoq o‘z-o‘ izini ham topolmas edi; bir bosilgan qadam o‘rni, suvga bosilgandek, oyoq ko‘tarilgan hamon ko‘milar edi.* (S.Ayniy)

Tinish belgilarining qo‘shaloq holda ishlatilish o‘rinlari.

O‘zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma’nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo‘s qo‘llash hollari ham uchrab turadi. Ular qo‘llanishidagi asosiy o‘rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq gaplar oxirida so‘roq va undov belgilari ketma-ket qo‘yiladi. – *Axir, ablah, – derdi Yunus, – birovning uyiga oyog‘ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg‘atgani ibo qilmaysan??*

2. So‘roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo‘yilishi mumkin: ...*inson qonlari “Jaholat!! Jaholat!!” deb oqmoqda edi!.. Ey, purviqor tog‘lar! Nega jimsizlar, nega!!!*

3. So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng uch nuqta qo‘yiladi: “*Ertaga! – deya xotirjam dilidan o‘tkazdi va birdan to‘xtadi. – Xo‘s, ertaga nima bo‘ladi?..*”

4. Muallif gapi va ko‘chirma gaplar o‘rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin: “*Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi*”, – deb yozgan edi A.Qahhor.

Murakkab mazmun ifodalangan gaplarda undov belgisi bilan so‘roq belgisi, undov belgisi ko‘p nuqta va so‘roq belgisi bilan ko‘p nuqta ko‘pincha birikkan holda keladi.

5. Undov va so‘roq birikkan holda (!?) – aslida so‘roq mazmunidagi gap bo‘lib, so‘roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo‘lgan notiqlik (ritorik) gaplardan so‘ng qo‘yiladi: *Qani bu yerda insof, qani bu yerda adolat degan narsa!?* (Hamza)

6. So‘roq va undov belgisi birikkan holda (!?) – kuchli his-hayajon, taajjub bilan aytilgan ritorik so‘roq gaplardan so‘ng qo‘yiladi: *Ja-*

*miki kambag‘al xalq qo ‘lini qo ‘lga berib, yaktan bo ‘lib tursa, kimning
haddi bor mardikor olishga!?* (Oybek)

7. Undov belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (!...) mazmunan tugallanmagan hamda kuchli his-hayajon ifodalangan o‘rinnlarda qo‘llanadi: *Uyatni bilasizmi!..* (A.Qahhor)

8. So‘roq belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (?) mazmunan tugullanmagan so‘roq gaplardan so‘ng ishlatiladi: *Ayb kimda?.. Ayb
nimada? Yoki yer yomonmi?...*

(Uyg‘un); b) “*Bu ablah ana shu noma‘lum odamga Qambar bilan Anton haqida gapirdi*”. – “*A?... Qambar bilan Anton haqida?...*” (Yashin)

Tilshunos olimlar haqida qisqacha ma'lumot

Mazluma Asqarova (III kurs 142-bet)

O'zbek tilining ravnaqi uchun munosib hissa qo'shgan olimlar-dan biri filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarovadir.

Olima turli yillarda yaratgan "Ravishdosh", "Qo'shma gap sintaksisi", "Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar"(akademik G'. Abdurahmonov bilan hamkorlikda) kabi darsliklar hozirgi kungacha oliv o'quv yurtlari uchun asosiy manba vazifasini o'tab kelmoqda.

Professor Mazluma Asqarova hammullifligida yozilgan IV, V, VI, VII, VIII sinflarining "Ona tili" darsliklari to hanuz o'zining ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Bir so'z bilan aytganimizda, professor Mazluma Asqarova Respublikamiz xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida ona tili fani o'qitilishini tubdan yaxshilash, yangi, zamonaviy kadrlarni tarbiyalab-yetishtirish ishlariga bosh-qosh bo'lmoqda.

G'anijon Abdurahmonov(III kurs 94-bet)

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi G'anijon Abdurahmonov o'zining butun ongli faoliyatini o'zbek tilshunosligining ravnaqi uchun sarfladi.

1951-yili "O'zbek tilida sifatlar substantivatsiyasi" mavzusi bo'yicha nomzodlik, 1960-yili "O'zbek tilida qo'shma gap sintaksisi asoslari" mavzusi bo'yicha doktorlik ishlarini himoya qildi.

G'anijon Abdurahmonov oliy va o'rta maktablarda til ta'limini o'qitish borasida samarali mehnat qildi.

Uning oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili, II qism, Sintaksis", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" (professor Sh. Shukurov bilan hamkorlikda), "Qadimgi turkiy til"(akademik A.Rustamov bilan hamkorlikda), o'rta maktablar uchun yaratilgan "Ona tili" darsliklari hamon o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Iristoy Qo‘chqortoyev(1936-2001) (II kurs 42-bet)

Filologiya fanlari doktori (1979), professor(1982), O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi(2000) Iristoy Qo‘chqortoyev o‘zbek tilining leksikologiyasi, uslubiyoti, tilning umumiyl-nazariy masalalari bilan bog‘liq bir qator asarlarning muallifi.Ular orasida “Ferdinand de Sossyurning lingvistik konsepsiysi”(1976) “So‘z ma’nosи va valentligi”(1977) kabi kitoblari tilshunoslikning nazariy muammolarini yoritishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, u oliv maktablarda til bilimini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha ham ulkan ishlarni amalgalashdi. Xususan, oliv o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun yozilgan “Badiiy nutq stilistikasi”(1975), “Turkiy filologiyaga kirish”(1976), “Tilshunoslikka kirish”(1976), “Umumiy tilshunoslik”, “Lingvistik ta’limot tarixi”(1980) kabi o‘quv qo‘llanmalari tilshunoslik nazariyasi va turkiyshunoslikni yuqori pog‘onaga ko‘tarishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Rahmatullayev Shavkat Ubaydullayevich(1926)

(II kurs 107-bet)

Filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Rahmatullayev o‘zbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, morfologiyasining rivoji uchun katta hissa qo‘sghan olimdir. Ayniqsa, o‘zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishida uning xizmati katta. Shuningdek, o‘zbek tilining izohli, etimologik, imlo lug‘atlarini tuzishda barakali mehnat qilib kelmoqda. Ular orasida “O‘zbek tilining qisqa-chacha frazeologik lug‘ati”(1964), “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”(1978), “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”(1980), “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”(1984), “O‘zbek tilining qisqacha etimologik lug‘ati”(2000) kabi asarlari alohida ajralib turadi.

Hojiyev Azim Po‘latovich(1933)

(II kurs 175-bet)

Filologiya fanlari doktori (1970), professor(1977), O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi(2000) Azim Hojiyev o‘zbek tili morfologiyasi, so‘z yasalishi, leksikologiyasi va leksikografiyasi,

orfografiyasi bo'yicha bir qancha asarlari bilan o'zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa qo'shdi. Ular orasida "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar"(1966), "To'liqsiz fe'l"(1970), "Fe'l"(1973), "Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi"(1979), "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"(1980), "O'zbek lingvistik terminlarining izohli lug'ati"(1984), "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"(1980) kabi asarlari alohida qimmatga ega.

A. Hojiyev o'rta va oliy maktablarda ona tilini, hozirgi o'zbek tilining nazariy muammolarini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ham barakali faoliyat ko'rsatmoqda. Uning tashabbusi va bevosita ishtirokida oliy o'quv yurti filologiya fakultetlari talabalari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili. –I qism"(1980) darsligi, o'rta maktablarining V-IX sinflari uchun "Ona tili" dasturi(1992) va darsligi (1992-1994) yaratildi.

Shonazar Shoabdurahmonov(1924) (II kurs 273-bet)

Filologiya fanlari doktori (1964), professor(1967), O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi(1974) Shonazar Shoabdurahmonov o'zbek tili fonetikasi, o'zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksikografiyasi, morfologiysi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlari yaratdi. Jumladan, "O'zbek tilida yordamchi so'zlar"(1953), "Fonetika. O'zbek tili fonetikasiga doir ba'zi masalalar"(1953), "O'zbek tili punktuatsiyasi"(1955), "O'zbek adabiy tili va xalq shevalari"(1962) kabi asarlari o'zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Alibek Rustamov(1931)

Filologiya fanlari doktori (1968), professor(1968), O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi(1995) Alibek Rustamov o'zbek tili tarixi, tilning badiiy-estetik vazifasi, tilshunoslikning umumiylar bo'yicha bir qancha asarlari yaratdi. Xususan, "Navoiyning badiiy mahorati"(1979), "Qofiya nima?"(1975), "Mahmud Zamahshariy"(1971), akademik G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan "Alisher Navoiy asarlarining grammatic xususiyatlari" asarlari alohida ahamiyatga ega.

Akademik Alibek Rustamov oliy o‘quv yurtlarida filologiya ta’limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, G‘anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan “Qadimgi turkiy til”(1982) o‘quv qo‘llanmasi qadimgi turkiy manbalarni o‘qish va ularni tahlil etish bo‘yicha talabalarining doimiy hamrohiga aylanib qoldi.

Ernst Begmatov(1936)

Filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov o‘zbek nutq madaniyati, leksikologiyasi muammolarini hal qilishda barakali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ayniqsa, uning o‘zbek onomastikasining shakllanishi va rivojida katta xizmati bor. Olim bu sohada o‘zining qator asarlarini e’lon qildi. Ular ichida “Kishi nomlari imlosi”(1970), “O‘zbek ismlari imlosi”(1972), 14600 ismning izohini o‘z ichiga olgan “O‘zbek ismlari”(1999) kitoblari alohida ahamiyatga ega.

Ne’matov Hamid G‘ulomovich(1941)

Filologiya fanlari doktori, professor. O‘zbek tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiysi bo‘yicha qator asarlar muallifi. Ular orasida “Qadimgi tariziy yodgorliklarning funksional morfologiya-si”, professopr Ravshan Rasulov bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek tilining sistemaviy leksikologiyasi asoslari” kitoblari alohida ajralib turadi.

H.Ne’matov o‘rta umumiyligi ta’limda “Ona tili” fanini takomillashirish bo‘yicha ham barakali xizmat qildi. U o‘rta maktablarning V-IX sinflari uchun “amaliyotdan nazariyaga” tamoyilga asoslangan yangi tipdagi “Ona tili” darsligining yaratilishida bosh-qosh bo‘ldi.

G‘ulomov Ayub G‘ulomovich(1914-1984)

A.G‘.G‘ulomov o‘zbek ilmiy tilshunosligining asoschisidir.

U “O‘zbek tilida aniqlovchilar”(1940), “O‘zbek tilida kelishiklar”(1940), “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi”(1944), “O‘zbek tilida urg“u”(1947), “Sodda gap sintaksisi”(1948), “Sodda gap”(1955), “O‘zbek tilida tarixiy so‘z yasalish muammolari”(1955), “Fe‘l”(1957) kabi qator asarları bilan o‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

O‘rtalik maktablarning V, VI, IX sinflari uchun uning rahbarligida yozilgan “Ona tili” darsligi yigirma yilga yaqin yosh avlodga til ta’limini singdirishga xizmat qildi.

Respublikamizning barcha ona tili va adabiyot muallimlari A.G‘ulomov tomonidan oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakulteti uchun yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” kito-bidan o‘zbek tili sintaksisining sir asrorlarini o‘rganganlar.

TILSHUNOSLIK ATAMALARINING QISQACHA IZOHLI LUG‘ATI

(5- 11- sinflarning ona tili darsligi bo‘yicha)

FONETIKA

Alifbo – harflar, tovushlarning ma’lum tartibda joylashgan harfiy ifodasi (sirasi). Lotin harflariga asoslangan o‘zbek alifbosini 29 harf va tutuq belgisidan iborat.

Artikulatsiya – tovushlarning paydo bo‘lishidagi nutq a’zolarining holati va harakati.

Assimilatsiya – bir tovushning yon tovushga moslashishi, singishi.

Progressiv assimilatsiya – oldingi tovushning ta’sirida keyingi tovushning o‘zgarishi: otdan (*otdan*), *yurakka* (*yurakga*).

Regressiv assimilatsiya: keyingi tovushning ta’sirida oldingi tovushning o‘zgarishi: *tussiz* (*tuzsiz*), *yossin* (*yozsin*).

Bo‘g‘in – so‘zlarning talaffuzida havo oqimining bo‘linishi. **Ochiq bo‘g‘in** – unli bilan tugagan bo‘g‘in, **yopiq bo‘g‘in** – undosh bilan tugagan bo‘g‘in: *lo-la*, *mak-tab*.

Dissimilatsiya – ikki xil o‘xshash tovushning o‘zaro ta’sirida boshqa shu turdagи tovush kelib chiqadi. **Progressiv dissimilatsiya** – oldingi toyushning ta’sirida keyingi tovush o‘zgaradi: *zarar* (*zaral*), *sallot* (*soldat*). **Regressiv dissimilatsiya** – keyingi tovushning ta’sirida oldingi tovushning o‘zgarishi: *ushta* (*uchta*), *maxtanchoq* (*maqtanchoq*).

Fonema – ma’no anglatishda ishtirok etgan nutqning eng kichik qismi (unsuri): *qil*, *qol*, *qo‘l*.

Fonetika – tovushlarning paydo bo‘lishi va ularning akustik xususiyatini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

Harf – fonemalarning yozuvdagi shakli. Bosh harf – shaxs, joy, idora, mukofot, asarga qo‘yilgan atoqli otlarning birinchi harfi: *Dilbar*, *Salimov*, *Andijon*, *Xalq ta‘limi vazirligi*, *Fanlar akademiyasi*, *O‘zbekiston Qahramoni* (*unvon*), “*O’tkan kunlar*” asari.

Imlo (orfografiya) – nutq tovushlarini yozuvda to‘g‘ri qo‘llashni belgilovchi qoidalar tizimi.

Metateza – yonma-yon kelgan tovushlarning o‘rin almashishi: *Sayram – Saryam, daryo – dayro, tuproq – turpoq*.

Nutq a’zolari – tovushlarni hosil qilishda ishtirok etuvchi nutq a’zolari: o‘pka, nafas yo‘li, hiqildoq, bo‘g‘iz, tovush paychalari, kichik til, tanglaylar, til, tish, lablar, burun bo‘shlig‘i.

Ohang – tovush, so‘z, gaplarning og‘zaki nutqdagi toni, tallaffuzi (past-balandligi, to‘lqinli bo‘lishi va b.).

Ohangdoshlik (singarmonizm) – tovushlarning bir-biriga moslashib, hamohang bo‘lishi, lab ohangdoshligi – lab unlilariga lab unlilari va, aksincha, lablanmagan unlilarga lablanmagan unlilar mos keladi: *yutuq, yulduz, uchqun va tizgin, elak, alik*.

Talaffuz (orfoepiya) – tovushlar (fonemalar)ning nutqdagi ifodasi.

Tovush orttirilishi – so‘zning boshi, o‘rtasi yoki oxirida biror tovushning qo‘silishi: *o‘raza (ro‘za), istakon (stakan), ilim (ilm), fikr (fikr), banka (bank), tanka (tank)*.

Tovush tushishi – so‘z tarkibidagi biror tovushning tushib qolishi: *bo‘sa (bo‘lsa), do‘s (do‘st), darax (daraxt)*.

Transkripsiya – ilmiy-lingvistik tahlil uchun nutqiy talaffuzning aynan harfiy ifodasi: i, Ҷ (u), ü (yumshoq u), i: (cho‘ziq i), (o).

Tutuq belgisi – tovushlarning ajratib yoki cho‘ziqroq talaffuz qilinishini ko‘rsatuvchi ishora: *mas‘ul, ta’sir*.

Undoshlar – havo oqimining nutq a’zolari qarshiligi bilan paydo bo‘luvchi tovushlar (fonemalar). **Jarangli undoshlar** – shovinga nisbatan ovoz ustun bo‘lgan tovushlar b, v, d, z, m, n, l, r, j, y, g, g‘, ng. **Jarangsiz undoshlar**: p, f, t, s, k, q, x, sh, ch, h.

Unlilar – tovush paychalarining ritmik tebranishidan hosil bo‘luvchi tovushlar (fonemalar). Unlilarni talaffuz etganda, havo oqimi nutq a’zolarining faol qarshiligiga uchramaydi: o, e, i, u, o‘.

Lablangan unlilar: u, o‘, o. **Lablanmagan unlilar**: i, e, a.

Urg‘u – so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining zarb bilan aytishi: *olti, qaysi, odam, kitob, rahbar, adabiy*. Mantiqiy urg‘u – gapda biror bo‘lakning ma’nosini ajratib, ta’kidlab ifodalash: *Men mакtabga bordim. Men mакtabga bordim. Men mакtabga bordim.*

LEKSIKOLOGIYA

Antonimlar – ma’nosi bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar: *katta-kichik, yosh-u qari, oq-qora*.

Arxaik so‘zlar – eskirgan so‘zlar: *ajun – dunyo, aya – kaft, ayag’ – laqab, ayru – yoki* (Koshg‘ariy)

Atamalar (terminlar) – ma’lum bir fan-texnika sohasiga oid so‘zlar: *neutron, proton, aniqlovchi, to ‘ldiruvchi*.

Dubletlar – ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar: *boyo ‘g’li – boyqush, gado – gadoy, gazlama – gazmol*.

Etimologiya – so‘zning kelib chiqishini, tarixini o‘rganuvchi ta’limot: *qayrag’och – qayrilgan yog’och*.

Jargon – biror ijtimoiy guruhga xos so‘zlar: *loy – pul, lo ‘x – sodda odam*.

Juft so‘zlar – juft-shaklda qo‘llanuvchi so‘zlar: *qozon-tovoq, qishin-yozin, non-choy*.

Kasb-hunar leksikasi – bir kasb yoki hunarga xos so‘zlar: *poshna, tagcharm, qolip*.

Ko‘p ma’noli so‘zlar (polisemiya) – bir-biriga ma’nodosh bo‘lgan so‘zlar: *ishning ko ‘zi, gapning tuzi, ishning boshi*.

Leksikografiya – so‘z shakkiali, tilning lug‘at boyligi – lug‘atlari haqidagi ta’limot.

Majoziy ma’no (metafora) – biror predmet yoki harakatning belgisini boshqasiga ko‘chirish: *ko ‘z yoshi sel bo ‘ldi, bo ‘ron o ‘kirdi*.

Mubolag‘a (giperbola) – shaxs, voqeа, hodisa va predmetlarni bo‘rttirib ifodalash: *Ohim ko ‘klarga yetdi. Tilini uzun qildi*.

Neologizmlar – yangi qo‘llangan so‘zlar: kollej, litsey, biznes, reyting.

Omonimlar – shaklan bir xil, mazmunan turli xil so‘zlar: *ot – hayvon, ot – fe ‘l; o ‘t – o ‘simlik, o ‘t – fe ‘l*.

Onomastika – kishi ismlarini, **toponimika** – joy nomlarini o‘rganadi.

Paronim – tovushlari va tarkibi o‘xshash, ma’nosi boshqa so‘zlar: *otaliq – otalik, shoh – shox, hal – xol*.

Qo‘shma so‘zlar – birdan ortiq og‘zaki so‘zlar: *Oltiariq, oybolta, gultojixo ‘roz*.

Semasiologiya – so‘z ma’nolari haqidagi ta’limot.

Sinekdoxa – butunni qism bilan yoki qismni butun bilan ifodalash: *kalla, chinoq (odam ma’nosida)*.

Sinonimiya – so‘z va gaplarning ma’nodosh bo‘lishiga xos grammatick o‘zgarish.

Sinonimlar – shaklan turli xil, mazmuni bir-biriga yaqin so‘zlar: *odam, inson, kishi, shaxs*.

Sifatlash (epitet) – Narsa yoki tabiat hodisalarining xususiyatlarini tasvirlash uchun ularning nomiga qo‘shib ishlataladigan so‘z: *oltin kuz, kumush qish*.

So‘z – ma’no anglatuvchi nutqning bir bo‘lagi. So‘zning leksik ma’nosi – so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘rganishdir. So‘zning asl (atash) ma’nosi – so‘zning o‘z, lug‘aviy ma’nosи. So‘zning ko‘chgan ma’nosi – so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llash (metafora, polisemiya va b.).

Tabu – man etilgan, aynan aytilmaydigan so‘zlar: *chechak, qizamiq – gul, Qoraqurt – biy, kal – siyqabosh*.

Tarixiy so‘zlar – eski, ammo hozir ma’lum maqsadda qo‘llanadigan so‘zlar: *qozi, hokim*.

O‘xshatish – predmet va harakat-holat o‘xshatilib, metaforaga yaqin turadi: *Ulug ‘bek – misoli oftob. Adashgan it kabi Furqat qayon borg ‘um bilolmasman*. (Furqat)

O‘zlashgan so‘zlar – boshqa tillardan kirib, o‘zlashib kelgan so‘zlar: *kitob, ilm* (arab), *xushro ‘y, sozanda* (fors), *stol, stul* (rus) va b.

Sheva va lahja – ma’lum katta yoki kichik hududda yashovchi ahollining o‘ziga xos so‘zları: *paqir, shoti, shakarob* (Farg‘ona), *soqi, zangi* (Xorazm).

Chet so‘zlar – boshqa tillardan olingan so‘zlar: *stol, stul* (rus), *kitob, olim* (arab), *ozoda, ob-havo, ovoza* (fors), *abzas* (nem.), *avariya* (ital), *avtomat* (lotin).

MORFOLOGIYA

Bog‘lovchilar – gap bo‘laklari yoki sodda gaplarni biriktirish uchun xizmat qiladi.

1. Teng bog‘lovchilar: 1. Biriktiruv bog‘lovchilari: *va, ham, hamda, bilan*. 2. Zidlovchi bog‘lovchilar: *ammo, lekin, biroq*.
3. Ayiruv bog‘lovchilari: *yo, yoki, yoxud, goh-goh, dam-dam, ba’zan*. II. Tobe (ergashtiruvchi) bog‘lovchilar: - *ki, chunki, shuning uchun, toki, go‘yo, agar, garchi*.

Egalik qo'shimchalari – predmetning qaysi bir shaxsga oidligini ko'rsatuvchi qo'shimchalar. Birlik: I – kitob+im, xona+m. II – kitob +ing, xona+ng. III – kitob+i, xona+si. Ko'plik: I – kitob+imiz, xona+miz. II – kitob+ingiz, xona+ngiz. III – kitob+lari, xona+lari.

Fe'l – ish-harakat, holat ifodalovchi so'z turkumi fe'ldir: *yozdi, o'qidi, o'yładi*. **O'timli fe'l** – ish-harakatni biror obyektga o'tishini ifodalaydi: *ko'rди, topди, qo'yди*. **O'timsiz fe'l** – ish-harakat biror obyektga o'tmasligini ifodalaydi: *keldi, yurdi, yuvindi*.

Fe'l darajalari (nisbatlari) – ish-harakatning subyektga yoki obyekta munosabatini ifodalaydi: *yuvindi* (o'zlik), *yozildi* (majhul), *yozdirdi* (orttirma), *yozishdi* (birgalik).

Fe'l mayllari: Buyruq mayli – harakatni bajarishga buyruq, istak ma'nolarini ifodalaydi: *kel, boray, keling*. Shart mayli – harakatni bajarishda shart bo'lgan holatni ifodalaydi: *ke'sa, bo'lsa*.

Harakat nomi -ish-hatakatning nomini ko'rsatadi: *yozmoq, kelish, boruv*.

Kelishik kategoriyasi – ot, otlashgan so'z, olmoshlarning ot yoki fe'l bilan grammatik ma'nosini va aloqasini ifodalovchi qo'shimchalar. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta kelishik bor. Bosh kelishik – qo'shimchasi yo'q. 2. Qaratqich kelishigi – qo'shimchasi -ning. 3. Tushum kelishigi – qo'shimchasi -ni. 4. Jo'nalish kelishigi – qo'shimchasi -ga, -ka, -qa. 5. O'rinn-payt kelishigi – qo'shimchasi -da. 6. Chiqish kelishigi – qo'shimchasidan.

Ko'makchilar – ot yoki otlashgan so'z, olmoshlarning boshqa so'zlar bilan grammatik munosabatini ko'rsatadi: *uchun, sari, kabi, qadar, ustida, yuzasidan, tashqari* va b.

Ko'makchi fe'l – asosiy fe'lga qo'shilib, harakatni turli tarzda bo'lishini ifodalaydi: **Davomlilik**: *o'qib turibdi*. **Davomsizlik**: *gapirib qo'ydi*. **Takror**: *turtikilab turdi*. **Tugallik**: *o'qib bo'ldi*.

Ko'plik kategoriyasi – miqdor jihatdan ko'p bo'lgan shaxs va predmetlar yoki birdan ortiq shaxslar tomonidan bajarilgan harakat, holat: *kitoblar, yozdilar, yozdik, kelganmiz*.

Modal so'zlar – so'zlovchining xabarga bo'lgan munosabatini (ishonchi, shubhasi va b.) ifodalaydi: *albatta, shubhasiz, afildan, koshki*.

Morfema – so‘zning tarkibiy qismlari: o‘zak, negiz, qo‘sishimchalar (affikslar).

Negiz – so‘z o‘zaklariga yasovchi qo‘sishimchalar qo‘shilishi bilan yasalgan yangi so‘z: *temir+chi, uzum+zor*.

Olmosh – turli so‘z turkumlari o‘rnida almashib keladigan so‘z turkumidir. **Kishilik olmoshi** – shaxslar, narsalar o‘rnida qo‘llanadi: *men, sen, u, biz*. **Ko‘rsatish olmoshi** – shaxs, narsa yoki belgililar o‘rnida qo‘llanadi: *bu, shu, o’sha*. **O‘zlik olmoshi** – shaxsni ajratib, kuchaytirib ifodalaydi: *o‘z, o‘zimiz*. **So‘roq olmoshi** – shaxs, narsa, belgilarni so‘rash uchun qo‘llanadi: *kim, nima, qancha, qanday*. **Egalik olmoshi** – shaxs, narsalarning qarashliligi ko‘rsatadi: *meniki, uniki, bizniki* kabi. **Belgilash olmoshi** – shaxs, narsa va belgilarni umumlashtirib ko‘rsatadi: *hamma, har qanday, har qachon, barcha, bari*. **Gumon olmoshi** – shaxs, narsa va belgilarga ishora qiladi: *allakim, allaqaysi, kimdir*. **Bo‘lishsizlik olmoshi** – shaxs, narsa, belgini inkor qiladi: *hech kim, hech qanday va b.*

Ot – shaxs va predmet tushunchasini ifodalovchi so‘z turkumi: *Karim, kitob, sevgi*. Otlarning ma’no turlari: 1. **Atoqli otlar**: shaxs, joy, tarixiy voqealari, asarlar, astronomik nomlar, atab qo‘yilgan nomlar: *Shohista, Toshkent, Navro‘z bayrami, “Kecha va kunduz” romani, Cho‘lpon yulduzi, Arslon*. 2. **Turdosh otlar** – bir turdagisi narsa va hodisalarining umumiyyati nomi: *kitob, daftар, daraxt, shahar*.

Qo‘sishimchalar (affikslar) – so‘z yasash va o‘zgartish uchun qo‘llangan morfemalardir. Qo‘sishimchalarining turi: 1. Yasovchilar – yangi so‘z yasovchi qo‘sishimchalar: *ish+chan, tosh+loq; no+aniq, be+aql*. 2. Turlovchilar – so‘zning grammatik ma’nosini yuzaga keltiruvchi qo‘sishimchalar kelishik, egalik, ko‘plik va b. qo‘sishimchalar. 3. Tuslovchi qo‘sishimchalar – fe’lning zamoni, shaxs-son ma’nolarini yuzaga chiqaruvchi qo‘sishimchalar: *yoz+di+m, yoz+di+lar*.

Ravish – ish-harakatning belgisini (holati, payti, maqsadi, o‘rni, sababi, miqdor-darajasini) bildiradi: *sekin gapirdi, kecha keldi, atayin kelmadi, olg‘a yurdi, noiloj indamadi, kam gapirdi*.

Ravishdoshlar – ham fe’lli, ham ravishlik belgilarini bildiradi: *o‘qib, yoza-yoza, gapirgach, kelguncha, yozgali*.

Sifat – narsa va shaxslarning rang-tusi, shakli, mazasi, hajmi, holatini ifodalovchi so‘z turkumidir: *qizil olma, egri tayoq, shirin qovun, chuqur hovuz, sovuq havo, saxiy odam.*

Sifat darajalari – belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi shakllaridir. 1. **Orttirma daraja** – *qop-qora, oppoq.* 2. **Qiyosiy daraja** – *shirinroq, kaltaroq.* 3. **Ozaytirma daraja** – *qizg‘ish, qoramtil.*

Sifatdoshlar – ham fe’llik, ham sifatlilik belgisini bildiradi: *kelgan (odam), kelar (kunlar), kelgusi (bahor), kelajak (zamon).*

Son – narsalarning miqdorini, son jihatdan tartibini bildiradi: *birinchi, ikkinchi, ikkov, oltov, to‘qqizta, o‘nta, beshtacha, o‘ttiztacha, o‘ntadan, yuztadan, uchdan bir.*

So‘z – nutqning ma’no anglatuvchi qismi. **Tub so‘z** – yolg‘iz o‘zakdan hosil bo‘ladi: *kitob, kalom, ona.* **Yasama so‘z** – bir yasovchi qo‘sishchaning so‘z o‘zagiga qo‘shilishidan hosil bo‘lgan so‘z: *kitobxon, ishchi, bog‘bon.* **Juft so‘z** – ma’nosini bir-biriga yaqin ikki o‘zakdan tuziladi: *qozon-tovoq, o‘rik-olma, keldi-ketdi.* **Qo‘shma so‘z** – ikki va undan ortiq so‘zlarning qo‘silib, bitta ma’no ifodalashi: *Oltiariq, kelib ketdi, gultojixo roz.* **Qisqartma so‘z:** *BMT, O‘zMU.*

So‘z turkumlari – so‘zlarning ma’nosini va grammatik xususiyatlariغا ko‘ra turlarga bo‘linishidir. 1. Mustaqil so‘z turkumlari: *ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.* 2. Yordamchi so‘z turkumlari: *bog‘lovchi, ko‘makchi, yuqlamalardir.* 3. Modal so‘zlar. 4. Undovlar. 5. Taqlid so‘zlar.

So‘z yasalishi – biror morfologik yoki sintaktik vosita bilan yangi so‘z yasalishi: 1. Morfologik usul: yasovchi qo‘sishchalar orqali: *ish-chi, aql-li.* 2. Sintaktik usul: so‘zlarning qo‘silishi orqali: *belbog‘, iqror bo‘lmoq.*

Tasviriy va taqlidiy so‘zlar – hayvon, tabiat hodisalarning ovozlariga taqlid qiladi: *g‘a-g‘a, shir-shir, gurs-gurs, viz-viz, qiqir-qiqir* va b.

To‘liqsiz fe'l – edi, ekan, emish, esa bo‘lib, harakatning ma’lum zamон yoki maylda bajarilishini ifodalash uchun qo‘llanadi.

Undovlar – his-hayajon, xohish, quvonch, qayg‘u, nafrat, chaqiriq kabi ma’nolarni ifodalaydi: *eh, o, oh, voy, tuf, hoy, hey, barakalla, qulluq, beh-beh, kisht* va b.

Yuklamalar – so‘roq, taajjub, chegaralash, kuchaytiruv kabi ma’nolarni ifodalaydi: *Siz-chi? Siz-a? Keldimi? Ko’zgagina.*

Zamon qo’shimchalari – ish-harakat, voqeа, hodisaning ma’lum bir paytda ro‘y berishini ifodalaydi. O‘tgan zamon – ish-harakatning o‘tgan zamonda ro‘y berishini ko‘rsatadi: *o‘qidi, o‘qigan, o‘qilgan edi, o‘qib edi, o‘qibdi.* Hozirgi zamon – ish-harakatning hozir ro‘y berishini ko‘rsatadi: *o‘qiyapman, yozayotir, ko‘rinyapti.* Kelasi zamon – ish-harakatning hozir ro‘y berishi ni ko‘rsatadi: *kelaman, borarsan, borajak, borgusi.*

O‘zak – so‘zning tub ma’nosini ifodalab, ma’no anglatuvchi qismlar ga bo‘linmaydi: *o‘qituvchi so‘zida o‘zak o‘qi, bog‘bon so‘zida o‘zak bog‘.*

Shaxs – harakat, belgi, xususiyat, narsaning kimga qarashli ekanini ko‘rsatish: I, II, III shaxslar birlikda yoki ko‘plikda bo‘ladi (I shaxs – *men* va *biz*; II shaxs – *sen* va *siz*, III shaxs – *u* va *ular*).

4. SINTAKSIS

Ajratalgan gap bo‘laklari – gap tarkibidagi biror gap bo‘lagining ma’nosini izohlab, ajratib, qabartirib ifodalash usulidir: *Mavjud ikki vazir – Xo‘ja Ato va Abdulxoliq – devondagi ishlarni boshqarib ulgurmas edilar. (O.) Ismi Barlos – sodda, dilovar – ov va qush ilmining piridir. (O.)*

Aniqlovchi – shaxs va narsalarning belgisini, kim va nimaga qarashli ekanini bildiradi: *chiroqli kitob* (sifatlovchili), *bizning maktabimiz* (qaratqichli).

Ega – ma’lum gapda ifodalangan ish-harakat, belgining egasidir: *Dadaboy – aqli odam. Bahor keldi.*

Evfemizm – qo‘pol, beodob, noqulay so‘z va so‘z birikmalarini so‘zlashuv tiliga xos qulay so‘z va so‘z birikmalarini bilan almashtirish: *bo‘g‘oz* – ikkiyat, homilador; *xotin oldi* – uylanadi, *o‘ldi* – vafot etdi, qazo qildi. Ba’zan evfemizm tabu bilan bog‘lanadi: *chechak* – gul, *er* – dadasi.

Frazeologik birikma va gaplar – turli his-hayajon ifodalovchi ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarini yoki gaplardir. Frazeologik birikma: *Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o‘rgangan*

edi. (O.) Frazeologik gap (butunlik): Hali ham ko 'chalar yog 'tushsa, yalagudek (O.)

Gap – ma'lum fikr ifodalagan, grammatic jihatdan shakllangan so'z va so'zlar birikmasidir. Darak gap – ma'lum bir voqea, hodisa, narsalar to'g'risida xabar beruvchi gaplardir: *Farzandlari misl-siz botir, Mamlakati hur, bexavotir.* (H. G.) So 'roq gap – biror voqea, hodisa, narsalar to'g'risida so 'rovchi gaplardir: *Nima maslahat berasiz?* (A.Q.) Buyruq va undov gap – his-hayajon, buyurish, iltimos, maslahat ifodalovchi gapdir: *Bu ishni tek-shiring. Yo 'lchi, chirog 'im, suvni tezlating.* (O.) Ko 'rkam babor!..

Hol – ish-harakatning qanday ro'y berishi, o'rni, paytini ifodalaydi: *tez keldi, kecha ketdi, tog'dan tushdi, xursandligidan kulib yubordi, sekin gapirdi.*

Idioma – o'z asl ma'nosidan uzoqlashgan so'z va so'z birikmasi. Shuning uchun ham ular real bo'limgan ko'chma mazmunli voqea, holat, xususiyatni ifodalaydi: *latta (odam). Majlisda uni "rosa terlatishdi". Jinday gapga aralashdi.* Idiomaning mazmuni kontekstdan anglashilib turadi. Idiomalarni alohida olganda ham o'z ko'chma ma'nosini saqlaydi: *latta, kalla, tulki (odamga nisbatan).*

Kesim – gapda asosiy maqsad, belgi-xususiyatni ifodalaydi. **Fe'l-kesim** – fe'l turkumidagi so'z orqali ifodalanadi: *U maqsadiga erishdi.* **Ot-kesim** – ot, sifat, son, olmosh, ravishlar orqali ifodalanadi: *Kitob – bitmas xazina. Olmaning rangi – qizil.* 1. **Kirish gaplar** – gapning umumiyligi mazmuni yoki ayrim bo'lagiga munosabat bildiradi. *Yaxshilik, menga qolsa, tushga kirmagan bir yaxshilik.* (O.) *Qирг 'из О'рзо... биттагина со 'лкавоynи (kim biladi buni qachondan beri saqlab kelgan) chiqarib, sekingina tashladi.*

Kirish (kiritma) so'z va so'z birikmalari – gapning umumiyligi mazmunga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi: *Darhaqiqat, xalq uchun ulug' ish qilyapmiz, o'g'lim.* (Sh.R.) *Siz bu gaplardan bexabarsiz-da, albatta.* (A.Q.)

Kontekst – so'z va iboralarning ma'lum gapda qo'llanishi.

Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. **Ko'chirma gap** – o'zgalarning

gapi aynan keltirilgan gaplar: – *Yana qanday xizmat bor, – deb so‘radi xushmo‘ylov yigit. (H.G’.)* – *Buloqlarning zilol suvi hech qanday iflosliklar bilan bulg‘anmasin!* – dedi Bekbo‘ta. (Sh.R.) *Muallif gapi – so‘zlovchining bevosita gapi.* Javob o‘rniga o‘zicha so‘zladi: – *Ota-ana orzusi...* (A.Qod.) **O‘zlashtirma gap** – o‘zgalarning gapini muallifning o‘z so‘zi bilan ifodalashi: *U operatsiya yomon o‘tmaganini, nimaiki kerak bo‘lsa, hammasi qilinganini, noumid bo‘lmasligini aytdi. (Mirm.)*

Matn – ma’lum maqsad yoki fikrni sodda, qo‘shma yoki murakkab gaplar orqali ifodalagan yaxlit nutq birligidir.

Qo‘shma gaplar – shaklan va ohangda birikib, ma’lum bir umumiyl fikrni ifodalovchi ikki va undan ortiq gaplar qurilmasidir. **Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar** – o‘zaro biror grammatik bog‘lovchisiz, yolg‘iz ohang bilan birikkan qo‘shma gaplardir. *Botirlari kanal qazadi, Shoirlari g‘azal yozadi. (O.) Yurt betinch – sen betinch. (Maqol)* *Xo‘ja G‘iyosiddin Hirotdagi boy mashhur zotlarni go‘zal taqlid qildi:* o‘tirganlar o‘rinlaridan qozg‘almay qoldilar. (O.) **Bog‘langan qo‘shma gaplar** – o‘zaro teng bog‘lovchilar bilan birikkan, mazmun va tuzilishiga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan qo‘shma gap turidir: *Mayli, siz keling bu mahalladan yo biz ko‘chib ketamiz. (A.Q.) Yana o‘ylashib ko‘ramiz, har holda so‘zingni yerda qoldirmasman, lekin unday nojo‘ya so‘zdan qayt. (O.) Qon to‘la tepadi jonon yuraklar va shu yuraklarda jahon yashirin. (G’.G’.)* **Ergash gapli qo‘shma gaplar** – tobe bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan birikib, biri ikkinchisiga tobe bo‘lgan gaplar birikmasidir. **Bosh gap** – izohlanayotgan gap bo‘lsa, **ergash gap** – uni izohlovchi gap bo‘ladi: *Halol mehnat qilish eng yaxshi odat, chunki mehnat berdi bizga saodat. (G’.G’.) El-u yurting omor bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas. (Maqol)* *Qirq kunda butun yopirilib, kattakon Fargona kanalin qazdik. (G’.G’)*

Ritorik so‘roq gap – mazmunidan tasdiq, biror his-hayajon, tashviq kabi mazmun anglashilgan so‘roq gap shaklidagi gaplardir: *Qishda shunday chiroyli ko‘ringan bu hovli yozda qanday bo‘lsa ekan. (O.) Saharga yaqin Achchiga ketayotgan edim,*

ro 'paramdan yo 'bars chiqib qolsa bo 'ladimi? (O.) Eh-he, sak-kiz soatda o 'rnatdilaringmi? (As.M.)

So'z birikmasi – ikki va undan ortiq so'zlarning mazmunan va shaklan birikishidir. **Teng birikma** – bir xil vazifada kelgan gap bo'laklari: *kitob va daftар, olma, anor*. **Tobe birikma** – tobe va hokim so'zlar birikmasi. Tobe so'z biror qo'shimcha olmay yoki hokim so'z talabi bilan kelishik qo'shimchasi olishi yoki ko'makchi bilan birikishi mumkin: *yaxshi bola, kitobni oldi, siz uchun yozildi*.

Tinish belgilari (punktuatsiya) – gaplarning sintaktik, mazmun va ohang jihatidan bo'linishini yozuvda ifodalash usuli. Bu belgilar: *nuqta, so 'roq, undov, ko 'p nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, qavs, qo 'shirnoq*. Tinish belgilari birikib keliishi ham mumkin. **Chiziqcha** – juft va ba'zi qo'shma so'zlarda, bog'lovchi hamda yuklamlardan oldin qo'llianuvchi ishora: *qishin-yozin, do 'st-u dushman, sen-a*.

To'ldiruvchi – ish-harakatning obyektini ifodalovchi bo'lak. **Vositasiz to'ldiruvchi** – harakat qaratilgan obyekt: *kitobni oldi*. **Vositali to'ldiruvchi** – harakat, belgini o'ziga biror vosita bilan olgan obyekt: *nondan oldi, ko 'chaga chiqdi, suv bilan ichdi*.

Undalma – nutq qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni ifodalagan so'z yoki so'z birikmasidir: *She'r aytgim kelyapti, aziz do 'stlarim. She'r aytgim kelyapti, go 'zal Farg'on'a. (G'.G') Vatandoshlar! Eshiting! Haqiqat ovoziga quloq soling!* (M.Ibr.)

Uslubshunoslik – so'zlovchi yoki yozuvchining ifodalanayotgan fikruga, voqeа, hodisaga shaxsiy munosabatini ifodalashdir. Uslub turlari: *ilmiy, badiiy, rasmiy, ommabop*.

Uyushiq bo'laklar – gapda bir vazifadagi birdan ortiq bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklarining qo'llanishidir: *Yoz kelib, o'rik, olma, shaftoli pishdi. Shahar, tuman, mahallalarning ko'rki borgan sari ortib bormoqda*".

QISQACHA PARONIMLAR LUG'ATI

A

Abadiy – mangu
Abro‘ – qosh
Abzal – ot, eshak egar-jabdug‘i
Abgor – nochor, xarob
Adib – yozuvchi
Adl –adolat, odillik
Adresat – xat, telegramma oluvchi

Azm – qat‘iy qaror, jazm
Ayon – ma'lum, ravshan
Alamon – olomon
Alo – ustiga: “Nur alo nur”
Alam – jismoniy og‘riq
Alpoz – axvol, vaziyat, holat
Amr – buyruq, farmon

Ariq – suv oqadigan joy
Artish – tozalash
Asl – tub, negiz, haqiqiy
Ato – in’om, sovg‘a
Achipti – oshiq o‘yini turi
Ahil – totuv, inoq

Adabiy – badiiy adabiyotga oid
Obro‘ – e’tibor, hurmat
Afzal – a’lo, yaxshi
Afkor – fikrlar
Adip – ko‘rpa, to‘n chetidagi mag‘iz
Adil – tik, egilmagan
Adresant – xat, telegramma yubo-ruvchi

Azim – g‘oyat katta, ulkan
A’yon – amaldorlar
Al’amon – omonlik uchun murojaat
A’lo – eng yuqori, eng yaxshi
A’lam – diniy arbob, bosh mufti
Alfoz – lafzlar, so‘zlar, iboralar
Amir – podsho, xon (qad. Bux-oroda)
Oriq – ozg‘in
Archish – po‘stlog‘idan ajratish
Asil – a’lo sifatli, eng yaxshi, toza
Ota – farzandli er kishi
Achibdi – (qatiq) achibdi
Ahl – bir soha odamlar

B

Bad – yomon, yaramas
Badnafas – nafasi sovuq
Bayan – musiqa asbobi
Bazo‘r – zo‘rg‘a
Bekor – ishsiz
Ball – baho o‘lchovi birligi

Ba’d – keyin, so‘ng
Badnafs – nafsi buzuq
Bayon – yozma ish
Bazur – bahuzur, bemalol
Bakor – koriga yaramoq
Bal – raqs kechasi

Bant – sochga taqiladigan lenta
Bormoq – borish
Biron – biror
Bikir – pishiq, baquvvat
Burov – burash, buramoq
Bop – munosib
Bot – tez, botmoq
Borliq – mavjudot
Boshida – yonida, oldida
Bog‘liq – bog‘langan
But – to‘liq, bekam-u ko‘st
Burch – majburiyat
Burul – xotdor, ko‘kish (ot)
Burg‘u – qadimgi cholg‘u asbobi
Buq‘a – madrasadagi xujra

Band – modda, paragraf; mashg‘ul
Barmoq – a’zo
Biyron – so‘zamol, gapdon
Bikr – iffati qiz, bokira
Birov – kimdir
Bob – kitobning qismlari
Bod – kasallik
Borlik – majudlik
Boshda – avval
Bog‘li – bog‘i bor
Bud – bor-yo‘q narsa
Burj – 12 ta yulduz turkumi
Buril – burilmoq
Burgi – parma
Buqa – yosh erkak qoramol

D

Davo – dori-darmon
Davr – vaqt oralig‘i
Dazmol – kiyim tekislaydigan asbob
Devon – shoirning she’rlari to‘plami
Dala – ekin ekiladigan joy, maydon
Darz – yoriq, yorilgan
Dadil – dovyurak
Diptomat – davlat xizmatchisi
Dub – daraxt

Da’vo – arz, lalab
Dovur – ot yopinchig‘i
Dastro‘mol – qozon yuvgich
Divan – yumshoq mebel turi
Dara – ikki tog‘ oralig‘idagi jarlik
Dars – mashg‘ulot, saboq
Dalil – isbot
Diplomat – diplom yozuvchi kishi
Dup – tovushga taqlid bildiruvchi
so‘z

E

Ellik – son
Esiz – attang, afsus
Ehzon – qayg‘u hukm surgan kulba

Enlik – ikki enlik (xat)
Essiz – esi yo‘q, nodon
Ehson – hayrli ish, ezgulik

F

Faqir – kambag‘al

Paqir – chelak

G

Ganj – boylik, xazina
Gilos – meva

Ganch – suvoq materiali, alebastr
Go'los – to'q jigarrang

I

Ilk – avvalgi

Ilik – suyak ichidagi yog'simon modda

J

Jodi – o't qirqadigan asbob
Juda – eng, g'oyat

Jodu – sehr
Judo – ayrliliq

K

Kampaniya – ma'lum kishilar tizimi
Kaft – qo'lning qismi
Kat – yog'och karavot
Kvadrat – teng yoqli to'rburchak
Kontakt – aloqa, bog'lanish
Kuyindi – kuyishdan qolgan iz

Kompaniya – korxona, birlashma
Kift – yelka
Kart – kart dumba
Kvadrant – doiraning choragi
Kontrakt – shartnomalar
Kuyundi – kuyunmoq

L

Lahm – suyaksiz go'sht
Lop – birdan

Lahim – yer osti yo'li
Lof – mubolag'a

M

Matal – hikmatli so'zlar
Metr – uzunlik o'tchovi: 100 sm

Ma'tal – kutib qolgan, muntazir
Metr – hum bildiruvchi so'z (frans.)

N

Nasha – narkotik modda
Naq – xuddi, ayni
Nufuz – obro', o'tibor

Nasha – estetik lazzat, huzur
Naqd – puli darhol to'lanadigan
Nufus – aholi

O

Olu – olxo'ri
Ora – o'rta

Oluv – olish
Oro – pardoz

Oxir – chegara, poyon

Oqlik – oq ranglik

Orasida – o‘rtasida, ichida

Otalik – ota

Oxur – hayvonlarga yem solinadi-gan joy

Oqliq – sut mahsulotlari

Orasta – bezatilgan, yasatilgan

Otaliq – homiy

Q

Qad – qomat

Qayd – ta’kid

Qala – o‘tinni taxla

Qalmoq – millat

Qarz – qaytariladigan pul, buyum

Qari – keksa, mo‘ysafid

Qat’i – qat’i nazar

Qiyq – tovush: qiyq etdi

Qiymat – baho

Qism – bo‘lak

Qolib – qolmoq

Quyildi – oqdi

Qur’a – qura boshladi

Qurt – hasharot

Qat – qavat, qatlam

Qayt – o‘qchish, qo‘sish

Qal’a – shahai

Qolmoq - qolish

Qars – tovush: qars etdi

Qa’ri – chuqur yeri, osti, ichi

Qat’iy – uzil-kesil

Qiyiq – qiyilgan; ro‘mol

Qimmat – narhi baland

Qisim – siqim

Qolip – oyoq kiyimi moslamasi

Quyuldi – quyuqlashdi

Qur’a – chek

Qurut – suzma, qurut

S

Sayd – ov

Sanat – sanatmoq

Saqov – ot, eshaklar kasalligi

Suyulmoq – sevilmoq

Surat – rasm

Surgin – surmoq

Sayid – Muhammad payg‘ambar avlodlari

San’at – badiiy ijodiyot turi

Soqov – gung, tilsiz

Suyulmoq – suyuqlashmoq

Sur’at – tezlik, temp

Surgun – badarg‘a

T

Ta’b – kishining ichki tabiatи; mijoz

Talat – talatmoq

Tambur – vagon kiraverishidagi
bo‘lma

Tab – taft, harorat

Tal’at – yuz, chehra

Tanbur – cholg‘u asbobi

Tana – gavda	Ta’na – gina-qudurat
Tarif – baholar ko‘rsatkichi	Ta’rif – tavsif, tasvir
Tasir – tasir-tusur	Ta’sir – tazyiq
Taqib – taqib ko‘ydi	Ta’qib – yashirinchcha kuzatish
Tib – meditsina	Tip – toifa
Tub – tag, ost	Tup – o‘simlik, daraxtning har donasi
Tutin – tuginmoq	Tutun – olov tutuni

U

Uzik – uzilgan	Uzuk – taqinchoq
Uyim – mening uyim	Uyum – to‘da
Ulish – ulimoq (it, buri)	Ulush – bo‘lak, hissa
Unim – (mening) unim	Unum – hosil, baraka
Urish – urmioq	Urush – jang

V

Vaqf – diniy muassasa mulki	Voqif – xabardor
Vaqe – sodir (bo‘lmoq)	Voqea – hodisa

X

Xayoli – o‘yi, fikri	Hayoli – iffatlì
Xalq – el, ulus	Halq – halqum
Xam – egik, quyi solingen	Ham – (men) ham
Xar – eshak	Har – har kim
Xiyol – sal, ozgina	Hayol – o‘y, fikr
Xyla – ancha	Hyla – makr, firib
Xil-xil – turli-tuman	Hil-Hil – hil-hil (pishgan)
Xirs – ayiq	Hirs – kuchli istak, intilish
Xol – badandagi qora tug‘ma dog‘	Hol – ahvol
Xoji – yolg‘iz, bo‘sh, band emas	Holi – ahvoli
Xosiyat – xususiyat	Hosiyat – his etish
Xur – tovush: xur-xur	Hur – erkin, ozod
Xush – yaxshi, ma’qul, durust	Hush – ong, aql, idrok, es-hush

Y

Yagana – ekinni siyraklatish
Yetdi – yetib bordi
Yondash – yaqinlash
Yoriq – yorilgan
Yuvindi – suv bilan tozalandi

Yagona – yakka, tanho, yolg‘iz
Yetti – son
Yondosh – yonidagi
Yorug‘ – nur
Yuvundi – iflos suv

Z

Zafar-g‘alaba

Za’far – sapsariq rang

Sh

Sher – hayvon: arslon
Shox – daraxt yoki hayvon shoxi
Shuba – mo‘ynali qishki kiyim

She’r – vazn, qofiyali kichik badiiy
asar
Shoh – podisho
Sho‘ba – bo‘lim, idora

IZOHLI LUG‘AT

A

Abadiy – oxiri, poyoni bo‘limgan; mangu, doimiy

Abajur – lampa ustiga o‘rnataladigan qalpoq

Abgor – yomon ahvolga tushib qolgan; nochor, xarob

Abjir – epchil, chaqqon

Abr – bulut

Abzal – ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo‘sish uchun zarur asboblar ma-jmui

Adad – ko‘p, ko‘plik, miqdor

Adib – Adabiy asarlar yozish bilan shug‘ullanuvchi kishi; yozuvchi.

Adl – 1. adolat; 2. odillik

Adab – jamiyatda kishilar bilan muomalada o‘zini tuta bilish, axloq, tarbiya

Adabiyot – bir xalqning, davrning ilmiy, badiiy, falsafiy va bishqa asarlar majmui

Abstarkt – mavhum

Adolat – odilona va xolisona ish tutish.

Afgor – jarohatlangan, majruh

Aftoda, uftoda – 1. yiqilgan; 2. xor; 3. zaif, nochor

Afg‘on – nola, fig‘on

Ahad – yolg‘iz, yagona

Ahl – 1. istiqomat qiluvchi; 2. odamlar, guruh; biror toifaga mansub kishilar guruhi

Ahkom – hukmlar, qonunlar

Aholi – xalqlar, bir joyda yashovchi

Ajun – olam, dunyo

Akbar – eng ulug‘, eng katta

Akobir – ulug‘lar, kattalar

Aks – teskari

Aksiya – paychiga beriladigan qimmatbaho qog‘oz

Aksioner – paychi

Akt – dalolatnoma

Aktiv – faol

- Alfoz** – lafzning ko‘pligi
- Alhaq** – borliqning haqiqati, haqiqiy, bor, mavjud
- Alhol** – hozirda, shu paytda
- Alif** – eski alifboning birinchi harfi; abjad bisobida 1 ga teng
- Aljabr** – algebra
- Al’omon** – 1. omonlik berish; 2. omonlik berishga chaqiriq
- Alfoz** – lafzlar, so‘zlar; tariqa, zayl
- Alvon** – qizil ip gazlama
- Ajdarho** – afsonaviy yirik ilon
- Al - qizil**
- Amal** – umid, istak, orzu; ish-harakat
- Amin** – 1. O‘tmishda daha boshlig‘i yoki qishloq oqsoqoli; 2. bildirilgan fikrga, sodir bo‘lajak voqeа-hodisaga ishonch
- Amir** – xonlik, podsholik unvoni hamda ushbu unvon egasi.
- Anjuman** – keng ko‘lamli, katta muammolarni hal qilishga bag‘ishlangan yig‘in, majlis.
- Amn** – xavfsiz bo‘lish
- Andoza** – 1. O‘Ichov; 2. Miqdor
- Anduh** – g‘am, qayg‘u
- Anis** – do‘st, yor
- Anjuman** – majlis, yig‘in
- Antiqa** – 1. Kamyob, kishini hayratda qoldiradigan narsa va hodisalarni tas-virlovchi so‘z; 2. Qorako‘l terining bir turi
- Aniqlovechi** – predmetni ifodalovchi so‘zga bog‘lanib, uning belgisini ang-latadigan bo‘lak
- Anvar** – juda nurli, eng yorug‘
- Anqo** – afsonaviy ulkan qush (noyoblik ramzi).
- An’ana** – avloddan-avlodga o‘tib, davom etib kelgan urf-odatlar, axloq me’yorlari, qarashlar va sh. k.
- Arafa** – ramazon yoki qurbon hayitidan, shuningdek, muhim bir voqeа-hodisalardan oldingi kun.
- Arbitr** – hakam
- Arenda** – ijara
- Arxitektor** – me’mor
- Arbob** – 1. fan, madaniyat, san’at sohasida yoki davlat ishida o‘z faoliyati bilan tanilgan shaxs; 2. O‘tmishda qishloq, mahalla oqsoqoli
- Arjumand** – qadrli, hurmatli, e’tiborli
- Art** – tepa, dovon

Arg‘uvon – qip-qizil bo‘lib gullaydigan daraxt
Arvoh – g‘ayrioddiy, o‘lmas ruh, o‘tgan odamlarning ruhi.
Arsh – osmonning eng yuqorisi; oliy taxt
Asad – sher; falakning 12 burjidan birining nomi; Quyosh yilining 5-oyi
Asig‘ – foyda, naf
Asru – juda, haddan ziyod, ortiq darajada
Atfol – tifi (bola)ning ko‘pligi
Asror – sirlar, yashirin narsalar
Atama – fan-texnika yoki muayyan kasb-korga oid so‘z
Atfol – go‘dak, yosh bola
Auksion – kim ochdi savdosi
Avaxta – turma
Avbosh – bebosh, sayoq bezori, daydi
Avizo – hisob-kitob operatsiyasi
Avliyo – 1. bashorat qila oladigan odam 2 valiyning ko‘pligi
Avom – oddiy xalq ommasi
Avra – kiyim yoki ko‘rpaning sirtqi qavati
Avtor – muallif
Ayg‘ir – 3–4-yosh o‘rtasidagi erkak ot
Aymoq – demoq, gapirmoq
Ayru – 1. ayrilgan, ajralgan; 2. ayrilib, ajralib
Aysh – kayf-safo, ishrat
Aziyat – ozor, azob, uqubat
Ashraf – eng sharaflı
Ashyo – har qanday narsa, buyum
Ag‘yor – g‘ayr (o‘zga)ning ko‘pligi
Ashk – ko‘z yoshi
Aqd – bog‘lash, nikohlash
Axiy – birodar, oshna

B

Badbo‘y – bo‘yi, hidi yomon; qo‘lansa, sassiq.
Badal – evaziga beriladigan narsa
Bafurja – xotirjamlik bilan, shoshmasdan, bamaylixotir.
Bahr – dengiz
Bahramand – bahra oluvchi, manfaatdor
Bahrayn – bahrning ikkiligi, ikki dengiz
Bajo – 1. O‘rniga, joyiga; 2. O‘rinli, mos keladigan
Bahrom – Mars sayyorasi

Bakovul – 1. Podshoh, amir, xon saroyida ularga atalgan ovqatdan totib ko‘rvuchi va ovqat tayyorlash ishiga mas’ul mansabdar. 2. Oshpaz.
3. Tayyorga ayyor odam haqida.

Bakalavr – to‘rt yoki besh yillik oliy ma’lumot tizimi

Balans – narsalarninig o‘zaro muvofiq salmog‘l, muvozanat

Baliyat – musibat, ranj, mashaqqat, balo

Bankrot – qarzini to‘lashga qurbi yetmagan korxona, savdogar

Banogoh – birdan, to‘satdan

Batsiq – g‘arb

Bayt – ikki misra she’r

Baytal – urg‘ochi ot

Bayon – narsa, voqeа-hodisadan tasvirиab yozish

Bayonnoma – rasmiy bayonot, tushuntirish

Baxil – qizg‘anchiq, xasis

Barq – chaqmoq, yashin

Barqaror – qaror topgan, qat‘iy, uzil-kesil o‘rnashgan, mustahkam.

Barter – mol almashtirish

Baxshi – xalq dostonlarni kuylovchi shoир, oqin.

Bashar – inson, odamzod

Bashorat – oldindan ko‘ra bilish, oldindan ayтиb berish.

Baqo – davom etish, saqlanish

Bedil – oshiq, maftun

Bedov – kulrang, arabiy chopqir ot

Behbud – sog‘lomlik

Benazir – tengsiz, o‘xhashi yo‘q

Benavo – faqir, bechora, notavon

Bekat – qatxiov yo‘llaridagi to‘xtash joyi, manzil

Beshotar – besh o‘qli miltiq

Biznes – shaxsiy boylik, foyda orttirishga qaratilgan ish

Biznesmen – tijorat bilan shug‘ullanuvchi shaxs

Bilik - bilim

Billur – xrustal, kumush aralashtirib quyilgan va ishlov berilgan shishana-mo buyumlar; xomashyo.

Billoh-hudo haqqi

Bilmon - bilmayman

Birja – qimmatbaho qog‘ozlar va turli mollar bilan savdo-sotiq qiladigan muassasa

Bitig – yozma, yozma asar

Biya – bolasi bor baytal
Bod – shamol, yel; beldagi og‘riq
Boda – may, sharob
Boj – savdo sotiq, chet ellardan keltirilgan mol uchun to‘lov
Bodiya – jom, mis idish; cho‘lu biyobon, sahro
Boloxona – yuqorida, balandda qurilgan xona
Bois – sabab, sababchi, bahona
Bol – asal
Bomdod – erta bilan kun chiqmasdan o‘qiladigan birinchi namoz.
Boqiy – davomli, uzlusiz, abadiy
Bot – tez, ildam, darrov
Botil – puch; noto‘g‘ri, asossiz
Bog‘lovchi – gap bo‘laklari va gaplarni o‘zaro bo‘g‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z
Boshoq – arpa, bug‘doy kabi o‘simliklarning doni yetiladigan bosh qismi
Boqiy – davomli, uzlusiz, abadiy
Broker – rasmiy dallol
Budget – kirim-chiqim hisobi
Budun - xalq
Burj – quyoshning yillik harakati doirasidagi o‘n ikki nuqtaning har biri;
qal‘aning cho‘qqisi
Burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa, majburiyat.
Butradi – tarqaldi, ketdi
Buyurtma – biror narsani ishlab berish haqida topshiriq
Buta – tagidan shoxlab o‘sadigan mayda daraxt.
Buzrug – ulug‘, katta
Byurokrat – rasmiyatchi
Bo‘gu - dono
Bo‘yra – qamishdan yasalgan yer-to‘shak
Bo‘yinbog‘ – 1. Galstuk; 2. Uy hayvonlarining bo‘yniga bog‘lanadigan ar-qon yoki qayish

D

Daha – 1. Shaharning ma’muriy, hududiy bo‘limi. 2. Ipak qurtining uyquga kirish pallasi.
Daho – 1. Oqillik, fikr-farosatda kamolotga erishganlik; 2. Ijodda iste’dodning yuksak cho‘qqisiga yetganlik; 3. O‘ta iste’dodli va qobiliyatl shaxs
Dalil – isbotga asos bo‘lgan narsa

Dalolat – 1. Biror ishga undab berilgan maslahat, biror ishga undash. 2. Dalil, dalillar.

Dam-badam – uzlusiz, har doim

Dara – ikki tog‘ning oralig‘idagi tor yo‘lak

Darbadar – daydi, sayoq

Daroz – uzun, chegarasi noma'lum

Dandon – tish

Darvesh – faqir, yo‘qsil; tariqatda faqir yo‘lini tutgan

Dastgoh – hunarmandlarning, kosiblarning, to‘qimachilarning ish quroli.

Dastur – ish-harakat uchun qo‘llanma, yo‘l-yo‘riq, nizom.

Daqiqa – soatning oltmishdan bir bo‘lagi

Dag‘dag‘a – do‘q, po‘pisa

Dag‘i – 1. Tag‘in, yana; 2. Hamda

Devona – telba, esi past, oshiq

Dekloratsiya – 1) hokim bayonoti; 2) chegaradan olib o‘tish uchun ariza;
3) daromad to‘g‘risidagi ma'lumot

Dialog – muloqot

Dilbar – ko‘ngil oluvchi, mahbub

Dildor – ko‘ngil oluvchi

Dilkash – kishi suhabatlashsa, zavq, lazzat otadigan, suhbat shirin, xushsuh-bat.

Dilovar – 1) yo‘l ko‘rsatish; 2) dalil keltirish; guvohlik

Disketa – magnitlangan egiluvchi disk

Dilozor – kishining diliiga ozor beruvchi, kishini ranjituvcchi, muomalasi sovuq

Dinor – pul

Diyonat – vijdonlilik, insof.

Dom – to‘r, tuzoq

Domla – 1) diniy maktab va madrasalarda dars beradigan muallim; 2) olyi va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ilmning biror sohasidan dars beruvchi kishi; 3) bilimdon, muhtaram shaxs

Dolu – to‘r, tuzoq

Dono – bilimdon olim

Dotatsiya – davlat tomonidan berladigan pul

Dovud – payg‘ambarning nomi

Dublikat – asl nusxaning ko‘chirmasi, kopiyasi

Dur – injuning, gavharning yirik turi, marvarid

Durbor – dur yog‘diruvchi, qimmatli so‘z aytuvchi

Durdona – marvaridning bir donasi

Do‘nan – uch yoshga to‘lib, to‘rt yoshga o‘tgan ot

E

Elat – 1. Kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligi.

2) El, xalq, qabila. 3) Bir joylik yoki bir qabilaga, urug‘ga mansub kishilar.

Elig - hukmdor

Elchi – xabarchi

Ehson – sovg‘a, in‘om

Ehtiyoj – biror narsaga bo‘lgan talab, hojat, zarurat

Elchi – 1) bir mamlakatning, boshqa mamlakatdagi ishonchli vakili:

2) xabarchi, darak beruvchi

Ega – kesim tarkibidagi shaxs-son ma’nolarini izohlab keluvchi gap bo‘lagi

Erik – mard, botir, erkin

Erkinlashtirish – liberallashtirish, yumshatish

Ev - uy

E’tirof – qayd, tasdiq

E’tiqod – aqidaga ega bo‘lish, ishonch

F

Falaj – kasallik, harakatsiz bo‘lib qotish

Faol – biror ishga g‘ayrat bilan kirishadigan, ishchan

Farishta – 1) Allohning topshiriqlarini ijro etuvchi, g‘ayritabiyy maxluq;
2) yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lgan beozor go‘zal shaxs

Farmon – biror ishning bajarilishi haqida beriladigan buyruq, topshiriq

Farog‘ – ozod bo‘lish, qutulish; tinchlik, orom

Farog‘at – osudalik, tinchlik

Farrux – baxtli, saodatli, omadli

Farzang – uzunlik o‘lchovi (1 farsang 6 km.ga teng)

Fath – g‘alaba

Faqir – 1. Moddiy jihatdan nochor, kambag‘al, qashshoq. 2) Kamtarlik ifodasi sifatida 1-shaxs o‘rnida yoki “men”, “biz” olmoshlari bilan birlikda ishlataladi.

Fayz – o‘ziga jalb qiladigan, zavq-shavq bag‘ishlaydigan xususiyat, jozibadorlik, issiqlik, ko‘rk

Faylasuf – donolarcha muhokama yurgizadigan, shu fan sohasi kishisi.

Fazilat – ijobiy xislat, yaxshi sifat yoki xususiyat.

Fermer – ferma egasi

Firma – savdo yo sanoat korxonasi

Fizika – harakat, yorug‘lik, vazn qonunlarini o‘rganuvchi fan

Fidoyi – biror kimsa, narsa yoki g‘oyaga astoydil berilgan, uning uchun jondan kechishga ham tayyor, sodiq

Filhaqiqat – darhaqiqat, haqiqatan

Firuz – baxtli, shavkatli

Fitna – g‘avg‘o, to‘s-to‘polon; bosh ko‘tarish, qozg‘alish

Fol – kelajakdan xabar berish

Foniy – yo‘qoluvchi, tugovchi, o‘tkinchi

Fonus – naqshlangan chiroq

Foytun – izvosh, odam tashiydigan purjinali arava

Fozil – fan asoslarini yaxshi egallab olgan kishi, olim

Fundament – poydevor

Furqat – ayriliq, judolik, firoq

Fuqaro – biror mamlakatning doimiy aholisi

G

Ganj – oltin, kumush kabi qimmatbaho ashyolar to‘plami, xazina

Gardun – falak, osmon, osmon gumbazi

Gavhar – tarashlangan va sayqal berilgan olmos.

Gina – biror kimsaga nisbatan dilda saqlangan xafalik, norozilik, kek

Gulgun – gulrang, qizil

Gulrux – gul yuzli, chiroyli, go‘zal

Gulbog‘ – gulzor, chamanzor

Gumroh – adashgan, yo‘lini yo‘qotgan

Guruh – to‘da, to‘p

Gurung – qizg‘in suhbat

Guzar – qishloq yoki mahallalarda, chorrahalarda joylashgan choyxonalari,

qassoblik, baqqoqlik kabi do‘konlari bo‘lgan obod, gavjum va ser-qatnov joy.

Go‘sha – burchak, chekka joy

H

Habib – 1) do‘st; 2) sevikli

Habis – dushman, yomon odam

Hakam – kelishtiruvchi, nizolarni hal qiluvchi, arbitr

Hakim – o‘tkir tabib, doktor, shifokor, donishmand

Hilm – yumshoq tabiatlilik, sabrlilik

Hamida – maqtashga loyiq, yaxshi xislatli shaxs

Hamd – maqtov, olqish

Hamjihat – ahil, ittifoq, inoq.

Hammol – yuk tashuvchi

Hazrat – yuqori martabali shaxs

Haram – kirish man etilgan joy, ichki hovli yoki uy; 2) urush, o'ldirish, mol so'yish man etilgan muqaddas joy

Hassos – hissiyat, chuqur tuyg'u

Hijriy – musulmon yil hisobiga tegishli nom-belgi. Hijriy yil hisobi yil hisobi

Hijron – ayriliq, firoq

Hilol – yangi ko'ringan oy

Himmat – ulush, ehsan

Hojat – zaruriyat, ehtiyoj

Hokim – hukmdor

Hoksor – 1) kamtarin, oddiy, sodda; 2) xor, tuban

Hudud – don, dona

Hulkar – bir guruh yulduzlar nomi

Hudud – had(d)ning ko'pligi

Humo – kimming boshiga qo'nsa yoki soyasi tushsa, u kishi eng baxtli bo'ladi, deb e'tiqod qilinadigan afsonaviy qush, "davlat".

Hujra – xona yashash joyi

Hut – baliq; oyning nomi

Huvaydo – aniq ko'rinish turadigan; aniq, ravshan

I

Ibn-o'g'il

Iqlik – kasal, betob

Ilgi – qoli

Ijara – o'zgalarning narsasidan pul yoki boshqa narsa badaliga foydalanish

Immigrant – chet ellik muhojir

Import – chet el mahsuloti

Ikrom – izzat, hurmat, karam

Inflatsiya – qog'oz pulining ko'payib ketishi va qadrsizlanishi

Inju – marvarid, dur

Ingek - sigir

Innovatsiya – fan texnika sohasidagi yangilik

Inonmoq – ishonmoq

Inoyat – lutf ehsan

Inmoq – tushmoq

In'om – hadya, sovg'a

Ins – inson jinsi, basher ahli

Insوف –adolat va haqiqat bilan ish tutish tuyg‘usi va qobiliyati; ishda kishilar-
ga munosabatda halollik, to‘g‘rilik, vijdon.

Inshoot – turli maqsadlar uchun qurilgan binolar

Intiboh – ogohlaniш va ogohlantirish

Iroda – maqsadni, vazifani va umuman har qanday ishni bajarish, yuzaga
chiqarish uchun kishida bo‘lgan matonat va qat’iyat.

Istig‘no – 1) e’tiborsizlik bilan qarash, ro‘yxush bermaslik, beiltifotlik; 2)
o‘z qiyamatini oshirish uchun o‘zini beparvo qilib ko‘rsatish, noz qi-
lish; noz, karashma

Istig‘for – xudodan gunohni kechirishni so‘rash, qilgan gunohlariga tavba
qilish

Iste’mol – ishlatish, qo‘llash, foydalanish.

Izn – ruxsat, ijozat

Iqtisod – sarf-xarajatda ehtiyyotkorlik, tejamkorlik.

Iqlim – yetti mintaqaning biri; o‘lka yurt, ob-havo

Iraq – kuyning nomi; yiroq, uzoq

Istirohat – xordiq, xordiq chiqaruvchi joy

Ixtisos – ilm-fan, texnika, san’at sohalaridagi mustaqil kasb; mutaxassislik

Ixtiro – yangilik yaratish, o‘ylab topish

Iztirob – betoqatliq, tinchsizlik

Ishbay – bajargan ishiga ko‘ra haq to‘lash

Ishorat – imo, e’tibor qaratish

Ishtiboh – shak-shubha, guman

Ig‘vo – oraga nizo, nifoq solishga, ittifoqni buzishga, buzg‘unchilikka qara-
tilgan xatti-harakat, yolg‘on-yashiq, uydirma, bo‘xton

J

Jabbor – qudratli, qodir

Jalil – buyuk, ulug‘

Jafo – zulm, sitam

Jamil – go‘zal, zebo, sohibjamol

Jamiyat – tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy boyliklar
yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosa-
batlari bilan ifodalanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui

Jarayon – ish-harakat, voqeа-hodisaning rivoji, oqimi.

Jasta – sakragan, irg‘ib chiqqan

Jayron – ohularning Suriyada, Eronda, Afg‘onistonda, Kavkazorti va o‘rta
Osiyoda tarqalgan turi; qoraqulоq.

Javzo – falakning 12 burjidan birining nomi (Quyosh bu burjga 23-mayda kiradi)

Jilov – yuganning charm tizgini

Jobir – zolim, jabr qiluvchi joiz – mumkin: o‘rinli

Junun – jinnilik, telbalik, devonalik

Jilo – silliq yoki sayqallangan, pardozlangan sirtning yaltirashi.

Jism – ma’lum joyni egallab, ishg‘ol qilib turgan materiya, modda.

Johil – jaholatda qolgan, ilm-ma’rifatdan mahrum, qoloq, madaniyatsiz, nodon

Joiz – mumkin, o‘rinli

Jodu – sehr,

Jola – do‘l, yog‘in; 2) shudring

Jom – kosa, qadah

Jovidon – abadiy, doimiy, mangu

Jumhur – respublika jamoa birlashmasi

Jur’at – botinish

Juz’iy – unchalik katta, muhim, jiddiy bo‘lmagan; shunchaki, arzimagan, ahamiyatsiz, jo‘n – oddiy, past navli, sifati past.

K

Kabisa – to‘rt yilda bir keladigan 366 kunlik yil (bunday yilda fevral oyi 28 emas, 29 kun bo‘ladi).

Kafolat – kafillik, ishon xati

Kajraftor – makkor, egri yo‘lga yuruvchi

Kalkulatsiya – bajarilgan ishning o‘lchovini hisoblash

Kalom – so‘z; nutq, gap-so‘z, so‘zlash, gapiresh.

Kamina – kamtarlik yoki odob yuzasidan “men” so‘zi o‘rnida ishlataladi.

Kamolot – voyaga yetmoq, yetuklikka, kamolga erishmoq.

Kavkab – yulduz

Kavsar – jannat bulog‘i

Karam – yaxshilik, ehson, marhamat

Kashshof – kashfiyotchi

Kelbatli – kelishgan, qomatli, bichimli

Kent – shahar, yashash joyi

Kibr – o‘zini katta tutish, viqor

Kilk – qamish qalam

Kollej – o‘rta maxsus o‘quv yurti

Komron – omadli, baxtli; orzusiga yetishgan

Kommersiya – savdo-sotiq ishlari, tijorat

Kompozitor – bastakor

Kompensatsiya – tovon, biror narsa uchun to‘lanadigan haq, badal to‘lash

Konkurensiya – raqobat, o‘zaro kurashish

Konsern – moliyaviy rahbarlik tizimida birlashish

Kooperativ – hamkorlik, birgalashib ishlash, shirkat

Koinot – butun borliq, yer-u osmon, olam.

Kokil – soch o‘rimi

Konsenus – tortishuvchi masala bo‘yicha kelishish

Konstitutsiya – davlatning ijtimoiy va davlat tuzumini, saylov va davlat

tizimining tashkil etilishi va faoliyatini, fuqarolarning huquqlari va
burchlarini belgilab beruvchi asosiy qonun

Kosib – qo‘l ishi bilan shug‘ullanuvchi hunarmand

Korrupsiya – shaxsiy boyish uchun bo‘lgan xatti-harakat

Korxona – ishlab chiqarish tashkilotlari yoki savdo tijorat muassasalari
hamda shunday bo‘limlardan bir nechasining birlashmasi

Kotib – ro‘yxat tuzish, qo‘lyozmalarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan
shaxs, mirza

Kunbotar – g‘arb, quyosh botadigan tomon

Kunchiqar – sharq, quyosh chiqadigan tomon

Kunpayakun qilmoq – buzib, yanchib, yo‘q qilmoq

Kupon – pulga teng qilinadigan maxsus qog‘oz

Ko‘kramak - na‘ra tortmoq

Ko‘lam – biror ish-faoliyatning yoyilishi, qamrov doirasi, hajmi, miqyosi;
rivojlanish, avj olish doirasi.

Ko‘ni – to‘g‘ri, rost, haqqoniy

Ko‘rk – husn, chiroy, go‘zallik.

Ko‘ch – urug‘, zot

L

Lahza – on

Lafz – so‘z, ifoda

Laziz – totli, mazali

Langar – kemani bir joyda to‘xtatib turish uchun suv tubiga tashlanadigan
changak

Liberalizatsiya – kelishish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish, murosaga
sozlik, yumshatish

Likopcha – kichik yassi idish, taqsimcha

Lobar – xushro‘y, yoqimli, dilbar

Loda – ahmoq, beaql

Lomakon – makonsiz, uy-joysiz, ma’naviy olam

Lison – til, lafz

Litsenziya – chetga mol chiraqish yoki keltirish uchun ruxsatnomा

Lutf – iltifot, marhamat; olajanoblik.

Lug‘at – biror tildagi so‘zlarni ma’lum tartibda (ko‘pincha alifbo tartibida)
jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob

Lug‘atshunoslik – lug‘at tuzish ishi

M

Maddoh – madh etuvchi, olqishlovchi

Madrasa – diniy oliy oquv yurti

Maftum – 1) tushuncha 2) ma’no, manzara

Maftun – birovga yoki biror narsaga ishqи tushib, es-hushini yo‘qotgan,
yurakdan berilgan

Mafiya – zo‘rlik, terror usuli bilan ish ko‘radigan guruh

Magistartura – bakalavrdan so‘ng chuqurlashtirilgan oliy ma’lumot berish
tizimi

Mahbub – sevimli kishi yor

Mahkama – hukm qiluvchi hukm chiqaruvchi idora

Mahram – yaqin do‘sst; sirdosh, ishonchli kishi

Mahvash – jamoli oyga o‘xhash, oydek go‘zal, oy jamol

Makr – hiyla, firib

Malomat – ta’na

Ma’lun – la’nati, la’natlangan

Mangu – abadiy, boqiy

Marom – biror ish yoki faoliyatning me’yori

Masdar – 1) manba, sodir bo‘lish 2) garammatikaga oid atama, harakat
nomi

May – sharob

Mayl – xohish

Mashvara – -kengash, maslahat

Mashshoq – sozanda

Manmanlik – takabburlik, o‘zini boshqalardan yuqori qo‘yish

Manqush – naqshlangan, bezalgan

Mahalla – aholi yashaydigan joy shahar yoki tumanning bir qismi

Mahorat – biror ish, kasb uchun zarur bo‘lgan yoki shu sohada orttirilgan
ustalik, san‘at; mohirlilik.

Mahsulot – ishlab chiqarilgan narsa

Malomat – birovni haq-nohaq yomonlab aytilgan gap; tana

Manba – 1. Daryolarning boshlanish joyi. 2. Biror narsa chiqadigan yoki ishlab chiqariladigan joy, qurilma. 3. Ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lgan asar.

Mannun – ko‘ngli to‘lgan, qanoatlangan, xursand

Manzil – safarda, yo‘lda to‘xtab o‘tiladigan, qo‘nib turiladigan yoki yetib borish mo‘ljallangan joy

Mansub – qarashli, tegishli, taalluqli, oid

Mardona – mardlarcha, mardlar singari

Marketing – mahsulotni sotish choralar majmuyi

Maqbara – qabr ustiga qurilgan bino

Mavjudot – Olam, tabiatda bor narsalar majmui, dunyoda mavjud narsalar, butun borliq

Mavhum – aql bilan fikrlash orqali tasavvur etiladigan; noaniq narsa, fikr

Mavlud – tugilgan kun va shu munosabat bilan beriladigan

Maxsus – biror ish yoki narsaga xos bo‘lgan, biror ish yoki maqsad uchun belgilangan

Mazhab – dinning o‘ziga xos qonun-qoidalari bilan farq qiluvchi yo‘nalishi.

Ma’dan – mineral; ma’danli suv

Maqsud – maqsad, istak

Ma’sud – saodatli, baxtli

Mashhur – shuhratli

Menejer – yuqori malakali yollangan boshqaruvchi

Me’mor – binokor, arxitektor

Milod – tug‘ilish, tug‘ilgan kun

Milodiy – yil hisobi, taqvimlardan biri. (Hozir foydalananib tutgan taqvim nomi.)

Minora – biror binoga qo‘shib yoki alohida qurilgan mezana shaklidagi baland inshoot

Mintaqa – yer yuzining ikki qo‘shti parallel oralig‘idagi, bir-biridan iqlimi bilan farq qiladigan bo‘lagi

Mirob – katta ariqdan, anhordan suv taqsimlash vazifasini bajaruvchi kishi

Mirshab – militsioner

Miskin – 1) kambag‘al, bechorahol; 2)mungli, hazin

Misqol – taxininan 4,25 gr

Mohir – usta, tajribali

Mohiyat – biror narsaning zamindagi tub, eng muhim ma’no

Mohtob – oy yoritib turgan, oydin

Moviy – tiniq ko‘k, havorang

Muallif – avtor, ixtiro yoki kitob egasi

Muassasa – xo‘jalik, savdo-sotiq ishlari va shu kabilarning biror sohasini boshqaruvchi yoki ilm, ta‘lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi kishilar va ma‘muriyatga ega bo‘lgan tashkilot

Mubolag‘a – tasvirlanayotgan va ta’riflanayotgan kimsa, narsa, hodisa va shu kabilarni o‘quvchilarga yaqqol, ta‘sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini, bo‘rttirib ko‘rsatish, shu maqsadda ishlatalgan so‘z san‘ati

Mudarris – madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o‘qituvchisi

Mufassal – butun tafsiloti, mayda-chuyda, ikir-chikirigacha qamrab olgan; to‘liq, batafsil

Muharram – 1) qamariy yil hisobida birinchi oyning arabcha nomi; 2) man qilingan, ruxsat etilmagan

Muhofaza – 1) saqlash, qo‘riqlash, himoya qilish; 2) esda saqlash qobiliyati, xotira

Muhit – hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmui

Muhsin – ezgu niyatli, ezgu ishlar qiluvchi

Mukarram(a) – hurmatli obro‘li, karam egasi, buyuklik egasi

Munaqqash – naqsh bilan bezatilgan, naqshdor

Munavvar – nurli, yorug‘

Munis – sirdosh, do‘st, hamdam

Munkir – inkor etuvchi

Muntazam – tartibili ravishda uzliksiz davom etadigan, kanda bo‘lmaydigan; muttasil

Muolaja – davolash, davolanish, davo

Musaid – yordam beruvchi qulay

Mutafakkir – chuqur falsafiy fikrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi.

Muchal – har bir yili bir hayvonining nomi bilan ataladigan va yil boshi 22-martdan boshlanadigan yil hisobi

Mushak – 1. Muskul. 2. Rang-barang yonuvchi modda bilan to‘ldirilgan, yoqilganda osmonga ko‘tariladigan snaryad. 3. Sabzining yo‘g‘on va uchi to‘mtoq turi.

Mushfiq – shafqat qiluvchi, shafqatli

Muhandis – injener. Turli soha qurilishlari, to‘qimachilik sanoati va shu kabilar bo‘yicha mutaxassis

Muhofaza – saqlash, qo‘riqlash, himoya qilish, himoya

Muqaddas – aziz, tabarruk
Muhtaram – hurmat va ehtiromga sazovor, hurmat qilinuvchi
Mahbuba – sevgili, ma'shuqa, do'st
Manzur – lozim ko'rilgan, maqbul bo'lgan
Maqbara – qo'r, qabr, mozor
Maqola – so'z, nutq
Maxluq – jonzot
Masnaviy – har ikki misrasi qofiyalangan she'riy asar
Mazlum – zulm ko'rgan, ezilgan
Mehrob – uyning to'rida tepasi qayrilma qilib ishlangan tokcha
Meng – xol, qop-qora xol
Mone – man etuvchi to'siq, g'ov
Mijoz – kishi tabiat, holati
Misqol – bir qadoqning 84 dan bir qismi (41 gr)
Muarrix – tarix yozuvchi, tarixchi olim
Mubtalo – duchor bo'lgan, ilingan, baloga yo'liqqan; oshiq bo'lgan
Mujda – xushxabar, yoqimli xabar
Mujgon – kiprik
Mutafakkir – tafakkur qiluvchi, keng fikrli
Muxbir – xabar beruvchi
Muxtasar – qisqa
Muxtor – ixtiyor o'zida, mustaqil
Mushavvash – tashvish
Muzaffar – g'olib
Mo'jiza – yangilik, hayratli ish, voqeа

N

namozgar – quyosh botishidan bir-ikki soat oldingi vaqt
nasab – insonning kelib chiqishi; nasli
nash'a – estetik lazzat, huzur, gasht
naqqosh – naqsh ishlovchi, naqshkor usta
nag'ma – 1. Labda yurgizib puflab chalinadigan musiqa asbobi; 2. Kuy, musiqa
3. Ortiqcha qiliq, xarxasha (ko'chma ma'noda)
nahang – baliqning bir turi (Akula)
nadim – yaqin do'st, sadoqatli maslakdosh
nahr – ariq, jilg'a; kichik daryo
nasim – tonggi shabada
navoiy – navoga, kuyga tegishli

netto – mahsulotning og‘irligi asl bahosi
nifoq – nizo, kelishmovchilik
nihon – yashirin, pinhon
nigun – ag‘darilgan, oyog‘i osmondan qilingan
niyoz – hojat, ehtiyoj; iltijo
novak – kamon o‘qi
nogoh – to‘satdan
nor – erkak tuya
noxush – yaxshi emas
nukta – nozik ma’noli so‘z
nuqta – tinish belgisi

O

Obraz – timsol
Odob – xushxulqlilik
Oftoba – yuvinish uchun ishlataladigan suv idish
Ofis – idora, korxona, firma egallagan joy
Olachuq – chayla, kapa
Orif – biluvchi, tanuvchi; ma’rifatli, dono
Ofiyat – sog‘lik, salomatlik
Olachiq – chayla, kappa
Osiy – 1) bo‘ysunmaydigan, itoat qilmaydigan; 2) gunohkor
Osoyish – tinchlik, osudalik
Otash – o‘t, olov
Oziqmoq – yo‘lini yo‘qotmoq
Og‘u – zahar
Obida – qadimda bunyod etilib, shu kungacha saqlangan binolar; o‘rnatilgan yodgorlik
Omi (omiy) – savodsiz, avoni
Omilkor – omillik, ustalik, tadbirkorlik bilan ish ko‘rvuchi; usta
Osuda – tinch, xotirjam
Oqila – o‘tkir aql sohibasi; aqlli, dono (ayol haqida)
Ovloq – ov qilinadigan joy
Oshufta – sevib, maftun bo‘lib qolgan, parishonhol; oshiq

P

Panoh – himoya, muhofaza
pari – juda go‘zal qiz qiyofasidagi afsonaviy ilohiy mavjudot
Partav – nur, shu’la
Patent – xususiy shaxsga berilgan hujjat

Paydar-pay – birin-ketin, ketma-ket, uzliksiz
paykar – shakl; surat, ko‘rinish
paykon – kamon o‘qi va nayzaning uchidagi o‘tkir temir
paynoma – sharob ichiladigan piyola, qadah
payrav – izma-iz boruvchi, ergashuvchi
paychi – aksioner
payg‘om – xabar, darak
pesha – kasb, hunar
poygoh – oyoq qo‘yadigan yer, ostona, zina
pur – to‘la; mo‘l, serob
pusht – orqa, surriyod, avlod
peshband – 1. Uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanganda ayollar oldiga tu-tiladigan (kiyimni iflos qilmaslik uchun) narsa, etak. 2. Qo‘lini oldiga qilib bog‘lash
peshtoq – binolarning old tomoni
pir – 1. Uzoq umr ko‘rgan odam; keksa, qari. 2. Diniy mazhab boshlig‘i.
3. Biror kasbning asoschisi, horiysi. 4. Biror ish, kasb yoki sohanai juda yaxshi egallagan kishi, shu sohada mohir usta odam; ustoz, muqim
Prezentatsiya – biror narsani ko‘rish, taqdim etish
Privatizatsiya – mol-mulknu davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish
Pudart – biror ishni haq hisobiga batamom tugallash majburiyati

Q

Qabih – jirkanch, yaramas
qadoq I – o‘lchov birligi (1 qadoq 400 gr atrofida)
qadoq II – qo‘l yoki oyoqdagi qabariq
qalandar – dunyo tashvishlaridan yuz o‘girgan, darvesh
qaroq – ko‘z qorachig‘i
qasaba – qishloq, aholi yashaydigan kichik joy
qasida – madhiya, marsiya
qirmoch – ovqatning kuyindisi
qiron – yaqinlashish, to‘qnashish; ikki sayyoraning bir burjda to‘qnashuvi
qirog‘latmoq – chetlatmoq
qirg‘ilach – qaldirg‘och
qobil – qabul qiluvchi, ko‘nuvchi; qobiliyatli
qodir – qudratli, biror ishni qila oladigan
qunduz – terisi mayin, qora tusli hayvon
qabila – jamiyatning ilk va o‘rtta taraqqiyot davrlaridagi qarindoshlik mun-

sabatlari, urf-odati, til va hududiy jihatdan o‘zaro bog‘langan kishilar birlashmasi

qadriyat – el uchun, jamiyat uchun aziz va qimmatli narsa, fikr va hodisalar
qamariya – oyning ikkita bir xil fazasi. Oy tug‘ilgan kundan kelgusi Oy tug‘ilgan kungacha bo‘lgan vaqt asos qilib olingan yil hisobi

qayroq – Metal asboblarni yo‘nadigan, o‘tkirlaydigan qattiq jism, tosh

qibla – namoz o‘qish yoki sig‘inish paytida musulmonlar yuz tutib turadigan tomon, ya‘ni Makka shahri joylashgan tomon.

qiroatxona – 1. Qur’onni yodlash va qiroat bilan o‘qishni o‘rgatadigan maktab, qorixona. 2. Gazeta, jurnal va kitoblar o‘qish uchun ajratilgan xona, o‘quv zali

qissa – mazmun murakkabligi jihatidan romandan ko‘ra soddaroq badiiy asar, povest.

Qodir – qudratli, kuchli

Qomus – mukammal, to‘liq lug‘at

Qopungda - eshicingda

qubba – yarim shar shaklidagi gumbaz

qurultoy – 1. O‘tmishda mo‘g‘ul va ba‘zi turkiy xalqlarda davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan katta yig‘ilish, yig‘in. 2. Biror soha vakillari ishtirokidagi respublika miqyosida o‘tkaziladigan katta yig‘ilish

qo‘noq – mehmon

qo‘ng‘ir – qora-sariq rangli, to‘q malla. To‘q kulrang, qoramtiir.

qo‘rg‘on – 1. Dushman hujumidan saqlanish uchun istehkomlangan joy
2. Qal‘a, qo‘rg‘on, shahar va shu kabilarni muhofaza qilish uchun qurilgan mustahkam devor

qo‘sqi – kiyilaverib eskirib ketgan, juldili chiqqan, juldir. 2. Ust-boshi xarob, juldir kiyimli

R

ravnaq – 1. Portash; yaltiroqlik; husn, ko‘rk. 2. Mislsiz taraqqiyot, rivoj, barq urish, gullab-yashnash

ranjimoq – birovdan yoki biror ko‘ngilsiz ish, nojo‘ya xatti-harakatdan ozor chekmoq, xafa bo‘lmoq

rasmiy – hukumat, davlat yoki biror tashkilotga oid, shular tomonidan belgilangan

rasta – bozorlarda bir turdagи mol bilan savdo qiladigan do‘konlar qatori va ular o‘rtasidagi bozor, ko‘cha

ramz – shartli belgi, ishora, simvol

razm solmoq – diqqat bilan qaramoq, ko‘zdan kechirmoq

raxna – 1) yoriq, darz; 2) raxna solmoq – putur yetkazmoq, tagidan zil ket-moq

razolat – yaramas jirkanch xatti-harakat, tubanlik, razillik

raqobat – bellashuv kurashuv

ra’no – atirgullar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik va uning sariq yoki qizil hushbo‘y gul; 2) go‘zal, barno

rishta – 1) ip, arqon; 2) aloqa, munosabat

rivoyat – avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan og‘zaki hikoya; naql, afsona

riyokor – munofiqona ish qiluvchi odam

robot – murakkab harakatlarni xuddi odamdek bajaradigan avtomat; mashi-na odam

ravza – bog‘, guliston, bo‘ston: jannat

ray – fikr, nuqtai nazar

rahmon – rahm-shafqatli; kechiruvchi

ranj – mashaqqat, qiyinalish

raftor – yurish-turish

rasul – elchi, xabarchi

razolat – yaramas, jirkanch xatti-harakat

riyoza – yemakdan o‘zini tortib qiyinalish

roviy – hikoyachi, rivoyat qiluvchi

rost – to‘g‘ri, to‘g‘irlash, tuzatish

ruxsor – yuz, yonoq

rezume – qisqa xulosa

S

sabot – barqarorlik, mahkam turish

sabohat – go‘zallik, husndorlik

saboq – 1) dars; 2) ibrat bo‘lib xizmat qiladigan va ko‘zni ochadigan ish, voqeа, hodisa

sado – ovoz, tovush

safo – 1) tozalik, musaffolik, soflik; 2) huzur, gasht

sajda – 1) ibodatda bosh qo‘ymoq; 2) bosh egmoq, tiz cho‘kmoq

safha – sahifa

sahvi – xato

samara – oqibat, natija; meva

sandilach – sa’va

sandug‘ach - bulbul

sarafroz – yuksak; umrbod; quvnoq

saraton – 1) o‘n ikki burjning biri; 2) shamsiya hisobida to‘rtinchi oyning

arabcha nomi (22-iyun 21-iyul)

sarv – doim yashil rangda bo‘ladigan baland bo‘yli, tik daraxt

savdo – 1. Mol ayirboshlash, olish-sotish bilan bog‘liq bo‘lgan muomala; oldi-sotdi, savdo-sotiq. 2. Savdo-sotiqli dan tushgan pul. 3. Oldi-sotdi muomalasida molning narxi haqida tortishuv, qiyishuv

Saviya – shaxs narsa yoki hodisaning taraqqiyot darajasi

sayqal bermoq – Shisha-billur yoki ma’danlarga ishlov bermoq, ularni par-dozlamoq

saxovat – baland himmat, saxiylik

Senzura – nazorat, fikrni nazorat qilish

Sobit – mustahkam, og‘ishmas

Sipoh – askar, amaldor

sohib – egalik qiluvchi, ega

Soniy – ikkinchi

Soqiy – may quyuvchi kosagul

subhidam – erta tong payti, tong, subh

Sud – foyda, naf

Sunbula – 1) o‘n ikki burjning biri; 2) Quyosh yili oltinchi oyining arabcha nomi (22-avgust 21-sentabr)

Suvori – otliq

Suyurg‘ol – podshoh tomonidan amaldor shaxslarga beriladigan imtiyozlar

so‘fiy – 1. Pok, halol kishi. 2. Masjidda musulmonlarni namozga chaqirish uchun azon aytuvchi kishi, muazzin

sadaf – dengiz shiliqqurti kosasi; marvarid qobig‘i

savob – yaxshilikka mukofot

sayd – ov, ov qilish, ilintirish

sayyod – ovchi, mergan

sobir – sabrli, chidamli

sobit – barqaror, izdan chiqmas

solih – ezgu ishlar qiluvchi

soniya – daqiqa, qisqa vaqt

so‘fi – tasavvuf yo‘lini izlagan, taqvodor

so‘qa – yer haydashda ishlataladigan cho‘yan tishli asbob

sanksiya – qonun yoki shartnomani buzgan tomonga ko‘riladigan chora, jarima

T

taassuf – achinish, afsuslanish

tabib – shifikor

tafovut – farq
tafsir – sharh, izoh, tushuntirish
tahammul – sabr, bardosh, chidam
tahayyur – hayratlanish
tajall – jilo, jilovalanish, yarqirash
tajnis – shakldosh so‘zlardan foydalanish san’at
takalluf – ortiq darajada hurmat va e’tibor ko‘rsatish, mulozamat
takbir – Allohni ulug‘lash
tamug‘ – do‘zax, jahannam
tamg‘a – belgi, nishona, muhr
tanazzul – orqaga qarab ketish, inqiroz, tushkunlik
tanbeh – koyish, ogohlantirish yoki jazo
taqi – tag‘in, yana
taqriz – yozilgan asar, maqola va hoshqalarga baho berish
taqsir – kamchilikni ko‘rsatish
tarahhum – rahm-shavqat qilish
tarona – kuy, qo‘sniq
tarovat – yangilik, tozalik
tarxon – barcha soliq va jazolardan ozod qilingan kishi
tasarruf – ega bo‘lish, biror narsaga ega bo‘lishlik
tashkol – shakkilangan
tashxis – aniqlay olish, diagnostika
tavallo – yolvorish, yalinib so‘rash, iltijo
tavallud – tug‘ilish
tavoze – adablilik, kamtarlik, egilish
tal’at – yuz, bet, ko‘rinish
tahayyul – xayol qilish
tegra – atrof,tevarak
teva – tuya
tibbiyot – meditsina
tilovat – Qur’onni tilovat bilan o‘qish
tirmizak – yosh, g‘o‘r bola
tig‘ – qilich, xanjar, jismning o‘tkir qismi
tobon – porloq, yorqin, tovlanadigan
tole – ko‘rinuvchi; baxt, iqbol, qismat
tolib – talabgor, izlovchi
tolibul ilm – o‘quvchi, talaba
tongla – ertangi, kelgusi kun

- tumor** – o‘ralgan noma, xat, duo yozilgan qog‘oz
- tadbirkorlik** – ishning ko‘zini bilish, to‘g‘ri yo‘l tanlay olish qobiliyati
- talaffuz** – tovush yoki so‘zning aytilishi, aytilish xususiyati
- tamg‘a** – 1. Narsa, mol, mahsulot va shu kabilarni ajratish, hisobga olish yoki ularning kimga tegishliligini ko‘rsatish uchun qo‘yiladigan, bosiladigan belgi. 2. Muhr. 3. Kishilarning qilmishiga, xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ko‘ra taqilgan yorliq, belgi (ko‘chma ma’noda)
- tanobchi** – yer o‘lchovchi
- tarz** – shakl, taxlit, ko‘rinish
- tafakkur** – mavjud voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in’ikosi; jarayon, insonning fikrlash qobiliyati
- taqvim** – yilning barcha oy-kunlarini tartibi bilan ko‘rsatilib, boshqa ma’lumotlar ham berilgan jadval
- taqvodor** – mustahkam diniy e’tiqod; dindor
- tahlil** – analiz. Ilmiy tahlil. Tanqidiy tahlil
- tilovat** – qur’on o‘qish, qur’ondan bir sura o‘qish
- toat-ibodat** – sig‘inish
- tufuliyat** – yoshlik, yoshlik payti
- turg‘un** – biror joyda doimiy yashovchi, o‘rnashib qolgan
- tuzuk** – to‘g‘rilik
- tuyg‘un** – 1) sezgir, farosatli; 2) lochinng bir turi
- tuzluq** – tuzdon, tuz saqlanadigan idish
- tuzuk** – tuzilgan, tartibga solingan
- to‘sin** – Uyning tomini yopish uchun devorlar ustiga har (70–80 sm.da qo‘yiladigan baquvvat yo‘g‘och)
- U**
- ubayd** – banda, gul
- ud** – xushbo‘y tutun beruvchi daraxt, cholg‘u asbobi
- ugra** – kesma xamir va uni solib pishirilgan taom
- ustixon** – suyak
- uzra, uza** – ustida, ustidan
- ush** – shu, mana shu
- ulus** – xalq, el
- udum** – umum tomonidan qabul qilingan tartib, odat, an’ana
- ulus** – el, xalq
- ummatt** – bir millat, bir din, bir mazhabga mansub kishi
- ummon** – dengiz, bahr
- umuminsoniy** – butun insoniyatga, odamzodga oid

uzluksiz – birin-ketin, ketma-ket, paydar-pay
uyg‘un – to‘g‘ri, monand keladigan, muvoriq, munosib, mos
ufq – osmon bilan yerning yoki suv sathining ko‘z ilg‘agan uzoqlikda o‘zaro
tutashganday bo‘lib ko‘rinadigan chizig‘i

V

varzish – sport; sport musobaqasi
valiy – sodiq do‘sst; murabbiy; xudoga yaqin kishi
vasiqa – mol-mulk sotib olganlik haqidagi rasmiy hujjat
vasf – tisvir, tavsif
va’z – so‘z, so‘zlash, nutq
voris – merosxo‘r
vazn – og‘irlik, salmoq
vakil – biror kishi, muassasa, tashkilot nomidan ish ko‘rishga vakolati
bo‘lgan, uning manfaatlarini ko‘zlovchi va himoya qiluvchi shaxs
visol – aynan vasl
viza – o‘zga mamlakatga kirishga berilgan raxsatnomalar
vodiy – daryo bo‘ylab cho‘zilgan yoki tog‘lar orasidagi keng tekislik; boylik
valida – ona
voha – sahro bilan o‘ralgan obod, suvli o‘lka
voris – meros egasi, merosxo‘r

X

xabis – yomon, yaramas, badbo‘y
xam – pastga egilgan, quyi solingan
xatboshi – abzas
xilvat – yakkalanish, yolg‘iz bo‘lish; kimsasiz joy
xilqat – yaratilish; biror narsaning tabiatini
xirom – chiroyli yurish, noz-karashma bilan qadam bosish
xiroj – soliq, to‘lov
xoksor – kamtarin, sodda; xor, tuban; bechora, notavon
xoliq – xalqni yaratuvchi, qudratli xudo
xandon – kuylovchi, kulib turuvchi
xatib – masjidda xutba o‘quvchi
xazina – pul va qimmatbaho narsalar saqlanadigan joy
xijriy – musulmonlarning yil hisobi
xirom – chiroyli yurish, noz – karashma bilan qadam bosish
xoja – 1) xo‘jayin, sohib, ega; 2) mulk egasi; janob

xudbin – ovozini yoki o‘z manfaatini hammadan yuqori qo‘yuvchi odam
xunkor – aynan xunxo‘r, qonxo‘r
xayr-u-baraka – 1. Tilanchiga, beva-bechoralarga beriladigan sadaqa, ehson. 2. Birovga qilinadigan xolis yordam yaxshilik; qo‘yiladigan baquvvat yog‘och. Xonaning kattaligi, odatda to‘sinq bilan o‘lchanadi: besh to‘sinqli xona
xislat – kishi yoki narsaning muhim ijobiy belgisi, sifati; xususiyat, fazilat
xotira – biror kimsa yoki narsa haqidagi yodda, esda saqlanadigan taassurot
xususiy – biror shaxsning yolg‘iz o‘ziga qarashli, tegishli bo‘lgan; shaxsiy
xosiyat – xususiyat, natija
xuvaydo – ayon, ravshan
xurliqo – quyoshdek jozibali ko‘rinishli
xurshid – quyosh
xushnavis – chiroyli yozadigan

Y

yalang – yalang‘och, tep-tekis
yalov – bayroq, tug‘.
yasavul – tartibga soluvchi, qorovulboshi
yavm – kun
yag‘i – yov, dushman
yol – olov, alanga; otning gardanida bo‘ladigan uzun soch
yorg‘uchchoq – qo‘l tegirmoni
yorg‘u – yorish, maydalash, bo‘laklarga ajratish; 2) baxs, tortishuv
yovuq – yaqin
yoziq – gunoh
yukunmoq – 1) egilib ta’zim qilmoq; 2) o‘tinib murojaat qilmoq, iltijo qilmoq, yolvormoq
yumurtqa – tuxum
yot – qarindoshligi yo‘q, begona

Z

Zabon – 1) til; 2) nutq
zakovat – zehnlilik, ziyraklik
zabtig‘a – qo‘lga olish
zabun – ojiz, mag‘lub
zalil – xor, tuban
zalolat – adashishlik, yo‘ldan ozishlik; tubanlik, horlik
zamzam – Makkadagi buloq nomi
zangor(i) – och havorang, moviy

zarra – 1) moddalarning ko‘zga ko‘rinar ko‘rinmas kichik mayday bo‘lagi;

2) ozgina; zarracha

zarofat – nozik fahmlik, xushchaqchaqlig

zaxira – kalajakda foydalanish uchun g‘amlab qo‘yilgan narsa; tejalgan narsa

zero(ki) – chunki, negaki, sabab shuki

zir (zer) – ost

zilol – tiniq va shirin suv

ziyorat – 1) muqaddas hisoblangan joyga borib sig‘inish; 2) hurmat yuzasidan biror shaxsga borib ko‘rish

zokir – tilga oluvchi, zikr qiluvchi

zikr – so‘zlash, tilga olish, bayon etish

zohid – tarki dunyo qilib toat-iбodatga berilgan odam

zohir – ravshan, porloq; ko‘rinib turgan; sirtqi tomon

zoloim – shavqatsiz jabr – zulm qiluvchi zog‘ora – jo‘xori unidan yopilgan non

zuhur – ko‘rinish, paydo bo‘lish

zulf – soch jamalagi, kokil

zurriyot – farzand, avlod qoldirish

zamin – 1. Yer shari. Yer. 2. Asos, negiz (ko‘chma ma’noda)

zarda – xafa bo‘lish, keskin qarshilik qilish

zargar – oltin, kumush va turli qimmatbaho toshlardan ziynat buyumlari, bezaklar yasaydigan usta

ziynat – go‘zallik, zeb berish uchun xizmat qiluvchi buyum; bezak

O‘

o‘git – nasihat, pand

o‘kush – ko‘p

o‘lja – ov yoki urushda qo‘lga kiritilgan narsa

o‘rtanmoq – yonmoq, kuymoq

o‘ksik – kamaygan, oz; ezilgan, kamsitilgan

o‘tik – dazmol

o‘z – jon, vujud

G‘

g‘aniy – boy, badavlat, kam-ko‘stsiz

g‘azol – kiyik, ohu

g‘iyos – yordam, qutulish

g‘ofil – bexabar, beg‘am, behafsala

g‘oziy – urushda g‘alaba qilgan; g‘azot qiluvchi

g‘ildom – xizmatkor

g‘ayritabiyy – 1. Tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydigan, sababini bilib bo‘lmaydigan, odatdan tashqari. 2. Sun‘iy, yasama, g‘alati

g‘iybat – birovni orqadan yomonlab gapirish, fisq-u fasod

Sh

Shams – quyosh

shamshir – qilich

shahvor – yirik, a’lo

shamshod – xushqomat daraxt

sharif – sharaflı

sha’riy – diniy qoidaga tegishli

sharb – biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib berish, izohlash

sharob – kayf qiluvchi ichimliklarning umumiy nomi; may

shavq – zo‘r havas, ishtiqoq

shikan – siniqlik, bukuklik

shodmon – shod, xursand, mamnun

shokir – shukr etuvchi, qanoatlanuvchi

shosse – tosh yo‘l

shuaro – shoirning ko‘pligi

sho‘rish – 1) azob-uqubat, kulfat; 2) janjal, g‘avg‘o

shunqor – yirtqich qush; abjir

shajara – nasl-nasabni boshlovchi birinchi shaxsdan eng so‘nggi tirik avlodni

nomlarini tasdiqlangan shaklda birin-ketinlik bilan sanab beruvchi

hujjat; shaxsning kelib chiqish tarixi; silsila

shafaq – kun chiqish yoki kun botish oldidan ufqda hosil bo‘ladigan lolarang qizillik

Ch

Chakmon – movutdan tikilgan to‘n

chavandoz – otta chopuvchi

chavgon – uchi egrı uzun tayoq

cherik – qo‘shin, lashkar

chechak – tabiiy ravishda o‘sadigan gulli o‘simlik, toshma kasallik

chirmovuq – chirmashib o‘sadigan gul

Chin – Xitooning Sharq mamlakatlarda qabul qiligan nomi

Chirkin – chirk bosgan, ifos

choh – chuqur; zindon

chokar – xizmatkor

cho'lpón – yorug‘ tong yulduzi; Venera

changqovuz – og‘izda, ikki lab o‘rtasiga qo‘yib chalinadigan musiqa as-
bobi

chavandoz – otliq, ot minishni yaxshi uddalaydigan kishi

chorraha – yo‘lning uch-to‘rt tomonga kesishgan joyi

chuchmal – ta’msiz, bemaza

Chuchuk – shirin

IBORALARNING IZOHЛИ LUG'ATI

A

Ammamning buzog'i-landovur, lapashang

Aravani tortmoq – 1.Jo'nab qolmoq. 2.Boshqaning ishiga aralashguncha,
o'zi qodir ishni qilavermoq

Aravani quruq olib qochmoq-uddasidan chiqa olmaydiganish yoki narsa
haqida ortiq darajada maqtanmoq

Arpasini xom o'rmoq – *kim kimning* nima yomonlik qildi?!

B

Barmog'ini tishlab qoldi-hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qol-
moq, afsuslanmoq

Belni bog'lamoq – shaylanmoq, otlanmoq, astoydil kirishmoq, ahd qilmoq

Bel bog'lashmoq- musobaqlashmoq

Bir yoqadan bosh chiqarmoq-birgalikda harakat qilmoq, birlashmoq

Boshi osmonga yetdi – behad sevinmoq

Bosh ko'tarmoq- 1)sog'aymoq; 2)qaramoq; 3)qo'zg'olon qilmoq

Boshiga ko'tarmoq-juda e'zozlamoq, shovqin solmoq

Boshida yong'oq chaqmoq-ortiq darajada g'azablanmoq, qiynamoq

Bosh qotirmoq-astoydil o'yalamoq, chuqur fikrlamoq

Boshi yostiqqa tegganda-kasal bo'lib yotib qolganda

Boshini ye-juda ko'p meva qilib

Bosh egmoq-itoatkor bo'lmoq

Bosh tortmoq -amalga oshirishga rozi bo'lmaslik, e'tiroz bildirmoq

Burni ko'tarilgan – gerdaymoq, kibrilanmoq

Burnini suqmoq-aralashmoq, kirmoq

D

Dam bermoq-havo oqimini kuch bilan haydab kiritmoq, hordiq chiqarmoq

Dong qotmoq-1.kutilmagan hodisaga duch kelib karaxt bo'lib qolmoq;

2.hech narsani sezmas darajada qattiq uxlamoq

Do'ppisini osmonga otmoq- juda xursand bo'lmoq

Do'ppisi yarimta – shod – xurram,beg'am, beparvo

Do'ppi tor keldi – iloj- imkonsiz og'ir ahvolga tushmoqlik

Dili siyoh bo'lmoq-qattiq xafa bo'lmoq

Dunyonи suv bossa to'pig'iga chiqmaydi-beg'am, beparvo

G

Gapni bir joyga qo‘ymoq-o‘zaro bir fikrga kelmoq

H

Hafsalasi pir bo‘lmoq – biror ishni qilishga bo‘lgan istak-intilish yoqola yozdi

I

Ikki oyog‘ini tirab turmoq – o‘z fikrini amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq

Ilonning yog‘ini yalagan-mug‘ombir, quv, juda ayyor

Ipidan ignasigacha – butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha, bat afsil

Ishtahasi karnay – yeb-ichish istagi juda kuchli

Ichi qora – yomon niyatli

Ichini mushuk tatalamoq – yashirin holda ruhan bezovtalanmoq, tashvish-lanmoq

K

Kovushini to‘g‘rilab qo‘yish kerak-haydab yubormoq

Ko‘kka ko‘tarmoq – maqtamoq

Ko‘nglida kiri yo‘q – kek saqlamaydigan, g‘arazi yo‘q

Ko‘nglini yozdi – xafachilagini tarqatmoq

Ko‘ngli og‘rimoq-ranjimoq

Ko‘ngli tog‘day ko‘tarilmoq-ruhlanmoq

Ko‘ngli olindi-xursand qilindi

Ko‘nglini bo‘shatmoq-har xil o‘y- xayollarga borib o‘zini o‘zi xafa qilmaslik

Ko‘ngli joyiga tushmoq- tinchimoq

Ko‘ngli bo‘sh-ko‘ngilchan, rahmdil

Ko‘zi ochilmoq – hushyor qilmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan qilmoq

Ko‘zi ochiq-yaxshinin yomondan, foydani zaradan farqlashga qobiliyatli

Ko‘zi uchib turgani yo‘q – ko‘rish ishtiyoqidami?! (kesatiq bilan)

Ko‘zini bo‘yamoq – Aldamoq, laqillatmoq

Ko‘ziga cho‘p solmoq-aldamoq, chalg‘itmoq

Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq – intizor bo‘lmoq

Ko‘z ochib yumguncha-bir zumda, tez

Ko‘zlar qinidan chiqayozdi-g‘azabi ko‘zida aks etmoq, ko‘zi chaqchaymoq

Ko‘z yummoq-o‘lmoq, barchasidan voz kechmoq

Ko‘z tashlamoq-qisqa muddat qaramoq

Ko‘z ochirmay qo‘ydi-biror narsani betiga solib yoki qattiq talab qilib,

tinchlik bermaslik, qattiq siquvga olmoq

Kuni o'tmoq-tirikchilik o'tkazmoq

L

Laqqa tushmoq-osongina aldanmoq

M

Misi chiqdi – asl mohiyati, asl qiyofasi fosh bo'ldi

Mum tishlab qoldi – mutlaqo gapirmaslik

Me'dasiga tegmoq – yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo'ymoq

O

Oq ko'ngil – yaxshi niyatli

Oyog'ini qo'liga olib keldi – shoshilmox

Oyoq tiramoq-o'z fikrining amalgal oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq

Oyoq osti bo'ldi-xo'rlandi

Oralaridan mushuk o'tdi-urishib qoldi

Og'zi qulog'ida-xursand

Og'zi qulog'iga yetgan – behad sevinmoq

Og'zi ochilib qolmoq – hayron bo'lmoq

Og'ziga tolqon solmoq – mutlaqo gapirmaslik

Og'zining tanobi qochadigan – behad sevinmoq

Og'zi ochilib qoldi – angraymoq

P

Pashshadan fil yasamoq-bo'rttirib yubormoq

Pixini yorgan – o'taketgan uddaburon, quv

Podadan oldin chang chiqarmoq – aniq bo'limgan narsa haqida vaqtidan oldin gapirmoq

Q

Qildan qiyiq topmoq – yomon niyat bilan arzimagan, mayda-chuyda kam-chiliklarni pisanda qilmoq

Qo'li egrি – o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlaydigan; mayda o'g'ri

Qo'li kaltalik qildi – cheklangan imkoniyatga ega bo'lmoq

Qo'y og'zidan cho'p olmagan-sodda

Qo'yi mingga yetdi- behad sevindi

Qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq

Qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq

Quloq solmoq – tinglamoq

Qulog'i tom bitmoq – eshitmaydigan

Qush kabi yengil bo'lmoq-ruhiy azolanishi tarqamoq

S

**Sirkasi suv ko‘tarmaydigan – tanqidga mutlaqo chidamaydi
Suvga tushgan bo‘lka nondek-bo‘shashib**

T

**Taqdirga tan bermoq – e’tirof qilishga majbur bo‘lmoq, rozi bo‘lmoq
Tarvuzi qo‘lidan tushmoq – umidi puchga chiqib, bo‘shashmoq
Tepa sochi tikka bo‘lmoq – bir lahzada nihoyatda qattiq azablanmoq
Tegirmonga tushsa butun chiqmoq – har qanday qiyin sharoitdan ham
qutulish yo‘lini topmoq**

**Tekkanga tegib tegmaganga kesak otadigan-tegajoq
Tepa sochi tkka bo‘lmoq-bir lahzaning o‘zida nihoyatda qattiq
g‘azablanmoq**

**Terisiga sig‘may ketdi – behad sevinmoq
Tishining kovagida saqlamoq – o‘ta ehtiyyot bilan va yashirin
Tirnoq ostidan kir qidirmoq – aybsiz kishidan ayb qidirmoq
Tishini tishiga qo‘ymoq – his-tuyg usini iroda kuchi bilan yengmoq
Tomdan tarasha tushganday – qo‘qqisdan, kutilmagan holda
Toqati toq bo‘kmoq-sabr kosasi to‘lmoq
Tuyog‘ini shiqillatmoq – jo‘nab qolmoq
Tumshug‘ini tiqmoq(salbiy)-kirmoq, aralashmoq
Tutgan yeridan kesadigan-o‘jar
To‘nini teskari kiyib olmoq-arazlamoq**

X

Xamirdan qil sug‘urmoq – osonlik bilan, hech qanday qiyinchilik sиз

Y

**Yaxshi ko‘rmoq – 1.Sevmoq. 2.Hurmat qilmoq. 3.Yoqtirmoq.
Yetti o‘lchab, bir kes – nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish qilmoq
Yer bilan yakson qilmoq – butunlay yemirilmoq yo‘q bo‘lmoq
Yer tagida ilon qimirlasa bilmox – nihoyatda ziyrak, sezgir
Yerga ursa ko‘kka sachraydi – o‘taketgan sho‘x
Yerga urmoq – ortiq darajada kamsitmoq
Yeng shimarib-astoydil
Yog‘ tushsa yalagudek – toza
Yuragi toza – yaxshi niyatli
Yuragiga g‘ulg‘ula solmoq- bezovta qilib qo‘ymoq
Yulduzni benarvon uradigan-abjir
Yuragiga qil sig‘maydi- juda qattiq tajang bo‘lib, ruhan ezilib, hech narsa
bilan mashg‘ul bo‘la olmaslik; hech narsa yoqmaslik**

O‘

O‘takasi yorildi – qattiq cho‘chib qo‘rqmoq

O‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq – ruhan azoblanmoq, ezilmoq

O‘ziga yuqtirmaslik- o‘ziga tegishli deb bilmaslik

Ch

Chuchvarani xom sanabdi- xomxayol qilib yurmoq, xomtama bo‘lmoq

TASVIRIY IFODALAR LUG'ATI

A

Aql gimnastikasi-shaxmat,
matematika
Asr vabosi-OITS, nashavandlik

B

Bahor elchisi-boychechak
Baraka urug'i-chigit
Bilim maskani-maktab, litsey,
oliygoхlar

D

Dala malikasi-makkajo'xori
Dehqonning qanoti- traktor

F

Fazo lochini-uchuvchi

H

Hayotimiz qomusi-konstitutsiya

K

Kumush choyshab-qor
Kumush tola-pilla
Ko'zimning nuri-farzandi
Ko'ngil olmoq-

M

Mo'yqalam sohiblari-rassomlar

O

Oltin boshqoq-bug'doy
Oq oltin-paxta

P

Po'lat ot-traktor
Pomir -dunyo tomi

Q

Qalam ahli-shoirlar
Qanotli do'stlarimiz-qushlar
Qalbim quyoshi- ona, vatan
Qora oltin-neft, ko'mir

S

Samo lochini-fazogirlar, samo-
lyot
Salomatlik posbonlari-shifoko-
rlar

Y

Yaylov bahodirlari-cho'ponlar
Yashil vodiy- Farg'on'a

Z

Zangori ekran-televizor
Zangori olov-gaz
Zangori kema-paxta terish
mashinasi

O'

O'rmon podshosi-sher
O'rmon malikasi-archa

G'

G'azal mulkinining sultonii-
Navoiy

Sh

Charm qo'lqop ustasi-bokschi

AYRIM O'ZLASHMA SO'ZLAR LUG'ATI

Arabcha so'zlar

- A.** Adib, aholi, ahvol, asal, avlod, axloq, ayol, a'lo
- B.** Bino
- D.** Darak, davlat
- F.** Fan, firqa
- H.** Harakat, havo, hikmat
- I.** Jiddiy, josus
- K.** Kamol, karomat, kimyo, kitob, komil
- L.** Lug'at
- M.** Mador, maktab, maktub, manzara, markaz, mas'ul, ma'no, maorif, muallim, muallif, muloyim, muomala, muvaqqat, muzofot, mo'min
- O.** Odam, oila, ovqat
- Q.** Qadar, qalam, qoida
- R.** Rais, ruh, ruxsat
- S.** Sahna, san'at, saodat, sehr, sohib, sur'at
- T.** Talaba, tanqid, ta'lim
- V.** Vaqt, vazifa, vazir, vaziyat, va'da, vujud
- X.** Xalq, xalifa, xat, xato, xizmat, xorijiy
- Y.** Yaqin
- Z.** Zafar
- G'.** G'alla, g'oyat
- Sh.** Shamol, shayx, she'r, shoir

Fors-tojikcha so'zlar

- A.** Achchiq-chuchuk
- B.** Bahor, baho, barg, baxt, boshpana, bog', bulbul, buqa
- D.** Dam, dasta, dazmol, dehqon, devor, dono, donishmand, durust
- F.** Farzand
- G.** Gardun, gul, go'sht
- H.** Ham (bog'lovchi), hamma
- I.** Istara
- J.** Jang, juda

- K**. Kam, kamtar, kaptar, karaxt, kichik, kimxob, kissa, ko'cha
M. Murg'ak
N. Nihol, nom, non
O. Olov, olcha, obro', oftob, orombaxsh, osmon
P. Parda, parcha, past, paxsa, paydo, peshana
Q. Qahr-g'azab, qonxo'r, qo'shnay, qog'oz
R. Ro'za
S. Sog'-salomat, sust
T. Taxt, tez-tez, tilla, to'y-tomosha
X. Xalta, xaridor, xo'roz
Y. Yalangbosh
G'. G'isht
Sh. Shakar, shirin, shirinso'z
Ch. Chiroq, chopon, chorva, chorpoya

Fors-tojik + arabcha so'zlar: badjahl, sarkotib
Fors-tojik+hindcha so'zlar: shatranj
Arabcha + fors-tojikcha so'zlar: mirshab, sehrgar
Arabcha + grekcha so'zlar: fonus
Arabcha + ruscha so'zlar: ijroqo'm
Fransuzcha so'zlar: qo'mita

Ruscha so'zlar

- K**. Kino, konfet
L. Lenta, limon
P. Parovoz, parta, patnis, poyezd
R. Ruchka
S. Soldat, stol, stul
T. Tomat, tufli
Sh. Shkaf

Ruscha-fransuzcha so'zlar:

aksiya, avans, garaj, kompaniya, kostum, mashina, metro, palto, pyesa, re-jissor, rol
Ruscha-grekcha so'zlar: elektr, epos, fizika, okean, teatr, texnika
Ruscha-inglizcha so'zlar: boks, futbol, sport taym, vagon
Ruscha-lotinchcha so'zlar: ampula, aviatsiya, kooperativ, obyekt, radio
Ruscha-gollandcha so'zlar: apelsin

Ruscha-grekcha + arabcha so‘zlar: bioximiya

Ruscha-italyancha so‘zlar: gazeta, konsert, firma

O‘zbekcha so‘zlar

(«Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (2-kurs) darsligidagi
mashqlarni bajarish uchun)

- A.** Aka, allaqayerda, ana, anglamoq, ayniqsa, aytmoq
- B.** Bajarmoq, bek, belgi, bilan, birinchi, birdan bir, biz, bola, bosh, bosh-lamoq, boshqa, bu, bo‘lmoq
- D.** Demoq, dudoq
- E.** Emoq, enaga, engashmoq, esmoq
- G.** Gapirmoq
- H.** Ham (ham qilmoq), havaslik
- I.** Ilmoq, ini, ich
- K.** Katta, kel, kerak, kishi, kumush, kuylamoq, ko‘k, ko‘prik, ko‘rinish, ko‘z, ko‘zda tutmoq, ko‘rmoq, ko‘zga tashlamoq, ko‘tarmoq
- M.** Mayin, miltillamoq, munchoq, muqova
- N.** Necha, nomli, novda, novvos, novcha
- O.** Oldida, olmoq, oq, otmoq, ot, ost, ota, oxirgi, oy, oydin, orqalamoq, oyoq, og‘a, ochiq
- P.** Pichoq, pulli
- Q.** Qaramoq, qarg‘a, qil, qirg‘ich, qimirlamoq, qirg‘oa, qichqirmoq, qiz, qishloq, qizil, quloq, quyosh, qolmoq, quvonch, qo‘l, qo‘ymoq
- R.** Ruhsizlik
- S.** Sakkiz, sanamoq, sen, siz, sira, son-sanoqsiz, soy, sop, suv, suzmoq, suqlanmoq, sug‘urta, so‘ri
- T.** Tanglay, tekis, tebratmoq, terak, til, topmoq, tosh, tong, tuzalmoq, tuzatmoq, tushmoq, tuymoq, to‘lmoq, to‘n
- U.** Ulug‘, urmoq, uzum, uchun, uzoq, uchrashuv
- V.** Vergul
- X.** Xon
- Y.** Yaxshi, yashil, yetmoq, yigit, yig‘lamoq, yondashmoq, yordam, yopish-moq, yog‘och, yog‘moq, yuksak, yumshoq, yulduz, yurmoq, yo‘lovchi..
- O‘.** O‘lmoq, o‘rik, o‘rta, o‘rtoq, o‘rda, o‘t, o‘tmoq, o‘ynalmoq, o‘z, o‘zak, o‘g‘il
- Sh.** Shabada, shovullamoq, shu
- Ch.** Charaqlamoq, chiqmoq, chopon, cho‘ntak, chog‘

URG'USI BILAN FARQLANUVCHI SO'ZLAR

- | | |
|---|---|
| agrotéxnik (ot, mutaxassis) | – agrotexník (sifat, agrotexnik tadbirlar) |
| akadémik (ot, ilmiy unvon) | – akademík (sifat, akademik litsey) |
| atlás (ot, ipak mato) | – átlas (ot, kartalar to‘plami) |
| bandá (ot, xudoning bandasi) | – bánta (ot, qurollangan o‘g‘rilar) |
| bog‘lár (ot, bog‘ning ko‘pligi) | – bóg‘lar (fe’l, ko‘zini bog‘lar) |
| boladá (ot, -da – kelishik) | – bóla-da (ot, -da – yuklama) |
| bolaginá (ot, -gina kichraytirish) | – bolágina (ot, -gina yuklama) |
| bosmá (sifat, bosma harf) | – bósma (fe’l, nonni bosma) |
| botín (ot, ichki) | – bótin (fe’l, shu ishni qilishga botin) |
| botír (sifat, botir kishi) | – bótir (fe’l, qo‘lingni botir) |
| empírik (ot, empirizm tarafdan) | – empirík (sifat, empirizmga asoslangan) |
| energétik (ot, mutaxassis) | – energetík (sifat, energetika bilan bog‘liq) |
| etík (ot, poyafzal) | – étik (sifat, etika faniga oid) |
| fizik (ot, o‘qituvchi) | – fizík (sifat, fizikaga oid) |
| geofízik (ot, mutaxassis) | – geofízik (sifat, geofizikaga asoslangan) |
| geoxímik (ot, mutaxassis) | – geoximík (sifat, geoximiyaga
asoslangan) |
| gidrotéxnik (ot, mutaxassis) | – gidrotexník (sifat, gidrotexnikaga
asoslangan) |
| gráfik 1. (ot, chizma), - gráfik 2. (ot, mutaxas) | - grafík 3. (sifat, grafik tasvir) |
| gullár (ot, gulning ko‘pligi) | – gúllar (fe’l, daraxt gullar) |
| hózir (ravish, shu vaqt) | – hozír (hozir-u nozir) |
| ishlár (ot, ishning ko‘pligi) | – íshlar (fe’l, yaxshi ishlar edi) |
| ishchí (ot, -chi so‘z yasovchi) | – ísh-chi (ot, -chi yuklama) |
| klässik (ot, san‘at arbobi) | – klassík (sifat, mukammal, o‘rnak
timsoli bo‘ladigan) |
| krédít (ot, kredit operatsiyasi) | – kredit (ot, qarz) |
| ko‘zlár (ot, ko‘zning ko‘pligi) | – kó‘zlar (fe’l, ishni ko‘zlar) |
| lírik (ot, shoir) | – lirík (sifat, lirik poema) |
| matemátik (ot, mutaxassis) | – matematík (sifat, matematikaga oid) |
| metafízik (ot, mutaxassis) | – metafízik (sifat, metafizikaga oid) |
| mexánik (ot, mutaxassis) | – mexaník (sifat, mexanikaga oid) |

místik (ot, mistikaga moyil kishi)	– místik (sifat, empirizmga asoslangan)
móda (ot, did, kiyinish)	– modá (sifat, makiyon)
moslamá (ot, biror narsaning moslamasi)	– mósłama (fe'l)
olmá (ot, meva)	– ólma (fe'l, qo'lingga olma)
orgánik (ot, mutaxassis)	– organík (sifat, organizmga xos)
otíng (ot, -ing egalik)	– ótинг (fe'l, olmani menga oting)
óptik (ot, mutaxassis)	– optík (sifat, optikaga oid)
órgan (ot, organizmnning qismi, tashkilot)	– orgán (ot, muzika asbobi)
prozáik (ot, proza adibi)	– prozaík (sifat, proza bilan yozilgan)
qatlámá (ot, taom)	– qatláma (fe'l, kitobni qatlama)
qishloqchá (ot, -cha kichraytirish)	– qishlóqcha (ravish, -cha ravish yasovchi)
qo'llár (ot, qo'lning ko'pligi)	– qó'llar (fe'l, xudo qo'llar)
romántik (ot, romantizm tarafdori)	– romantík (sifat, romantizm ruhida yozilgan)
sízsíz (sifat, sízsiz to'y o'tmaydi)	– sízsíz (olmosh+shaxs+son, sevganim sízsiz)
soyá (ot, salqin joy)	– sóya (ot, o'simlik)
surmá (ot, bezak)	– súrma (fe'l)
táktik (ot, mutaxassis)	– taktík (sifat, taktikaga asoslangan)
téxnik (ot, mutaxassis)	– texník (sifat, texnikaga oid)
tortmá (ot, stolning tortmasi)	– tórtma (fe'l, qo'limdan tortma)
tóza (sifat, toza ko'ylik)	– tozá (ravish, toza charchadik)
yangí (sifat, yangi ko'cha)	– yángi (ravish, hozirgina)
yigitchá (ot, kichraytirish)	– yigítcha (ravish, yigitcha gaplashamiz)
o'quvchímíz (-miz – egalik qo'shimchasi)	– o'quvchímiz (-miz – shaxs-son)
changí (ot, -i egalik)	– chángi (fe'l)
chog'lár (ot, o'sha chog'lar)	– chóg'lar (fe'l, ko'nglini choglar)
chorá (ot, eskirgan, katta yog'och idish)	– chóra (ot, tadbir, iloj)

LEKSIK VARIANTLAR

A

Abr va avr (naqsh)
Adab va odob
Ajdarho, ajdahor, ajdaho
Alifbo, alfavit
Arava, aroba
Astag'firulloh, astafirallo
Ayqirmoq, hayqirmoq
Ash-pash, hash-pash

B

Baadab, boadab
Badtar, battar
Bahuzur, bazur
Balo-qazo, baloyi qazo
Baobro', boobro'
Baravar, barobar
Baxabar, boxabar
Bayir, bayri
Beboshvoq, beboshvog'
Bejash, bezash
Bejiz, bechiz
Bekik, berkik
Beklamoq, berklamoq
Bema'ni, bema'no
Benihoya, benihoyat
Birorta, bironta
Bismillo, bismilloh
Bobillamoq, bobirlamoq
Botartib, batartib
Buzruk, buzurg

D

Darcha, daricha
Dastarra, dasarra
Depsamоq,depsimoq
Deyolmoq, deya olmoq
Diram, dirham
Dukchi, yikchi
Dumalamоq, yumalamоq
Dumaloq, yumaloq
Dumaloq — sumaloq,
yumaloq — sumaloq
Dum-dumaloq, yum-yumaloq

E

Emikdosh, emukdosh

F

Faylasuf, filosof

G

Gadoy, gado
Gultoj, gultoji
Guruch, gurunch

H

Hiylagar, hiylakor

I

Iollo - billo, illoh - billoh
Iloyo, iloho

J

Jami(y), jami(y)ki
Jirraki, jizzaki

K

Kabutar, kaptar
Korollik, qirollik
Kunma-kun, kunba-kun

M

Marta, marotaba
Masjid, machit
Maxsum, maxdum
Ma'ni, ma'no
Mo'ylov dor, mo'y lab dor

N

Nabira, nevara
Nogoh, nogah
Noxos, noxost
Noxosdan, noxost dan

O

Obro', obro'y
Obro'talab, obro'y talab
oshna, oshno

P

Podsho, podshoh

Q

Qabarish, qavarish
Qabat, qavat
Qaboq, qovoq
Qadr-qiymat, qadr-qimmat
Qavariq, qabariq
Qaynona, qaynana
Qaynota, qaynata

Qaytadan, qaytatdan

Qaytaga, qaytanga
Qiymat baho, qimmat baho
Qobirg'a, qovurg'a
Quvlar moq, quvalamoq

R

Rah, roh
Ravot, rabot
Rovat, rabot
Ro'baro', ro'para

S

Sabo, saboh
Salovatli, salobatli
Suyukli, sevimli
Suyumsiz, sevimsiz
Suyunish, sevinish
Suchuk, chuchuk
Suchuktil, chuchuktil
So'limoq, so'lmoq
So'lqildoq, so'lqilloq
So'ngak, suyak

T

Taqillamoq, taqirlamoq
Tarozi, tarozu
Teva, tuya
Tiqillamoq, tiqirlamoq
Toychiq, toychoq
Tog'abachcha, tog'avachcha
Tupuk, tupurik
To'lg'azmoq, to'lg'izmoq
To'yana, to'yona

U

Ustoz, ustod

V

Vajh, vaj
 Valangor, valangir
 Vang‘illamoq, vang‘irlamoq
 Vaqillagan, vaqirlagan
 Vulqon, vulkan

X

Xayolat, xayolot
 Xolisanlillo, xolisanlilloh

Y

Yurgan, jugan
 Yuqa, yupqa
 Yuzmoq, suzmoq

O‘

O‘lguday, o‘lgudek
 O‘lgunday, o‘lgundek
 O‘ltirish, o‘tirish

G‘

G‘idillash, g‘idirlash
Sh
 Shabboda, shabada
 Shah, shoh, sho
 Shahanshoh, shahanshoh
 Shipirgi, supurgi
 Shipirish, sidirish
 Shirmoynon, shirmonnon
 Shohi, shoyi
 Shohsupa, shosupa
 Shundoqqina, shundaygina
 Sho‘ng‘imoq, sho‘mg‘imoq

Ch

Chaqildoq, chaqilloq
 Chekichlashmoq,
 chakichlashmoq
 Chorlamoq, charlamoq
 Chu, chuh

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 2003.
2. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati, 2002.
3. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “O‘zbekiston”, 2003.
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Talqin”, 2005.
5. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘rabyeva. Ona tili 5-sinf uchun darslik. T., “Ma’naviyat”, 2004.
6. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili 6-sinf uchun darslik. T., “Tasvir”, 2009.
7. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov. Ona tili 7-sinf uchun darslik. T., “Ma’naviyat”, 2009.
8. N.Mahmudov va b. Ona tili 8-sinf uchun darslik. T., 2006.
9. N.Mahmudov va b. Ona tili 9-sinf uchun darslik. T., 2006.
10. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1995.
11. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. T., 1978.
12. A.G‘ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo‘ng‘urov. O‘zbek tili morfem lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1977.
13. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 2005.
14. R.Ne’matov va b. Ona tili 10-sinf uchun darslik. T., “O‘qituvchi”, 2003.
15. R.Ne’matov va b. Ona tili 11-sinf uchun darslik. T., “O‘qituvchi”, 2004.
16. A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, X.Rustamov. O‘zbek tili stilistikasi. T., “O‘qituvchi”, 1983.

MUNDARIJA

1. Til haqida ma'lumot. Dunyo tillari	3
2. Turkiy tillar tarmog'i va o'zbek tili	5
3. O'zbek tilining taraqqiyoti haqida	7
4. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining mundarijasi.....	14
5. Fonetika. Unlilarning ifodalanishi	15
6. Undoshlarining ifodalanishi	17
7. Nutq tovushlarining uch tomoni	21
8. Tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilari.....	23
9. Tovush va fonema	24
10. Fonetik hodisalar.....	26
11. Bo'g'in va uning turlari.....	28
12. Urg'u va uning nutqdagi ahamiyati	30
13. Altfbo. O'zbek yozuvlari tarixiga qisqacha ekskursiya	31
14. Orfografiya va uning qoidalari.....	35
15. O'zbek tilining yangi imlo qoidalari	36
16. Leksikologiya.....	54
17. Ko'chma ma'nolar va ularning turlari	57
18. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari	60
19. O'zbek leksikografiyasi. (Iug'atshunoslik). Ensiklopedik Iug'atlar	64
20. Filologik Iug'atlar, ularning turlari	65
21. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Barqaror birikmaiar va ularning tasnifi	67
22. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so'zlar. Nomshunoslik.....	70
23. Morfemika.....	75
24. Morfemalarning agglutinativ tabiatি. So'z tarkibida tartib	78
25. Qo'shimchalarda shakldoshlik.....	80
26. Qo'shimchalar ma'nodoshligi. Qo'shimchalarda zid ma'nolilik.....	81
27. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari	82
28. Morfologiya. So'z turkumlari	84
29. Ot va uning uslubiy xususiyatlari	86
30. Otlarning yasalishi	92

31. Kelishik qo'shimchalari va ularning uslubiy xususiyatlari.....	97
32. Sifat va uning uslubiy xususiyatlari. Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari	100
33. Sifat yasovchi qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari.....	101
34. Son va uning uslubiy xususiyatlari	105
35. Son va o'lchov so'zlar	109
36. Olmoshlarning ma'no xususiyatlari.....	112
37. Fe'l va uning uslubiy xususiyatlari	118
38. Nisbat shakllari uslubiyati.....	119
39. Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari.....	124
40. Fe'llarning yasalishi.....	128
41. Fe'lning vazifadosh(xoslangan) shakllari	131
42. Ko'makchi fe'lllar, ularning vazifasi	134
43. Ravishlarning uslubiy xossalari	138
44. Yordamchi so'z turkumlari.....	143
45. Ko'makchilar va qo'shimchilar ma'nodoshligi	145
46. Bog'lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari	148
47. Yuklama haqida ma'lumot	151
48. Undov va taqlid so'zlar, ularning uslubiyati. Modal so'zlar va ularning uslubiyati	153
49. So'zlarning aloqa-munosabat shakllari. Ismlarning munosabat shakllari	157
50. Sintaksis. Gapda so'zlarning bog'lanishi.....	162
51. Tobe bog'lanish. Tobe bog'lanishning tuzilishi	164
52. So'z birikmasi	165
53. Qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalarining qo'llanilishi	167
54. Gap bo'laklari	171
55. Kesim va uning ifodalanishi. Ega va kesimning moslashuvi	173
56. Ot-kesim va ega orasida tirening ishlatilishi.....	175
57. Ikkinch darajali bo'laklar. To'ldiruvchi va uning ifodalanishi	178
58. Hol va uning ifodalanishi.....	180
59. Aniqlovchi va uning turlari	182
60. Gap bo'laklarining kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi	186
61. Gap bo'laklarining tartibi.....	186
62. Uyushiq bo'lakli gaplar.....	188
63. Ajratilgan bo'lakli gaplar	194
64. Undalmali murakkablashgan gaplar	197
65. Kiritmalar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	199

66. Gap va uning grammatik belgilari	202
67. Gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlari.....	207
68. Qo‘shma gap. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar va qo‘shma gap turlari.....	211
69. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar	213
70. Bog‘langan qo‘shma gaplar	214
71. Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar va ularning tasnifi	215
72. Nisbiy so‘zli havola bo‘lakli qo‘shma gaplar	218
73. Murakkab qo‘shma gaplar	222
74. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar uslubiyati.....	223
75. Matn – eng yirik birlik	225
76. Uslubiyat. Adabiy nutq na uning turlari.....	226
77. Insho-ijodiy mehnat	232
78. Punktuatsiya.....	234
79. Tilshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug‘ati	253
80. Qisqacha paronimlar lug‘ati.....	264
81. Izohli lug‘at.....	270
82. Iboraarning izohli lug‘ati	298
83. Tasviriy ifodalar lug‘ati.....	303
84. Ayrim o‘zlashma so‘zlar lug‘ati	304
85. Urg‘usi bilan farqlanuvchi so‘zlar	307
86. Leksik variantlar	309
87. Foydalanilgan adabiyotlar.....	312

UDK: 811.512.133

KBK 81.2^Y36

A.ANORBKOVA, SH.MIRZAYEVA

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

Akademik litseylar uchun ma'ruzalar matni

«NOSHIR» — Toshkent — 2012

Muharrir S. Safayeva

Tex.muharrir D.Mamadaliyeva

Rassom Sh.Odilov

Musahhih S.Safayeva

Sahifalovchi D.Jalilov

Nashriyot litsenziyasi AI № 200, 28.08.2011 y.

Bosishga ruxsat etildi 05.10.2012 y. Bichimi 60x84 1/₁₆,
«Times» garniturasi. Ofset qog'ozi. Ofset usulida chop etildi.

Hajmi 19,75 b.t. Adadi 1000 nusxa.

Buyurtma № 68.

«NOSHIR» nashriyoti, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi
bosmaxonasida chop etildi, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.